ADABIYOT

10

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



Yangi nashr

Toshkent – 2022

UO‘K 821.512.133(075.3)
KBK 83.3(5O‘)ya72
M 54

Tuzuvchilar:

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Ulug‘bek Hamdam – O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti “XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon” bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Zulayho Mamatqulova – Farg‘ona viloyati Toshloq tumanidagi 15-o‘rta maktab oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312 b.

UO‘K 821.512.133(075.3)
KBK 83.3(5O‘)ya72

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8380-7-9

© Respublika ta’lim markazi, 2022

KIRISH.
BADIIY TAHLIL METODLARI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– badiiy tahlil metodlariga xos xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz.

Adabiyot fanining asosiy obyekti badiiy asardir. Chuqur ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunga ega, badiiy estetik jihatdan san’at darajasiga ko‘tarilgan asarlargina o‘quvchi tafakkurini, dunyoqarashini va adabiyot haqidagi fikrlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyi sinf adabiyot darslarida siz bilan birga milliy va jahon so‘z san’atining ayrim sara namunalarini mutolaa va tahlil qildik. Endi esa o‘zbek va dunyo adabiyotining eng qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan tarixiga nazar tashlaymiz, umumiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilamiz va turli davrlarda, turli madaniyat vakillari tomonidan yaratilgan durdona asarlarni o‘rganamiz. Mazkur asarlar mutolaasi jarayonida siz boshqa bir hayotni “yashab o‘tasiz”. Bu esa o‘zingiz uchun yangi dunyolarni kashf qilishga, hayot haqidagi qarashlaringizni boyitishga, ochiq qolgan savollaringizga javob topishga va eng muhimi, o‘zingizni “taftish etish”ga yordam beradi.

O‘ylab ko‘ring:
Siz “o‘zini taftish etish” deganda nimani tushunasiz? Bunda badiiy asar mutolaasi sizga qay jihatdan yordam beradi?

Eslang:
Bir asarga takror murojaat qilganmisiz, uni qayta o‘qiganmisiz? Asarni takror o‘qiganingizda avvalgi va keyingi xulosalaringizda qanday farqlarni kuzatgansiz? Bu farqlarning sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

Asarni tushunishimizda avvalgi bilimlarimiz, dunyoqarashimiz, hayotiy tajribamiz, mutolaa jarayonidagi emotsional holatimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy-g‘oyaviy jihatdan yuksak asarlar yagona mazmun-mohiyatga ega bo‘lmaydi, ular takror mutolaa qilganingizda yangi fikrlar, yangi xulosalar beraveradi. Badiiy matnni turli xil nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning “yozilgan” qismi asosida “yozilmagan” nuqtalarini kashf etishda badiiy tahlil metodlari ham yordam beradi. Shunday metodlardan biri ijtimoiy (sotsiologik) metoddir.

Ijtimoiy tahlil metodi badiiy asarni u yaratilgan davrdagi ijtimoiy hayot, siyosiy, diniy, falsafiy va davr estetik qarashlari bilan uzviy aloqada o‘rganishga asoslanadi. Bu metodda matn o‘z davrining muhitiga “joylashtiriladi” va shu asosda muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr anglashiladi, asarning g‘oyaviy-mafkuraviy jihatlarini, badiiy voqelik va reallik munosabatlarini

tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi. Quyidagi savollar asar haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitishga yordam beradi:

– Matn o‘z davri haqida nimalarni ochib bermoqda?

– Asarning yozilishiga davrning qanday ijtimoiy yoki siyosiy voqealari sabab bo‘lgan?

– Muallif asarni kim uchun va nima maqsadda yozgan bo‘lishi mumkin?

– Muallif o‘quvchining asardan qanday xulosalar chiqarishini xohlaydi, uni nimalarni o‘ylab ko‘rishga da’vat etmoqda?

– Ijodkor badiiy va g‘oyaviy maqsadini ifodalashda qanday so‘z yoki so‘z birikmalaridan, til vositalaridan foydalanmoqda?

Badiiy adabiyot o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqealari mahsulidir. Ma’lum bir davrdagi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, tafakkur darajasi, orzu-o‘ylari, muammolari, ijtimoiy munosabatlar muayyan davrda yaratilgan asarlarda aks etadi.

O‘ylab ko‘ring:
Sizningcha, ijtimoiy tahlil metodi badiiy asarning yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana qanday xususiyatlarini ochish imkonini beradi? Fikrlaringizni o‘qigan asarlaringiz misolida dalillang.

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Ko‘saklar” she’rini ijtimoiy metod orqali tahlil qilamiz.

Diydirab yotarkan yerda ko‘saklar,
Nomard changaliga tushgan ko‘saklar.
Behisob ko‘saklar butun o‘lkada,
Shu qishga o‘xshagan qora o‘lkada.

Cho‘lpon

Tahlil qiling:
Sizningcha, she’r nima haqida? She’rni o‘qib, qanday manzarani tasavvur qildingiz? Shoir “yerda diydirab yotgan ko‘saklar” orqali qanday g‘oyani ilgari surmoqda?

XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadid (yangi) adabiyotini ijtimoiy tahlillarsiz anglash mumkin emas. Chunki bu davr adabiyoti mustamlakachilikka qarshi kurash tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan siyosiy-ijtimoiy g‘oyalar asosiga qurilgan.

Cho‘lponning yuqoridagi to‘rtligida, bir qarashda, tabiat lirikasiga xos badiiy tasvirni kuzatamiz. Holbuki, xalqning rizq-ro‘zi, dehqonlarning mashaqqatli mehnati samarasi bo‘lgan behisob ko‘saklarning yer bilan bitta bo‘lib yotishini ko‘rgan paxtakor qishni “nomard” deyishini ham tabiiy holat deb qabul qilamiz. Lekin Cho‘lpon yashagan davr voqealari – Turkistonning bolsheviklar tomonidan mustamlaka qilinishi,

xalqning ikki tomonlama (mahalliy amaldorlar va mustamlakachilar) zulmidan ezilishi, milliy ozodlik harakatlaridan xabardor o‘quvchi matnning tagma’nolarini taftish etish orqali undagi ijtimoiy mazmunni anglashga harakat qiladi. Ya’ni yerdagi ko‘saklarning diydirab yotishi shunchaki jo‘n holat emasligiga, Cho‘lpon “qora qish”ni “qora o‘lka”ga o‘xshatish orqali so‘zlarga ramziy ma’no yuklaganiga e’tibor qaratadi. She’r davr voqealari kontekstida (ijtimoiy metodda) tahlil qilinganda ko‘saklarning bemavrid xazon bo‘lishi o‘lkaning qora kunlar girdobida qolishiga mushtarakligiga oid ijtimoiy-g‘oyaviy haqiqatlar oydinlashadi. Chindan ham, yuqoridagi an’anaviy she’riyatda kam uchraydigan, o‘ziga xos tasvir vositasi orqali shoir she’rning ta’sirchanligini, ifoda qudratini kuchaytirishga muvaffaq bo‘lgan.

* * *

XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida yashab ijod qilgan ingliz adibi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romanidan parchani o‘qing. Unda bosh qahramon dengizchi Lemyuel Gulliver tushib qolgan mitti odamchalar (liliputlar) o‘lkasidagi Liliputiya va Blefusku davlatlari o‘rtasidagi urush sabablari bayon qilingan.

Mazkur parchani ijtimoiy metod yordamida tahlil qiling. Tuxumni uchidan yoki poynagidan sindirish mojarosi orqali muallif o‘z davriga xos qanday muammolarni ko‘targan deb o‘ylaysiz?

Mana, o‘ttiz olti qamar yildan beri bu buyuk davlatlar o‘zaro qattiq urush olib boradi. Bunga quyidagi voqea sabab bo‘lgan. Hammaga ma’lumki, qadim zamonlardan beri pishgan tuxumlarni poynak tomonidan sindirish rasm bo‘lib qolgan. Nima bo‘ladi-yu, hozirgi imperatorimizning bobosi hali go‘dak paytida uning nonushtasiga pishgan tuxum berishadi. Bola tuxumni qadimiy odatga ko‘ra sindirayotib, barmog‘ini kesib oladi. O‘shanda uning otasi – imperator o‘z fuqarolariga, aks holda qattiq jazo berajagini eslatib, tuxumni uch tomonidan sindirish haqida farmon beradi.

Bu farmon aholining shunaqayam g‘azabini qo‘zg‘atganki, yilnomalarda yozilishicha, yetti marta qo‘zg‘olon ko‘tarilgan, natijada bir imperator o‘lgan, boshqasi tojidan mahrum bo‘lgan. Blefusku hukmdorlari bu qo‘zg‘olonlarni avj oldirishgan, qo‘zg‘olon qatnashchilarini o‘z mamlakatlarida yashirishgan. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortgani uchun o‘n bir ming fanatik o‘lim jazosiga hukm qilingan. Mana shu masalaga bag‘ishlab, yuzlarcha tom kitoblar yozilgan. Biroq poynakchilar tarafdorlarining kitoblari allaqachonlar man etilgan, partiya esa davlat lavozimlarini egallashdan mahrum etilgan.

... Surgun qilingan poynakchilar Blefusku imperiyasida ishonchli boshpana topishdi. Bora-bora ular imperatorga shunday ta’sir o‘tkazishdiki, u bizning davlatimizga urush e’lon qilishgacha borib yetdi. Urush o‘ttiz olti qamar yildan beri davom etmoqda, ammo dushman tomonlardan birontasi ham uzil-kesil g‘alaba bilan maqtana olmaydi. Shu muddat ichida biz qirqta katta harbiy kema va o‘ttiz ming eng yaxshi dengizchilari bilan juda

ko‘p mayda kemalarni yo‘qotdik. Aytishlaricha, dushman bizdan ham ko‘ra ko‘proq talafot ko‘rgan. Biroq, shunga qaramay, dushman yangi flotni shayladi, bizning hududimizga desant tashlashga hozirlik ko‘rmoqda.

Jonatan Svift,
“Gulliverning sayohatlari” romanidan
(Sotiboldi Yo‘ldoshev tarjimasi)

* * *

Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati, uning hayotidagi muhim nuqtalar ma’lum darajada akslanadi. Badiiy matn tahlilida qo‘llanadigan **biografik metod**da asar aynan ijodkor hayot yo‘li, shaxsi, uning biografiyasi bilan bog‘lab tahlil qilinadi. Bu matnga yuklangan mazmunni oydinlashtirishda, asarning yaratilish tarixi bilan bog‘liq faktlarni aniqlashda va asardagi ijodkor hayotiga daxldor muhim detallarni tushunishda yaxshi samara beradi. Misol uchun, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asaridagi bosh qahramonning atirgul bilan munosabatlarida adibning rafiqasi Konsuelo bilan murakkab munosabatlari aks etgan.

Ayrim holatlarda badiiy asarga turli xil tahlil metodlari vositasida yondashish asarning turli talqinlarini yuzaga keltiradi. Masalan, Cho‘lponning 1922-yilda yozilgan “Aldanish” she’ri ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilinib, turli xil va ayni paytda rang-barang xulosalarni keltirib chiqargan.

Besh yillik yonishim bir yil uchunmi?
Erkalab o‘tkuvchi bir yel uchunmi?
Ko‘zimga ko‘ringan sarobmi edi?
Men shunga aldanib tog‘larmi oshdim?
Sevgimning boqchasi xarobmi edi?
Shu boqcha ichida yo‘lmi adashdim?
Nega men sevmadim? O‘t emasmidi?
Shul o‘t ichidagi men emasmidim?
Ka’bamga osilgan but emasmidi?
Butni “Tangri” degan men emasmidim?
Oh, endi bildimki, barchasi xayol,
Barchasi bir totli, rohat tush ekan.
Ket, yo‘qol ko‘zimdan, haqiqat, yo‘qol,
Bag‘rimga botmoqda og‘uli tikan...

Bir guruh olimlar mazkur she’rni ijtimoiy tahlil metodi asosida – shoir yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qiladi. Ularning fikricha, Cho‘lpon 1917-yildagi inqilobdan millat kelajagi uchun ijobiy natijalar kutgan, lekin besh yil ichida orzulari sarobga, ***“xayol”***ga, ***“bir totli tush”***ga aylanganini bilgach, ushbu “Aldanish” she’rini yozgan. Ya’ni ular she’rning yozilish tarixini ijodkorning

milliy istiqlolga erishish orzusi va bu orzuning puchga aylangani bilan bog‘laydilar.

Ikkinchi guruh adabiyotshunos olimlar esa “Aldanish” she’rini biografik metod asosida o‘rganib, unda sevgi-muhabbat mavzusi yetakchilik qilishini, mazkur she’r shoirning ilk muhabbati Obida ismli qizga atab yozilganini ta’kidlaydilar.

O‘ylab ko‘ring:

Sizningcha, qaysi badiiy tahlil metodi she’r mohiyatiga chuqurroq kirish imkonini bergan? Nima uchun? Siz she’rni qanday tahlil qilgan bo‘lardingiz? She’rda mutaxassislar e’tiboridan chetda qolgan yana qanday g‘oyalar bor deb o‘ylaysiz?

* * *

Quyidagi g‘azalni tahlil qiling. Badiiy tahlil va Bobur biografiyasiga oid bilimlaringiz g‘azalning qanday talqinlarini yaratish imkonini beradi?

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga.

Netgayman ul rafiq bilakim, qilur base,
Mehr-u vafo raqibg‘a, javr-u jafo manga.

Begona bo‘lsa aql meni telbadin, ne tong,
Chun bo‘ldi ul parisifatim oshno manga.

Oh-u yoshimdin ortadurur za’f, ey tabib,
Bildim, yarashmas emdi bu ob-u havo manga.

Dardim ko‘rub, muolajada zoye’ etma umr
Kim, jonda dardi ishqdurur bedavo manga.

To yor kimni istar-u, ko‘ngliga kim yoqar,
Tashvish bejihatdurur oxir sango, manga.

Bobur, bo‘lubturur ikki ko‘zum yo‘lida to‘rt,
Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango manga.

evurish – o‘girish, burish

rafiq – do‘st, sirdosh

za’f – xastalik, holsizlik

* * *

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni turli xil yondashuvlar, tahlil metodlari orqali o‘rganish uning turfa talqinlarini yaratishda va badiiy asarni chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.



XALQ OG‘ZAKI IJODI VA QADIMGI DUNYO ADABIYOTI

– Xalq og‘zaki ijodi:
“Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumi

– Qadimgi dunyo adabiyoti (eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha)

– Homer (miloddan avvalgi VIII asr).
“Iliada” dostoni

– Antik adabiyot va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi: “Odisseya” va “Alpomish”





miloddan avvalgi
III mingyillik

Qadimgi Mesopotamiyada Gilgamesh haqidagi eposning shakllana boshlashi



miloddan avvalgi
II mingyillik

Qadimgi Misr adabiyotining dastlabki namunalaridan biri – “Marhumlar kitobi”



miloddan avvalgi
VIII–VII asrlar

“Iliada” va “Odisseya” – qadimgi yunon eposlari



miloddan avvalgi
V asr

Afinaning oltin davri. Qadimgi Yunonistonning buyuk dramaturglari Esxil, Sofokl va Yevripid ijodi



miloddan avvalgi
V asr

Herodot asarlarida To‘maris haqidagi afsonaning qayd etilishi



miloddan avvalgi
II mingyillik

Qadimgi hind adabiyotining dastlabki namunalaridan biri – “Vedalar kitobi”



miloddan avvalgi
I mingyillik

Zardushtiylikning muqaddas kitobi – “Avesto”



miloddan avvalgi
XI–V asrlar

Qadimgi Xitoy adabiyotining dastlabki namunalaridan biri – “Qo‘shiqlar kitobi”



miloddan avvalgi
IV–I asrlar

“Ramayana” va “Mahabharata” – qadimgi hind eposlari



miloddan avvalgi I asr –
milodiy I asr

Rim adabiyotining oltin davri. Vergiliy, Horatsiy va Ovidiy ijodi


XALQ OG‘ZAKI IJODI: “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARI TURKUMI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni misolida xalq dostonlariga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– doston variantlarini solishtiramiz.

Eslang:
Xalq og‘zaki ijodi deb nimaga aytiladi? Xalq og‘zaki ijodiga qaysi janrlar kiradi?

O‘zbek xalq dostonlari

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonlar alohida ahamiyatga ega. Ularda qahramonlarning hayoti, boshidan kechirgan voqealari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalari bayon qilinib, baxshilar (ular “shoirlar” deb ham atalgan) tomonidan musiqa jo‘rligida ijro etilgan. Dostonlarda voqealar bayoni odatda nasrda ifoda etiladi, obrazlar o‘rtasidagi dialoglar, ularning ruhiy holatiga ijrochining munosabati esa she’riy yo‘l bilan tasvirlangan.



O‘zbek xalq baxshilariga o‘rnatilgan haykal. Samarqand shahri

O‘ylab ko‘ring:
Xalq dostonlarining millat tarixi, uning turmush tarzi va tafakkuriga xos xususiyatlarni o‘rganishdagi ahamiyati nimada?

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari Yaqin va O‘rta Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyoning turkiy va boshqa (arman, gruzin, kurd, fors) xalqlari orasida keng tarqalgan. Mazkur turkumni ikki katta guruhga bo‘lish mumkin:

1) Kavkaz, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida tarqalgan g‘arbiy guruh;
2) Markaziy Osiyo xalqlari orasida tarqalgan sharqiy guruh.

“Go‘ro‘g‘li”ning g‘arbiy turkumida bosh qahramon Ko‘ro‘g‘li deb ataladi va xalq ichidan chiqqan qasoskor sifatida gavdalanadi. Ko‘ro‘g‘li otasining ko‘zlari hukmdor tomonidan arzimagan sabab bilan o‘yib olingani uchun qasos olishga ont ichadi. Ko‘ro‘g‘li mardlikda nom chiqargan yigitlarni atrofiga to‘plab, ular bilan tog‘ga chiqib ketadi va Chanlibelda qarorgoh quradi. Keyinchalik u otasi uchun o‘ch olmoqchi bo‘lgan oddiy qasoskordan zolim hukmdorlarga

qarshi kurashgan isyonkor, adolat o‘rnatuvchi qahramonga aylanadi.

Ayrim manbalarga ko‘ra, g‘arbiy turkum dostonlari tarixiy shaxslar va tarixiy voqealarga ma’lum darajada asoslanadi. Tarixchilarning ta’kidlashicha, XVII asr boshlarida Usmoniylar imperiyasidagi og‘ir ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat tufayli ko‘tarilgan Jaloliylar qo‘zg‘oloni yetakchilari orasidagi Ko‘ro‘g‘li taxallusli shoir yaratgan she’rlar qo‘zg‘olonchilar ichida mashhur bo‘lgan. Boshqa bir manbalarda esa Ko‘ro‘g‘li XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Eron hukmdori bo‘lgan Abbos I ning zamondoshi sifatida tasvirlanadi.



Ozarbayjon poytaxti Boku shahridagi Ko‘ro‘g‘li haykali

O‘ylab ko‘ring:
Boshqa xalqlar adabiyotida Ko‘ro‘g‘li obraziga yaqin qanday qahramonlarni eslay olasiz?

“Go‘ro‘g‘li”ning sharqiy turkumi bosh qahramoni Go‘ro‘g‘li (“go‘rda tug‘ilgan”) vatanparvar, o‘z xalqi uchun qayg‘uruvchi qahramon va ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalagan murabbiy sifatida tasvirlanadi. Go‘ro‘g‘lining onasi qornida homilasi bilan vafot etadi. Go‘rda o‘lik onadan farzand tug‘iladi. Go‘ro‘g‘li keyinchalik Chambil yurtini bunyod etadi, elga xon qilib ko‘tariladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi bir qancha dostonlardan iborat bo‘lib, ularda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishidan Sulduzi tog‘ida g‘oyib bo‘lishigacha bo‘lgan voqealar, avlodlari (asrandi o‘g‘illari, nevaralari, evarasi) va qirq bahodir yigitining qahramonona sarguzashtlari tasvirlanadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining o‘zbekcha variantlari ham ikki guruhga bo‘linadi:

1. Xorazm varianti;
2. O‘zbekistonning boshqa hududlarida tarqalgan variantlar.

Dostonning Xorazm varianti tili, badiiy xususiyatlari va syujeti boshqa hududlarda tarqalgan nusxalardan birmuncha farq qiladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dastlabki dostonlar XI–XII asrlardan XVII asrgacha bo‘lgan davrda shakllangan va bu davrlardagi xalq turmush tarzi, an’analar va tarixiy jarayonlar dostonga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ularda qadimdan Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning badiiy tafakkuriga xos motivlar va obrazlarni ham kuzatish mumkin.



Go‘ro‘g‘li 1989-yilgi marka va Turkmaniston milliy valyutasida

Qiyoslang:
“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining g‘arbiy va sharqiy turkumlari orasida qanday asosiy farqlarni kuzatdingiz?



“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDAN

(Dostonning Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan aytgan variantidan qisqartirib olindi)

sinchi – otlarning zoti, nasli, fe’l-atvorini yaxshi biladigan odam

tamiz – fahm, farosat

tabla – otlar turadigan og‘ilxona

Burungi zamonda Yovmit degan el, Taka turkman degan yurt, Mari degan yana bir qo‘rg‘on bor edi. Yovmit yurtining Odilxon degan podshosi bor edi. Odilxon podshoning ikki o‘g‘li bo‘lib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti Ahmadbek edi. Bibi Oysha degan bir qizi ham bor edi. Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovishtixonning To‘liboy sinchi degan bir o‘g‘li bor edi. Ko‘p esli, aqlli, tamizli, farosatli odam edi. Marining begi Qovishtixon Yovmit elining xoni Odilxon podshoning bozorchi savdogarlarini yo‘lda talab oldi. Shunda molini oldirgan odamlar dod deb Odilxon podshoga arzga keldi. Odilxon podsho buni eshitib, achchig‘i kelib, birdan sarboz askar chiqarib, to‘p-to‘pxonasi bilan Mari yurtini tep-tekis qilib yubordi. Qovishtixon bekni to‘pga solib otib yubordi. Haligi bozorchi savdogarlarning mollarini olib berdi. Qovishtixonning yetti yoshli o‘g‘li – To‘liboy sinchini bandi qilib olib keldi. Lekin otasining qilgan ishidan buni gunohsiz bilib, o‘z oldiga xizmatkor qildi. To‘liboy sinchi xizmat qilib yuraverdi. O‘n to‘rt yashar bo‘ldi. O‘n to‘rtga kirguncha o‘qib, xat-savodi chiqdi. Lekin o‘zi ajab bir odobli, chiroyli, yaxshi yigit bo‘ldi. Otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo‘ldi. “Bul otingiz yaxshi, bul otingiz yomon”, – deb podshoning tablada turgan otlarini saralab, ajratib beradigan bo‘ldi. Bir kunlari To‘liboy sinchining xizmati yoqqanidan: “Bu ham o‘zimning suyagim-da”, – deb Odilxon podsho Bibi Oysha qizini unga nikohlab berdi. Bibi Oyshaning bo‘yida bo‘lib, oy-kuni to‘lib, o‘g‘il tug‘di, otini Ravshanbek qo‘ydi. Shunda Ravshanbek besh yashar bo‘ldi, uni maktabga berdi. Ravshanbek o‘zi tengi bolalar bilan maktabda o‘qib yuraberdi. Sakkiz yashar bo‘lganda xat-savodi chiqdi.

Taka turkman degan yana bir yurt bor edi. Bu yurtda Jig‘alixon degan bek bor edi. Jig‘alixonning Gajdumbek degan o‘g‘li, Bibi Hilol degan qizi bor edi.

Ana endi gapni Zargar degan shahardan eshiting.

Zargar shahrining Shohdorxon degan podshosi Yovmit yurtining podshosi Odilxonni yo‘q qilmoqchi bo‘lib lashkar jo‘natdi. Lashkar uch oy yo‘l yurib, uch oy deganda Taka-Yovmit Urganch yurtining Asqar degan tog‘iga yetib qo‘ndi. Shu kuni Ravshanbek boshliq bolalar Asqar tog‘ni tomosha qilgani chiqqan edi. Shohdorxonning askarlari bularni bandi qilib haydab, Shohdorxon podshoga to‘g‘ri qildi. Shohdorxon qarasa, hammasi yosh bola ekan, ularni o‘ldirmoqqa ko‘zi qiymadi. Bolalarning kelmaganidan Taka-Yovmit eli qo‘rqishib, axtarib, har tarafga qarab, bular ham shu tog‘ga, qo‘shinning ustiga kelib qoldi. Bularning kelganini bilib, Shohdorxonning qo‘shini quvib, yarmini bandi qilib oldi, yarmi qochdi. Qochganlar qochib, Odilxon podshoning oldiga bordi. Odilxon podsho kelganlarning arzini eshitib, bu ham cherik lashkar yig‘di.

Odilxon podsho ham, Shohdorxon podsho ham urush nog‘orasini chaldirib, lashkarlarini chog‘lab, otga mindirib, urushmoqqa chog‘ bo‘ldi, ko‘ngillari to‘q bo‘ldi. Ikki taraf podsholarining urush uchun qilgan shon-u shuhratlariga yer tebrandi. Surnay-karnay, sibizg‘a tortganiga barcha polvonlar simobday erib, yo‘lbarsday g‘arqirab, g‘ayrati jo‘sh urib, bir-birlariga qarshi turdi. Birdan bir-birlariga ot qo‘yishib, tala-to‘p bo‘lishib, bir-birlari bilan aralashib qoldi. Ajal yomg‘iri yog‘di. Nayzabozlik, qilichbozlik, bir-birovining jazosini bermoq sarbozlarga bo‘ldi ermak. Hech kim ko‘rmagan, hech bir quloq eshitmagan katta urush bo‘ldi, o‘liklar to‘ldi, o‘liklarning ostidan sizot-sizot qon ketdi. Shu kun to‘qqiz soat urush bo‘ldi. Undan keyin urushni yotqizmoqqa nog‘ora chalindi. Urush yotib, har qaysi taraf lashkarlari o‘z taraflariga qarab qaytdi. Shunda Odilxon podsho Shohdorxon podshodan g‘olib keldi.

cherik – qo‘shin
sibizg‘a – nayning bir turi

Doston nima uchun urush voqealari bilan boshlangan deb o‘ylaysiz?

?

Odilxon podsho: “Asqar tog‘ida qo‘lga tushgan bolalarni qo‘yib yuborsin”, – dedi. Shohdorxon podsho hammasini qo‘yib yubordi. Lekin Shohdorxonning Hamza degan bir odami undan yashirib, Ravshanni bir sandiqqa solib oldi, uni o‘g‘il qilib olmoqchi bo‘ldi. Tashqaridan Odilxonning beklaridan Jig‘alixonning o‘g‘li Gajdumbek bilan qizi Bibi Hilol ham bularning ichiga qo‘shilib o‘lja bo‘lib ketdilar. Shunda urush tamom bo‘ldi. Har ikki taraf podsholar o‘z taraflariga qaytdilar. Odilxon: “Ravshanxon o‘lgan ekan-da”, – deb undan umidini uzdi, afsuslar qildi.

Shohdorxon uch oy yo‘l yurib, o‘z yurti Zargarga yetdi, taxtiga mindi. Erta bilan tong otdi, Shohdorxonning xos xizmatkori kelib arz qildi. “Ey podshohim, Odilxon odamlaridan bir ayol, bir erkak bandi bo‘lib kelibdi”, – dedi. Bular Gajdumbek bilan Bibi Hilol edi. Shohdorxon Gajdumbekka mansab berdi. Gajdumbek kamsiz bo‘ldi, davlati juda katta, o‘ziga bir yaxshi joy solmoqchi bo‘lib, shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi. Imorat bitdi, oradan yetti yil o‘tib ketdi. Gajdumbekning singlisi Bibi Hilol bo‘yi yetib qoldi.

bandi – asir
oshyon – qavat

mushk – hayvon yoki o‘simliklarning o‘tkir hidli moddasi

Bu orada Hamza Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman deb, har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, har o‘rganda mushkning suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo‘ldiki, ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz, suluv-xushro‘y. Hamzabek Ravshanxonni har kuni tomoshaga olib chiqdi, bayramlarni ko‘rsatdi. Shuytib Ravshanbek har kuni o‘zi tomoshaga chiqmoqni o‘rganib qoldi.

Kunlardan bir kuni ko‘chalarda tomosha qilib yurib, bu yurtda yurganiga xafa bo‘lib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zidan yoshi oqib kelayotib edi, yo‘li Gajdumbekning ko‘chasiga tushib qoldi. Shu vaqtda Hiloloy sakkiz oshyonlik imoratning yuqorisidan ko‘chaga qarab o‘ltirar edi. Ko‘zi Ravshanga tushdi. Farosat bilan bildi, bu yigit bu shahardan emas, musulmonga o‘xshaydi. Shunda Hiloloy Ravshanbekka qarab, to‘xta, deb bir so‘z dedi:

Suluv qizlar burab qo‘yar sochini,
Mard yigit g‘animdan olar o‘chini.
Bag‘ring kuygandayin bo‘zlab yig‘laysan,
Menga aytgin yig‘laganing vajini!
Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha,
Toqatim yo‘q shu kun gul ochilguncha.
Sen yig‘lading, menda toqat qolmadi,
Ot boshini picha to‘xtat, bekbachcha!

Shunda Ravshanbek qanday ekanini bilmay, u yoq-bu yoqqa qarab, asta-asta Hiloloyga bir so‘z dedi:

Quloq solgin, so‘zning yolg‘on-rostiga,
Quloq solgin, so‘zimning payvastiga!
Bu shaharda menda oshna yo‘q g‘ayridin,
Ko‘p dard qo‘shding yana dardning ustiga...
Ajal yetib shu vaqtlarda o‘lmadim,
Yovmit elning qadrini hech bilmadim,
Kim ham bo‘lsang bir ko‘rayin, qaddingdan,
Do‘stmi-dushmanmisan – seni bilmadim!

maloyika – “malak” (farishta, go‘zal) so‘zining ko‘plik shakli

zulf – soch, kokil

Shunda Bibi Hilol Ravshanbekning turkman ekanini bilib, derazani ochib, tashqari ayvonga chiqdi. Ravshanbek tiklab qarasa, hur tal’atli, maloyika kelbatli, shirin so‘zli, jodu ko‘zli, zulfi tol-tol bo‘lib betiga tarmashgan, latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan. Buni ko‘rib Ravshanbekning og‘zi angrayib, burni tangrayib, Bibi Hilolga qarab qoldi.

?

Bibi Hilol portretiga e’tibor bering. Bu portret siz o‘qigan boshqa asarlardagi portretlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Shundan so‘ng Ravshanbek Hamzaning uyiga kelib, dod deb bo‘zlab yig‘lab, ovqat yemay, Hamzaga qarab bir so‘z dedi:

Eshitgin sen, Hamza, mening tilimni,
Yo javob ber, ko‘ray Yovmit elimni!
Yo bozor sol, etaklab ol pulimni,
Arqon bilan boylab olgin qo‘limni,
Ozod qilgin, Yovmit elga ketaman!..

Bu so‘zni Hamza eshitib, oh tortdi. Erta bilan tong otdi. Ravshanbekni qul bozoriga olib bordi... Gajdumbek bozorga borsa, qul bozorida Hamza bir qulni bozorga solib o‘tiribdi. Hamza qulning bahosini ming tanga deb aytdi. Hamzabekning ming tillasini sanab berdi. Gajdumbek qulni olib uyiga qaytdi. Gajdumbek Bibi Hilolni Ravshanbekka nikohlab berdi. Ravshanbek borligi uchun Gajdumbekning uyidan ko‘ngli to‘lib, yor-jo‘ra, oshna-og‘aynisinikiga borib, sayr-tomosha qilib yura berdi. Qayoqqa borsa bora berdi. Xazina-dafinasini Ravshanbekka topshirib, xizmat ishlarini buyurib yura berdi.

Bu orada Gajdumbek bilan Ravshanbek Bibi Hilolni keyin olib ketish o‘yi bilan o‘z yurtlarini ko‘rib kelishga ketishdi. Orqasidan Shohdorxonning bir ming amaldori quvib ketgan edi, hammasi cho‘lda otidan ayrilib, piyoda bo‘lib o‘libdi. Shohdorxon Bibi Hilolni kuydirib, kulini elakdan o‘tkarib yubormoqchi bo‘libdi. Buni eshitgan Bibi Hilol xufton namozini o‘qib, “Meni Shohdorxon o‘ldirar ekan”, deb bo‘yniga kalom rabbonini solib, Xudodan o‘ziga o‘lim tilab: “Meni Shohdorxon odamlarining qo‘lida o‘ldirma, har nima qilsang, o‘zing qil”, – deb Xudoga yolborib, barcha payg‘ambarlar, o‘tgan azizlarni shafe keltirib, yig‘ladi. Ana endi azizlarning ruhi, payg‘ambarlarning duolari mustajob bo‘lib, Bibi Hiloloy Xoliqqa jonini topshirdi.

shafe – homiy
Xoliq – Yaratguvchi

Gajdumbekning xizmatkori Rustambek Bibi Hiloloyni go‘riga qo‘yib, Gajdumbekning hovlisiga keldi. Gajdumbekdan qolgan barcha hovli-haram, mol-pullarga ega bo‘lib qoldi. Rustam: “Endi davlatga ega bo‘ldim, xotin olmasam, sira ham bo‘lmaydi”, – deb Badgir deganning singlisini oldi. Xotinidan bir bola bo‘ldi. Otini Qo‘ng‘irboy qo‘ydi. Shuytib, bularni goh dimog‘ chog‘liklarda, goh xafaliklarda qo‘yib, endi so‘zni go‘rda o‘lib yotgan Bibi Hiloldan eshiting.

Voqealar bayonidagi “So‘zni (gapni) ...dan eshiting” singari jumlalar qanday maqsadga xizmat qilmoqda?

?

Bibi Hilolning o‘lganidan uch oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqa o‘tdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o‘lgan bo‘lsa ham, bolasi o‘lmagan ekan. Xudoning rahmati bilan asrovda edi. Shunda vaqti tug‘moqchi bo‘ldi. Momo Havo, Anbar ena, Fotma buvi keldi. Bibi Hilolning o‘ligi go‘rda tebrandi, o‘lik badanini to‘lg‘oq tutdi. Shu to‘lg‘oq tutganiga, Bibi Hilol ahvoliga shoirlarning ta’riflab aytgan so‘zi:

gumona – homila

Mavj urib misli bir daryoday toshdi,
Hay attang-a, dardlar dardga ulashdi.
Chaqaloq qimirlab ena qornida,
Hiloloyning farzandi shu go‘rga tushdi.

bacha – bola
ul – o‘g‘il
abdal – avliyo
qirq chiltan – afsonaviy kuchga ega qirq ruh

Har ish, yoronlar, boshdan bo‘ladi,
Bachaning yuzining oydinlig‘iga
Barq urib go‘r yop-yorug‘ bo‘ladi.

Hilol bibi bir nozanin ul tug‘di. Shunda turib yig‘ilgan azizlar bolaning otini Go‘ro‘g‘li qo‘ydi. Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr ham farzandim dedi. Har nima bo‘lsa, shu kuni Go‘ro‘g‘liga yaxshilik bilan tamom bo‘ldi. Lekin Hiloloyga jon kirmadi, ammo bolaga sut kelib yotdi. Shu orada o‘rtadan uch yil o‘tdi. Uch yil o‘tib tursin, endi Rustambekdan eshiting.

?

Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi tasviriga e’tibor bering. Sizningcha, bu tasvirda xalqning qanday orzu-umidlari namoyon bo‘ladi?

Rustambek uylandi, xotini homilador bo‘lib, oy-kuni to‘lib, o‘g‘il tug‘di. Otini Qo‘ng‘irboy qo‘ydi. Qo‘ng‘irboy ikki yoshga kirdi. Bu ikkiga kirib turaversin, Go‘ro‘g‘lidan eshiting.

Go‘ro‘g‘li tug‘ilgandan beri go‘rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o‘chib qoldi. Yana uch kun o‘tdi. Hiloloyga sut kelmay, badani ko‘mirday cho‘ykab ketdi. Ana shunda Go‘ro‘g‘li och qoldi, lekin shu vaqtgacha azizlar ham xabar olib yurgan edi. Ana endi Bibi Hilolning arvohining dod deb yig‘lagan dovushini hazrati Xizr bilib, eshitib, go‘r ustiga keldi. Asta go‘rning tuprog‘ini pichigina teshdi. Shu teshikdan go‘rning ichiga kunning shu’lasi tushdi. Go‘ro‘g‘li kunning tushganini ko‘rib, qo‘li bilan ushlab olaman deb kunga qo‘l urdi, ushlay olmadi, ushlayman deb qo‘li go‘rning tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab teshikni katta qilib, go‘rdan tashqari chiqib, hayron bo‘lib qoldi. “Bu nima degan sir bo‘lur?” – dedi. Och qoldim deb go‘rga suyanib, yotib qoldi. Buni ochlikdan yig‘lab yotmoqqa qo‘yib, endi gapni Rustambekning baytalidan eshiting.

baytal – urg‘ochi ot
qo‘riq – halqa qilingan arqon

Bir baytalning bolasi o‘lib, bolasining o‘lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Hazrati Xizr bobo alayhissalom haligi baytalning bo‘yniga qo‘riq solib, Go‘ro‘g‘lining oldiga olib keldi. Baytalning ko‘zi Go‘ro‘g‘liga tushib, mehri ko‘kragiga joy olib, unga suykanib emiza berdi. Ana endi Go‘ro‘g‘li shu baytalni emib, qorni to‘yib-to‘ymasday bo‘lib yura berdi. Baytal har kuni Go‘ro‘g‘lini uch vaqt emizib keta berdi. Buning bilan Go‘ro‘g‘lining kuni o‘ta berdi. Go‘ro‘g‘li uch yasharida go‘rlarning ustida o‘ynab, u yoqdan chiqa, bu yoqdan chiqa, “Os!”, “Bos!” deb go‘rlarni tayoq bilan sanchib, o‘ynab yura berdi.

yilqichi – otboqar

Rustambekning yilqichilari baytalning har kuni go‘rga qarab ketganidan xabardor bo‘lib yurar edilar. Bir kuni yilqibonlar: “Shu baytal har kuni mozorga qarab ketadi. Buni poylamoq kerak. Mozorga borib nima qiladi?” – dedilar. Shuytib o‘ttiz chog‘li yilqichi baytalning orqasidan poylab go‘ristonga keldilar. Haligilar go‘rning oldiga borib qarasa, bir bola baytalni emib turibdi. Bir-biriga: “Ko‘rdingmi? Arvoh ham yalang‘och yosh bolaga o‘xshar ekan, arvoh ko‘rgan kasal bo‘ladi”, – deb, hammasi birdan bizlar arvoh ko‘rdik, endi o‘lamiz, deb qo‘rqib, kasal bo‘lib qoldilar. Bularni bu turishda qo‘yib, endi Rustambekdan eshiting.

Rustambek har kuni yilqichilariga non olib kelib berar edi. Bugun ham yilqichilarga non olib keldi. Kelsa, yilqichilaridan bir nechasi yo‘q. Qolganidan: “Yilqichilar qani?” – deb so‘radi. Ular aytdi: “Ulkan bir biya har kuni mozorga qarab ketar edi. Shu biyadan xabar olamiz deb, mozoristonga borib edi. Go‘ristonga borib, baytalni bir arvoh emganini ko‘ribdi. Shuytib, ularni arvoh uribdi. Mana, shu turgan yilqichi qo‘rqib, qochib keldi. Bu ham qo‘rqib, yuragi yorilguday bo‘lib yotibdi”, – dedi. Buni eshitib, Rustambekning yuragi “jiz” etdi. Rustam borib haligi yuragi yorilib ketganday bo‘lib yotgan yilqichilarni gapga soldi: “Nima ko‘rdinglar?” – dedi. Yilqichilar: “Bizlar yap-yalang‘och bir arvohni ko‘rdik. O‘zi yosh bachchaga o‘xshaydi”, – dedi.

“Es berganga dast berar, Dast berganga es berar” deganday, Rustambek mozoristonda bir go‘rning oldiga borib aytdi: “Bibi Hilol singlimning qornida bolasi bor edi. Shu tug‘ib, bola shundan bo‘lganmikin? Shu go‘r singlim Bibi Hilolning go‘ri, o‘zim mana bu toshni qo‘yib edim. Shundan Bibi Hilolning go‘rini topdim”, – dedi. Oqshom bo‘ldi. Rustambek sahar vaqtida kelib, go‘rni poylab yotdi. Qarasa, Bibi Hilolning go‘ri yop-yorug‘ bo‘lib ketdi. Shunda bir bola Bibi Hilolning go‘ridan chiqdi, juda suluv, quvi o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshaydi. Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi. Sher nimta-nimta bo‘lib, tirqirab ketdi. Rustambek qo‘rqib arosat qilib: “Shunday sherni bir tarsaki urib o‘ldirib, maydalab yubordi, mening nima jonim bor”, – dedi. Uyiga qaytib keldi, kelib o‘ylab aytdi: “Kel-e, bu shaharda musofir bo‘lib o‘lgandan, o‘z jiyanimning qo‘lida o‘lganim yaxshi”. Rustambek kelar oqshomi uch oshiq, bir qizil egar, yana bir-ikkita qo‘g‘irchoq, bir-ikki ro‘mol, uchta bolalar o‘ynaydigan soqqa oldi. “Sinab bilayin, shu bola o‘g‘ilmikin, qizmikin”, – deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo‘ydi. Ikki qo‘g‘irchoq bilan ro‘molni go‘rning bir yog‘iga qo‘ydi. Poylab yotdi.

Rustambek olgan narsalar bolaning jinsini aniqlashga qanday yordam beradi deb o‘ylaysiz?

?

Go‘ro‘g‘li go‘rdan chiqib, ro‘mollarga ko‘zi tushib, ro‘mollarni, qo‘g‘irchoqlarni yirtdi. Ro‘moldan har xil-har xil bayroqlar qildi. Go‘rning bu yog‘iga o‘tdi, uch oshiqqa ko‘zi tushdi, qo‘liga olib: “Shu mozordagi o‘liklarning barini keldim, gardkam”, – deb oshiqni yerga tashladi. Egarni minib: “Chuv-ha, chuv-ha, ot qo‘y, qaytma, boxabar bo‘linglar”, – deb egarni asta-asta qimirlatib, go‘rdan ancha yerga uzoqlab ketdi. Shunda Rustambek joyidan turib, tez chopdi. Go‘ro‘g‘li ham buni ko‘rib, go‘riga qarab chopdi. Rustambek Go‘ro‘g‘lining go‘rga kiradigan yeriga yetib borib, yota ketdi. Go‘ro‘g‘libek go‘rga kirolmay, bir chinqirdi. Rustambekning yuragi yorilib, o‘lib qolay dedi. Shunda Rustam bachchaga qarab bir so‘z dedi:

Buralib bo‘yningga qo‘lim solaman,
Harna bo‘lsam sening bilan bo‘laman.

Yig‘lama, chirog‘im, ko‘nglim buzildi,
Rostin aytsam, sening tog‘ang bo‘laman.
Yuragimda dard ko‘p, dardginam ancha,
Toqatim yo‘q bog‘da gul ochilgancha,
Husningga qarayman, o‘zing bekbachcha,
Bo‘zlama, chirog‘im, yurgin uyima!
Haq hurmati, enang mening singlimdir!

Go‘ro‘g‘libek endi go‘riga kirdi, ko‘zidan yoshini to‘kib, zor-zor yig‘lab, Bibi Hilol enasiga qarab, bir so‘z dedi:

Analman, Mansurga qurgan dormidi?*
Tirik ayrilgan bir ko‘rgali zormidi?
Yur, chirog‘im, deydi, meni qo‘ymaydi,
Senda aka, menda tog‘a bormidi?
Gap chiqadi menday erning tilidan,
Qutulmadik bu dunyoning xilidan,
Bitta odam tog‘angman, deb so‘zlaydi,
O‘zi yolg‘iz kepti Zargar elidan.
Senda aka, menda tog‘a bormidi?
Yo bo‘lmasa, menga kelgan zo‘rmidi?
Bu gaplarni tinglab olib, enajon,
Menga bering bu so‘zlardin xabardi.

Ana shunda Go‘ro‘g‘lidan bu so‘zni eshitib, Bibi Hilolning arvohi Go‘ro‘g‘liga qarab, o‘lganidan xabar berib, Rustambekning kim ekanini bildirib bir so‘z dedi:

Iloyo bo‘lgaysan dunyoda omon,
Qarindoshning xili o‘zima yomon,
Tog‘angning otini deydi Gajdumbek,
Otangning otini deydi ko‘r Ravshan...
Mol boqqanlar seni ko‘rib ketgandi,
Shohdorxonga borib birov aytgandi,
Shohdorxondan yomon taraf kelgandi,
Zargar elda do‘st-u dushman bilgandi,
Senga tog‘a, menga aka qaydadi!

Ana shunda buni Rustambek go‘rdan eshitib, go‘rning kovagidan boshini go‘rga suqib, go‘rga qarab bir so‘z dedi:

Tuvmasam ham, ey, tutingan akangman,
Sening bilan ahd-u paymon shumidi?
Xudo degan murodiga yetadi,
Tuya mingan odam tog‘dan o‘tadi,
Sen singlimsan, u jiyanim, Hiloloy,
Ko‘nglim uchun borgin desang qaytadi?!

Buni Hiloloy eshitib, Go‘ro‘g‘liga qarab bir so‘z dedi:

Go‘ro‘g‘libek, yuragingda shering bor,
Unib-o‘sar sening turkman eling bor,
Rustambekman keta bergin Zargarga,
Tug‘masa ham bir tutingan tog‘ang bor.
Rustambek, o‘g‘limni senga topshirdim,
Ikkovingni bir Xudoga topshirdim,
Ikkovingning omon qilsin joningni,
Avval Xudo, duyum payg‘ambarga topshirdim.

duyum – ikkinchi

Ana endi, Go‘ro‘g‘libek tiklab qarasa, enasi Hiloloy o‘lib, suyagi shovshab, uch yildan beri yotgan suyakday bo‘lib qolibdi. Avvali Go‘ro‘g‘lining ozig‘i uchun Hiloloyning badani ilvirab yo‘q bo‘lmay, o‘lgani bilinmay, suti kelib yotib edi. Bu kun Go‘ro‘g‘liga Rustam yo‘ldosh, rahbar bo‘lganiga suyagi shovshab qoldi. Go‘ro‘g‘li buni ko‘rib zor-zor yig‘lab, enasiga qarab bir so‘z dedi:

Otim Go‘ro‘g‘lidir olamga doston,
Zarbimdan titraydi barcha Gurjiston,
Ena, ketar bo‘ldim sendan ayrilib,
Qarchig‘aying bo‘lay, chuygin, enajon.
Voy enam, deb o‘pkasini bosolmay,
Yig‘lab chiqdi mozorining boshiga.
– Yig‘lama, chirog‘im, – dedi Rustambek,
Bachchani quchoqlab oldi to‘shiga.
Mozorot titraydi nolishiga...

Ana endi Zargar shahrida odam qurtday qaynab yotibdi. Rustambek yig‘lay-yig‘lay, Go‘ro‘g‘lini olib keldi. Rustambekning xotini erining yuz-xotirini qilib, o‘rnidan turib, voy bolam, deb bag‘riga bosdi, quchoqlab ko‘kragiga oldi.

* * *

Oradan to‘rt yil o‘tdi. Go‘ro‘g‘li yetti yoshga kirdi. Ana shu kuni Go‘ro‘g‘li Rustambekning oldiga keldi, oqshom uning oldida yotdi...

Shunda Hazrati Xizr Go‘ro‘g‘lining tushiga kirib, Bibi Hilolning ovozida, xuddi o‘ngidagiday gapirgan bo‘lib aytgan so‘zlari:

Go‘ro‘g‘libek, g‘am sarg‘aytar yuzingni,
Chiroqqinam, dushman bosdi izingni,
Tura solib ketgin Yovmit yurtingga,
Farzandim, uyqudan ochgin ko‘zingni.
Sarg‘aygandir Hiloloyning siyog‘i,
Sening otang Yovmit shahrining begi,
Bora solib keta bergin Yovmitga,
Rozi bo‘lsin Hiloloyning arvohi,
Arvoh rozi, Xudo rozi, farzandim...

Yuzlari hoʻl koʻzdan oqqan yoshiga,
Qonlar toʻlar Zargar elning dashiga,
Yaxshi odamdan farzand qolsin, yoronlar,
Ketar boʻldi otasining yurtiga,
Yigʻlab bordi Rustambekning qoshiga.

dashiga – dashtiga
gardanini xam qilib – boʻynini egib
Mavlon – Xudo

Goʻroʻgʻlibek zor-zor yigʻlab, mozorotdan qaytib, Rustambek togʻasiga qarab, gardanini xam qilib, qoʻlini alif-lom qilib, fotiha bering, deb bir soʻz dedi:

Barchaga mehribon qudratli Mavlon,
Zargarning elida boʻldim sargardon.
Togʻa boʻlsang, aytgin avlod-ajdodim,
Urugʻimni bayon bergin, togʻajon!
Olisdan koʻrinar bedovning boʻzi
Gʻanqillab uchadi koʻllarning gʻozi.
Ketar boʻldim endi Yovmit shahriga,
Togʻa, boʻling Goʻroʻgʻlibekdan rozi!..
Goʻroʻgʻliga, ketmagin, deb tarmashdi,
Yigʻlay-yigʻlay barin oʻpkasi shishdi.
Buni Rustambek Goʻroʻgʻlidan eshitib,
Boshdan oʻtgan sirlarini aytdi.

Ana endi Goʻroʻgʻli ketganday, oy botganday, Rustambek dunyodan oʻtganday. Rustambek shunday qarasa – Goʻroʻgʻli oʻn besh kunlik oyday, qaddi-qomati, shon-shavkati, har kishining boʻlar ekan oʻziga yarasha hurmati. Buni bu ahvolda koʻrib, Rustambek Goʻroʻgʻliga bir soʻz dedi:

Bolam, ketsang, aqlimni shoshirdim,
Sirni aytmay gʻanimlardan yashirdim.
Eson-omon borgin Turkman yurtiga,
Sogʻ-salomat koʻrgin ota yurtingni,
Safaring, chirogʻim, bexatar boʻlsin!
Yigʻlayman yaratgan Haqqa zor-zor,
Qaytayin, bandada yoʻqdir ixtiyor,
Otingdan aylanay, jami buzurglar,
Magʻribman Mashriqni kezgan eranlar,
Hiloloyning arvohi senga yor boʻlsin,
Xudoga topshirdim, Allohu akbar.
Barakalla himmatingga, Rustambek,
Yarim kecha yoʻlni oʻnglab Zargardan,
Goʻroʻgʻlini eldan chiqarib ketdi,
Xush borgin deb, Goʻroʻgʻlini joʻnatdi,
Rustambek joʻnatib uyiga qaytdi.

buzurg – buyuk

Alqissa, Rustambek yarim kechada Goʻroʻgʻlini joʻnatib, uyiga qaytib keldi.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINING XORAZM VARIANTIDAN

(Urganch davlat universiteti tomonidan tayyorlangan nashrdan, 2004-yil)

Doston Xorazm shevasida yozib olingan. Ma’lumki, Xorazm shevasi o‘zbek adabiy tilidan va o‘zbek tilining boshqa shevalaridan farqli o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘qish davomida sizga noma’lum so‘zlarning ma’nolarini kontekstdan (matnning umumiy mazmunidan) tushunishga harakat qiling.

Qadim zamonda takali turkmanning Chamlibel viloyatinda Jig‘olibek degan bek o‘tdi. Jig‘olibekdan uch o‘g‘il do‘radi. Ulli o‘g‘lini Ganjimbek, o‘rtanjisini Mo‘minbek, kichkinasini Odibek deb od beraduvin adilar. Ammo bu farzandlarning uchisi uch toyfa odam bo‘lib do‘radi. Ganjimi dunyoparas chiqdi, o‘rtanchisi ap-kupsiz, salav bir bola bo‘lib do‘radi. Kichkinasi sal narsaga yumriq dugavaradigan, otorman, choparman bir bola bo‘lib yetishdi.

Gunlardan bir gun Jig‘olibek bir uyg‘onib qarasa, go‘zinnan nur, belinnan quvvat getib qarib borayotir. Elina, yurtina egalik qiladuvin do‘g‘mam bormi dab qarasa, do‘g‘masi uch xiyli. Oxiri o‘ylab-o‘ylab yurtini kichkina o‘g‘li Odibekka topshiraduvin bo‘ldi.

Jig‘olibekning o‘g‘illari bir-biridan qanday xususiyatlari bilan farq qilardi? U yurtni nega aynan kenja o‘g‘liga topshirishga qaror qildi?

Odibek otasini o‘rnina o‘tirgannan keyin el-yurtni g‘amini yeb, ishi-guchi ko‘payib, yoshlikdagi danjiqliklarini tashladi. Mo‘minbek og‘asini ham uylantirdi, o‘zi ham uylandi. Ammo bu dunyola davron surish Odibekka nasib atmadi. Odibek kasal bo‘lib, dorilfanodan dorilbaqog‘a rihlat qilgach, sal o‘tmay xotini ham bu dunyodan ko‘z yumdi. Endi rohatga chiqarman deb yurgan Jig‘olibek bu armonli dunyoning ajab-ajab ishlarinnan g‘amgin bo‘lib, boshini nera urarini bilmadi. Shunda uning Xudog‘a nola qilib, bu duyoning ishlarinan hayron bo‘lib aytib durg‘an she’ri:

Panohimsan, qodir Xudo,
O‘g‘li-qizimni naylading?
Ikki jondin etding judo,
O‘g‘lim deb aylarman faryod,
Izinda qolmadi zuryod,
Duo aylab qilurman yod,
So‘zlar so‘zimni naylading?
Haqni farmoni farmondir,
Bu dunyo kulli armondir,
O‘g‘il-qiz belga darmondir,
Bahor, yozimni naylading?

Jig‘olibek bu so‘zni aytib tamom qilg‘annan so‘ng qayg‘u-g‘ami sal yumshagan bo‘lib, takaga endi yonboshladi, eshik birdan ochilib o‘g‘li Ganjimbek girib galavardi. Ganjimbek otasini yonina galib, uning holina ichi uvishib, bu so‘zlarimni eshitsa go‘zzina nur, belina quvvat galmasmikan deb aytib turg‘an she’ri:

Eshit, otam Jig‘olibek,
Sango davron kelgan bo‘lg‘ay,
Xudo bugun o‘g‘il berdi,
Sening kuning tug‘gan bo‘lg‘ay.

Ota, oydin bo‘lsin ko‘zing,
Xatosi yo‘qdur bu so‘zim,
Ochildi tole yulduzing,
Sango davlat kelgan bo‘lg‘ay.
Pirlardan karomat bo‘ldi,
Xudodan sharofat bo‘ldi,
Go‘r ichinnan bir sas keldi,
Saning o‘g‘ling bo‘lg‘an bo‘lg‘ay.

Ganjimbek bu so‘zni aytib tamom qilg‘annan keyin Jig‘olibek hayron bo‘lib, aytdiki, ammo, o‘g‘lim, bu so‘zlaringa man tushuna olmay turibman, gecha bir dush go‘rvadim: alima oltin oshiq barvadilar, shoyad aytg‘onlaring shuni o‘ngdagisi bo‘lsa, qani, o‘tirib mango gapingni bir tushuntir, dadi.

Shunda Ganjimbek aytdiki, ey ota, o‘n kun bo‘ldi, so‘ridagi gechilardan biri kunduzi yo‘qolib, gejasi qaytib galib yurvadi, bu ahvolni tekshirib go‘rsak, gechi Odibekning xotinining mozorina qarab ketar akan. Borib qarasak, bir kichkina bola gechini amib duribdi, bizlarni go‘rib mozorni ichina girib getdi, dadi.

Jig‘olibek aytdiki, ammo, o‘g‘lim, bu gapingda jon bor o‘xshidi. Odibekning xotini qazo qilg‘anda homilasi bor adi, xudo inoyat qilib shu farzandni ikki doshni orasinda bargan bo‘lsa, bu ishdan Ollog‘a shukr qilmoq garak, dadi. Shunnan keyin ota-bola sevinishib mozorni boshina qarab yo‘l oldilar.

Bu xabarni eshitib, el-yurt ham avliyog‘a qarab yurish ataveradi.

Ganjimbek bilan otasi mozor yonina yetishganda, bola top mozorni yonboshinda o‘ynab o‘tirvadi. Bola bu odamlarni go‘rib, mozorni ichina girib g‘oyib bo‘ldi. Shunda elni kattalari, yoshulli, oqsoqollari aytdiki, bu bolani o‘g‘il, qizligini ballilamak uchun mozorning yonboshina bir oshiq bilan bir qurjoq qo‘ymoq garak, bola shularni qaysisini o‘ynasa, uning o‘g‘il, qizlig‘i ma’lum bo‘ladi, dadilar. Darrov oshiq bilan qurjoq topib, mozorning yonboshina qo‘yib, barida ondib durdilar. Bola birozdan so‘ng chiqib oshiqni o‘ynivardi.

Jig‘olibek bolaning o‘g‘il akanini bilib dim sevindi. Shundan keyin bu bolani na hiyli yo‘l bilan olmoqni maslahat etdilar. Birov duzoq quramiz dadi, birov yana bir gapni aytdi. Lekin bu usullar hech kima yoqmadi. Oxiri bir qarri aytdiki, bu bolani tutmoq uchun avvalambor bir egar yasamoq garak, shu egarni mozor yonboshinda qo‘yib sirish surtish garak, bola mozordan chiqib, egarga minganda yopishib qoladi, ana unnan keyin bolani tutavaramiz, dadi. Bu gap hammaga ma’qul bo‘lib, egar yasab, sirish surtib, apkalib mozor yonboshinda qo‘yib o‘tirdilar. Bir vax bola chiqib, egarni go‘rib, avval uni o‘ynab o‘tirdi, keyin ustina mindi, minib o‘ynag‘an soyin sirish yopishib, parch bo‘lib boravardi. Shu vaqtda borib bolani egar bilan birga go‘tarib oldilar. Jig‘olibek uni bag‘rina bosib o‘pib sevinganinnan yig‘lab yubordi.

Oshiq va qo‘g‘irchoq yordamida bolaning jinsini aniqlash hamda egar yordamida uni go‘rdan chiqarib olish epizodlarida xalqqa xos qanday xususiyatlar aks etgan?

?

Bolani uyg‘a apkalib, giyim-gechak giydirib yasatib, Chamlibel viloyatina jar chaqirtirib aytdiki, ey xaloyiq, Jig‘olibekni go‘zzina nur, belina darmon bo‘laduvin, Xudo bargan farzandini to‘yina galavaringlar, dadi. Buni eshitgan xaloyiq enib galavardi. Elni katxudolarini yig‘nab bolaga od qo‘yishni maslahat atdi. Birov u dadi, birov bu dadi, oxiri bir oqsoqol aytdiki, bu farzandning yo‘li ravshan bo‘lsin, qarong‘iliqdan yoqtiliqqa chiqdi. Shu sababdan odi ham Ravshan bo‘lsin, dadi.

Yana bir kishi aytdiki, ammo xaloyiq, natasizlar tortishib o‘tirib, bu bolaga Xudoni o‘zi od qo‘yibdi, axir bu bola go‘rda dug‘il-

di, shuning uchun Go‘ro‘g‘li bo‘ladi-ku. Bu bolani odi o‘zi bilan dug‘ilg‘an, dadi. Bu kishining so‘zi katxudolarg‘a yoqmasa ham, xaloyiq ko‘pincha bolani Go‘ro‘g‘li dap aytib boshladi. Go‘ro‘g‘lining asli odi Ravshanbek bo‘lsa ham, bu od bilan hech kim uning odini tutmadi. Go‘rdan chiqqan go‘ro‘g‘li deb, uni hamma Go‘ro‘g‘liga aylantirib, keyinchalik Ravshan dasa, hech kim tanimaydig‘an bo‘lib qoldi. Gunlardan gun o‘tib, Go‘ro‘g‘li o‘sib voyaga yetaverdi. Ammo Go‘ro‘g‘li yera ursa, osmona sichriydovin, otormon-chopormon, dinuvsiz bir bola bo‘ldi. Muni alinnan omona galib, dod damidovin bir-yarim odam qolmadi. Hech topmasa, ko‘pir teyinda o‘tirib ot hurkizar, eshaklarning quyriqina jang‘al boylab tomosha go‘rsatar, dang-dushlari bilan go‘rash tutar, yoqalashar, ishqilib, dinch guni bo‘lmas adi.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Dostonning ikkala variantidagi Go‘ro‘g‘lining nasl-nasabi, tug‘ilishi, xarakteridagi farqlarni solishtiring. Doston variantlaridagi bu farqlarning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

2. Go‘ro‘g‘lining go‘rdagi hayoti va go‘rdan chiqishi bilan bog‘liq qaysi muhim epizodlar Xorazm variantida mavjud emas? Bu epizodlar doston mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Dostonning har ikkala variantida xalqimizning milliy tafakkuri va e’tiqodlariga xos xususiyatlar aks etgan o‘rinlarni toping va qiyoslang. Ulardagi umumiylik va xususiylik sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

4. Doston variantlarining tili va badiiy xususiyatlari bir-biridan qay jihatdan farq qiladi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

5. Sizga “Go‘ro‘g‘li”ning qaysi varianti ko‘proq ma’qul keldi? Nima uchun? Fikrlaringizni dalillang.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Go‘ro‘g‘li” dostonlar turkumiga bag‘ishlangan “Maxzan” ko‘rsatuvini tomosha qiling. Ko‘rsatuv va mavzuni o‘rganish asosida o‘zbek xalq dostonlari hamda “Go‘ro‘g‘li” turkumiga xos xususiyatlarni aniqlang. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

O‘zbek xalq dostonlariga xos xususiyatlar	“Go‘ro‘g‘li” turkumiga xos xususiyatlar

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

QADIMGI DUNYO ADABIYOTI (ENG QADIMGI DAVRLARDAN MILODNING V ASRIGACHA)

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– qadimgi dunyo adabiyotining asosiy rivojlanish tamoyillarini tahlil qilamiz;
– qadimgi Sharq adabiyoti va antik adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini solishtiramiz.

Yozma adabiyotning paydo bo‘lishi miloddan avvalgi IV–II mingyilliklarda qadimgi Sharqda – Shumer, Akkad va Bobil (Vaviloniya) davlatlari (Mesopotamiya, hozirgi Iroq hududi) hamda Qadimgi Misrda yozuvning ixtiro qilinishi bilan bog‘liq. Qadimgi Sharq adabiyotining bizgacha yetib kelgan dastlabki namunalarini asosan miflar (qadimgi xalqlarning dunyo paydo bo‘lishi, tabiat hodisalarining sabablari, ma’budlarning insonlar hayotiga ta’siri bilan bog‘liq e’tiqodlarini aks ettirgan asarlar), eposlar (dostonlar), ma’budlar sharafiga duolar va madhiyalar, qo‘shiqlar va maqollar tashkil qiladi.

Qadimgi Sharq dunyosining eng yirik adabiy yodgorliklaridan biri Gilgamesh haqidagi dostondir. Akkad tilidagi bu asar miloddan avvalgi XVIII–XVII asarlarda yaratilgan. Dostonga ko‘ra, Uruk (Shumer poytaxti) ahli zolim shoh Gilgameshdan najot so‘rab ma’buda Aruruga murojaat qilishadi. Aruru yovvoyi odam – Enkiduni yaratib, yerga yuboradi. Enkidu Urukda Gilgamesh bilan kurash tushadi, lekin kuchlar teng keladi. Gilgamesh va Enkidu do‘stlashib, yovuzlikka qarshi kurashadilar va turli qahramonliklar ko‘rsatadilar. Dostonning keyingi qismlarida Gilgamesh hayot suvini izlab, turli qiyinchiliklarga duch kelgani tasvirlanadi.

Sopol taxtachalarga mixxat usuli bilan bitilgan Gilgamesh haqidagi doston Ossuriya podshosi Ashshurbanipal (mil. av. VII asr) kutubxonasi orqali bizgacha yetib kelgan.



Qadimgi Misr adabiyotida narigi dunyo va abadiy hayot motivi muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, didaktik – pand-nasihat adabiyotining dastlabki namunalari ham aynan Qadimgi Misr adabiyotida uchraydi. Miloddan avvalgi XV asrda yaratilgan “Marhumlar kitobi”da bosh qahramon ma’bud Osiris boshchiligidagi hakamlarga murojaat qiladi va hayotligida qilgan ishlari uchun hisobot beradi: “O Usex-nemtut, men yomonlik qilmadim! O Hetep-sedejet, men o‘g‘irlamadim!” Shunga yaqin mazmundagi quyidagi bitiklarni qabrtoshlarda ham uchratish mumkin: “Olimlik bilan maqtanma. Bir o‘zim hamma narsani bilaman deb o‘ylama. Maslahatni faqat donishdan emas, hamma joydan qidir. San’at chegara bilmaydi. Axir, rassom o‘z mahoratining so‘nggi nuqtasiga yetishmog‘i mumkinmi?”

Qadimgi Misr papiruslari (papirus o‘simligi poyasidan tayyorlangan qog‘oz) va sopol taxtachalari orqali bizgacha muhabbat lirikasining dastlabki namunalari ham yetib kelgan. Ayrim she’rlardan faqat bir necha satrlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularda badiiy tasvir vositalarining go‘zal namunalarini ko‘rish mumkin:

Shamol keladi – daraxtga qo‘nadi,
Sen kelasan – men tomon oshiqasan.

E’tiqod masalalari Qadimgi Hindistonda miloddan avvalgi XII asrdan boshlab ming yillar davomida yaratilgan “Vedalar” (sanskrit – qadimgi hind tilida “bilim” so‘zidan) kitobining asosini tashkil qiladi. Bir necha qismdan iborat bu kitoblardan ma’budlarni sharaflovchi madhiyalar, diniy marosimlarning tasviri va ularda aytiladigan duolar, shuningdek, qadimgi hindlarning falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi aforizmlar (hikmatli so‘zlar) o‘rin olgan.

Qadimgi dunyoning muhim adabiy yodgorliklari – “Mahabharata” va “Ramayana” dostonlari ham Hindistonda yaratilgan. “Mahabhrata”da afsonaviy hukmdor Bharataning avlodlari bo‘lgan ikki qondosh sulolaning toj-taxt uchun kurashi tasvirlansa, “Ramayana”da Ayodha shahzodasi Ramaning o‘z rafiqasi Sitani asirlikdan qutqarish yo‘lidagi qahramonliklari tasvirlanadi. Shuningdek, bu asarlarda ham qadimgi hindlarning e’tiqodi, falsafasi, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari aks etgan.

“Mahabharata”-da tasvirlanishicha, ikki sulola o‘rtasidagi nifoq buyuk Kurukshetra jangiga olib keladi. XVI asr miniatyurasi



Tanlamoqchi bo‘lsang agarda
Yovuz kishi yoki ilonni,
Ilonni ol ikkilanmay hech,
Yaqin tutma yovuz insonni.
Ilon chaqar faqat bir marta,
Bir chekkaga so‘ng ketar holsiz.
Ko‘ngli qora yovuz odam-chi,
Chaqib turar dam o‘tmay, esiz.

“Mahabharata”dan
(Sotiboldi Yo‘ldoshev tarjimasi)

Qadimgi Xitoy adabiyotida tabiat bilan uyg‘unlik falsafasi muhim o‘rin tutadi. Bu falsafa xitoy adabiyotining bizgacha yetib kelgan eng qadimiy yodgorliklaridan biri – miloddan avvalgi XI–VII asrlarda yaratilgan “Qo‘shiqlar kitobi”da ham o‘z aksini topgan.

Vodiydagi tut daraxti, qanday nazokat!
Uning barglari naqadar nozik!
Egamning jamolini men ko‘rdim.
Qanday baxt!
Yurakdagi sevgimni

Nechun so‘z bilan izhor etmay?
Yuragim tubigacha ardoqlayman uni,
Sevishdan hech qachon to‘xtamayman.

“Qo‘shiqlar kitobi”dan



“Qo‘shiqlar kitobning imperator Syanlun tomonidan qo‘lda ko‘-chirtirilgan nusxasi. XVIII asr

Tahlil qiling:
Qadimgi Sharq adabiyotida qanday g‘oyalar va mavzular yetakchilik qilgan? Bu g‘oyalar siz mutolaa qilgan keyingi davr Sharq so‘z san’ati namunalarida qay tarzda aks etgan?

O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotining dastlabki namunalari ham xalq og‘zaki ijodi (folklor) shaklida paydo bo‘lib, keyingi davrlarda yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiy etishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Og‘zaki ijod xalq yoki xalqning bir vakili tomonidan yaratilib, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib kelgan va keyinchalik shoirlar, yozuvchilar, tarixchi olimlar tomonidan qog‘ozga tushirilgan. Ular janr, g‘oya, til va uslub jihatidan ham turfa va betakror xususiyatlar kasb etadi. Qadimgi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan “To‘maris”, “Shiroq” kabi afsonalarda ajdodlarimizning donoligi, metin irodasi, yurt ozodligi yo‘lidagi qahramonliklari aks etgan.

O‘ylab ko‘ring:
Og‘zaki ijodning qanday namunalarini o‘qigansiz yoki eshitgansiz? Ular qadimgi xalqlarning turmush tarzini tasavvur qilishda qay jihatdan yordam beradi?
“To‘maris”, “Shiroq” kabi tarixiy-badiiy afsonalarning bugunga qadar sevib o‘qilishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, miloddan avvalgi I mingyillikda vujudga kelgan “Avesto” – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma adabiyoti namunalaridan biri hisoblanadi. Unda O‘rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlarining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar, ularning olam va odam, ezgulik va yovuzlik borasidagi qarashlari aks etgan.

Mitra – Zardushtiylikda Quyosh va yorug‘lik ma’budi

Ranxa – Sirdaryo

Mitrani madh etarmiz...
Yolg‘onchini tutar u,
Uzun qo‘llari bilan,
Sharqda qallob ushlanar,
G‘arbda u halok bo‘lar.
Ranxa boshida bo‘lsin,
Xoh bo‘lsin yer qa’rida,
Baribir tutar Mitra.

“Avesto”dan
(Mirsodiq Is’hoqov tarjimasi)

O‘ylab ko‘ring:
“Avesto”ning ezgulik va yovuzlik kurashi asosiga qurilgani sabablarini qanday izohlaysiz?

Qadimgi dunyo adabiyotining muhim qismini **antik adabiyot** tashkil qiladi. Antik (lotincha “qadimiy” so‘zidan) adabiyot deganda taxminan miloddan avvalgi I mingyillikdan milodning V asrigacha, ya’ni Qadimgi Rim imperiyasining qulashigacha bo‘lgan davrda Yunoniston va Rimda yaratilgan adabiyot tushuniladi.

Antik madaniyatning keyingi davrlar ilm-fani, madaniyati va adabiyotiga ta’siri beqiyosdir. Misol uchun, har to‘rt yilda o‘tkaziladigan Olimpiada o‘yinlari, ayrim Yevropa va turkiy tillar alifbolari uchun asos bo‘lgan lotin yozuvi, sayyoralar va yulduzlarning nomlari, ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy atamalar, adabiy turlarga (epos, lirika, drama) oid ilk nazariy qarashlar antik madaniyat mahsulidir.

O‘ylab ko‘ring:
Antik madaniyat ta’sirini bugungi hayotimizning yana qaysi jabhalarida kuzatish mumkin?

Qadimgi yunon adabiyotining asosini ularning diniy qarashlari aks etgan mifologiya tashkil qiladi. Bu mifologiya keyinchalik ayrim o‘zgarishlar bilan qadimgi rimliklar tomonidan ham qabul qilingan. Unga ko‘ra, Olimp tog‘ida istiqomat qiluvchi Zevs (Rim mifologiyasida – Yupiter) boshliq ma’bud va ma’budalar tabiat va yer yuzidagi insonlar hayotini nazorat qilishgan. Ularda ham insonlarga xos tuyg‘ular mavjud bo‘lib, turli qiyofalarda yerdagi hayotga aralashishlari mumkin edi. Ma’bud va inson farzandi bo‘lgan qahramonlar esa g‘ayritabiiy jismoniy va aqliy qobiliyatlarga ega bo‘lishgan. Misol uchun, ma’bud Zevs va Mikena shohining qizi Alkmenadan tug‘ilgan Herakl (Rim mifologiyasida – Gerkules) kuch-qudratda tengsiz bo‘lgan va aql bovar qilmas qahramonliklar ko‘rsatgan.



Heraklning Amazonkalar bilan kurashi.
Qadimgi yunon ko‘zasidagi surat (miloddan avvalgi VI asr)

Mifologiyaning kuchli ta’sirini antik eposning eng yirik namunalari bo‘lmish “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida ham kuzatish mumkin. “Iliada” dostonida yunonlarning Troyaga qarshi urushi tasvirlansa, “Odisseya”-da Troya urushi qatnashchilaridan biri Odisseyning uyga qaytish yo‘lidagi mashaqqatlari bayon etilgan. Uzoq va mashaqqatli safar motivi antik adabiyotning yana bir epik namunasi – qadimgi Rim shoiri Vergiliyning “Eneida” dostonida (miloddan avvalgi I asr) ham o‘z aksini topgan. Unda Troya urushi qahramonlaridan biri, hosildorlik ma’budasi Veneraning farzandi, Rimga asos solgan Romul va Remning ajdodi Eneyning Italiyaga kelishi haqida hikoya qilinadi.

Antik adabiyotda dramaturgiya alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi yunon teatr tomoshalari odatda ochiq havoda o‘tkazilgan. Tomoshabinlarga qulaylik yaratish maqsadida o‘rindiqlar tepalikka qurilgan. Sahnada uchtagacha aktyor ishtirok etishi mumkin bo‘lgan va ular barcha rollarni ijro etishgan. O‘n ikki – o‘n besh kishidan iborat xor sahnadagi voqealarni sharhlab turgan, ayrim hollarda esa ular asar voqealari rivojida ham ishtirok etgan.

Sahna asarlari odatda tomoshabinlarga yaxshi tanish bo‘lgan miflarga asoslangan. Asar prolog (muqaddima) va parod (xorning sahnaga kirib kelishi va ilk qo‘shig‘i) bilan boshlangan hamda eskod (xotima) bilan tugallangan. Voqealar rivoji episodiylarda (pardalarda) ochib berilgan. Episodiylar orasidagi stasimlarda (xor qo‘shiqlarida) xorning voqealarga munosabati bayon qilingan.

Tragediya janrining asoschisi hisoblangan Esxilning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida “Zanjirband Prometey” alohida o‘rin egallaydi. Unda insonlarga olov keltirib bergani uchun Zevsning g‘azabiga uchragan Prometey timsolida zulmga qarshi, adolat uchun kurashuvchi inson obrazi tasvirlangan.

Tragediya janrini Esxil an’analarini davom ettirgan Sofokl va Yevripid yanada rivojlantirdilar. Xususan, qadimgi yunonlarning taqdiri azal va qaytar dunyo haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi “Shoh Edip” fojiasi haligacha dunyo teatrlari sahnasidan tushmay keladi. Komediya janrida esa Epixarm, Yevpolid va Aristofan singari dramaturglar barakali ijod qilishdi. Keyinchalik Liviy Andronik, Gney Neviy, Kvint Enniy, Publiy Terensiy singari Qadimgi Rim dramaturglari dastlab yunon an’analari, keyinroq esa Rim hayotidan olingan original syujetlar asosida asarlar yaratdilar.

Ma’budlar va qahramonlar madhi, donolik bilan yo‘g‘rilgan hayot tarannumi va muhabbat vasfi antik lirikaning asosiy mavzularidan edi. Qadimgi Yunonistonda lirikaning eng gullagan davri Alkey, Sapfo



Afinadagi Dionisiy teatri qoldiqlari

va Anakreont (miloddan avvalgi VI–VI asrlar) nomlari bilan bog‘liq bo‘lsa, Qadimgi Rimda esa “Rim adabiyotining oltin davri”da (miloddan avvalgi I asr – milodning I asri) yashab ijod qilgan Vergiliy, Horatsiy, Ovidiy singari ijodkorlar lirikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar.



O‘zbekiston xalq artisti Shukur Burhonov Edip rolida. O‘zbek milliy akademik drama teatri spektakli (1971-yil)

Qurol-yarog‘lar-la jihozlangan uy,
Harbiy mis ashyolar yaraqlar voybo‘y,
Areyga alyor!
Bunda dubulg‘alar yal-yal yonadi,
Asli toza mis-da, zo‘r tovlanadi,
Bari serviqor.

Alkey
(Fayzi Shohismoil tarjimasi)

Hilol botdi. Hulkar yulduzi
Ko‘rinmaydi. Yarim bo‘ldi tun.
Muncha ham tez o‘tar vaqt o‘zi…
Yana yolg‘iz uxlayman bugun!

Sapfo
(Fayzi Shohismoil tarjimasi)

Dubbi Asqar posboni okeanga ko‘z tikar past,
Dengiz girdob suvlarini charog‘i-la xira qilar.
O‘z erkimiz bilan Ion dengizini kezmabmiz-da:
Bizga qo‘rquv tufaylidan jasur bo‘lish kerakdir.


Ovidiy
(Oybek tarjimasi)

Antik davr nasrida tarixiy, falsafiy, siyosiy mavzulardagi ilmiy va publitsistik asarlar yetakchilik qilgan. Badiiy adabiyotda esa asosan ishqiy-sarguzasht mavzular aks ettirilgan. Xususan, milodning II asrida yaratilgani taxmin qilinadigan “Dafnis va Xloya” pastoral romanning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi. Voqealari go‘zal tabiat og‘ushida kechadigan bunday asarlar keyinchalik o‘rta asrlar Yevropa adabiyotida keng tarqalgan.

Tahlil qiling:
Antik adabiyot qaysi xususiyatlari bilan qadimgi Sharq adabiyotidan farq qiladi deb o‘ylaysiz?

HOMER (MIL. AVV. VIII ASR). “ILIADA” DOSTONI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Iliada” dostoni g‘oyalarini tahlil qilamiz;
– dostonning asosiy obrazlarini qiyoslaymiz.



Korinf shahridagi Apollon ibodatxonasi. Miloddan avvalgi VI asr

Tarixiy davr

Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarga kelib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qadimgi yunon polislari – shahar-davlatlari paydo bo‘ldi. Tili, dini va madaniyati bir bo‘lgan bu shahar-davlatlar o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lib turardi. Shunga qaramasdan, shaharlar rivojlandi, aholi soni o‘sishi esa yunonlarning O‘rta va Qora dengiz sohillarida yangi koloniyalarni barpo qilishlariga sabab bo‘ldi. Boshqa xalqlar bilan aloqalar yunon madaniyatini boyitdi. Bu davrning muhim yutuqlaridan biri finikiya yozuvi asosida yunon alifbosining yaratilishi bo‘ldi.

Muallif haqida

Qadimgi yunon adabiyotining dastlabki namunalari – “Iliada” va “Odisseya” dostonlari afsonaviy shoir Homerga nisbat beriladi. Homerning qachon va qayerda tug‘ilgani ma’lum emas. Aksar tarixchilar uni miloddan avvalgi VIII asrda yashagan deb hisoblashadi. Ayrim manbalarda u Ioniyada (hozirgi Turkiya) bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib, dostonlar aytgan so‘qir shoir sifatida tasvirlanadi. Buyuk faylasuf Aflotun uni “yunonlarning ilk tarbiyachisi” deb atagan bo‘lsa, keyingi davrlarda yashagan ijodkorlar unga “shoirlar ichida eng buyugi” deya ta’rif berishgan.



“So‘qir Homer yo‘lboshlovchisi bilan”. XIX asr fransuz rassomi Vilyam-Adolf Bugro ishlagan surat

Troya urushi



“Yelenaning olib qochilishi”. XVII asr italyan rassomi Jovanni Franchesko Romanelli ishlagan surat

Qadimgi yunon afsonalariga ko‘ra, shoh Peley va ma’buda Fetidaning to‘yiga taklif qilinmagan ma’buda Eridaning jahli chiqib, fitna chiqarish maqsadida mehmonlar orasiga “Eng go‘zal ayolga” deb yozilgan oltin olma tashlaydi. Bu olma tufayli ma’budalar Hera, Afina va Afrodita orasida janjal chiqadi. Olmani kimga berish masalasini hal qilish Troya (Ilion) shohi Priamning o‘g‘li Paris zimmasiga tushadi. Paris olmani Afroditaga beradi, u esa evaziga Parisga Sparta shohi Menelayning xotini, go‘zallikda tengi yo‘q Yelenani olib berishi kerak edi.

Paris Spartaga mehmon bo‘lib boradi va Afroditaning sehri bilan o‘ziga ko‘ngil qo‘ygan Yelenani olib qochadi. G‘azablangan Menelay va uning birodari, Miken shohi Agamemnon Troyaga qarshi urush e’lon qilishadi va boshqa yunon shaharlari hukmdorlarini ham urushda qatnashishga ko‘ndirishadi. Katta qo‘shin to‘plagan yunonlarning Troyaga qarshi urushi o‘n yil davom etadi va troyaliklarning mag‘lubiyati bilan tugaydi.

“Iliada” dostoni urushning o‘ninchi yili voqealari haqida hikoya qiladi. Priamning o‘g‘li, Parisning akasi Hektor urushda yengilmas qahramon Axillesning do‘sti Patroklni o‘ldiradi va Patrokl jangga kiyib tushgan Axillesning sovutini yechib oladi. Bundan g‘azablangan Axilles Hektor bilan yakkamayakka jangga chiqadi...

XIX asrda hozirgi Turkiya hududida nemis tadbirkori va arxitektori Genrix Shliman tomonidan Troya shahri qoldiqlari topilgan. Arxeologlarning aniqlashicha, taxminan miloddan avvalgi XII asrda shahar dushman hujumiga uchragan ekan.



Troya shahri qoldiqlari YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.



ILIADA
(dostondan parchalar)

OLTINCHI QO‘SHIQ

akropol – shahar qal’asi, shaharning balandlikka qurilgan va himoya devorlari bilan o‘ralgan qismi

Aleksandr – Parisning ikkinchi ismi

Troyaning ayollari Zevs qiziga sig‘inyotgan payt
Buzruk Hektor yetib bordi hashamatli Paris uyiga.
Qurgan edi uni Paris bir vaqt, butun Troyadagi
Dong‘i ketgan qo‘llari gul me’morlarni chaqirib kelib:
Akropolda, Priamning va Hektorning qasri yoniga
Aleksandr uchun o‘shal ahli me’mor g‘oyat serhasham
Xobxona-yu mehmonxona, dang‘illama hovli qurgandi.

Ma’budmonand Hektor qo‘lda o‘n bir gazli nayzasi ila
Kirib bordi uy ichiga; nayzasin qir uchida mis tig‘
Yaraqlardi va, shuningdek, oltin halqa – tig‘ tegrasida.
U kirganda Paris o‘zin hashamatli egri kamoni,
Qalqoni-yu sovutini kiyib, taqib yasanar edi.
Sohibjamol Yelena ham shu yerdaydi, kashtachi qizlar
Davrasida o‘tirib ish buyurardi ularga turli.
Shunda Hektor inisiga tahqirona malomat qildi:
“Hoy, sen badbaxt, kelib-kelib shu mahalda arazlaysanmi?
Yuksak devor orqasida, shahrimizning bo‘sag‘asida
Dahshatli yov bilan jangda qon to‘kmoqda aziz xalqimiz;
Tegramizda jo‘sh urgan bu urush faqat sen tufayli-ku;
Gar uchratsang mudhish jangdan yuz o‘girgan biron nomardni,

Koyib bergan bo‘lar eding uni o‘zing. Tur, urushga kir,
Ilionga yov o‘t qo‘yib, uni vayron etmasdan oldin”.

“Tegramizda jo‘sh urgan bu urush faqat sen tufayli-ku”. Hektor ukasiga nega bunday demoqda?

Ma’budsifat Aleksandr darhol unga ayladi javob:
“Meni to‘g‘ri koyiding sen, og‘a! Bunga haqqing bor albat;
Yuragimni yozay senga, o‘tir, quloq sol kalomimga:
Meni bunda odamlardan ranjigani, arazlagani
Uchun bekor o‘tiribdi, dema, men g‘am chekmoqdadurmen.
Boya zavjam mayin so‘z-la meni jangga undagan edi;
Endi bo‘lsa, bu holimdan jang qilganim ma’qulligini
Payqab qoldim: zero, zafar el ichida emas barqaror.
Bo‘lsa agar ilojing, kut, sovutlarim kiyay shitob-la;
Yo bo‘lmasa, sen ketaver, men orqangdan yetib olgumdir”.



Lekin og‘a-buzruk Hektor churq etmadi unga javoban.
Yelena so‘z aytdi shunda Hektorga xush tavajjuh aylab:
“Qayin og‘am, tingla badbaxt va behayo kelining so‘zin!
Gar onamning ko‘zi menga yorigan dam badkirdor quyun
Bekas tog‘ga yo quturgan, sertalotum ummonga eltib
Tashlaganda va to‘lqinlar o‘z domiga tortganda meni,
Bo‘lmas edi bu qirg‘inlar, to‘kilmasdi mardumlar qoni!
Bas, ma’budlar yozgan ekan peshonamga bu anduhlarni,
Bo‘lmasmidi rioyatli, odamlarning malomatini
Tan olg‘uvchi sohibkamol, sohibdil er ato etsalar?
Bu er esa hanuz tentak, tuzalmas-ov bundan keyin ham;
Shu fe’liga yarasha u, o‘ylaymanki, tortgay jazosin!
Lek sen kirgil ichkariga, nafasingni rostla o‘tirib;
Qalbing ezgan mening qusrim va Parisning gunohi erur:
Zevs sho‘r etib yaratgankan ikkimizning peshonamizni,
Ki o‘lsak ham noshoista qolgay bizdan xotira mangu”.

Qadimgi yunon mifologiyasiga ko‘ra, ma’budlar insonlar hayotini to‘liq nazorat qilishini hisobga olsak, Yelena o‘zini “badbaxt”, “mardumlar qoni to‘kilishiga sababchi” hisoblashi to‘g‘rimi?

Yelenaga javob qildi shu chog‘ Hektor: “Meni undama,
O‘tirmayman, qilsang hamki menga dildan xushmuomala;
Butun fikr-u zikrim olgan janggohdagi hamshaharlarim;
Ular meni mushtoq bo‘lib kutmoqdalar. Sen ham eringni
Bunda olib o‘tirma ko‘p: jang maydonga otlansin jadal;
Tez orqamdan yetib olsin, men shahardan chiqib ulgurmay,
Birrov uyga kirgum hozir rafiqam-u laziz o‘g‘ilcham,
Uy ichlarim, joriyalar bilan diydor ko‘rishmoq uchun:

danay – yunon
obdor – yaltiroq, toblangan



Afina – Zevsning qizi, donishmandlik va urush strategiyasi ma’budasi

Kim biladi, yana uyga omon qaytish bo‘larmi nasib,
Yo ma’budlar bu gal meni mahv etarmi danay qo‘li-la”.

Shunday deya dubulg‘asi obdor Hektor tark etdi uyni.
Zum o‘tmayin o‘z muhtasham qasriga u yetib ham oldi;
Vale uyda topolmadi u gulbadan Andromaxani.
Xotin jajji o‘g‘ilchasi va bir bashang enaga ila
Minoraga chiqib, unda mahzun yig‘lab, urar edi oh.
Hektor uyda o‘zin jufti halolini topmagach, darhol
Ostonaga chiqib so‘rdi ishlab yurgan joriyalardan:
“O, ayollar, tezroq ayting menga rostin: qani xotinim?
Yostiqdoshim Andromaxa qayga ketdi, ostona hatlab
Chiqdimi u qayinsingli yo ovsini oldiga birrov,
Yo Afina ma’badiga yo‘l oldimi aksar ayollar
Bilan birga o‘shal jangkor ma’budaga qilgali sajda?”

axeylar – yunonlar

Shunda unga javob qildi sadoqatli kalitdor xotin:
“Hektor, baski, sen amr etding, bayon etgum men haqiqatni.
Xotining na qayinsingli, na ovsini oldiga chiqdi,
Na Afina ma’badiga yo‘l oldi u aksar ayollar
Bilan birga o‘shal jangkor ma’budaga qilgani sajda, –
Minoraga chiqqandi u: axeylardan troyaliklar
Yengilmoqda emish, degan shum xabardan bo‘lib bezovta;
Eshitdi-yu xuddi telba bo‘lgandek u, shahar devori
Tomon chopdi; enaga ham ketdi birga o‘g‘ling ko‘tarib”.

Kilikiya – Kichik Osiyodagi hudud
zavja – xotin

Shunday dedi, Hektor uydan naq shamoldek otilib chiqib,
O‘zi kelgan xushmanzara ko‘chalardan qaytdi orqaga.
U shaharni kesib o‘tib, endi Askey darbozasiga
Yaqinlashib qolganida (chiqilardi shundan janggohga),
Duch keldi u ro‘baro‘dan yelib kelgan hur ma’shuqasi –
Etionning maqomida o‘sib-ungan Andromaxaga.
Shoh Etion o‘rmonzori quyuq Plak tog‘in poyida –
Plakiya Fivasida kilik elin sultoni erdi;
Mis sovutli Hektorga shul shohning qizi bo‘lgandi zavja.
Shu xotin-la to‘qnashdi u: orqasida uning enaga
Turar edi qo‘lda murg‘ak chaqaloq-la – Cho‘lpon yulduzdek
Xushro‘y go‘dak ikkovlarin yakka-yolg‘iz farzandi edi.
Hektor unga Askamandriy deb ot qo‘ygan, troyaliklar –
Astianaks; zero, Hektor Troyaning panohi erdi.

?

Hektorning Andromaxani uchratgan joyiga e’tibor bering. Sizningcha, muallif er-xotinning xayrlashuvi uchun aynan shu joyni tanlash orqali nimaga ishora qilmoqda?

Ota o‘g‘lin jamoliga boqib, asta jilmayib qo‘ydi;
Qarshisida turardi hur Andromaxa – ko‘zlari giryon
Va mahbubin bilagidan ushlab unga aytardi kalom:
“Boshginangga koshki balo bo‘lmasaydi dilovarliging!
Aziz yorim, ayaysan na o‘g‘ilchangni, na men sho‘rlikni.
Ko‘nglim sezur, yovlar seni mahv etgaylar bostirib kelib
Yaqin kunda, o‘shanda men baxti qaro qolgayman beva!
Yashagandan ko‘ra sensiz, qaro yerga kirganim afzal:
Sensiz menga bu dunyoning shavq-u zavqi qolmagay mutlaq:
Yozmishim g‘am-anduh bo‘lgay! Ki mening na mehribon onam,
Na otam bor! Chaqqonoyoq Axilles qatl etgandi uni
Kilik elin, cho‘ng qopqali hur Fivani g‘orat qilgan kun.
U otamni o‘z qo‘li-la o‘ldirgandi, lek sovutlarin, –
Odamlarning dashnomidan qo‘rqdi chog‘i, – yechib olmovdi;
Otamni u butun sovut-yarog‘i-la yondirgan edi
Cho‘ng gulxanda; va qabr uygan edi xoki to‘kilgan yerda,
O‘shal qabr atrofiga Zevs qizlari – tog‘ sanamlari
Qayrag‘ochning nihollarin o‘tqazmishlar bir tekis qilib,
Yetti nafar qondosh og‘a-inilarim qolgandi uyda –
Ular bari bir mahalda rihlat etdi Aid qa’riga:
So‘qim mollar, oq yungli qo‘y-qo‘zilarni oralab yurib,
Topib olgan va qilichdan o‘tkazgandi ularni Axill.
U onamni – yuksak Plak poyidagi jannat malagin
Bandi aylab olib ketdi chodiriga o‘ljalar bilan,
Ammo keyin beandoza to‘lov olib, erk berdi unga;
Lek baribir onam jonin oldi Feba otam uyida!

Hektor, endi men uchun sen – ham otamsan, ham aziz onam,
Yolg‘iz og‘am ham, suyukli mahbubim ham o‘zingsan, jonim!
Rahming kelsin menga, murg‘ak farzandingga, qolgin biz bilan,
O‘g‘ilchangni yetim, meni – xotiningni tul qilma zinhor;
Lashkaringni qo‘ygil anjir daraxtiga yaqin: shu yerda
Nahra borki, dushman uchun hamla qilmoq qulaydir undan:
Ikki Ayaks, Ilomeney, Atreyzodlar, hatto Diomed
Uch bor hamla qilgandilar shahrimizga shu nahra osha.
Nahra haqda shipshigandir balki biron koshif karomat
Yo qalblarin da’vati-la topgandirlar ehtimol uni”.

Dubulg‘asi obdor Hektor xotiniga ayladi javob:
“Ishtibohda ko‘nglim mening; lek gar o‘zim bosh tortsam jangdan,
Unda har bir troyalik va har uzun ko‘ylakli ayol
Oldida men xijolatdan bosh ko‘tarib yuraman qanday?
Vijdonim yo‘l qo‘ymas bunga; men mardlikka odatlanganman,
Troyalik erlar aro mardona jang qilib, padarim
Va o‘zimga shon orttirmoq odatimdir – bu senga ayon!

dilovar – mard, jasur

Aid – yerosti marhumlar saltanati ma’budi

Feba – ma’budalardan biri

nahra – devor tuynugi

ishtiboh – shubha

Taassufki, men ham fikran, ham qalban his etmoqdadurman:
Bir kun emas, bir kun kelib, vayron bo‘lgay azim Troya,
U-la birga halok bo‘lgay Priam ham, butun xalqi ham.
Valekin, bil, kelgusida Troyaning, otam Priamning;
Keksa onam Hekubaning boshlariga tushajak mudhish
Savdodan ham, quturgan yov zarbasidan yer tishlayajak
Qondosh, jondosh inilarim va behisob yosh-yalanglarning
G‘oyat mash’um taqdiridan ham, ey xotin, sening qismating
Qalbim ko‘proq iztirobga solmoqdadir! Beshafqat g‘anim
Shashqator yosh to‘kishingga qaramasdan seni erkingdan
Mahrum etib, o‘z yurtiga olib ketgay asira etib.
Sen Argosda cho‘ri bo‘lib, yov xotinga tikkaysan kashta,
Messeis yo Hipereyning chashmasidan sen qalbing nolon,
Ko‘zing giryon, suv tashiysan; majbur etgay baxtiqarolik!
Asoratda qon-qon yig‘lab yurganingni ko‘rganlar derlar:
– Bu ojiza Ilionda bo‘lgan jangda dilovarlikda
Beqiyos va sohibkamol mard Hektorning xotini edi!
Shunday deya yana qalbing jarohatin yangilagaylar:
Yana nogoh eslagaysan panohgohing – ering Hektorni
Yo‘q, asira bo‘lganingni ko‘rib, hazin nolalaringni
Eshitgandan ming afzaldir qatl bo‘lib, kirganim go‘rga!”

Argos – Yunonistondagi shahar

?

Troyaning vayron qilinishini bilib turib ham, Hektorning jangdan qaytmayotgani sabablarini qanday izohlaysiz?

Shunday deb u o‘g‘ilchasin quchmoq uchun cho‘zdi qo‘llarin;
Ammo go‘dak qo‘rqib ketib – o‘z padarin qiyofasidan,
Dubulg‘asin yaraqlashi va cho‘qqida yelpinib turgan
Ot yolidan, – chinqirgancha enagaga yopishib oldi.
Buni ko‘rib jilmaydilar suyuk ota, mehribon ona.
Shunda boshdan yechdi obdor dubulg‘asin ilohiy Hektor,
Uni yerga qo‘yib, shirin o‘g‘ilchasin oldi qo‘liga,
Erkaladi, o‘pdi, bosdi bag‘riga va baland ko‘tarib,
Samodagi ma’budlarga shunday so‘z-la iltijo qildi:

“O, Zevs, O, ma’budlar! Zorim tinglab shunday qilingki,
Shu suyukli o‘g‘lim xuddi mendek nomvar bo‘lsin el aro;
Xuddi mendek dilovar-u Troyada qudratli podsho.
Ki vaqt kelib, jang maydondan qaytyotganin ko‘rgan odamlar
– Otasidan o‘tib ketdi, – deb aytishsin xolisanillo.
Har doim u jangdan qonli o‘lja bilan qaytsin mardona
Va mehribon onasining ko‘nglin mudom aylasin xushnud!”

Deya Hektor mahbubasin pok ilkiga tutdi o‘g‘lini;
Ko‘zida yosh, labda jilva onaizor bosdi go‘dakni

O‘z muattar siynasiga. Uni quchdi er ko‘ngli iyib
Va zulfidan silab turib unga shunday takallum etdi:
“O, dilbarim, anduh chekib, yuragingni ko‘p ezaverma,
Hech kim meni mahv etolmas, taqdir azal zid bo‘lsa agar;
Lek jahonga kelgan biron er, xo u mard, xo qo‘rqoq bo‘lsin,
Qochib taqdir ta’qibidan jonin saqlab qola olmagan.
Sen boraqol, jonim, uyga, o‘zing ovut ro‘zg‘or ishi-la;
Ishingni tik, kashta to‘qi, joriyalar xizmatin kuzat;
Urush esa bul muqaddas Ilionda tavallud topgan
Erkaklar-chun farz, ham qarzdir, men uchun-ku –
inchunun, bilsang”.

Hektor yoldor dubulg‘asin oldi yerdan tugatgach so‘zin;
Chashmi giryon Andromaxa yo‘l olarkan uyiga tomon,
Qarab-qarab qo‘yar edi orqasiga – sho‘rlik, bezabon.
Tez orada u Hektorning serhashamat uyiga yetdi;
Uyda jami joriyalar jam ekanin ko‘rgan zahoti,
Andromaxa ular barin majbur etdi uvlab yig‘lashga:
Ki ochdilar aza ular hozirdanoq tirik Hektorga.
Zero, uning mudhish jangdan sog‘ chiqishi va
qahhor yovning
Qo‘lida mahv bo‘lmasiga ayollarning yetmasdi ko‘zi.

Bu payt Paris ham tark etdi dang‘illama uyini jadal.
Hamma yog‘i yaraqlovchi dabdabali sovut kiygan bu
Bodpo yigit shahar bo‘ylab yela ketdi misli bo‘rondek.
Ki hozir u o‘xshar edi arpa yem yeb ko‘p turib qolgan
Va yuganin uzib endi poyonsiz dasht bo‘ylab yugurgan,
Sho‘x daryoda boshin adl tutib dadil suzgan ayg‘irga;
Bunday otning uzun yoli hilpiraydi gajak bo‘ynida,
U mag‘rurdir o‘zin go‘zal ekanidan; shu boisdan ham
Tuyoqlari uni yeldek uchirardi xonim biyalar
Hamda tanish ot uyuri o‘tlab yurgan o‘tloqqa tomon:
Serdabdaba qurollangan, jingalaksoch Aleksandr ham
Ilionning ul sarbaland qasridan naq porloq oftobdek
Chehrasidan nur yog‘ilib, shod-u xurram chiqib borardi;
Oyoqlari g‘oyat ildam Paris tezda yetdi Hektorga;
Hektor ma’sum rafiqasi bilan oz vaqt diydor ko‘rishgach,
Endigina vidolashib jo‘nagandi uchrashgan yerdan.
Avvalboshdan Aleksandr og‘asiga yuzlandi shu chog‘:
“Aziz og‘am, men kuttirib qo‘ymadimmi seni bu yerda
Tayinlagan vaqtingdan kech qolmadimmi tanballik qilib?”

Unga obdor dubulg‘ali buzruk Hektor ayladi javob:
“O, jigarim! Bironta ham nomusli zot sening askariy



“Hektorning Andromaxa bilan xayrlashuvi”. XIX asr rus rassomi Sergey Proxorov ishlagan surat

bodpo – shamoldan tez, uchqur

muhorib – jangchi

Ishlaringni qoralolmas: sen dilovar muhoribdirsan;
Faqat aksar paytlarda sen sustkashsan va ishga yalqovsan;
Sen tufayli zahmat chekib jang qilyotgan azamatlarning
Dashnomini eshitsam gar, yuragim xun bo‘lar isnoddan,
Hozir jangga shoshilaylik, keyin, agar Troyamizdan
Axeylarni daf qilishni va o‘z ozod maqomimizda
Ma’budlarga hamd-u sano o‘qimoqni nasib etsa Zevs,
Ana unda gaplashgaymiz bahamjihat, bamaylixotir”.

?

1. Hektor va Paris hamda Andromaxa va Yelena o‘rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz?

2. Andromaxaning ota-onasi haqidagi lavha Hektor va Andromaxaning xayrlashuv sahnasiga nima maqsadda kiritilgan deb o‘ylaysiz?

3. Hektorda otalik yoki erlik burchidan ko‘ra jangchilik burchi ustun kelishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?



Volfgang Petersen suratga olgan
“Troya” filmidan lavha (2004-yil)

YIGIRMA IKKINCHI QO‘SHIQ



Hurkkan kiyik galasidek shahar kirgan troyaliklar
Dag‘-dag‘ titrab suyangancha azim devor kungurasiga
Terlarini qotirar va chanqoqlarin qondirardilar;
Lek axeylar tik bostirib kelardilar devor poyiga.
Yolg‘iz Hektor bu payt Askey minorasi ro‘baro‘sida,
Keng dalada mash’um qismat domida dong qotib turardi.
Shu chog‘ dedi sohibquvva Axillesga ma’bud Apollon:
“O, Peleyzod, foniy banda, nechun meni – boqiy ma’budni
Quvmoqdasan, yoxud chaqqon poylaringdan umidvormisan?
Yo hali ham sezmadingmi ma’budligim – g‘azablanursan?
Parvo qilmay qo‘yding hatto Troyaning lashkariga ham;
U shaharga kirib oldi; lek sen bunda izg‘ib yuribsan.
Chekin; halok etolmaysan, men – boqiyman – o‘lmayman aslo”.

Apollon – Zevsning o‘g‘li, musiqa va san’at ma’budi. Troya urushida troyaliklar tarafida bo‘lgan

Peleyzod – Axill (Axilles) shoh Peley va ma’buda (nimfa) Fetidaning o‘g‘li bo‘lgan

Feb – Apollon

Axilles ham g‘azablanib Febga bunday javob ayladi:
“Laqillatding meni sen, ey fosiqlikda beqiyos ma’bud!
Meni chetga chalg‘itding sen! Yo‘qsa, yovning yana ko‘pini
Yer tishlatgan bo‘lardim to darvozadan kirib ulgurmay!
Mahrum etding meni shondan; Troyaning o‘g‘lonlarini
Osongina xalos etding, qo‘rqmay aslo intiqomdan sen...
Bo‘lgandaydi ilojim, men olar edim intiqom sendan”.

Axillesning ma’bud bilan bunday ohangda muomala qilishi uni qanday xarakterlaydi?

Poygalarda doim yutib sovrin olgan, jangarobaga
Qo‘shilgan yel kabi uchqur otning tegmas yerga tuyog‘i, –
Axillesning oyoqlari ham shunday tez yugurar edi.

Uni avval ko‘rib qoldi minorada turgan Priam;
U quyundek kelar edi sovutlari yulduzdek chaqnab;
Bunday yulduz kuz faslida cho‘g‘dek porlab chiqar samoga
Va charaqlar siyo tunda misli oydek yulduzlar ichra,
Ammo uni shum alomat darakchisi deb hisoblarlar
(Orionning iti deya nom qo‘ygandir unga odamlar);
Baxtiqaro bandalarga yovuz bezgak ufuradi u, –
Axillesning mis sovuti ham porlardi shu yulduzmisol.
Priam esa nola chekib musht urardi oppoq boshiga,
Qo‘llarini ko‘kka cho‘zib, achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘karkan,
Yolvorardi o‘g‘loniga; vale Hektor qopqa oldida
Jim turardi Axilles-la jang qilmoqlik ishtiyoqida.
Nuroniy chol mungli sas-la cho‘zib ilkin dedi o‘g‘liga:
“Suyuk o‘g‘lim Hektor, tingla! Jangda yolg‘iz ro‘baro‘ kelma

Orionning iti – Sirius yulduzi, osmondagi eng yorug‘ yulduz

Likaon, Polidor – Priamning o‘g‘illari

Pergam – Troya qal’asi

Bu odamga, zero, Peley o‘g‘li seni mahv aylagay bot:
Qudratliroq erur sendan bu azamat maydoni harbda!
U mal’unni ma’budlar ham men singari sevishgandaydi,
Allaqachon itlar toroj qilur edi uning jasadin!
Ana unda og‘ir darddan tamom forig‘ bo‘lardi qalbim!
Judo qildi meni u ko‘p yosh va jasur o‘g‘lonlarimdan –
Yo mahv etib, yoxud olis orollarga qul qilib sotib
Bugun ham u judo qildi Likaon va Polidorimdan;
Zavjalarim malikasi Laofoya tug‘gan bu ikki
O‘g‘lonimni ko‘rmayapman shahar qochib kirgan el ichra.
O! Gar tirik bo‘lsa ular – asirdalar, – argosliklardan
Albat sotib olurmiz mis va oltinga; bizda ko‘p ular;
Nuroniy Alt o‘z qizi-chun ko‘p xazina bergandi menga.
Agar nobud bo‘lib, Aid maskaniga ko‘chgan bo‘lsalar,
Ul mardlarni qora kunda tug‘gan sho‘rlik onaizorning
Hamda mening sho‘rim qurur g‘oyat og‘ir bu judolikdan!
Lek Troya xalqi uchun bu unchalik og‘ir dard emas;
Axillesning zarbasidan, o‘g‘lim, omon qolsang bas menga,
Aziz Hektor, biz bilan bo‘l! Ilionga kir, shundagina
Shahrimizning jami ahlin qutqargaysan mahv bo‘lishdan.
Axillga ham bermagaysan imkon zafar qozonmog‘iga
Va o‘zing ham sog‘ qolursan judo bo‘lmay shirin joningdan!
O! Rahm qil baxtiqaro padaringga – jon chiqar chog‘da
Zevs azobga solur meni ko‘z oldimda namoyon qilib
Dunyodagi jami mudhish ofatlarni – toki tirikman;
O‘g‘illarim halok bo‘lur, cho‘ri qilib olib keturlar
Qizlarimni, Pergamdagi xonadonlar vayron qilinur.
Yana ma’sum go‘daklarni yerga toptab o‘ldirurlar ham,
Shum danaylar sudragaylar asirlikka kelinchaklarni!..
Shu barini ko‘rsatur Zevs menga hali... Ko‘rgilik ekan!
Va nihoyat, biron qattol yov uyimning bo‘sag‘asida
Yuragimni teshib, jonim vujudimdan sug‘urib olgay;
Men mudom o‘z dasturxonim ne’mati-la boqqan itlarim
Shunda mening qonim ichib, ostonaga mahzun dil ila
Bosh qo‘yurlar tilka-pora bo‘lgan jismim tevaragida!”

Oh urdi chol va tutamlab ketdi oppoq sochini,
Lekin o‘g‘li Hektorni hech o‘z ahdidan qaytarolmadi.
Shunda uning onasi ham bir tomonda yig‘ladi nolon;
U yoqasin chok qildi-yu, qo‘li bilan oppoq siynasin
Ko‘rsatgancha, shunday dedi o‘z o‘g‘liga ko‘z yosh aralash:
“Rahm qilgil, o‘g‘lim, sho‘rlik onangga, shu siynam hurmati!
Murg‘ak go‘dak chog‘laringda oq sut berib allalaganim
Rost bo‘lsa gar, aziz o‘g‘lim, shuni eslab tingla kalomim:
Qattol erning qarshisida turma yolg‘iz, tez qo‘rg‘onga kir!
Ul g‘azabnok gar mahv etsa seni, o‘g‘lim, nuridiydamni,

Nasib etgay na menga va na xotining Andromaxaga
Boshing uzra aza tutib ko‘z yosh qilmoq; zero, jismingni
Qonxo‘r itlar g‘ajigaylar mirmidonlar qarorgohida!”

mirmidonlar – Axill boshchilik qilgan qabila

Priam va Hekuba nega Hektordan shaharga kirishini o‘tinishmoqda? Muallif ota-onaning kechinmalarini tasvirlash uchun qanday vositalarni qo‘llagan?

?

Ota bilan ona shunday o‘ksib yig‘lab yolvorardilar,
Lek ularga aziz o‘g‘lon bu safar ham osmadi quloq;
Jim kutardi u tik bosib kelyotgan mard Peleyzodani.
Zaqqum giyoh yeb, vujudi g‘azab ila to‘lgan ajdaho
Tog‘dagi bir g‘or og‘zida gajak bo‘lib to‘lg‘anar ekan,
Ko‘zidan o‘t sochib har yon alanglaydi, ov axtaradi, –
Hektor ham do‘ng qalqonini tirab qo‘yib devor poyiga
Xuddi shunday mardonavor turar edi raqibin kutib,
Nihoyat u shunday dedi o‘z-o‘ziga, ma’yus xo‘rsinib:
“Jangdan qochib men shaharga kirsam agar, isnodga qolgum!
Eldan burun Polidamas ta’na toshin otur boshimga;
Ki u kecha tunda taklif qilgan edi butun lashkarni
Ilionga qaytarmoqni, – jangda ko‘rgach Axillni yana.
Unga quloq osmagandim, quloq ossam yaxshi bo‘larkan!
Shu bemulohazaligim nobud qildi bugun xalqimni.
Troyalik erkaklar va ayollardan uyatga qoldim!
Ilionlik eng olchoq kas bir kun shunday deyishi mumkin:
– Hektor xalqni nobud qildi o‘z kuchiga ishonib ortiq, –
Demakki, ming karra afzal Peley o‘g‘lin mahv etib jangda,
G‘olib qaytmoq, yo muqaddas Troyaning bo‘sag‘asida
Halok bo‘lmoq ul dilovar ila bugun jang qilib keskin!
Yo ehtimol... bu nurafshon qalqonimni va dubulg‘amni
Yechib qo‘yib, mis nayzamni esa tirab devorga hozir,
O‘zim peshvoz borsammikin Peleyzoda istiqboliga
Agar unga Yelenani, unga qo‘shib Paris kemada
Ilionga olib kelgan – bu ixtilof ibtidosini –
Boyliklarni qaytarishga so‘z bersam-chi bitta qoldirmay?
Ayni paytda, bu muqaddas Troyada mavjud jamiki
Xazinani yig‘ishtirib danaylarga bo‘lib bersam-chi?
Va nihoyat, ont ichirsam troyalik oqsoqollarga:
Hech nimani yashirmasdan shahardagi jami boylikni
Yig‘ib kelib yovga bermoq borasida?.. Qanday bo‘larkin?

Polidamas – Hektorning do‘sti



Tavba! Nelar xayolimga kelur? Yo‘q, yo‘q, yolvormam unga!
Peleyzoda menga rahm qilmaydiyam, mensimaydiyam;
Aksincha, gar qurolimni yerga qo‘ysam, u hujum qilib,
Shu ondayoq ojizani mahv etgandek o‘ldirur meni.
Yo‘q, yo‘q, endi visol topgan yigit bilan qizcha singari

Gapni eman yoki toshdan boshlamoqlik qo‘l kelmas bizga;
Qishloqi qiz bilan yigit bunday chog‘da xush suhbat qurur;
Biz, yaxshisi, jang qilamiz! Shunda shohid bo‘lamiz, Zevsning
Ikkimizdan kimga ato etganiga g‘olibiyatni!”

Hektor nega dastlab Axillesga Yelenani va Troya boyliklarini topshirishni o‘ylab, keyinchalik bu fikridan qaytdi? Uning ma’buda farzandi bo‘lgan Axillesga bas kela olmasligini bilib turib ham jang qilishga qaror qilganini qanday baholaysiz?

Arey (Ares) – Zevsning o‘g‘li, urush ma’budi

Shunday o‘yga tolgandi u; Arey kabi mudhish Axilles
Yaqin keldi janggoh uzra dubulg‘asin o‘tdek porlatib;
O‘ng yelkaga ko‘targandi shumtol bandli ota nayzasin;
Egnidagi sovutlari porlar edi ko‘z qamashtirib,
Naq o‘t olgan alangadek, bosh ko‘tarib chiqayotgan quyoshdek yoxud.
Hektor ko‘rib qo‘rqib ketdi; turolmadi Axillni kutib;
Qochdi Askey qopqasidan, yuragini hovuchlagancha.
Umid bog‘lab poylariga, quva ketdi uni Axilles,
Qushlar ichra eng chaqqoni tog‘ lochini g‘ayri tasavvur
Tezlik bilan uchib, qo‘rqoq kabutarning payiga tushar:
Sho‘rlik unga chap berar, lek lochin uning ortidan qolmas
Va aksar payt qiyqirgancha hamla qilib o‘ljani tutar, –
Axilles ham misli quyun quvar edi Hektor ortidan,
U “oyog‘in qo‘lga olib” qochar edi devor yoqalab.
Ular jadal bir tepadan va bir anjir yonidan o‘tib,
Arava yo‘l bo‘ylab shahar devoridan uzoqlashdilar
Va yetdilar zilol suvi qaynab turgan ikki buloqqa,
Ki serto‘lqin Askamandr sarchashmasi edi bu suvlar.
Bir chashmadan g‘oyat qaynoq suv oqardi va uning ustin
Muttasil bug‘ burkagandi, gulxan uzra qalqqan tutundek;
Ikkinchisin suvi hatto saratonning o‘rtasida ham
Misli do‘l yo pag‘a-pag‘a yog‘gan qordek muz va yax edi.

Shu buloqlar yaqinida silliq toshlar bilan o‘ralgan
Ikki najib hovuz bo‘lib, bir zamonlar, tinchlik davrida
Troyalik xotinlar va dilbar qizlar bu hovuzlarda
Kir yuvgani kelardilar – argosliklar kelmasdan oldin.
Qochyotgan ham, quvyotgan ham yelib o‘tdi shu hovuzlardan.
Qochgan kuchli, quvyotgan ming bor undan kuchliroq edi,
Lek bu poyga, poygachilar oddiy muzdi: qurbonlik buqa
Yoki uning terisini olish uchun boshlanmagandi;
Yo‘q, Hektorning joni uchun boshlangandi bu musobaqa.
Marhum erning ruhini shod etmoq uchun uyushtirilgan
Poygalarda chavandozlar nodir sovrin: navnihol qiz yo
Sepoyaga erishmoq-chun keng davrani uch marotaba
Yeldek chopib chiqqanidek quyun yanglig‘ uchqur otlarda, –

muzd – mukofot

Bu mardlar ham uch marota chopib chiqdi buyuk Troya
Atrofini. Ma’budlar-da kuzatardi ular poygasin.
Dedi shunda boqiylar-u foniylarning sarpadari Zevs:
“Evoh! Menga aziz bo‘lgan pahlavonni quvlaganlarini
Ko‘rdim-u men, og‘ir anduh qamrab oldi yurak-bag‘rimni!
Pokdil Hektor menga atab buqalarning semiz sonini
Ko‘p marota yondirgandi Pergamda va yuksak Idada:
Bugun esa yeldek chopqir va g‘oratgar Axill Hektorni
Tirqiratib quvlamoqda Troyaning bo‘sag‘asida.
Yo ma’budlar, dildan puxta o‘ylab ko‘ring, maslahat bering:
Saqlaymizmi Hektorni biz shum o‘limdan, yo Peleyzodning
Bu safar ul dilovarni yengishiga yo‘l qo‘yamizmi?”
Shahlo ko‘zli qiz Pallada javob qildi shu zahot Zevsga:
“Bulutquvar, chaqmoqotar ota! Nelar deyursan asti?
Tug‘ilganda qismatiga halok bo‘lmoq bitib qo‘yilgan
Bir bandani shum o‘limdan butkul xalos etmoqchimisan?
Ixtiyoring, lekin senga qo‘shilmagay aksar ma’budlar!”

Bulutquvar Zevs qiziga shu zahoti ayladi javob:
“O, Afina, erka qizim, qo‘rqma aslo! Jiddiymas gapim.
Senga bo‘lgan marhamatim hadi yo‘qdir, aziza qizim.
Yuragingda ne niyating bo‘lsa, bajar paysalga solmay”.

Dedi Zevs va Afinaning jo‘shqin qalbin jo‘shtirdi yana;
Yuksak Olimp cho‘qqisidan u quyundek uchdi zaminga.

Axill esa quvar edi mard Hektorni mudom beto‘xtov.
Tozi kiyik bolasini haydab chiqib g‘ordan – inidan,
Quva boshlar chakalakzor va jarliklar osha tog‘ma-tog‘:
Hattoki u biron buta panasiga berkinganda ham,
Uning isi va izidan quva-quva tutgay nihoyat, –
Axillesdan qocholmadi kiyik kabi Priamzoda ham.
Har gal qopqa sarhadidan o‘tyotganda Hektor sarbaland
Minoraga o‘zin urmoq bo‘lar edi. Troyaliklar
Uni shunda hifz qilgan bo‘lardilar devorda turib
Lek har safar chaqqon Axill najot yo‘lin to‘sib, Hektorni
Chetga quvar, o‘zi esa yugurardi devor yoqalab.
Tush ko‘rganda odam quvgan odamiga yetolmagandek,
Biri qochib ketolmay hech, biri quvib yetolmagandek,
Hektor qochib ketolmasdi. Axill quvib yetolmas edi.
Hektor bu gal mash’um qismat va o‘limdan qocholmasdi ham,
Gar Apollon so‘nggi marta unga madad bermaganida;
U Hektorning bilagiga kuch, poyiga g‘ayrat baxsh etdi.
Peleyzoda lashkariga boshi bilan ishora qilib,
Farmon berdi Priamzoda ustiga o‘q yog‘dirmaslikni,
Ki Hektorni o‘zi yengib, yolg‘iz o‘zi shon quchmoqchiydi.

g‘oratgar – talonchi, bosqinchi

Pallada – Afina

qopqa – darvoza
hifz – himoya

To‘rtinchi bor yetganida ular Ksanf sarchashmasiga,
Chaqmoqdor Zevs olib oltin tarozuni, qo‘sh pallasiga
Mangu uyqu baxsh etuvchi ikki o‘lim qur’asini qo‘ydi:
Bitta qur’a Axillniki, ikkinchisi Hektornikiydi,
Tarozuni ko‘tardi Zevs; og‘ir ketib Hektor pallasi,
Tortdi uni Aid sari; Feb o‘zini oldi chekkaga,
Chashmi tobon Afineya kelib Peley o‘g‘li qoshiga,
Unga shunday dabdabali so‘zlar ila tavajjuh qildi:
“O, ma’budlar arzandasi, saxovatli Axilles, bugun
Buyuk zafar eltajakmiz mirmidonlar qarorgohiga:
Jangga to‘ymas Hektorni biz bugun albat g‘orib etgaymiz,
O‘ylaymanki, endi ul mard bizdan qochib qutulolmaydi,
Panohgohi kumushkamon Feb – Apollon qancha ter to‘kib
Yolvormasin, qodir padar Chaqmoqdorning poyiga yotib.
Sen, Peleyon, damingni ol; Priamzodni o‘zim qoshingga
Boshlab kelib, uni sen-la jang qilmoqqa da’vat etaman”.

Shunday dedi Zevsning qizi; Peleyzoda ham rozi bo‘ldi
Va mis tig‘li ulkan obdor nayzasiga tayandi asta.
Afina ham yeldek uchib yetib oldi Priamzodaga.
To‘xtab uning qarshisida Deifobning qiyofasida,
Makkorona so‘zlar aytdi ovozini ham o‘zgartirgancha:
“O, e’zozli og‘am! Seni Axilles ko‘p qiynab qo‘yibdi
Azim shahar Troyaning atrofida beto‘xtov quvib,
Kel, shu yerda to‘xtaylig-u, kutaylik biz mardni mardona!”

Qodir og‘a – dubulg‘asi obdor Hektor javob ayladi:
“O, Deifob! Sen azaldan eng suyukli inim bo‘lgansan
Hekuba va Priamdan dunyo kelgan o‘g‘illar ichra;
Endi esa senga bo‘lgan mehrim yana bo‘ldi ziyoda;
Zeroki, sen meni dashtda yolg‘iz ko‘rib, yordam bergani
Chiqib kelding, lek boshqalar o‘tiribdi qo‘rg‘onda loqayd”.

Yana unga javob qildi Chaqmoqkorning shahloko‘z qizi:
“Hektor, mening poyim quchib yolvordilar otam va onam;
“Bizni tashlab ketma”, deya yoronlar ham qildi iltijo;
Shu daraja oldirishgan yuraklarin ularning bari.
Ammo qalbim seni qo‘msab, undayverdi istiqbolingga.
Kel, ikkimiz dadil turib, otashin jang qilaylik bunda:
Nayzalarni ayamaylik: qani, Axill biz ikkimizni
Halok etib, kemasiga qonli siloh-sovutimizni
Eltarmikin, yo sen uni nayzang-la mahv etarmikansan?!”

g‘orib – mag‘lub
Chaqmoqdor – Zevs, samo va chaqmoq ma’budi
Deifob – Hektorning ukasi

?

Zevs va Afina bilan bog‘liq lavhalardan qadimgi yunon ma’budlarini qanday tasavvur qildingiz? Ular qaysi xususiyatlari bilan oddiy insonlarga o‘xshaydi?



Shunday nayrang so‘zlar bilan Hektorni u boshladi olg‘a,
Ikki botir kelib turdi bir-birining ro‘baro‘siga.
Axillesga avval obdor dubulg‘ali Hektor gap qotdi:
“Peleyzoda, endi ortiq olib qochmam sendan o‘zimni!
Men hamlangdan qochib, uch bor Troyaning gir atrofini
Yelib chiqdim: lekin endi qalbim meni da’vat etmoqda
Sen ila jang qilmoqlikka; yo o‘laman, yo o‘ldiraman!
Ma’budlarni shohidlikka chaqiraylik; yaxshi guvohdir
Ular bari, shartimizga xolisona amal qilurlar:
Basharti Zevs irodasi ila sendan ustun chiqsam-u
Qurolim-la joning olsam, jasadingni tahqirlamayman;
Faqat ajib sovutingni yechib olib, mirmidonlarga
Qaytib bergum jasadingni; sen ham amal qilgil shu shartga”.
Chaqqonoyoq Axill unga o‘qraygancha baqirib berdi:
“O, sen manfur ag‘yor Hektor, menga taklif qilma shartingni!
Sher va odam orasida bo‘lmagan va bo‘lmas ittifoq;

Hech qachon qo‘y bo‘ri bilan do‘st va totuv yashay olmagay;
Ular mudom bir-biriga qarshi g‘addor g‘anim erurlar, –
Xuddi shunday, ikkimizning o‘rtamizda hech qanday mehr
Yoki bitim zohir bo‘lmas, to bittamiz jondan ayrilib,
O‘z qoni-la qahhor Arey chanqog‘ini qondirmaguncha!
O, dilovar, ishga sol harb san’atingni! Zeroki, bugun
Sen eng mohir nayzaandoz va mard jangchi bo‘lmog‘ing kerak!
Qochmoqqa hech imkoning yo‘q; tezda mening mis nayzam ila
Afina mahv etgay seni; ana shunda birvarakayga
Janggohda sen halok qilgan do‘stlarimning xunin olgayman!”

Dedi u va cho‘ng nayzasin qulochkashlab turib itqitdi.
Dubulg‘ali obdor Hektor buni ko‘rib chap berib qoldi;
U engashdi, tepasidan uchgan nayza sanchildi yerga;
Lek Pallada troyalik mard Hektorga ko‘rinmay turib,
Uni yerdan sug‘urdi-yu Axillesga tutqazdi yana.
Hektor baland ovoz bilan na’ra qildi Peley o‘g‘liga:
“Zarbang bekor ketdi, qattol! Sen ma’budvash, eshitmagansan
Qismatimni ma’bud Zevsdan, garchi, shunday degan bo‘lsang ham
Shunchaki, sen makr ila quruq vaysab, meni – Hektorni
Qo‘rqitmoqchi, jasoratim va qudratim qirqmoq bo‘lgansan,
Yo‘q, qochmam men; nayzangni sen kuragimga sancholmagaysan,
Mard bo‘lsang, tik ko‘ksimga sanch ma’bud xohish bildirsa magar.
Illo mening nayzamdan ham ehtiyot bo‘l! O, koshki edi
Uning o‘tkir tig‘in sening alp to‘shingga botira qolsam!
Ilionli o‘g‘lonlar-chun bu qonli jang yengil ko‘chardi,
Gar seni men mahv etolsam – seni – xalqning mash’um ofatin!”



Dedi u va cho‘ng nayzasin qulochkashlab turib itqitdi,
Borib tegdi nayza Axill qalqonining qoq o‘rtasiga;
Vale nayza urildi-yu chatnab qaytdi ortga qalqondan.
Hektor ko‘rib xafa bo‘ldi nayzasining zoye ketganin;
Esankirab qolgandi u; o‘zga nayza yo‘q edi qo‘lda.
Shunda yangroq ovoz bilan inisini yordamga chorlab,
Nayza talab qildi; ammo g‘oyib bo‘lgan edi Deifob.
Buni Hektor o‘z qalbi-la his etdi-yu dedi o‘ziga:
“Ne nadomat! Menga o‘lim yo‘llamoqda boqiy ma’budlar!
Jasur inim Deifobni menga qo‘ldosh deb o‘ylagandim;
Ilionda o‘tirur u; laqillatdi meni Pallada.
Yonboshimda turar o‘lim! Qocholmayman endi men undan!
Yo‘qdir najot! Shubhasizki, avvallari pushtipanohim,
Xaloskorim bo‘lgan Zevs va Zevs o‘g‘loni ma’bud Apollon
Shunday hukm chiqarganlar; mana, chiqdi qismatim hukmi!
Lek bekorga o‘lmam, xoki turob bo‘lmam shuhrat qozonmay;
Bir jasorat ko‘rsatayki, avlodlarga yetsin dovrug‘im!”

Shunday deb, u chap yoniga osilgan cho‘ng g‘ilofdan ulkan,
Nihoyatda o‘tkir, zalvar shamshirini sug‘urdi jahd-la;
Bulutlardan ham balandda uchib yurib, to‘satdan yerda
Bir quyon yo qo‘zichoqni ko‘rib qolgan ochofat burgut
Sho‘ng‘igandek birdan pastga, – mard Hektor ham butun kuchini
Yig‘ib, birdan olg‘a yurdi silkigancha qattol shamshirin.
Axilles ham hamla qildi butun qalbi to‘lib g‘azabga;
U muhtasham va serbezak qalqoni-la to‘sdi ko‘ksini;
Tebranardi boshidagi to‘rt qatlamli cho‘ng dubulg‘asi,
Bu dubulg‘a cho‘qqisiga – tarog‘iga Hefest qo‘li-la,
Qo‘ndirilgan oltin rangli bir tutam yol yelpinar edi.
Zulmat tunda yulduzlarning orasida Cho‘lpon yulduzi
Qanday go‘zal shu’la sochib porlab tursa kechki shafaqdek, –
Axillesning g‘oyat ajib nayzasi ham porlardi shunday;
O‘ng qo‘liga ushlab uni Priamzodning jonin olmoqqa
Chog‘lanarkan, axtarardi raqibining qaltis yerini.
Lek Hektorning butun jismi, Patroklni o‘ldirganida
Yechib olgan hashamatli mis sovut-la to‘silgan edi.
Faqat uning o‘mrovidan sal yuqori – halqumigina
Ochiq qolgan ediki, shu edi yolg‘iz zaif tomoni;
Yela kelib nayza sanchdi Axill uning shu halqumiga;
Mard Hektorning oppoq bo‘ynin teshib o‘tdi ajalkash nayza,
Faqat uzib yubormadi butkul uning kekirdagini,
To o‘limi oldidan u ayta olsin ikki og‘iz so‘z;
U zaminga “gurs” quladi, – na’ra tortdi Axilles shodon:
“Patroklni o‘ldirib sen o‘zing tirik qolmoqchi eding!
Sen mendan ham hayiqmading, jang qilmasdan turgan chog‘imda,
Yo‘q, ey nodon g‘anim! Axey kemalari panasida men –

Hefest – Zevsning o‘g‘li, olov ma’budi

Uning sendan ming bor kuchli qasoskori – men turgan edim.
Ha, men sening tizing bukdim! Yem bo‘lgaysan it-u zog‘larga,
Patroklni esa izzat bilan dafn qilur danaylar”.

Dubulg‘asi obdor Hektor dedi unga zo‘r-bazo‘r ihrab:
“Aziz joning, ota-onang haqqi, sening poying quchaman.
Yolvoraman, otma jismim mirmidonning it, zog‘lariga;
Sen og‘zingga sig‘ganicha mis va oltin so‘ra men uchun;
Aytganingni yuborurlar padarim va mehribon onam;
Jasadimni qaytarsang bas, toki jami troyaliklar
Aza tutib, izzat bilan bul jismimni o‘tga qo‘ysinlar”.

Chaqqonoyoq shoh Axilles dedi unga xo‘mrayib turib:
“Sen, it, bekor quchma poyim, tilga olma otam-onamni!
Quloq ossam g‘azabimga, o‘zim go‘shting yegan bo‘lardim,
Seni tilka-pora qilib, – bizga shuncha badkorlik qilding?
Yo‘q, hech bir kas jasadingni kemiryotgan itni haydamas!
Agar menga o‘n, yigirma marta ortiq bebaho tuhfa
Olib kelib, yana shuncha boylik va’da qilishganda ham;
Shoh Priam vazningga teng oltin tortib berganida ham,
Hekuba o‘z tug‘gan o‘g‘lin ko‘rolmaydi o‘lim to‘shakda,
Boshing uzra to‘yib-to‘yib yig‘lolmaydi onaizoring;
Jasadingni quzg‘unlar-u itlar talon-toroj qilgaylar!”



“Axill va Hektor”. XVII asr niderland rassomi Piter Paul Rubens ishlagan surat

Dubulg‘asi obdor Hektor dedi unga jon berar ekan:
“Sezgan edim iltijomni inobatga olmasligingni:
Kimligingni bilar edim; toshdan ekan yuraging sening.
Shoshma hali, sen nechog‘lik iqtidorli bo‘lma, baribir,
Paris ila cho‘ng mergan Feb seni Askey darvozasida
Mahv etganda, men ma’budlar qahri bo‘lib zohir bo‘lgayman!”
Hektor shunday dedi-yu shum o‘lim yumdi uning ko‘zini;
Jismini tark etib ruhi, asta tushar ekan Aidga,
Zorlandi kuch va yoshligin tortib olgan talx qismatidan.

Peleyzoda yana xitob qildi shunda o‘lik jasadga:
“Sen o‘laver! O‘z muqarrar o‘limimni men adl turib
Kutib olgum, chaqmoqdor Zevs va ma’budlar ravo ko‘rgan on!”

Shunday deya tortib oldi u jasaddan qattol nayzani
Va bir chetga otib uni, mard Hektorning qonli sovutin
Yecha ketdi. O‘zga axey mardlari ham keldilar yelib.
Hamma hayrat bilan boqar pahlavonning bo‘y-basti-yu
Jamoliga va sanchardi bir-bir kelib unga nayzasin.
Ba’zi erlar bir-biriga yuzlanishib shunday derdilar:
“Qara, Hektor kemalarga o‘t qo‘ymoqchi bo‘lgan chog‘iga
Qaraganda ancha mo‘min va muloyim bo‘lib qoptimi?”

Ko‘plar shunday der edilar, yaqinlashib tig‘ sancharkanlar.
Lekin bu payt Peleyzoda yechintirib bo‘lib jasadni,
Axeylarning davrasida shunday balandparvoz nutq aytdi:
“O, yoronlar, mard axeylar, o, Areyning jasur lashkari!
Bir o‘zi o‘z lashkaridan ko‘p yovuzlik qilgan bu erni
Mahv etishga noil qildi oxir meni boqiy ma’budlar.
Endi hujum qilgaymiz biz metindevor azim shaharga;
Hujum qilib, uning ahlin niyatini bilib olgaymiz;
Endi Hektor o‘lgandan so‘ng, tark eturmi ular qal’ani,
Yoki uni muhofaza qilurlarmi sarkardasiz ham?
Evoh, nechun bunday xayol qutqu solur mening qalbimga?
Bandargohda dafn etilmay yotur hamon do‘stim Patrokl!
Hali tirik ekanman men, yurarkanman tiriklar aro,
Oyoqlarim harakatda ekan, aslo unutmam uni!
O‘lgan banda xotirasin yo‘qotadi Aidga tushgach;
Hatto o‘shal maskanda ham unutmam men sodiq do‘stimni!
O, axeylar, keling endi, kuylagancha zafar qo‘shig‘in
Priamzodning jasadini bandargohga sudrab boraylik.
Biz munavvar zafar quchdik! Halok bo‘ldi ilohiy Hektor!
Troyalik mardlar ma’bud deb sig‘ingan dilovar Hektor!”

Deb, noshoist bir ish qildi Peleyzoda jasadni xo‘rlab:
U Hektorning tovoni va to‘pig‘ining orasidagi

noshoist –
nojo‘ya, yomon

Payni teshib, undan tasma o‘tkazdi-da, jangarobaga
Bog‘lab qo‘ydi tasma uchin; jasad boshi sudraldi yerda;
Arobaga chqdi-yu u ko‘z-ko‘z qilib nodir sovutni,
Qamchi urdi otlariga: mute otlar yeldi shamoldek,
To‘zon turdi yer sidirib borayotgan jasad ortidan;
Priamzodning bir vaqtlar ko‘p bejirim bo‘lgan boshi ham,
Uning qora sochlari ham changga botdi; bu ulug‘ boshni
O‘z yurtida tahqirlardi endi g‘anim Zevs xohishi-la!
O‘z dilbandin changga botib xor bo‘lganin ko‘rgan volida
Yulib oppoq sochlarini, boshidagi o‘rtugin otib,
Oh urgancha o‘g‘lin qo‘msab, achchiq-achchiq yig‘lay boshladi.
Achchiq-achchiq ko‘z yosh qildi keksa ota; butun aholi
Aza tutdi; oh-u nola bosib ketdi butun shaharni.
Go‘yo azim Ilionni poyidan to cho‘qqisigacha,
U boshdan bu boshigacha yong‘in qamrab olganday edi!
O‘zin Askey qopqasiga otib, janggoh chiqmoqchi bo‘lgan
G‘amnok cholni zo‘rg‘a ushlab turardilar troyaliklar.
Mahzun podsho har bir erni nomin atab, oyoqlariga
Yiqilarkan, o‘ksib-o‘ksib yig‘lar edi iltijo qilib:
“Tutmang meni, o, azizlar, qo‘ying, chiqay shahar tashiga!
Borgum o‘zim mirmidonlar kemalari poyiga yolg‘iz
Va yolvorgum ul toshbag‘ir, bediyonat Peleyzodaga.

o‘rtuk –
yopinchiq, parda



“Axillning Hektor jasadini tahqirlashi”. Qadimgi yunon vazasidagi surat. Miflarga ko‘ra, Apollonning iloni jasadni shikastlanishdan saqlagan

Oq soqolim hurmati, u shafqat qilar men qariyaga;
U ham inson, munkillagan padari bor uning ham mendek;
Keksa Peley Troyaning sho‘ri qilib o‘stirdi uni,
Valekin yuz karra mening – Priamning sho‘ri bo‘ldi u!
U ne-ne yosh o‘g‘illarim xazon qildi muhorabada!

muhoraba –
jang

Hammalarin o‘lgani ham bir bo‘ldi-yu, sarlochinimdan
Ayrilganim o‘zi ham bir azob bo‘ldi; bu anduh meni
Go‘rga tiqqay! O, koshkiydi jon bersa u shu qo‘llarimda,
Hech bo‘lmasa, yig‘lab-yig‘lab yuragimiz bo‘shatardik biz, –
Biz, notavon ota bilan baxtiqaro ona ikkimiz!”

?

Priamning Axill oldiga borishidan naf chiqadi deb o‘ylaysizmi?

Ho‘ng-ho‘ng yig‘lab dedi podsho; jo‘r bo‘ldilar troyaliklar,
Hekuba ham xotin-xalaj ichra mungli yig‘lay boshladi;
“Nuridiydam, ne azobga qoldirding men – baxtiqaroni?
Ilionda mening yolg‘iz faxrim eding kecha-yu kunduz,
Sen suyangan tog‘i eding erkak, ayol, yosh-u qarining!
Har yerda el pushtipanoh ma’budlardek xushlardi seni:
Sen Troya elin buyuk iftixori eding, toylog‘im,
Bag‘rimizdan tortib oldi o‘lim sendek aziz insonni!”

Lek Hektorning ahvolini bilmas edi uning zavjasi;
Hali hech kim darvozadan tashqarida, jang maydonida
Uning o‘lib yotganini aytmagandi yugurib kelib.
U qasrning eng chekka bir go‘shasida qirmizi mato
To‘qir edi ajib, turfa gullardan naqsh solib sathiga.
Sal oldinroq amr etgandi u sumbulsoch joriyalarga,
Mahobatli sepoyaning ostiga o‘t qalab, janggohdan
Horib qaytgan Priamzodga suv isitmoq lozimligini.
Sho‘rlik xotin! U Hektorni keng dalada Axill qo‘li-la,
Afineya o‘ldirganin xayoliga ham keltirmasdi.
Birdan faryod qilgan sasni eshitdi u minora yoqdan,
Vujudi bir seskandi-yu tushib ketdi qo‘ldan urchug‘i;
Turib ketib u o‘rnidan dedi ikki joriyasiga:
“Qani, turing, yuring men-la, ko‘rmoqchiman ne bo‘lganini;
Qaynotamning ovozini eshiturman; qalbim hapriqib
Chiqmoq bo‘lur o‘z qinidan; tizzalarim qaltiramoqda!
Priamzodlar boshiga bir shum falokat tushmadimikin?..
O! Daf bo‘lsin xunuk xabar! Lek baribir qalbim larzada...
Yo ehtimol ma’budmonand mard Hektorni dashtda Axilles
Qopqa yoqqa yo‘lin kesib quvyatkandir yakka o‘zini!
Tag‘in erim jasoratdan bevaqt judo bo‘lmadimikin?
Botir Hektor hech vaqt o‘zin urmas edi olomon ichra;
Doim olg‘a otilardi, jasoratda beqiyos edi!”

Shunday deb u o‘z ko‘shkidan yelib chiqdi hayajon ila
Go‘yoki bir menadadek: joriyalar ergashdi unga;
Uchib chiqdi minoraga, odamlarning orasin yorib
Olg‘a o‘tdi va atrofga ko‘z yugurtib devor boshidan,
Boshdan oyoq changga botgan bir jasadni ko‘rdi dalada, –
Otlar axey kemalari tomon sudrab borardi uni.
Andromaxa ko‘z oldini birdan qora zulmat burkadi;
Bir oh urib hushdan ketdi u chalqancha yiqilar ekan.
Boshidagi hashamatli bog‘ichlar ham, ajib uqadan
Jiyagi bor nafis to‘r ham, oltin tojli Afroditaning
Armug‘oni – urtugi ham uchib ketdi (pahlavon Hektor

menada – esini yo‘qotgan ayol

Bir vaqtlar bisyor qalin evaziga Andromaxani
Etionning maqomidan o‘z uyiga olib ketganda,
Bu bebaho urtukni hur Afrodita tuhfa qilgandi).
Quti o‘chgan, g‘am adoyi tamom qilgan Andromaxaning
Atrofida ovsin, qayin singillari parvona edi.
U hushiga kelib oxir chuqur bir tin oldi-yu, so‘ngra
Achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kib faryod chekdi ayollar ichra:
“Sho‘rpeshona ekanman men, o Hektorim! Ikkalamiz ham
Badbaxt bo‘lib tug‘ilibmiz: sen – Priam koshonasida,
Men – Fivada, Plak tog‘in yonbag‘rida, shoh Etionning
Maqomida; badbaxt otam meni – badbaxt qizin papalab
Katta qildi. O, yaxshiydi bu kunimdan tug‘ilmaganim!
O, shavharim, sen Aidga – yer qa’riga rihlat etyapsan
Men bevani g‘am-u anduh og‘ushiga tashlab tamoman:
Endi ikki benavodan dunyo kelgan sho‘rlik o‘g‘limiz
Yetimlikning mashaqqatin tortur mudom! O, endi na sen
Unga homiy bo‘lolasan, na u senga tayanch bo‘ladi.
Hattoki u axeylarning qirg‘inidan omon qolsa ham,
Qolgan umri og‘ir mehnat, qayg‘u-hasrat bilan o‘tadi;
Begonalar tortib olur yetimchaning yer-u suvini.
Mahrum bo‘lur sho‘rlik yetim do‘stlaridan, boshpanasidan:
Ko‘zlari nam va boshi xam tentib yurar bolam bechora.
Gado bo‘lib otasiga do‘st bo‘lganlar uyiga borsa
Va goh uning, goho buning etagidan ohista tortsa, –
Ba’zilari rahm qilib qadah tutgay yetim og‘ziga, –
Ammo labi nam bo‘lar-u, tomog‘iga yetmas tomchi ham.

Afrodita – Zevsning qizi, go‘zallik ma’budasi

shavhar – er, rafiq



“Troya ayollari” filmidan lavha (AQSH – Buyuk Britaniya, 1971-yil). Hekuba rolida Ketrin Hepbern va Andromaxa rolida Vanessa Redgreyv

Ba’zan uni ko‘kragiga turtib haydar ota-onasi
Tirik bola ostonadan dilni vayron qiluvchi so‘z-la:
– Tur, yo‘qol, ket! Padaring yo‘q uyimizda mehmonlar aro! –
Avvallari otasining tizzasida o‘tirib olib,
Qo‘y iligi va go‘shtini to‘yib yegan Astianaksim
O‘ksib-o‘ksib yig‘lagancha beva ona qoshiga kelar;
Bir vaqtlar o‘ynab-o‘ynab charchaganda, enagasining
U orombaxsh quchog‘ida, par to‘shakda bamaylixotir
Shirin uyqu og‘ushida to‘ygunicha uxlardi yotib,
Ahvoli ne kechgay endi bu bepadar Astianaksning. –
Shu nom bilan atardilar uni doim troyaliklar,
Zero, faqat sen qopqani muhofaza qilganding, Hektor;
Endi bo‘lsa yov kemasi etagida, bizdan yiroqda
It g‘ajigan qip-yalang‘och jasadingni qurtlar kemirar!
Yalang‘ochsan! Lek ayollar to‘qib, tikkan nafis va go‘zal
Liboslaring koshonangda gard tegmasdan yotur besanoq!
Ular barin endi o‘tga tashlagayman men baxtiqaro!
Darkor emas senga ular, kiyolmaysan ularni endi!
El oldida yoqqum sening sharafingga jami libosing!”
Shunday nola qilardi u; jo‘r bo‘lardi barcha xotinlar.

Qodir Mirmuhamedov tarjimasi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Doston shunday boshlanadi:

O, ma’buda, Peley o‘g‘li Axillesning g‘azabin madh et,
Ul g‘azabki, yunonlarni qon qaqshatib qirdi pashshaday,
Son-sanoqsiz pahlavonlar jonin yo‘llab Aid qa’riga,
Jasadlarin otdi qonxo‘r it-u och quzg‘unlarga.
Boshlangandi bu musibat – ma’bud Zevs xohishi ila
Xalq cho‘boni Agamemnon va serhimmat, mard Axillesning
Orasida o‘shal ilk bor nizo chiqqan dahshatli kundan.

Sizningcha, dostonning asosiy mavzusi nima? Unda qanday g‘oyalar ilgari surilgan?

2. Doston yaratilgan davrda qadimgi yunon polislari o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lib turgan. Sizningcha, “Iliada” muallifining urushga munosabati qanday? Asardagi qaysi o‘rinlar bu munosabatni aniqlashga yordam beradi?

3. Asarda qahramonning ichki dunyosi, o‘y-kechinmalarining tasvirlanishi psixologizm deyiladi. Qahramonning kechinmalari bevosita (uning hislari, o‘ylarini bayon qilish orqali) yoki bilvosita (xatti-harakatlari, nutqi,

boshqalarga munosabati orqali) ochib berilishi mumkin. “Iliada”dan berilgan parchalarda Hektorning kechinmalari bevosita va bilvosita tasvirlangan o‘rinlarni toping. Qaysi o‘rinlarda Hektor epik qahramon va qaysi o‘rinlarda inson – farzand, ota, turmush o‘rtoq sifatida namoyon bo‘ladi?

4. Hektor va Axillga xos xususiyatlarni daftaringizga jadval asosida yozing.



	Xususiyat	Bu xususiyatlarni ochib beradigan misol
Hektor		
Axill		

Muallif bu ikki qahramondan qaysi biriga ko‘proq xayrixoh deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.

5. Qadimgi yunonlar e’tiqodida ma’budlar irodasi, taqdiri azal tushunchasi asosiy o‘rin tutadi. Dostonda bu g‘oyalar qanday aks etgan? Ma’budlar aralashuvisiz doston voqealari qanday rivojlangan bo‘lardi deb o‘ylaysiz?

6. Asar sizda qanday taassurot qoldirdi? Sizningcha, uning jahon adabiyoti durdonalari qatoriga kiritilishi va keyingi davrlarda yaratilgan ko‘plab san’at asarlari uchun asos bo‘lib xizmat qilishi sabablari nimada?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Dostondan sizga ta’sir qilgan lavhani tanlang. Asar matni va qo‘shimcha manbalarga tayanib mazkur lavhani tahlil qiling va taqdimot tayyorlang.



Homerning “Iliada” asarini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

ANTIK ADABIYOT VA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI: “ODISSEYA” VA “ALPOMISH” DOSTONLARI QIYOSIY TAHLILI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Odisseya” va “Alpomish” dostonlaridagi o‘xshash motivlarni solishtiramiz.

Homerga nisbat beriladigan yana bir doston – “Odisseya”da Troya urushi ishtirokchilaridan biri, Itaka shohi Odisseyning uyiga qaytishdagi sarguzashtlari bayon qilinadi. Urush tugaganidan o‘n yil o‘tib ham Odissey dengiz ma’budi Poseydonning jahlini chiqargani uchun Itakaga qayta olmaydi. Bu paytda Itakada Odisseyning boyligi va rafiqasiga ko‘z olaytirgan “kuyovlar” Penelopaning qo‘lini so‘rab, uni nomzodlardan biriga turmushga chiqishga majburlashadi.



“Penelopa va kuyovlar”. Ingliz rassomi Jon Uilyam Uoterhaus ishlagan surat (XX asr boshi). Kuyovlarni aldash maqsadida vafodor Penelopa kafanlik to‘qishini va uni to‘qib bo‘lgandan keyingina qayta turmushga chiqishini aytadi, lekin vaqtni cho‘zish maqsadida kunduzi to‘qiganini kechasi so‘kib yuboradi.

Ma’buda Afina Itakaga kelib, Telemaxdan otasi Odisseyni izlab topishini so‘raydi. Telemax Sparta shohi Menelaydan otasining Ka-

lipso orolida tutqunlikda ekanini bilgach, Itakaga qaytadi. Bu orada ma’budlarning amri bilan Kalipso ham Odisseyni ozod etadi va u Afina yordamida qiyofasini o‘zgartirib, Itakaga qaytadi. Odissey va Telemax sodiq xizmatkorlari Evmeyning uyida uchrashishadi. Odissey og‘liga sirni ochadi va ular kuyovlarni jazolash rejasini tuzishadi.

Gadoy qiyofasidagi Odissey o‘z uyiga boradi. Enagasi Evrikleya uning oyoqlarini yuvayotgan paytida chandiqlaridan tanib qoladi, lekin Afinaning sehri tufayli bu sirni Penelopaga ayta olmaydi. Afinaning maslahati bilan Penelopa kuyovlarga bir shart qo‘yadi: kim Odisseyning kamonidan o‘q uzib, o‘qni o‘n ikki halqadan o‘tkaza olsa, Penelopa o‘shanga turmushga chiqadi. Yolg‘iz Odisseygina bu shartni bajara oladi va kuyovlarni o‘ldirib, Penelopaga o‘zining kimligini oshkor qiladi.

“Odisseya” dostonidagi bedarak ketgan qahramonni vafodor yori uzoq kutishi va uning boshqalar tomonidan ikkinchi marta turmush qurishga majburlanishi, bosh qahramon uyga qaytganda sodiq xizmatkori uning tanasidagi belgidan tanib olishi, qahramonning boshqa qiyofada hech kim o‘q uza olmaydigan kamonidan o‘q otishi singari voqealarda o‘zbek xalqining “Alpomish” dostoni bilan yaqinlikni kuzatish mumkin.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Odisseya” va “Alpomish” asarlari syujeti va asosiy obrazlaridagi (gadoy qiyofasidagi Odissey – Qultoy qiyofasidagi Alpomish, Penelopa – Barchinoy, Telemax – Yodgor, kuyovlar – Ultontoz) o‘xshash va farqli jihatlarni solishtiring. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

“Odisseya”ga xos jihatlar	“Alpomish”ga xos jihatlar	Har ikkala dostonga xos jihatlar

O‘ylab ko‘ring-chi, turli davr va makonda yaratilgan bu ikki asardagi o‘xshashliklar sababi nimada bo‘lishi mumkin? Ulardagi farqlar bu asarlarni yaratgan xalqlarga xos qanday xususiyatlarni ko‘rsatadi?

“ODISSEYA”DAN:
YIGIRMA BIRINCHI QO‘SHIQ

Yevrimax bu payt Odissey kamonini yumshatish uchun
Lov-lov yonib turgan gulxan tepasida aylantirardi;
Lek u ham zabt etolmadi bu kamonni va chiday olmay
Alamiga, bor ovozi bilan na’ra tortib hayqirdi:
“Evoh, qanday sharmandalik! Biz hammamiz uyatga qoldik:
Yo‘q, qayg‘urmam bu nikohning menga nasib etmasligidan, –
Bizning Itakamizda ham, undan keyin, Kefallenyaning
Boshqa o‘lkalarida ham bo‘yga yetgan dilbar qizlar ko‘p.
Lek Odissey kamonini birontamiz xiyol bo‘lsa ham
Ega olmay, nimjon bandaligimizni oshkor qildikki,
Bu dog‘ hali bizning avlodlarni ham ko‘p uyatga qo‘yur”.
Lekin unga qarshi chiqib dedi Yevpeyt o‘g‘li Antinoy:
“Yo‘q, Yevrimax, bu aytganing bo‘lmaydi hech; o‘zing ham yaxshi
Bilasan-ku, Apollonning qavmi bugun bayram qilmoqda:
Kamon chillasini tortish odobdanmas shunday ayyomda;
Hozir bizlar bu kamonni yashiraylik; lek halqalarni
Qo‘zg‘atmaylik; qolsinlar o‘z joylarida; ularni hech kim –
Na qullar, na joriyalar o‘g‘irlashga jur’at eturlar.
Hozir soqiy qadahlarni to‘ldirsin tez muattar mayga;
Biz Zevsga may paymo qilib, so‘ng yashirib qo‘yaylik yoyni.
Dono echkiboqarimiz Melanfiy tong otishi bilan
Echkilarning saralarin bu dargohga haydab keladi;
Ular go‘shtin bag‘ishlaymiz kumushkamon Feb Apollonga;
Kamon egishda bizga u o‘zi madad bergay albatta;
Ana unda terlab-pishib kuch ishlatib o‘tirmaymiz ham”.
Shunda hamma ma’qul ko‘rdi Antinoyning bu taklifini
Bu asnoda udaychilar qo‘l yuvgani suv keltirdilar;
Dastyorlar may jomin zilol mayga lim-lim to‘ldirdilar-da
Qadahlarni hammaga o‘ng qo‘ldan boshlab sunib chiqdilar;
Hamma paymo qilib maydan qolganini ichdi miriqib.
Dedi shunda ko‘zlab ajib bir nayrangni dono Odissey:
“Malikaning oshiqlari, tinglang ikki og‘iz so‘zimni,
Bayon etay sizga qalbim hamda aqlim buyurganini:
Ey Yevrilox va Antinoy, oqilona hal etdingiz siz
Bu jumboqni; endi tinglang mening ezgu maslahatimni:
Qolgan ishni ma’budlarga topshiring-u kamonga tegmang.
Apollon ko‘rsatur g‘olib bo‘lgan kasni ertaga o‘zi;
Lek siz menga ruxsat bering, bu g‘aroyib kamonni olib
O‘zimni bir sinab ko‘ray – bilagimda yoshligimdagi
Qudratimdan oz-mozgina qolganmikin, yo daydi hayot
Va nochorlik hammasini zuluk yanglig‘ so‘rib olganmi”, –
Dedi. Lekin hech kim uning iltimosin quvvatlamadi.



Qo‘rqib ketgan edi ular, agar ega olsa-ya yoyni,
Degan xayolga borishib. Javob qildi unga Antinoy:
“Nima deding, yalangoyoq?! Yeb qo‘ydingmi esingni butkul?
Davramizga seni qabul qilganimiz kammi, qani, ayt?!
Sen biz bilan birga ishrat qilyapsan va hamsuhbatimiz
Bo‘lyapsanki, hech qachon hech bir gadoni yo‘latmagandik
Yonimizga. Yana nima istaysan sen? Chamamda, sharob
Ichaverib, ayrilibsan sen aqlingdan; me’yorni bilmay...
Kim qo‘yibdi senga bizdek yoshlar bilan kuch sinashishni?”
U jim qoldi. Penelopa uning gapin ma’qullamadi:
“Yo‘q, Antinoy, insofdanmas Telemaxning mehmonlarini
Haqoratlab yerga urish. Balki, hali sen, bu qariya
Cho‘ng kamonni egsa agar, malikaga uylanadi, deb
O‘ylayotgan bo‘lsang kerak? Bunday fikr cholning tushiga
Ham kirmagan. Siz xotirjam bo‘ling, bunday xomxayol bilan
Ko‘nglingizni g‘ashlamang ham – bu amalda bo‘lmaydigan ish”.
Javob qildi malikaga Polibiyning o‘g‘li Yevrimax:
“O qariya Ikariyning dono qizi Penelopa, biz
Qariyaning seni xotin qilishiga ishonmaymiz – bu
Bo‘lmagan gap; lek qo‘rqamiz biz uyatga qolishdan hamda
Avom xalqning biz haqda mish-mish gaplarni tarqatishidan.
“Sharmandalar, ul dilovar erning bitta kamonini ham
Ega olishga qurblari yetmabdi-yu, shoh xotiniga
Uylanmoqchi bo‘lganlari qiziq juda. Lek, ana, bizning
Toifadan bo‘lgan g‘arib sayoq kelib kamon chillasin
Hech qiynalmay tortib bog‘lab, barcha halqalarni oralab
Otgan o‘qin tekkizibdi u nishonga”. Bu xalq shunday deb
Bizni badnom qilur, unda bu uyatga biz chidolmaymiz”, –
Dedi. Unga javob qildi Ikariyning oqila qizi:
“Yo‘q, Yevrimax, xojasi yo‘q xonadonning mol-davlatini
Sovuruvchi uyati yo‘q odamlarni badnom qilurlar,
Tahqirlarlar; lek bu ishning hech qandayin uyati yo‘qdir;
Bu musofir – ko‘p xushqomat, bilaklari baquvvat g‘oyat,
Aytishicha, aslzoda kishilarning farzandi ekan.
Bering unga Odisseyning kamonini – ko‘raylik ishin.
Yana bir gap (bu gap aniq ijro bo‘lur), agar chol kamon
Chillasini tortib, Apollon hamdiga sazovor bo‘lsa,
Unga xiton, mantiya va oyog‘iga shippak beraman;
Keyin nayza bilan ikki damli qilich tuhfa etayki,
U o‘zini bezorilar va itlardan himoya qilsin.
So‘ngra uni jo‘nataman o‘zi sevgan mamlakatiga”.
Odisseyning oqil o‘g‘li shunday dedi volidasiga:
“Eh onajon, Odisseyning kamoniga hech kim – na toshloq
Itakaning, na seryilqi Elidaning qo‘shnisi bo‘lgan
Orollarning bironta ham fuqarosi ega bo‘lolmas:
Faqat men hal etgum uni kimga berish, yo bermaslikni.

Gar xohlasam, bu kamonni sadoq to‘la o‘qlari bilan
Tortiq qilgum biron zotga, hech kimsadan so‘rab o‘tirmay.
Onajon, sen uyingdagi tikish, to‘qish ishlari bilan
Mashg‘ul bo‘lgin; oqsochlarning xizmatini kuzat damo-dam.
Kamon haqda gap yuritish ayollarning vazifasimas,
Bu erkaklar ishi, ya’ni mening ishim; bu xonadonda
Endi faqat men sohibman”. Shunday dedi. Bu bayonotdan
Hayron qolgan Penelopa qaytib chiqdi xobxonasiga,
O‘g‘lonining farosatli gaplarini dilga jo qilib.
U mehribon oqsochlari davrasida o‘tirar ekan,
Suyuk yori Odisseyni qo‘msab achchiq-achchiq yosh to‘kdi
To Afina diydasiga totli uyqu ufurmaguncha.
Bu payt Yevmey kamon bilan o‘q sadog‘in olib, Odissey
Tomon shoshib yura ketdi. Kuyovlar do‘q qilishib unga,
Shunday deya chuvullashdi hamma yoqni boshga ko‘tarib:
“To‘xta, ovsar! Sen kamonni qayga olib ketyapsan o‘zi?
Feb Apollon bilan mas’ud ma’budlar gar ertaga zafar
Baxsh etsalar bizga, seni cho‘chqalaring qo‘riqlash uchun
O‘zing boqib katta qilgan itlaringga yem qilajakmiz”.
Shunday derdi ular. Yevmey kuyovlarning hayqirig‘idan
Qo‘rqib ketib kamonni qayta joyiga qo‘ymoqchi edi,
Lek Telemax g‘azablanib shunday dedi cho‘chqaboqarga:
“Hey Yevmey, sen dovdirama, bo‘l, kamonni olib kelaver;
Yo hammaning ko‘nglin birday ovlamoqni istab qoldingmi?
O‘ylama ham; yo‘qsa, bo‘lsang ham qariya, seni do‘pposlab
Qirga haydam ishlagani; yoshman – kuchim yetadi senga.
Oh, jamiki kuyovlarning kuchi menda bo‘lsaydi, ular
Bunda ortiq zo‘ravonlik qila olmay, uy-uylariga
Tiraqaylab qochardilar, yuraklarin hovuchlagancha”.
Shunday dedi. Va kuyovlar xandon tashlab kuldilar undan,
Ammo endi so‘ngan edi Telemaxga qarshi g‘arazlar.
Odisseyzod amri bilan, Yevmey kamon hamda o‘qlarni
Bazmgohdan olib o‘tib sohibining ilkiga berdi;
So‘ng chaqirib shunday dedi pitrak kampir Yevrikleyaga:
“Telemaxning amrin eshit: joriyalar xonalariga
Kirib, ichdan qulflab olsin eshiklarni; mehmonxonadan
Biron shovqin eshitsalar, jilmasinlar joylaridan hech.
Mashg‘ul bo‘lib o‘tirsinlar o‘z kundalik ishlari bilan”.
Bu so‘zlarni e’tiborsiz qoldirmadi dono enaga.
U qulfladi oqsochlarning xonalari eshiklarini;
Filoytiy ham bazmgohdan asta-sekin hovliga chiqib,
Darvozani qulfladi; u dahlizdan kemalar uchun
Mo‘ljallangan qamish arqonini topib, shu arqon bilan
Darvozaning zulfinini bog‘ladi-da, so‘ng ichkariga
Qaytib kirib o‘z joyiga borib indi. U ko‘z uzmasdi
Odisseydan: shoh kamonga biron shikast yetmadimikin,

Yoki kemirmadimikin qurt-qumursqa, degan o‘y bilan
Har tomonga aylantirib ko‘rar edi uni qo‘lida.
Kuyovlar o‘zaro shunday gaplashardi bir-biri ila:
“Kamon tilin biladigan ko‘rinadi, chamasi, bu chol;
Balki, o‘zi kamonsozdir va uyida o‘zi yasagan
Kamonini qiyoslamoqchidir shunga; ana, qaranglar,
Qanday diqqat bilan ko‘zdan kechirmoqda uni bu gado!”
“Lekin, – deya kuldi hamma miyig‘ida, – bu amrimahol!
Bu daydi chol Odisseyning kamonini qanday eplasa,
Bundan buyon shunday omad unga doim yor bo‘la qolsin”.
Bu kuyovlar gapi edi. Lek Odissey mudhish xayollar
Og‘ushida qolib, hamon kuzatardi buyuk kamonni.
Soz chalishning havosini olgan mashshoq qo‘shiq kuylashdan
Oldin uning g‘oyat nafis torlarini chertib ko‘rgandek
Tarang tortib, Odissey ham itoatsiz kamon shoxiga
Zumda ildi chilla ipin. So‘ngra tarang chillani asta
Chertgan edi, u ko‘kdagi qaldirg‘ochday vizillab ketdi.
Kuyovlarning yuraklari bezilladi, qutlari o‘chdi;
Shu chog‘ Zevs ham belgi berib, momaqaldirog‘ini ko‘kda
Gumburlatdi; shodumonlik qamrab oldi Odissey qalbin.
Zevs bu gumburlashi bilan ezgulikdan darak bergandi;
Odissey o‘z yonidagi xontaxtada yotgan bir uchqur
O‘qni oldi; qolganlari sadoqdaydi – hali ularning
Vahshiyona vizillashin eshiturlar barcha kuyovlar.
Odissey u patli o‘qni kamonining yoniga tirab,
Nishonga oldi jamiki halqalarni va chilla tortib
U o‘q uzdi – o‘q halqalar ichidan hech bittasini ham
Shikastlamay uchib o‘tib, borib tegdi to‘g‘ri nishonga.
Ana shunda Telemaxga ma’budmonand bu mergan dedi:
“O Telemax, ko‘rib qo‘ygin, pand bermadi senga mehmoning;
Rosa nishonga tekkizdim; Odisseyning cho‘ng kamonini
Egishda ham qiynalmadim. Ko‘pdan beri darbadar yurgan
Bo‘lsam hamki, hali kuchim yo‘qotmabman; bu kuyovlarning
Meni ortiqcha yuk deya xo‘rlashlari endi ne bo‘lur?
Lekin biz qosh qoraymasdan mehmonlarga o‘zga ziyofat
Tayyorlamog‘imiz lozim, boz ustiga, har ziyofatning
Go‘zal ko‘rki – yangroq sozga jo‘r bo‘luvchi qo‘shiqlarni ham
Yangilamog‘imiz kerak moslab bugungi ziyofatga”.
U shunday deb qoshi bilan imo qildi. Shunda ma’budvash
Telemax bu ishorani fahmladi; tez shamshirini
Kamariga qistirdi-da, qo‘lga oldi tig‘dor nayzasin
Va otasi orqasiga borib, obdor mis silohini
Yaraqlatib, qonli jangga shayligini bildirib turdi.

Qodir Mirmuhamedov tarjimasi

“ALPOMISH” DOSTONIDAN

Alpomish Qultoy qiyofasida Barchinga uylanayotgan Ultontozning to‘yiga keladi.

Kelib, to‘yni qulluq bo‘lsin qildi. Ultontoz qulluq bo‘lsinini olib: – Bobo, qo‘ydan kelgan ekansiz, – dedi. “Qultoy” turib aytdi: – O‘g‘lim, qo‘yda yurib, seni to‘y berayotir, Alpomishning xotinini olayotir, deb eshitdim, nima bo‘lsa, zamon o‘zimizniki bo‘lib qoldi, deb qo‘yda ham turgim kelmadi. Ultonbekning to‘yiga borayin, inqillab paloviga to‘yayin, o‘ngg‘ayi kelsa, to‘ppi, ro‘molini olayin, deb sola berdim. Ultontoz turib aytdi: – Bobo, kelsangiz, yaxshi kelibsiz, oshpazlarning ichiga boring, bir qozonga o‘t yoqqich bo‘ling, oshdan yeb, xo‘b qorningizni to‘yg‘izib oling.

“Qultoy” turib jo‘nab ketdi. Oshpazlarning ichiga oralab ketdi. Qirq oshpaz qirq qozonni osib oshni pishirib yotibdi. Har yigitlar o‘t yoqqich bo‘lib turibdi. “Qultoy” har qaysiga teginayotibdi. – Bobo, senga bir gap bo‘ldimi? – desa, – zamon o‘zimizniki bo‘p qoldi, – deydi. Bir yigitning yelkasidan oldi, olib turib yerga bir urdi. – Men nima qildim? – deb entikib qoldi. – O‘g‘limning to‘yida o‘zim o‘t yoqaman, – deb siriqni qo‘liga oldi. Bir qozonga o‘t yoqqich bo‘ldi. Hamma oshni pishirmak bilan bo‘lib yotdi. Bul bu yoqqa o‘tdi, u yoqqa o‘tdi, bir qozon oshni pishmay turib quritdi.

Alpomish bor vaqtida ozod qilgan Farmonqul degan quli bor edi. Ko‘rdi, bu qul to‘yga bakovul bo‘lib turibdi. Bu vaqtida Yodgor (Alpomishning o‘g‘li) to‘yxonani oralab kela berdi. Bakovul kapgirni sermab yubordi: – To‘yxonada senga nima bor? Kapgir Yodgorning beti-og‘ziga tegib, og‘zi qonab, chirqillab yig‘lab qoldi. Muni ko‘rib “Qultoy” bakovulga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

Shamol tursa, shobirlaydi shoterak,
Yodigorga zulm qilma, badirak,
Bir ilikman go‘shting ado bo‘lami?!
Alpomish borinda rahbar bo‘lgandi,
O‘ylagin otasi ozod qilgandi.
Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lami,
Oblo sening aqli-hushing olami,
Alpomish arvohin hurmat qilmading,
Bir ilikman go‘shting ado bo‘lami?!
“Qultoy” qulning so‘zin sen ham bilasan,
Yodigorga nega zulm qilasan,
Pisand qilmay, bunga azob berasan,
Go‘shtga to‘yib, ko‘tarilib turasan,
Yodigorni juda bejoy urasan,
Bu yerda sen bir nokaslik qilasan.
Kattalikning ishi shunday bo‘lami,
Behuda yetimga azob berami,
Bergan bilan go‘shting ado bo‘lami?
Yodigorning qo‘yin so‘yib olasan,
Shuning orqasidan katta bo‘lasan,
Mol egasini sen ham nega urasan,
“Qultoyning” so‘zini shunday bilasan.

Bu so‘zni aytib, bir katta ilikni olib, Yodgorga ushlatib yubordi. Yodgor ilikni qo‘liga ushlab, bir yog‘ini og‘ziga tishlab, enasining qoshiga ketdi. Bir

necha devonbegilar aytdi: – “Qultoy” juda yurtni buzdi, Yodgorning qo‘lidan ilikni olib qo‘yinglar. Bir nechasi aytdi: – Kel-e, “Qultoy” ham o‘zimizning kattamiz-da, kattalik qilib bir ilikni olib berdi. Bir ilikni Yodgoroq yeyaqo‘ysin...

Yodgor enasining oldiga ilikni ushlab kulib kirib bordi. Enasi kulib borganini ko‘rib, vaqti xush bo‘lib, bir so‘z aytib turgan ekan:

Men yig‘ladim Yaratganga zor-u zor,
Zorimni eshitsa qudratli Jabbor,
Duogo‘ying (menman), enang mushtipar,
Ne sababdan kulib kelding, Yodigor?
Yo‘qsa, bolam, bir lodonlik qildingmi,
Yo birovdan bir iliq so‘z bildingmi,
Ul sababdan, lodon bolam, kuldingmi? ...

Bu so‘zni eshitib, Yodgor ham enasiga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

Enajon, quloq sol aytgan tilima,
Balki erkin bo‘ldim Qo‘ng‘irot elima,
“Qultoy” bobom ilik berdi qo‘lima,
Ul sababdan kulib keldim oldingga.
Necha yildan beri men ham sargardon,
Boshimdan ketganday qayg‘uli tuman,
Ko‘nglima qo‘rqqanday bo‘ldi ko‘p dushman,
“Qultoy” bobom menga bo‘ldi mehribon. ...

Bu so‘zni Yodgordan eshitib, enasi bir so‘z aytib turgan ekan:

Qultoy bobong o‘z kunini ko‘rolmas,
Qultoy bobong senga ilik berolmas.
Qultoy bo‘lib, bolam, otang kelgandi,
Mung‘ayganda ahvolingni ko‘rgandi,
Qultoy bo‘lib to‘yxonada yurgandi,
Ko‘rib senga mehribonlik qilgandi,
Bolam, senga otang ilik bergandi,
Inshoollo, ko‘rarmiz shunday polvondi.
Xazon bo‘lsa, bog‘da gullar so‘lgandi,
So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ngandi,
Kashal yurtga ketgan otang kelgandi,
Yetti yil Qalmoqda bandi bo‘lgandi,
Omon-eson undan ozod bo‘lgandi,
El-u yurtin hozir kelib ko‘rgandi,
Inshoollo, ko‘rarmiz shunday polvondi. ...

Bu so‘zni aytib, Yodgorning vaqtini xushlab turdi. (Endi) bu to‘yda qullarning yoyandozlik o‘yin boshlab yotgan yeri:

“Qultoy” mard ishni ko‘rsatdi.
Qullarning yoyini olib,
Ko‘zlab nishonani otdi,
Shiqirlatib yoyni tortdi,
Bu o‘yinga yig‘ilgan yoy,
Hammasi ham sinib ketdi.
Ko‘p odam hayron bo‘p yotdi.
“Qultoyda bu qanday g‘ayratdi,
Tortgan yoyi sinib ketdi,

Qultoyda yo‘q bu quvvatdi(r).
O‘zimizga ma’lum Qultoy,
Yaqinda kuch berdimi xudoy?
Bu Qultoyda bir balo bor,
Hech kim bo‘lolmas barobar”.
Yangi ko‘rgan xaloyiqlar
Hayron qolib bari so‘rar.
“Bobo, ishing qanday bo‘lar,
Yoy tortuvni qaydan bilding?
Qancha yoylarni sindirding,
Sen kimdan ta’lim olding?
Yoyandozlikni ne bilding?”
Hamma “Qultoy”ning qoshiga,
So‘rab yotir o‘z boshiga,
Qoyil bo‘p “Qultoy” ishiga.
“Qultoy” bobom javob berar,
Shunday qip anga gapirar.
“Bilmaysan, “Qultoy” zo‘rabor
Ilgaridan xo‘b havaskor,
Dobonbiyning parli yoyini
Tortib bul “Qultoy” o‘rganar,
Arpa ko‘lda birga yurgan,
O‘n to‘rt botmon yoy tortganda,
Alpomish ham hayron qolar”.

“Qultoy”: – Men sizlarga burungi kuchimni aytay, Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan, o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan (yoyi bor edi). Arpalining ko‘lida yotib, Alpomish bilan ikkovimiz yoy tortishar edik. O‘n to‘rt botmon yoyni ko‘tarib tortar edik, yoyining o‘qi yashinday bo‘lib ketar edi. Asqar tog‘ning katta cho‘qqilarini yulib o‘tar edi. Alpomishning yoyining o‘qidan mening yoyimning o‘qi o‘tar edi, – dedi.

Bu so‘zni eshitib, turgan odamlar aytdi: – Bobo, siz qariganda aynibsiz, endi ko‘tarilma-loppi bo‘psiz, o‘n to‘rt botmon deganingiz, bir og‘ir narsa.

“Qultoy” aytdi: – Aytovur, biz og‘ir-yengilini bilmas edik, biz uni chivincha ham ko‘rmas edik.

Qullar aytdi: – Shu Alpomish yoyining qayerda qolganini bilmaymiz, bilsak, olib kelib berib, torttirib ko‘rar edik.

“Qultoy” turib aytdi: – Sizlar bilmasanglar ham, men bilaman, yetti yil bo‘ldi Alpomish borib bandilikda o‘lib ketganiga. Alpomish ketganda, Arpalining ko‘lida qolib edi, shundan beri ajriq bosib yotgandir.

Shunda qullar odam buyurdi. Yoyning bor ekanini ko‘rdi, ko‘p qo‘sh ho‘kizlarni haydab bordi, yoyni qimirlata olmadi. ...

Yodgor yolg‘iz yo‘lga kirib,
Bir necha hisobin yitirib,
Yodgor ishini bitirib,
Otasin yoyin keltirib,
Qaysarning o‘g‘li boradi.
Jahon titrar Yodgor ovozasiga,
Quloq soling bu so‘zning mazasiga,
O‘n to‘rt botmon parli yoyni sudirab,
Kelib qoldi Qo‘ng‘irot darvozasiga.

Oh urganda xasta ko‘nglin xushladi,
Necha dushmanlarning sirin foshladi,
To‘yxonaga olib kelib tashladi.
To‘yxonaga shul ovoza bo‘ladi,
O‘n to‘rt botmon yoyni olib keladi,
Shu zamon Barchin gul kelib qoladi.
Bolasining qilgan ishin ko‘radi,
Yodigordin necha marta aylanib,
Yodgorning betidan Barchin suyadi.
Bir obloga yetdi mening nolam, deb,
Obod bo‘lar munda kulbaxonam, deb,
Bo‘yingdan sadag‘a menday enang, deb,
Otasin o‘rnini bosar o‘g‘lim, deb.
“Qultoy”ning ko‘ngliga so‘zlar joy tutib,
Qo‘ng‘irot elda ko‘p tomosha ko‘rsatib,
Bu yoyning qoshiga kelgandir yetib,
Shul zamon parli yoyni tebratib,
Ko‘pdir tomoshamon, yon-yoqni tutib,
G‘ayratini odamlarga ko‘rsatib,
Ko‘ring endi “Qultoy” marddi,
Ul chinorni o‘qqa tutdi.
Bek “Qultoy” qildi g‘ayratdi,
G‘ayrati g‘ayratga yetdi,
To‘kirlini tuman tutdi,
O‘tdayin tutanib ketdi.
Shiqirlatib yoyni tortdi,
Yoyning o‘qi chiqib ketdi,
Yashinday bo‘p shu zamonda,
Ko‘ring u chinorga yetdi,
Bu chinorning bir shoxini
Yoyning o‘qi yulib ketdi,
O‘qqa uchgan chinor shoxi
Dahsarilik yerni tutdi,
Balki shu so‘zlar bo‘p ketdi.
Ko‘rib qullar hayron qopti,
“Qultoy” ishini ko‘rsatdi,
Ovozasi yurtga ketdi.
Emish-memish gap bo‘p yotdi,
“Qultoy qanday yoyni otdi”,
Bir nechalar yo‘q bo‘p ketdi.
“Qultoy emas, bu balodi(r),
Bul bir balo qiladi,
Qursin Ultontozning to‘yi,
Bu yerda turgan o‘ladi”.
Bir nechasi gumon qilar,
“Alpomish tayin keladi,
Qultoyda ne jon bo‘ladi”.



“Alpomish” dostonini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

TAKRORLASH

Quyidagi savollarga daftaringizda yozma javob bering. Fikringizni aniq va lo‘nda ifoda etishga hamda matnlarga tayangan holda misollar keltirishga harakat qiling.

1. Qadimgi dunyo adabiyoti namunalaridan insoniyat tarixining ibtidosida yashagan xalqlar haqida nimalarni bilib oldingiz? Bu asarlardan o‘zingiz uchun kashf qilgan uch yangi ma’lumotni jadvalda aks ettiring.

Men kashf qilgan ma’lumot	Qaysi sivilizatsiyaga xos	Qaysi asar(lar)da aks etgan?

2. Har qanday millat adabiyotida epos (doston) va epik qahramon muhim ahamiyat kasb etadi. Go‘ro‘g‘li yoki Alpomish, Axill yoki Odissey misolida epik qahramonga xos uch xususiyatni ko‘rsating. Sizningcha, epik qahramonlar nega shunday xususiyatlar egasi qilib tasvirlangan?

3. Mif nima? Uning ertakdan asosiy farqi nimada? Mifologiyaning qadimgi dunyo adabiyotiga kuchli ta’sirini qanday omillar bilan bog‘lash mumkin?

4. Quyida turli sivilizatsiyalarga oid asarlardan parchalar berilgan. Ushbu parchalarda qanday g‘oya(lar) ilgari surilmoqda? Bu g‘oya(lar) talqinida qanday umumiylik va o‘ziga xoslikni kuzatdingiz? Sizningcha, turli zamon va makonda yaratilgan asarlardagi g‘oyalar mushtarakligini qanday sabablar bilan izohlash mumkin?

A) **Hasratchi:**

– Ey dono, quloq sol, aytib beray Ko‘nglimdagi qayg‘u-alamni. (Men quling) ey dono, seni sharaflay, Dunyoda sen kabi dono qaydadir? Senga teng keluvchi olim qaydadir? Maslahatchi qani? Dardimni aytsam. Kamina oilada kenjasi edim, Otamdan ayrildim taqdir hukmi-la. Borsakelmas tomon onam ham ketdi. Himoyasiz qoldim yetimlik ila.

Dono do‘st:

– Do‘stim, aytganlaring qayg‘uli holdir, Lekin sen baribir yaxshi niyat qil. Oqil odam bo‘l-u tentak bo‘lmagil, Ochiq chehrali bo‘l, g‘amga botmagil. Hammaning ota-onasi ketar bir kuni “Xubur ”daryosidan nari – sohilga...

Hasratchi:

– Do‘stim, qalbing daryo, suvlari doim Mavjlanguvchi dengizga mengzar. Sendan so‘raydigan gaplarim ko‘pdir. Omad yuz o‘girdi, quvvatdan qoldim, G‘am-u hasrat ichra hayotdan toldim.

Dono do‘st:

– Aqling joyida-ku, so‘zlaring chalkash, Chiroyli chehrangni ko‘rga o‘xshatma. Ne tilasang, bir kun yetasan, Toat-ibodat qil, shafqat qilurlar, Ketgan yaxshi kunlar qaytib kelurlar.

Qadimgi Bobil dostoni

B) *Gunohimiz, kirdikorimiz*
Izsiz bo‘lib yo‘qolib ketmas,
Quyosh, Olov, Yer hamda Osmon,
Ko‘kdagi Oy va yelgan Shamol,
Inson qalbi ko‘rar va bilar
Haqiqatni juda ham ravshan.

“Mahabharata”dan
(Sotiboldi Yo‘ldoshev tarjimasi)

D) *Bu foniy dunyoda ham,*
U boqiy dunyoda ham
Aldoq o‘limdan asra,
Aldoq g‘azabdan saqla.
Aldov lashkarlarining
Jirkanch qonli yalovin
Ko‘targan yovdan saqla.

“Avesto”dan
(Mirsodiq Is’hoqov tarjimasi)

E) *Inson agar haddidan oshsa*
Lafzida yo amallarida,
Yo qo‘rqmasa iloh hukmidan,
Yovuz taqdir nasib bo‘lg‘usi!
O‘z nafini izlasa faqat,
Jirkanmasa agar haromdan,
Kovlashtirsa ezgu sirlarni,
U xudo qahridan qutulmas!

Sofokl, “Shoh Edip” fojiasidan
(Asqad Muxtor tarjimasi)



O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI: V–XVI ASRLAR

– O‘zbek adabiyoti tarixi: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha

– Yusuf Xos Hojib (XI asr). “Qutadg‘u bilig”

– O‘zbek mumtoz adabiyoti: XIV asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha

– Alisher Navoiy. “Xamsa”: “Saddi Iskandariy” dostoni

– O‘rta asrlar va Uyg‘onish davri jahon adabiyoti (V–XVI asrlar)

– Migel de Servantes Saavedra. “Don Kixot sarguzashtlari” romani





VI–VIII asrlar

O‘rxun–Enasoy bitiklari



VII–X asrlar

Xitoy she’riyatining oltin davri



VIII asr

“Beovulf” – qadimgi ingliz eposi



XIV–XV asrlar

Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy va boshqalar ijodi



XIV asr

“Qisasi Rabg‘uziy” – turkiy nasrning yirik hajmli dastlabki namunalaridan biri



XIV asr

Italiyada Uyg‘onish davrining boshlanishi. Dante, Petrarka, Bokkachcho ijodi



XV asr

Alisher Navoiy hayoti va ijodi



XVI asr

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi. “Boburnoma”ning yaratilishi



VIII asr

“Manyosyu” antologiyasi – yapon adabiyotining dastlabki namunalaridan biri



IX asr

“Irq bitigi” – turkiylar madaniyatining muhim yodgorligi



XI–XII asrlar

Qoraxoniylar davlati adabiyoti. Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy ijodi



XI–XIV asrlar

Fors-tojik adabiyotining oltin davri: Firdavsiy, Umar Xayyom, Nizomiy va boshqalar



XI–XIII asrlar

O‘rta asrlar Yevropa qahramonlik eposlari: “Roland haqida qo‘shiq” va boshqalar



XVI asr

Fransua Rable ijodi. “Gargantyua va Pantagryuel” romani



XVI asr

Angliya Renessansi. Shekspir ijodi




XVI–XVII asrlar

Ispan adabiyotining oltin davri. Servantes va Lope de Vega ijodi


O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI: VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– qadimgi turkiy adabiyotning paydo bo‘lishi va unga xos xususiyatlarni tadqiq qilamiz;
– XII–XIV asrlar o‘zbek so‘z san’atining mavzu-mundarijasi va g‘oyaviy yo‘nalishlarini tahlil qilamiz.

Turkiy adabiyotning dastlabki namunalari ham xalq og‘zaki ijodi (folklor) shaklida paydo bo‘lgan. Boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi, miflar xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lib, ularda qadimgi turkiylarning olam va odam yaratilishi haqidagi qarashlari ifodalangan.



O‘rxun yozuvida bitilgan “Irq bitigi” (IX–X asrlar) qadimgi turkiylarning o‘ziga xos turmush tarzi, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari aks etgan muhim manba hisoblanadi.



O‘rxun–Enasoy yodgorliklari eng qadimgi turkiy yozma adabiyot namunalaridan bo‘lib, ular turkiylarning tili, urf-odatlari, madaniyati, tarixi va islomdan oldingi diniy qarashlarini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “O‘rxun–Enasoy yodgorliklari” nomi ostida Sibirdagi Yenisey va Lena daryolari havzalaridan tortib Markaziy Osiyo va Mo‘g‘ulistongacha bo‘lgan katta hududdan topilgan tosh bitiklari tushuniladi. Bu bitiklar runiy yozuvida bo‘lib, ulardan eng yiriklari VIII asrda Turk xoqonligini boshqargan Bilga xoqon va Kultegin hamda Turk xoqonligida maslahatchi bo‘lgan To‘nyuquq haqida hikoya qiladi.

To‘nyuquq bitiktoshi XIX asr oxirida Shimoliy Mo‘g‘ulistondan topilgan.

Turkiy xalqlar yashagan hududlarga islom dini kirib kelgandan keyin nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Din bilan birga arab yozuvi ham kirib keldi va XX asrgacha barcha ilmiy va adabiy yodgorliklar shu yozuvda bitildi. O‘z davrining eng yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Arab xalifaligida ilm-fan, adabiyot va san’at rivojlandi. Tarixga “Islom oltin davri” yoki “Musulmon Renessansi” nomi bilan kirgan bu davrda bizning ajdodlarimiz ham dunyoviy va diniy bilimlar ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Xususan, IX asrda yashagan Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy Payg‘ambarimiz Muhammadning (s.a.v.) sahih (ishonarli) hadislarini to‘plab, “Al-jomi’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”) va “Al-adab al-mufrad” (“Odob durdonalari”) kitoblariga jamladi.

Eslang:
“Musulmon Renessansi” davri vakili bo‘lgan buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz? Ular ilm-fan rivojiga qanday hissa qo‘shgan?

IX–XII asrlarda turkiylarning Qoraxoniylar davlatida san’at, madaniyat, ilm-fan taraqqiy etdi, uning tarkibidagi Buxoro, Samarqand, Shosh va Qashqar kabi shaharlar esa dunyoning eng mashhur ilm-fan markazlariga aylandi. Mamlakatdagi bunday ijodiy muhit Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk shaxslarning, madaniyat vakillarining yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy adabiyot olamida “Devonu lug‘atit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) nomli, turkiy tillar haqidagi qomusiy asari bilan tanildi. Asar arab tilida yozilgan bo‘lib, unda XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va G‘arbiy Xitoy hududida yashagan turkiy xalqlarning tili, tarixi, geografiyasi, ijtimoiy ahvoliga oid qimmatli ma’lumotlar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, she’riy parchalar keltirilgan. Bir-biriga qarama-qarshi hodisa yoki tushunchalar tasviri asosiga qurilgan munozara janrining dastlabki namunalarini ham aynan “Devonu lug‘atit turk”da kuzatish mumkin.

* * *

Keldi esin esnayu,
Qorqa tugal usnayu,
Ko‘rdu bo‘dun qusnayu,
Qara bulut ko‘krashur.

Turlug‘ chechak yarildi,
Barchin yazim kerildi.
Uchmaq yeri ko‘ruldi,
Tumlug‘ yana kelgusuz.

* * *

Shamol esib keldi,
Qor havosiga o‘xshab.
El tish qoqib uyga kirdi,
Qora bulut qichqiradi.

Turfa chechak ochildi,
Ipak gilam yoyildi.
Jannat yeri ko‘rindi,
Sovuq endi kelmaydi.

Qish yay bila to‘qushti,
Qing‘ir ko‘zun baqishti.
Tutushqali yaqishti,
Utg‘alimat o‘g‘rashur.

Qish yoz bilan to‘qnashdi,
Yomon ko‘z bilan qarashdi.
Bir-birini tutish uchun yaqinlashdi,
Yengishni istar edi.

Tahlil qiling:
“Devonu lug‘atit turk”dan olingan ushbu parchalarda qanday tabiat hodisalari tasvirlangan? Muallif nima uchun aynan shu hodisalarni munozara uchun asos qilib olgan? Ularda turkiy xalqlarning badiiy tafakkuriga xos qanday xususiyatlarni kuzatish mumkin?

O‘zbek qahramonlik dostonining yorqin namunasi “Alpomish” ham, ayrim mutaxassislar fikricha, X–XI asrlarda ko‘chmanchi-chorvador qo‘ng‘irot qabilasi orasida Sirdaryoning quyi oqimlari va Orol dengizi atroflarida yaratilgan. Unda Alpomishning sevgan yori Barchinga yetishish, qaynotasi Boysarini qutqarish va o‘z oilasi, o‘z qo‘rg‘onini dushmanlardan himoya qilish yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari orqali mardlik, vatanparvarlik, sevgi va sadoqat g‘oyalari tarannum etiladi.

XII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy qarashlar – insonning komillikka erishish yo‘li haqidagi ta’limotlar paydo bo‘la boshladi. Xususan, yassaviya tariqatining, ilk tasavvuf she’riyatining asoschisi Ahmad Yassaviy o‘zining “Devoni hikmat”ida islom dinining asosi hisoblangan mehr-oqibat, ruhiy kamolot, iymon-e’tiqod, nafs, sabr-toqat kabi mavzularni tahlil qiladi. U zamondoshlarini mehrli bo‘lishga chaqiradi, nafs yo‘lida mojarodan charchamaydigan aka-ukalardan, mehr-muruvvatni unutgan ota-onadan ranjiydi, inson zotining axloqsizligidan azoblanadi. Uning tili sodda va ravon hikmatlarida bugungi kun uchun ham o‘ta dolzarb mavzular qalamga olingan.

* * *

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og‘o, ini bir-birig‘a mojaroda.
Musulmonlik da’vo qilur, ichar boda,
Mastlig‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘rung.

* * *

Ayo oshiq, kecha-kunduz Haqni izla,
Zohir yurub, botiningda Arshni ko‘zla.
Hikmat o‘qub, oyat-hadis so‘zin so‘zla,
Xazon yanglig‘ qizil yuzi so‘lmas bo‘lur.

* * *

Oxirzamon shayxlaridin so‘zloyin,
Iymon-islom bilmay shayxliq qilor ermish,
Ilm o‘rganmay, amal qilmay, ma’ni uqmay,
Oxiratda qaro yuzluk bo‘lor ermish.



Amir Temur qurdirgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi.
Turkiston shahri (Qozog‘iston)

O‘ylab ko‘ring:
Ahmad Yassaviy bundan to‘qqiz asr ilgari ko‘targan masalalarning hali ham dolzarbligini qanday izohlaysiz?

XI–XII asrlarda pand nasihat-didaktik yo‘nalishdagi asarlarga ehtiyoj “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”, Yusuf Xos Hojib), “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”, Ahmad Yugnakiy) kabi asarlarning yuzaga kelishiga rag‘bat berdi. “Qutadg‘u bilig”da davlatni boshqarish qoidalari, odob, axloq, adolat, insonparvarlik, sabr kabi bugungi kun uchun ham o‘ta muhim bo‘lgan masalalar muayyan voqelikka asoslangan syujetlar va ramziy obrazlar orqali ifodalansa, “Hibat ul-haqoyiq”da muallif ilm, ma’rifat, saxiylik, baxillik, kamtarlik va inson odobini ko‘rsatadigan shirinsuxanlik kabi muammolarga e’tibor qaratadi.

* * *

Bilikli kishi ko‘r bilur ish o‘zin,
Bilib etar ishni o‘kunmas kendin.
Ne turluk ish ersa biliksiz o‘ngi,
O‘kunch ul anga yo‘q unga anda o‘din.

* * *

O‘chukturma erni tilin bil, bu til
Bajaq tursa, butmas, butar o‘q bashi.

* * *

Bilimli kishi o‘z ishini bilib qiladi,
Bilib qilgan ishiga keyin o‘kinmaydi.
Har qanday ish bilimsizga o‘ng ko‘rinadi,
Unga o‘kinchdan boshqa chora yo‘q.

* * *

Tiling bilan o‘ch hissini qo‘zg‘ama,
Bil: o‘q yarasi bitib ketadi-yu,
lekin til yarasi bitmaydi.

Ahmad Yugnakiy

?

O‘ylab ko‘ring:
XI–XII asrlardagi didaktik asarlarga ehtiyojni qanday sabablar bilan izohlaysiz? Ancha avval yozilgan bilim qadri va til ofatiga oid fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini hayotiy misollar bilan izohlang.

O‘zbek adabiyoti tarixida taraqqiyot yoki tanazzulga yuz tutishi muayyan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq. XIII asrda Chingizxon boshliq mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga bosqini va o‘lkada olib borgan shafqatsiz siyosati sabab adabiyot, san’at, madaniyat ma’lum ma’noda inqirozga yuz tutdi. Mavjud adabiy-madaniy yodgorliklar, noyob qo‘lyozma manbalar, kitoblar mustamlakachilar tomonidan yo‘q qilindi, o‘lkadagi ilm egalari, san’at va madaniyat vakillari halok bo‘ldilar, asir olindilar yoki mo‘g‘ullar zulmidan Hindiston, Eron, Turkiya, Misr singari mamlakatlarga qochib, musofirlikda ijod qilishga majbur bo‘ldilar. Masalan, turkiy adabiyotda tasavvufiy g‘oyalar aks etgan “Masnaviyi ma’naviy”, “Fihi mo fihi” (“Ichindagi ichindadir”) nomli asarlari bilan mashhur Jaloliddin Rumiyning otasi ham o‘z oilasi bilan bir qancha Yaqin Sharq shaharlarini kezib, oxiri Rumdan (hozirgi Turkiya) qo‘nim topdi.

Keyinchalik, XIII asrning oxiri – XIV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Nosiriddin Rabg‘uziy, Pahlavon Mahmud kabi ijodkorlar betakror asarlar yaratib, o‘z ijodiy merosi bilan adabiy tanazzul bo‘shlig‘ini to‘ldirdilar va adabiyot tarixining oltin sahifalaridan joy oldilar. Xususan, Rabg‘uziy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib Qur’oni karim, hadislar va xalq og‘zaki ijodiga tayanib, hikoyat va rivoyatlar uyg‘unligida “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yaratdi.

Tahlil qiling:

Mo‘g‘ul bosqinchilarining madaniy yodgorliklarni yo‘q qilishdan maqsadi nima edi? Adabiy tanazzul va uning oqibatlarini yana qaysi davrlarda uchratish mumkin?

LOYIHA

Guruhlarga bo‘lining.

Birinchi guruh. VII asrdan XIII asrga qadar davr adabiy hayotidagi bir muhim hodisani tanlang va tarixchi-kuzatuvchi shaxs sifatida tahliliy esse yozing.

Ikkinchi guruh. XIII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy hodisa haqida matbuot yoki internet sayti uchun maxsus tahliliy maqola tayyorlang.

Har ikki topshiriqni bajarishda boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz va hayotiy tajribangizga ham tayanish lozimligini unutmang.



YUSUF XOS HOJIB (XI ASR). “QUTADG‘U BILIG”

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Qutadg‘u bilig” asarining g‘oyaviy yo‘nalishlarini tahlil qilamiz.

Eslang:
X–XI asrlarda Markaziy Osiyo hududi qaysi davlat(lar) tarkibiga kirgan? Bu davlat(lar)da qanday ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukm surgan?



Tarixiy davr

XI asrda Qashqardan (Sharqiy Turkiston, hozirgi Xitoyning Sinzyan-Uyg‘ur muxtor rayoni) Amudaryogacha bo‘lgan katta hudud Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davlat yagona markazlashgan hokimiyatga ega bo‘lmay, bir qancha mayda hokimliklarga bo‘lingan va ular o‘rtasida ichki nizolar avj olgan edi. Shunga qaramasdan, bu davrda bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, hunarmandchilik va ilm-fan rivojlandi. Turkiy tildagi yozma adabiyotning bizgacha yetib kelgan dastlabki namunalari yaratildi.

Muallif haqida

Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillarida Qoraxoniylar davlatining g‘arbiy poytaxti Quz O‘rdi (Bolasog‘un) shahrida (hozirgi Qirg‘iziston hududi) tug‘ilgan. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o‘rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Ko‘p shaharlarga sayohat qilgan. 1070-yillarda “Qutadg‘u bilig” asarini tugatib, Qashqar hukmdori Tavg‘ach Bug‘roxon binni Arslonxonga taqdim etadi. Bu xizmati uchun unga “Xos Hojib” (eshik og‘asi) unvoni beriladi.



Yusuf Xos Hojib Qirg‘iziston milliy valyutasida

“Qutadg‘u bilig” asari

“Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy yozma adabiyotdagi ilk badiiy doston bo‘lib, didaktik (pand-nasihat) yo‘nalishda yozilgan. Unda muallifning davlatni boshqarish, turli tabaqa vakillarining davlatdagi o‘rni, insoniy munosabatlar, odob-axloq haqidagi fikrlari to‘rt obraz suhbati orqali bayon qilinadi:

– Kuntug‘di – adolatli hukmdor;

– Oyto‘ldi – halolligi va aqli tufayli cho‘ponlikdan vazir darajasiga ko‘tarilgan inson;

– O‘gdulmish (“aql bilan ziynatlangan”) – Oyto‘ldining dono o‘g‘li, otasidan keyin saroyda uning o‘rnini egallaydi;

– O‘zg‘urmish (“hushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi”) – O‘gdulmishning tarki dunyo qilgan donishmand qarindoshi.

Tahlil qiling:
“Qutadg‘u bilig” muqaddimasida bayon qilinishcha, kitob asosida to‘rt narsa yotadi: adolat, davlat, aql va qanoat. Sizningcha, asardagi to‘rt obrazdan (Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish) har biri nimaning timsoli bo‘lib xizmat qiladi?

O‘ylab ko‘ring:
Muallif asarni yozish va uni hukmdorga tortiq qilishdan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?

Asar tili

“Qutadg‘u bilig” asari qadimgi turkiy tilda aruz vaznining mutaqorib bahrida (bir qisqa va ikki cho‘ziq hijo) yozilgan:

Qara bash / yag‘isi / qizil til / turur,
Necha bash / yedi bu / taqi ma / yeyur.
V – – / V – – / V – – / V –



“Qutadg‘u bilig” asari qo‘lyozmasi

Asar Qayum Karimov va keyinchalik Boqijon To‘xliyev tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan.



QUTADG‘U BILIG
(asardan parchalar)

Kitobga “Qutadg‘u bilig” deb nom qo‘ydim. U qut keltirsin, o‘quvchining qo‘lidan tutsin. So‘zlarimni so‘zladim, bitig bitdim. Bular ikki jahonni tutishga ham yo‘l ochsin.

So‘zimning boshida Kuntug‘di elig nomini atadim, buning sababini aytib beraman. Keyin Oyto‘ldini sanadim. U tufayli muqaddas, qutli kunlar yorishadi.

Kuntug‘di deganimiz to‘g‘ri, odil Adolatdir. Oyto‘ldi esa Qut-baxtdir. Undan keyin O‘gdulmish keladi. O‘gdulmish Uquv-idrokning nomi. U kishini ulug‘laydi. Bo‘lagi O‘zg‘urmishdir. Uni Ofiyat dedim.

Barcha so‘zimni shu to‘rt narsa haqida aytdim. Ularni o‘qisang, ko‘zing ochiladi.

Sevinchda yuruvchi ey ezgu yigit, so‘zimni behuda ko‘rma, chin dildan eshit. Irodali bo‘l, to‘g‘ri yo‘ldan yanglishma, yigitlikni behuda o‘tkazib yuborma, uning nafini olib qol. Yigitlikni, yoshlikni aziz tut, u qushdek tez uchib ketadi. Qanchalik qattiq ushlamagin, baribir, yigitlik qochib ketadi.

O‘zim yigitlikni sog‘inaman, uni qo‘ldan berganim uchun o‘kinaman. Ammo endigi o‘kinchdan naf yo‘q. Kimning yoshi qirqdan oshsa, unga yigitlik yillari xayrlashish uchun qo‘l uzatadi.

Muallif kitobning nomi va undagi obrazlarning ma’nosini qanday izohlaydi?

Badiiy adabiyotda qahramonning xarakteriga xos xususiyatni ochib beruvchi ism yoki laqabga xaraktonim deyiladi (masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” pyesasida Farmonbibi). “Qutadg‘u bilig”da xaraktonimlar ishlatilgan deya olamizmi? Fikringizni asoslang.

* * *

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi go‘zallik yo‘li.
Bo‘z yer iporlandi qor-u muz ketib,
Bezanadi olam chiroy ko‘rsatib.
G‘olib keldi qishdan bahor chiroyi,
Yangidan qurildi bahorning yoyi.

Bahorga yetishgan daraxtlar sariq, ko‘k, yashil va qizil ranglar yopinib bezandi. Yer yuzi harir kiyimlar kiygan yosh qizlarday bo‘lib orolandi. Bu go‘yo xilma-xil matolarni ortib olgan Chin karvonining molini yoygan holatiga o‘xshaydi. Tog‘lar, qirlar, dalalar ham butunlay yashil va oq ranglarga burkangan. Minglab gullar, chechaklar yer ostidan shodiyona bosh ko‘tarishdi. Butun olam muattar hidlarga to‘ldi.

Chinnigul hidini yoyarkan sabo,
Butun dunyo to‘ldi iporga go‘yo.
G‘oz-o‘rdak – jami qush havoda shodon,
O‘yinga berildi quvonib chunon.
Ko‘kish turna ko‘kda navosin chalar,
Tuya karvonidek tizilar, chopar.
Qo‘shiq aytdi go‘zal kaklik tog‘ ora,
Qizil og‘zi qondek, qoshi qop-qora.
Chechaklar oralab yurarkan bulbul,
Olamni qurshadi shirin bir g‘ul-g‘ul.
Chechaklar ustida o‘ynar ohular,
Bug‘ular bo‘ylashar, nozik oh urar.
Chiroyga ko‘milgan ko‘katlar o‘zi,
Yashilga belangan bu yerning yuzi.
Ba’zisi hididan berar dilga jon,
Ularning rangi-la munavvar jahon.

Bahor tasvirida qaysi ranglar yetakchilik qiladi? Muallif bahorni jonli tasvirlash uchun qanday obrazlar va badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi?

* * *

Kuntug‘di ismli elig (podsho) bo‘lib, u dono va adolatli ekani bilan dong taratgan edi. Uning himmat va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi. Elig mamlakatni obod, el-yurtni esa shod-xurram qilish istagi bilan yonardi. Uning shuhrati butun olamga yoyiladi. Ishlarini oliyjanoblik va saxovat bilan yuritganidan mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Podsho mamlakatdagi barcha donishmandlarni ham ezgulik ishlariga jalb etadi.

Jam etdi olamning saralarini,
Bilimdon, odamning saralarini.

Mamlakatni boshqarish ishi kundan kunga mushkullashadi. Shuning uchun u tadbirkor va oqil, hozirjavob va ishning ko‘zini biladigan yordamchilarga, bir so‘z bilan aytganda, komil va yetuk, faol kishilarga muhtojlik sezadi.

Eligning yuritayotgan ishlari el-yurt olqishiga sazovor bo‘ladi. U haqdagi gap-so‘zlar mamlakat tashqarisiga ham yetadi. Xuddi shu paytda Oyto‘ldi ismli donishmand yigit elig xizmatiga kirishni istab poytaxtga keladi. Uning:

O‘zi yosh edi-yu, qilig‘i ravon,
Bilimli, uquvli, og‘ir, navqiron.
Yuzi ko‘rkli edi, ko‘rib ko‘z qamar,
Tili totli edi, go‘yo bol tomar.

Oyto‘ldi o‘zidagi san’at-hunarlarning hech kimga naf bermay qolib ketayotganini o‘ylab, elig xizmatiga chog‘langan edi. Axir:

Uquv qadrini ham uquvli bilar,
Bilim sotsa dono, bilimli olar.

Chunki bilimning otini bilimligina biladi. Bilimsiz kishi bilimning qimmatini qayerdan bilsin?! Zar qadrini zargar biladi-da!

Shu o‘ylar bilan Oyto‘ldi otini mindi, to‘n va boshqa kerakli narsalarini olib yo‘lga chiqdi. U yoshligidanoq turli bilimlarni egallagan, san’at-hunarlar bilan ziynatlangan kishi edi. Biroq u musofirlikda ko‘p aziyat chekadi, qiynaladi. Xushmuomala va tadbirkorligi uchun tezda yaqinlar ham orttiradi. U Kusamish ismli yigit bilan do‘stlashib, poytaxtga kelishdan maqsadini bayon etadi. Kusamish eligning Ersig degan xos hojibi bilan uchrashadi va unga Oyto‘ldini tanishtiradi. Ersig Oyto‘ldining qayerdan kelgani, qanday joylashgani, sog‘lik-salomatligini surishtirgach, uning maqsadlari bilan qiziqadi. Mana Oyto‘ldining javoblari:

Bu Oyto‘ldi aytdi: ey qutli hojib,
Sevindim Kuntug‘di nomin eshitib.
Eshitdim yiroqdan uning nomini,
Bilim-u uquvi, zako, shonini.
Uning dargohiga yuz burdim o‘zim.
Elig orzusida yugurdi ko‘zim...

Ersig Oyto‘ldidan xursand bo‘ldi. Yigitdagi qobiliyat va zakovatga o‘zi shaxsan ishonch hosil qilgach, uni Kuntug‘di elig suhbatiga yo‘llaydi.

Oyto‘ldining o‘zini tutishi, fe’l-atvori, so‘z-fikri va bilim darajasini ko‘rgan elig ham yigitni yoqtirib qoladi va o‘z yoniga – saroyga taklif etadi.

Xizmatda og‘ishmasligi, sadoqati va har bir ishda bilimga tayanishi tufayli Oyto‘ldining martabasi kundan kunga ortib boradi.

Kishi xizmat etsa og‘ishmay agar,
Bu xizmati singsa, tilagin topar.
Oyto‘ldi har damda o‘rinlatdi ish,
Bera berdi unga elig ham ulush.
Bo‘la bordi o‘zi kundan kun ulug‘,
Alami yo‘q bo‘ldi, sevinchi to‘liq.
Ishiga berildi Oyto‘ldi tamom,
Elig ham himmatin oshirdi tamom.
Butun ishlarida uni sinadi,
O‘zin baxtiyor deb elig sanadi.

Oyto‘ldi Kuntug‘di huzuriga nima maqsadda keldi? Uning saroyda martabasi oshishiga nima sabab bo‘ldi?

?

* * *

Elig Oyto‘ldini turli ish va topshiriqlar berib sinab ko‘radi. Jumladan, bir kuni u yigitni o‘z yoniga chorlaydi. Uni o‘tirishga undaydi. Oyto‘ldi yonidan bir to‘p (koptok) chiqaradi-da, o‘shanga o‘tiradi. Elig unga ko‘plab savollar beradi, yigit javob qaytaradi. Kuntug‘di bundan shodlanadi, chehrasi ochiladi. Buni ko‘rib, Oyto‘ldi ko‘zlarini yumib oladi. Elig hayratga tushadi:

G‘azablandi elig, yuzi ko‘p qaro,
Dedi: Shoshqaloqlik kishiga balo!
Ishonchda yanglishdim chog‘i men o‘zim,
Nima deb ochayin kishiga so‘zim?!
Nima der, eshitgin, bilimliga boq,
Shoshilinch yumushning o‘kinchi uzoq.

Shoshilinch yumushlar yaramas bo‘lar,
Shoshib pishgan ovqat bo‘ladi zahar.
Shoshilish – adashgan kishilar ishi,
Bosiqlik qilishi kerak har kishi.

Xatoyim shu bo‘ldi: men o‘zim shoshib,
Seni yaqin tutdim tamom adashib,
Xizmatni etmasa kishi to bajo,
Hech odam unga ish ko‘rmasin ravo.
Chiniqtirsin avval yumushda uni,
Ardoqlasa arzir keyin tun-kuni..
Yumushingni ko‘rmay bilibman a’lo,
Tugalroq sinamay qilibman xato.

Eligning bu mulohazalariga Oyto‘ldi shunday deb javob beradi:

– Ey elig, sen mening qiyofamda davlat va boylikni ko‘rmoqchi eding. Men ularni aniqroq tasavvur qilgin deb shu ishlarni qildim. To‘p (koptok) davlat (boylik)ga juda o‘xshaydi. Ularning ikkalasi ham bir joyda to‘xtab turmaydi, yumalab ketaveradi. Menga kulib boqqaningda ko‘zlarimni yumib olishimga sabab, davlatning ko‘zi ko‘r ekanini senga uqtirish edi. Boylik bilan davlat ko‘zi ko‘r odamlarga o‘xshaydi. Kim boylik va davlatning qo‘lidan tutsa, o‘shanga ergashib ketaveradi: bu yaxshi, mana bunisi esa yomon deb ajratib o‘tirmaydi. Oqar suv, yo‘riq til va qut bir joyda to‘xtab turmaydi. Olam kezuvchilar yo‘l yurib tinmaydi. Baxt-davlat ham bir joyda qo‘nim bilmaydi.

Boqijon To‘xliyev tarjimasi

?

Oyto‘ldining koptokka o‘tirib, ko‘zini yumib olishini Kuntug‘di qanday tushundi? Oyto‘ldi buni qanday izohladi?

Siz davlat va boylikni yana nimalarga o‘xshatgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

LOYIHA

Kichik guruhlarda ishlang. Quyida berilgan yo‘nalishlardan birini tanlang. Asarning tanlangan yo‘nalishga mos boblari asosida taqdimot tayyorlang. Taqdimotingizda berilgan savollarga asoslaning.

Tayyorlanish jarayonida asarning hozirgi o‘zbek tilidagi to‘liq matni (Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-yil) va boshqa manbalardan foydalaning.

“Qutadg‘u bilig”da davlat boshqaruvi

Yusuf Xos Hojib jamiyatni ijtimoiy tabaqalarga ajratishda nimalarga e’tibor qaratadi? Har bir tabaqaga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Asarda ilgari surilgan qaysi g‘oyalar bugungi boshqaruv tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi? Qaysi fikrlar esa bugungi kun talabiga javob bermasligi mumkin?

“Qutadg‘u bilig”da ilm-fan

Dostonda ilm-fan va adabiyotning ahamiyati haqida qanday fikrlar ilgari surilgan? Muallif ilmning qaysi sohasini alohida ajratib ko‘rsatadi? Nima uchun?

“Qutadg‘u bilig”da odob-axloq

Muallif turli hayotiy vaziyatlarda (masalan, farzand tug‘ilganda, ziyofatda) o‘zini tutish bo‘yicha qanday maslahatlar beradi? Bu maslahatlarni qay darajada bugungi kun uchun ham tatbiq qilish mumkin?

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI: XIV ASRDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XIV – XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– mumtoz adabiyotning g‘oyaviy yo‘nalishlari va janrlar takomilini tadqiq qilamiz.

Eslang:
XIV–XX asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududida qanday davlatlar mavjud bo‘lgan?

XIV asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo siyosiy va ijtimoiy hayotida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. XIV–XVI asrlarda markazlashgan Temuriylar davlati o‘lkada ilm-fan, madaniyat va san’atning gullab-yashnashi uchun zamin yaratgan bo‘lsa, keyingi davrlardagi siyosiy tarqoqlik, hukmron sulolalarning tez-tez almashishi va ular o‘rtasidagi nizolar ilm-fan va madaniyat rivojiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘ylab ko‘ring:
Hukmron sulolalarning muntazam almashishi, o‘lkadagi qonli kurashlarning ilm-fan rivoji va ma’naviy hayotga salbiy ta’sirini qanday izohlaysiz?

XIV asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr adabiyoti asosan lirika (she’riyat) yetakchilik qilgani bilan ajralib turadi. Bu davrda mumtoz adabiyot vakillari lirik turning g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq, fard, muxammas singari poetik janrlarida faol ijod qildilar. Mumtoz adabiyotning bu go‘zal namunalari hozirgi kunda ham xalqimiz tomonidan sevib o‘qiladi, ular asosida kuylangan qo‘shiqlar esa milliy madaniy merosimizning bebaho mulkiga aylangan.

O‘ylab ko‘ring:
Bu davr adabiyotida lirikaning yetakchilik qilgani sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

O‘zbek mumtoz so‘z san’atining eng gullagan davri Temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Temuriy shahzodalar orasida adabiyotga, san’atga yaqinlari ko‘plab ijodkorlarga homiylik qilib, o‘lkadagi madaniy hayotning taraqqiy etishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Lutfiy, Atoiy,

Sakkokiy singari ulug‘ allomalar, shoirlar ijodiy merosi, “Suhayl va Guldursun” (Sayfi Saroyi), “Muhabbatnoma” (Xorazmiy), “Gul va Navro‘z” (Lutfiy yoki Haydar Xorazmiyga nisbat beriladi) “Yusuf va Zulayho” (shoir Durbekka nisbat beriladi) kabi yirik asarlar o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksalishi Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Navoiy do‘sti Husayn Boyqaro va boshqa mashhur zamondoshlari – adabiyot va san’atning benazir vakillari bilan hamkorlikda davr adabiyoti, san’ati, madaniyati va ma’naviyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Navoiy yaratgan asarlar nafaqat o‘z davri, balki butun o‘zbek va jahon adabiyotining betakror javohiriga aylandi hamda keyingi davrlar adabiyoti taraqqiyoti uchun zamin yaratdi.

O‘ylab ko‘ring:

Temuriylar davrida adabiyotning taraqqiy etishi faqat hukmdorlarning san’atga xayrixohligi bilan bog‘liqmi yoki buning boshqa sabablari ham bor deb o‘ylaysizmi?



MUSTAQIL ISH

Tarix va boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz asosida Markaziy Osiyoning Temuriylardan keyin XIX asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan taraqqiyotining eng muhim uch xususiyatini ajratib ko‘rsating. Nima uchun aynan shu xususiyatlarni muhim deb hisoblashingizni izohlang.

XVI asr boshlariga kelib Temuriylar davlati inqirozga yuz tutdi va hokimiyat shayboniylar, keyinchalik ashtarxoniylar qo‘liga o‘tdi. Toj-taxt uchun kurashlar oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatlar Markaziy Osiyoda xonliklarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu davrdagi siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, murosasiz kurashlarga qaramay, davr ziyolilari, ilm-fan namoyandalari, adabiyot va san’at vakillarining yangilikka intilishlari o‘lkada madaniy hayotning to‘xtab qolishiga imkon bermadi, xususan, adabiyotda yangicha yo‘nalishdagi asarlar, yangi adabiy janrlar paydo bo‘ldi, mavjudlari taraqqiy etdi.

Davrning ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayoti, xalqning turmush tarzi, hukmdorlarning murakkab va ziddiyatli faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi “Boburnoma” (Zahiriddin Muhammad Bobur, XVI asrning birinchi yarmi), “Shayboniynoma” (Muhammad Solih, XVI asrning birinchi yarmi), “Abdullanoma” (Hofiz Tanish Buxoriy, XVI asrning birinchi yarmi), “Ubaydullanoma” (Muhammad Amin Buxoriy, XVIII asr) kabi **memuar va tarixiy-biografik asarlar** yuzaga keldi. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari an’analari asosida **tazkirachilik** rivojlandi.

tazkira – adiblar yoki badiiy ijodga aloqador shaxslarning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi asar

Tahlil qiling:
Tarixiy, memuar asarlar va tazkiralar tarixiy jarayonlarni o‘rganishda qanday ahamiyat kasb etadi?

Bu davrda yaratilgan adabiyot namunalarida ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy, axloqiy mavzular aks etgan bo‘lsa-da, ishq, xususan, **ilohiy ishq** madhi mumtoz adabiyotning asosiy mavzu mundarijasini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy, uning zamondoshlari va keyingi davrlarda yashagan ijodkorlar asarlaridagi ramziy obrazlarning mazmun-mohiyatini tasavvuf ilmisiz tushunib bo‘lmaydi.

tasavvuf – islom dinida insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot, shariatga amal qilib, nafsini poklab, axloqni takomillashtirib, taqvodorlik bilan yashash

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.
Alisher Navoiy

xil’at – qimmatbaho to‘n

Tasavvufiy asarlarda oshiqning go‘zal yorga murojaati orqali Allohga bo‘lgan ilohiy ishq kuylanadi:

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni nihon o‘rtar.
Mashrab

so‘ngak – suyak

Albatta, hamma g‘azallarni ham ilohiy ishq mavzusida yaratilgan deb bo‘lmaydi. Yor ishqida yozilgan, shuningdek, **hasbi hol** yo‘nalishidagi –

muallifning hayoti, kechinmalari, ruhiy holatini bayon qiluvchi go‘zal asarlar ham bizgacha yetib kelgan.

Guliston ichra kirsam holima sarv-u suman yig‘lar,
Qilur bulbul fig‘on-u nolalar birla chaman yig‘lar.
Eshitsalar mani boshimga tushgan muncha savdoni,
Biyobonlarda Majnun, tog‘ ichinda Ko‘hkan yig‘lar.
Mujrim Obid

XVII asr va undan keyingi davrda o‘zbek adabiyotida siyosiy va ijtimoiy muammolarni tanqid ostiga olgan **satira va yumor** yo‘nalishi ham rivojlandi. Masalan, Turdi Farog‘iy o‘z asarlarida xalqning parokanda bo‘lishiga sababchi beklarni tanqid ostiga oladi, ularni birlashishga chaqiradi:

Tor ko‘ngulluk beklar man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli o‘zbek yurtidir, tenglik qiling.
Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

o‘ngur, tiriz, yaqo – to‘nning qismlari

Bu davrda **didaktik adabiyot** an’analari ham davom ettirildi. Xojaning (XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmi) “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”), “Gulzor” asarlari, Xo‘janazar Huvaydoning (XVIII asr) “Rohati dil”, Gulxaniyning (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi) “Zarbulmasal” singari asarlari bu davrda yaratilgan pandnoma asarlarga misol bo‘la oladi.

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Markaziy Osiyoning XIV–XIX asrning ikkinchi yarmidagi taraqqiyoti tendensiyalaridan birini ajratib oling va uning adabiyotga ta’sirini misollar yordamida ochib bering.

ALISHER NAVOIY (1441–1501). “XAMSA”: “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– Alisher Navoiy haqidagi bilimlarimizni umumlashtiramiz.
– “Saddi Iskandariy” dostonidagi asosiy obrazlar va ramzlarni tahlil qilamiz;



Alisher Navoiyning rassom Mahmud Muzahhib ishlagan portreti, XVI asr

* * *

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Alisher Navoiy

* * *

Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. ... Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Zahiriddin Muhammad Bobur

* * *

Mir Alisher turk tilining o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi.

Husayn Boyqaro

Eslang:
Alisher Navoiy siymosi aks etgan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda Navoiy qanday inson sifatida gavdalangan?

Tahlil qiling:
Yuqoridagi iqtiboslarni o‘qing. Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tili, adabiyoti va madaniyati ravnaqi uchun qilgan xizmati nimalarda ko‘rinadi? Husayn Boyqaro nega Alisher Navoiyni Masihga o‘xshatmoqda?

Navoiy adabiy merosi

Alisher Navoiy o‘zidan ulkan adabiy va ilmiy meros qoldirgan. Uning jami 22 ming baytdan ziyod g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq va boshqa janrlardagi lirik asarlari o‘zi tartib bergan to‘rt kitobdan iborat “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasi”) majmuasiga jamlangan. Devonning har bir kitobiga inson umrining fasllariga mos ravishda nom berilgan. Shoirning fors tilida Foniy taxallusi bilan yozgan she’rlari esa alohida “Devoni Foniy”ga yig‘ilgan.

Alisher Navoiyning eng yirik epik asari – “Xamsa” besh dostonni o‘z ichiga oladi.

Buyuk mutafakkirning tasavvufiy qarashlari, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlari qushlar tili va sarguzashtlari orqali majoziy tarzda “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostonida bayon qilingan. “Arba’in” (“Qirq hadis”) asarida esa Muhammad (s.a.v.) hadislari she’riy yo‘l bilan sharhlangan.


Alisher Navoiy o‘zigacha yashagan va zamonasining mashhur kishilari hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlarni, hayotiy kuzatishlari va tajribasini “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) asarida umumlashtirilgan. Uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda tarixga oid asarlari ham adabiy san’at, milliy madaniyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Quyi sinflarda yoki mustaqil tarzda Navoiyning qaysi asarlarini o‘qigansiz? O‘qigan asarlaringiz haqidagi bilimlaringizni umumlashtiring va quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Asar nomi	Janri, yo‘nalishi	Ahamiyati





Alisher Navoiy qalamiga mansub “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) asarining xorijiy tillardagi nashrlari

“XAMSA”:
“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI

Xamsachilik an’analari

Sharq xalqlari adabiyotida “Xamsa” (“Beshlik”) yaratish an’anasini XII asrda yashagan ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Uning 30 yildan oshiq vaqt davomida fors tilida yozgan besh dostoni shoir vafotidan so‘ng yaxlit to‘plamga birlashtirildi va “Panj ganj” (“Besh xazina”) deb yuritila boshlandi. Nizomiydan keyin Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa ko‘plab ijodkorlar an’anani davom ettirib, o‘z “Xamsa”larini yaratdilar.

An’anaga ko‘ra, “Xamsa”dagi birinchi doston falsafiy va axloqiy masalalarni qamrab olishi, ikkinchi va uchinchi dostonlar Xusrav va Shirin hamda Layli va Majnun muhabbati haqida, so‘nggi ikki doston esa shoh Bahrom va Iskandar Zulqarnayn sarguzashtlari haqida bo‘lishi lozim edi. Mazkur an’anani davom ettirgan holda Alisher Navoiy 1483–1485-yillarda ilk marotaba turkiy tilda o‘z “Xamsa”sini yaratdi. Navoiy “Xamsa”si quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi:

– “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) – pand-nasihat ruhidagi ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston bo‘lib, unda Navoiy davridagi xalq turmushi, urf-odatlari, muallifning diniy va axloqiy qarashlari aks etgan;



– “Farhod va Shirin” – bu dostonda Alisher Navoiy Chin shahzodasi Farhodning go‘zal arman malikasi Shirin ishqida ko‘rsatgan qahramonliklari bayoni orqali komil inson masalasini ko‘taradi;


– “Layli va Majnun” – arab yigiti Qaysning Layliga pok muhabbati, ishq yo‘lida majnun (devona) bo‘lishi voqealari orqali majoziy ishq sirlari aks ettiriladi;

– “Sab’ayi sayyor” (“Yetti sayyora”) – Sharqda keng tarqalgan shoh Bahrom (Bahrom Go‘r) haqidagi afsona asosida yaratilgan ishqiy-sarguzasht doston;

– “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) – “Xamsa”ning yakunlovchi va hajm jihatdan eng yirik dostoni bo‘lib, unda ma’rifatli shoh Iskandar Zulqarnaynning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

Iskandar kim?

Eslang:
Iskandar Zulqarnayn haqida nimalarni o‘qigansiz yoki eshitgansiz?



Zulqarnaynning devor qurdirishi.
XVI asr Eron miniatyurasi

Ensiklopediyadan olingan quyida ma’lumot bilan tanishib chiqing.

Zulqarnayn (arab. “ikki shoxli”) – musulmonlar orasida tarqalgan qadimiy rivoyatlarga ko‘ra, dunyoning Chin(Xitoy)ga qadar yerlarini zabt etib, u yerda ya’juj va ma’juj yo‘liga ulkan to‘siq qurgan podshoh. Ayni vaqtda ham Sharq, ham G‘arb hukmdori ekani yoki tojining ikki cheti shoxsimon bo‘lganidan shunday atalgan, deb taxmin qilinadi. Qur’oni karimda Zulqarnaynning yer yuzida haqni qaror toptirish uchun qilgan sa’y-harakatlari bayon etilgan (18:83–102). Ba’zi islom tadqiqotchilari Qur’oni Karimda zikr qilingan Zulqarnaynni Makedoniyalik Aleksandrning o‘zi deb va ba’zilari Ibrohim alayhissalomdan ilgari yashab o‘tgan butunlay boshqa bir shaxs deb talqin etishadi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan



Darbant qal’asi devori (Dog‘iston, Rossiya). Ayrimlar shu devorni Zulqarnayn devori deb hisoblashgan.

Asarni o‘qish davomida o‘ylab ko‘ring:
Alisher Navoiy nega bu syujetga murojaat qilib, o‘z talqinini yaratgan bo‘lishi mumkin? Asarni o‘qib bo‘lgach, sinfda shu savolni muhokama qiling.

“Saddi Iskandariy” dostonining tuzilishi

Muqaddima (1–14-boblar)	Asosiy qism (15–83-boblar)	Xotima (84–89-boblar)
– Allohga hamd; – Muhammad (s.a.v) vasfi (na’t); – “Xamsa”ning yozilish tarixi; – ustozlar madhi; – Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li shahzoda Badiuzzamon ta’rifi; – qadimgi Eron shohlari tarixi.	– Iskandar voqealari bayoni. Tuzilishi: – Iskandar hayotidan bir voqea; – voqeada ko‘tarilgan axloqiy muammoga oid mulohazalar; – hikoyat; – Arastu va Iskandar suhbati.	– Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta’rifi; – hakimlar (donishmandlar) ta’rifi; – ukasi Darveshaliga nasihatlar; – xulosa.

Dostonning qisqacha mazmuni

Dostonning asosiy qismi voqealari Iskandarning tug‘ilishidan boshlanadi. Rum mamlakatining shohi Faylaqus Tangridan farzand so‘raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug‘ilgan chaqaloq va o‘lik onani uchratadi. Shoh onani dafn ettirib, chaqaloqni o‘ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratadi va Arastuning otasi Naqumojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va oliyjanob fazilatlarga muhabbat ruhida ulg‘ayadi.

Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo‘lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiydiradi. Iskandar xalq oldiga shart qo‘yib, kimning arz-dodi bo‘lsa, shohni o‘zi bilan teng ko‘rib, ahvolini aytishini so‘raydi.

Iskandar taxtga o‘tirgach, adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi, adolat mezoni asosida ko‘plab mamlakatlarni egallaydi, hukmdorlar unga xiroj to‘lashga rozi bo‘lishadi. Eron shohi Doro esa bunga rozi bo‘lmaydi va xiroj mojarosi bu ikki shoh o‘rtasida ixtilofning paydo bo‘lishiga olib keladi. Urush boshlanadi. Doroning noiblari xiyonat qiladilar va Doro yarador holda Iskandar qo‘liga asir tushadi. O‘limi oldidan xiyonatkorlarni jazolash, uning qarindosh-urug‘lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig‘i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom bilan dafn qiladi.

Iskandar Eronni egallagach, jahonni fath etishga kirishadi. Doro o‘rnini egallagan jahon podshosi sifatida ko‘plab o‘lka podsholariga xat

yozib, mamlakatda adolat va osoyishtalik o‘rnatmoqchi ekanini va shunga mos holda o‘z ixtiyorlari bilan unga taslim bo‘lishlarini so‘raydi. Aksariyat podsholar unga bo‘yin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga bo‘ysunishni istamaydi.

Iskandar ustozi Arastu maslahati bilan jahongirlik yurishlarini boshlaydi. Dastlab Balx, Moxon, Marv, Zobul, Isfahon shaharlarini oldingidan ham obod va ma’mur etib, Xurosonda Hirot, Movarounnahrda esa Samarqand shaharlarini bunyod etadi. So‘ng Kashmirga Malluga qarshi qo‘shin tortadi.

Iskandar sehrgarlari bilan mashhur bo‘lgan Kashmir shahrini tilsimlangan holda topib, tilsimni hikmat ahli yordamida juda osonlik bilan yechadi. Mallu bu ahvolni ko‘rib, mamlakatni tashlab qochadi. Iskandar Kashmir ahliga omonlik berib, bir muddat bu yerda yashaydi. Mallu ibn Mabok mag‘lub va yarador holda Iskandar oldiga taslim bo‘lib keladi hamda undan kechirim so‘raydi. Iskandar uning uzrini qabul qiladi. Ko‘p o‘tmay, Mallu vafot etadi. Iskandar uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, o‘g‘li Feruzni Kashmirga podsho qiladi. Tez orada Hind va Chin xoqonlari ham Iskandarning sha’n-u shavkatiga tan berib, unga jangsiz taslim bo‘ladilar.

Iskandar Mag‘rib diyorini fath etib, o‘z vatani – Rum tomonga ot surganda, yo‘lda Qirvon diyori ahli unga ya’juj va ma’juj zulmidan panoh istab murojaat qiladilar. Iskandar bu yerda olti oy davomida ikki tog‘ orasida mashhur Saddi Iskandariyni bunyod etib, ya’juj va ma’juj balosini daf qiladi.

Iskandar yer yuzini egallagach, dengiz sirlarini ham bilish uchun uzoq safarga chiqadi. Shishadan sandiq yasab, ummon tubiga tushadi va ko‘plab ajoyibotlarni ko‘radi. Ammo safardan qaytishda xastalanadi va tutingan onasi Bonuga o‘g‘illikni o‘rniga qo‘ya olmaganidan uzr so‘rab, maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo‘l bilan ketayotgan, bu olamga shoh bo‘lgandan ko‘ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanini anglagan ulug‘ jahongirning iqrornomasi edi. Yetti faylasuf hakim – Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta’ziya bildirgani keladilar.

Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova va Olimjon Davlatovning “Navoiyshunoslik” darsligidan

Tahlil qiling:

Dostonning asosiy voqealari bayonida Iskandarga xos qanday sifatlarni kuzatish mumkin? Navoiy bosh qahramonga bu xususiyatlarni singdirish bilan qanday maqsadlarni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?

SADDI ISKANDARIY
(dostondan parchalar)

XXV

Nasriy bayoni (Inoyat Maxsumov nusxasi asosida Mavjuda Hamidova to‘ldirib, nashrga tayyorlagan)

Iki jahondor muxolafatidin jahon ahli xirmanig‘a balo barqi etgani va iki yor muvofaqatidin ul tutashqon o‘tqa rahmat yomg‘uri yog‘ib, shu’lasin past etgani.

Mazmuni: ikki jahondor kelishmovchiligidan jahon ahli xirmoniga balo chaqini tushgani va ikki do‘st ittifoqligidan u yongan o‘tga rahmat yomg‘iri yog‘ib, urush alangasini so‘ndirgani.

Eshittimki, Chingiz-u Xorazmshoh,
Adovatqa chun bo‘ldilar kinaxoh.

Buzuldi jahon ulcha maqdur erur,
Netay sharhin aytib, chu mashhur erur.

Eshitishimcha, Chingiz va Xorazmshoh bir-biri bilan dushmanlik urushini boshlagan ekanlar. Qudratlari yetgancha jahonni buzdilar. Bu hammaga ma’lum va mashhur bo‘lgani uchun sharhini yozib o‘tirmayman.

Eslang:
Chingizxon kim edi? Tarixda Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasidagi ixtiloflar qanday dahshatli oqibatlarga olib kelgan?

Hamonoki Chingiz topib zafar,
Aning mulkini qildi zer-u zabar.

Ne kishvar arokim maqom ayladi,
Chekib tig‘i kin, qatli om ayladi.

Tushub mavjg‘a bahri jabborliq,
Ayon aylabon mavji qahhorliq.

Ato o‘g‘lig‘a yig‘labon: hoy-hoy!
Qizig‘a ano tortibon: voy-voy!

Hayot uyiga marg solib xalal,
Amon raxnasin mahkam aylab ajal.

Bu jangda Chingiz zafar qozonib, Xorazm o‘lkasini ostin-ustun qilib tashladi. Qaysi shaharni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, u yerdagi odamlarning hammasini tig‘dan o‘tkazdi.
U zulm dengizini mavjlantirib, qahr-u g‘azabini avjga chiqardi.

O‘lim kishilarning hayot uyiga kirishlariga to‘sqinlik qilar, ajal esa omonlik yo‘lini bekitib tashlagan edi.

Tahlil qiling:
Chingizxonning zulmini tasvirlash uchun shoir qanday o‘xshatish va metaforalarni qo‘llagan? Bu tasvir vositalari misralar g‘oyasini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda?

Magar Shom mulkida erdi bu hol
Ki, iki rafiqi mavaddat xisol.

Qazodin birov dastgiri bo‘lub,
Birov yo‘qki, kofir asiri bo‘lub.

Ko‘zidin oqar qonlaridin ikov,
Yudilar ilik jonlaridin ikov.

Tilab har biri aylamak ibtido
Ki, jonin yana birga qilg‘ay fido.

Bu holatda qotil chekib tig‘i qatl
Birisiga qildi ayon big‘i qatl.

Yana bir boshin ochib, etmay haros,
Ayon ayladi yolborib iltimos

Ki: “Avval mening boshima tig‘ sur,
Chu men o‘ldum, ul dam aning
bo‘ynin ur!”

Munga chunki mayl etti o‘lturgali,
Boshig‘a jafo tig‘i tekurgali.

Ochib boshin ul bir ham aylab havas,
Nekim erdi avvalg‘ig‘a multamas.

Bular har bir – ul bir uchun qayg‘uda,
Bu holatda Chingiz emish uyquda.

Tushiga kirar bu ikki yor ishi,
Muni ko‘rgach aytur anga bir kishi

Ki: “Kechgil xaloyiqqa ozordin,
Vafo o‘rgan ushbu iki yordin.

Sanga kinavar bo‘lsa Xorazmshoh,
Ul ishtin jahon ahlig‘a ne gunoh?”

Iki shoh kini jahonni buzub,
Iki zor mundoq vafo ko‘rguzub.

Chu uyg‘ondi uyqusidin qahramon,
O‘lumdin xaloyiqqa berdi amon.

Shom mamlakatida bo‘lsa kerak, shunday bir voqea yuz berdiki, do‘stlik fazilatiga ega bo‘lmish ikki o‘rtoq tasodifan birovga bandi bo‘lib, birov emas, kofir qo‘liga asir tushib qoldilar. Ikkovining ko‘zlaridan yosh o‘rniga qon oqar, ikkovlari ham jonlaridan umidlarini uzgan edilar. Zero, zolim bularning har ikkisini qatl etmoqchi edi. Lekin biri ikkinchisidan avvalroq qurbon bo‘lishni istar edi. Maqsad – jonini o‘z do‘stiga fido qilmoq edi.

Bir mahal qotil tig‘ini qinidan sug‘urib, birinchisiga urmoqchi bo‘lgan edi, ikkinchisi boshini yalang qilib, o‘limdan qo‘rqmay: “Avval mening boshimga tig‘ sol, meni o‘ldirgach, uning bo‘ynini choparsan!” – deb yolvordi.

Ikkinchisini o‘ldirmoqchi bo‘lib, uning boshiga jafo tig‘ini ko‘targan edi, avvalgisi o‘limni havas qilgandek boshini ochib: “Avval meni o‘ldir!” – deb yalina boshladi. Bularning har biri o‘z do‘sti uchun qayg‘uda ekanida Chingiz uyquda bo‘lib, yuqoridagi voqea uning tushiga kirdi.

Shunda, voqea guvohi bo‘lgan bir kishi Chingizga:

– Ushbu ikki do‘stdan vafo o‘rganib, xaloyiqqa ozor berishdan voz kech! Xorazmshoh senga dushman bo‘lsa, bunda jahon xalqining nima gunohi bor? – dedi.

Ikki shohning xusumati jahonni buzib turganda, darhaqiqat, bu ikki do‘st bir-biriga shu xilda vafo ko‘rsatdi.

Shu asnoda uyqusidan uyg‘ongan Chingiz xaloyiqqa o‘limdan omonlik berdi.

O‘ylab ko‘ring:
Muallifning ikki do‘st haqidagi lavhani Chingizxon tushida tasvirlashi sababini qanday izohlaysiz?

Iki yor-u qotilda ul mojaro
Ki, om o‘ldi baxshish so‘zi xalq aro,

Qilib erdi kofirg‘a dog‘i asar,
Yetishti qulog‘iga chun bu xabar.

Qilib raf’ ko‘nglidin ozorni,
Eshib qildi ozod iki yorni.

Iki shoh chun bo‘ldilar kinaxoh,
Jahon ahli bo‘ldi sarosar taboh.

Vale iki darveshning himmati,
Muvofiqlig‘i yumni xosiyati

Ki, qildilar isor joni hazin,
Ko‘tardi jahon ahlidin tig‘i kin.

Kishi aylasa rifq yumnin havas,
Anga to abad ushbu tamsil bas.

Ikki do‘st bilan qotil o‘rtasida bo‘lgan bu mojaro xalq ichida yaxshilik timsoli bo‘lib qoldi.

Bu xabar kofirning qulog‘iga yetib, ko‘ngli yumshadi-da, ozor berishdan qo‘l silkib, ikki do‘stning oyoq-qo‘lini yechib, ularni ozod qildi.

Ikki shohning bir-biriga adovatidan jahon ahli boshdan oyoq xarob bo‘lib turganda, ikki darveshning himmati va ahilligi hamda o‘z hazin jonlarini bir-birlariga nisor qilishga tayyorligi tufayli, jahon ahlining boshidan dushmanlik tig‘i ko‘tarildi.

Agar kishi do‘stlikni havas qilsa, unga ushbu masal mangu o‘rnak bo‘lib qolajak.

O‘ylab ko‘ring:
Navoiy bu xulosa orqali nima demoqchi?



Chingizxon yurishlari.
XVI asr fors miniatyurasi

1. Ikki do‘stning sadoqatiga qanday baho berasiz? Do‘stlik siz uchun qanday tuyg‘u?

2. Nima uchun dostonda Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasidagi kelishmovchiliklarga o‘rin berilgan deb o‘ylaysiz? Bu ixtilofning Iskandar va Doro munosabatlariga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?

3. Iskandarning “Noahilchilik va urushga qarshi hamma uchun maqbul va foydali bir qoida topiladimi?” degan savoliga Arastu shunday javob beradi: “Nizodan foyda ham, zarar ham chiqishi mumkin. Modomiki, bu ishning janjalsiz hal bo‘lish imkoniyati yo‘q ekan, unda dushman ustidan g‘alaba qozonishga ko‘zi yetsagina olishishga bel bog‘lasa durust. Lekin unga kuchi yetmasligini his qilsa, nasihat bilan kifoyalanib qo‘ya qolgani yaxshiroqdir”.

Sizningcha, Arastuning fikrlarini hozirgi zamon uchun ham qabul qilish mumkinmi?

LXVIII

Iskandarning Mag‘rib diyori fathidin so‘ngra Rumg‘a azm etganida ya’juj zulmidin Qirvon navohisi xalqining tazallum qilg‘oni va aning ul balo raxnasini berkitgali sad tarhi solg‘oni va muhandisvash me’morlar va handasaoyin sangkorlar shihobkirdor raja bila sad o‘rnig‘a rang to‘kmak va Atoridxayol ustodlar va Zuhalosor haddodlar ganch o‘rnig‘a ro‘yi mahlul va ohak yeriga po‘lodi masqul quyub sad uchin falak toqig‘a yetgurganlari.

Mazmuni: Iskandarning Mag‘rib diyori fathidan so‘ng Rumga azm etganida, Qirvon o‘lkasi xalqlari ya’juj zulmidan shikoyat qilgani va uning balo rahnasini bekitish uchun sad chekish rejasini tuzgani. Muhandisvash me’morlar, handasa asosida tosh bosib, temir erituvchi olovkorlar sad chekiladigan yerga reja bilan rang to‘kib, Atorud xayol ustozlar va Zuhal monand temirchilar ganch o‘rnida eritilgan rux va ohak o‘rniga yaltiroq po‘lat quyib, sadning boshini falak toqiga yetkizganlari.

sad – g‘ov, devor
handasa – geometriya
Atorud – Merkuriy sayyorasi
Zuhal – Saturn sayyorasi
Qirvon – qadimiy Eron viloyatlaridan biri

Dabiri raqamsanji farxundaroy,
Bu nav’ o‘ldi kofur uza mushksoy

Ki, chun oldi shohi sipehrihtishom,
Bori mulki mag‘ribni andoqki kom.

Hamul bul’ajab xayl-u nodir guruh
Ki, fikridin erdi xaloyiq sutuh.

Alar sarfarozikim erdi asir
Ki, shah lutfi bo‘ldi anga dastgir.

Mute’ o‘ldi-yu qulluq etti qabul,
Yo‘q ulkim, bori xayli ham bo‘ldi qul.

Shah ul mo‘rlarni qilurg‘a halok
Dedi: “Otlanib xalq bevahm-u bok,

Tuzub charga, solsunlar ul nav’ sho‘r
Ki, ul dasht aro qolmasun jinsi mo‘r”.

Tabarruk fikrli donishmand oq qog‘ozga qora siyoh bilan yozadi. Shunday qilib, falak hashamatli shoh butun Mag‘rib yerlarini o‘z muddaosidek fath qilib oldi. U hammani hayron qoldirgan, hech yerda ko‘rilmagan g‘aroyib insonlar xayli – guruhini ko‘rdi. Ularning boshlig‘ini asir qilib oldi. Shohning lutf-u marhamati bilan ozod etilgan yovvoyilar boshlig‘i tobe bo‘lib, shohga o‘zini xizmatkor deb e’lon qildi. Ugina emas, uning butun qavmi ham shohning qullariga aylandi. Shundan so‘ng, shoh chumolilarni qirib tashlash haqida buyruq berdi: “Butun xalq shijoat bilan otlanib, saf tortib, shunday bosqin yasasin va ur-yiqit ko‘tarsinki, u dashtda bironta ham chumoli qolmasin!”

Iskandar nima uchun chumolisimonlarni yo‘q qilishni buyurdi? Uning asir tushganlarga bunday munosabati adolatdanmi?

?

Hamul xayli vahshiy qilib iltimos,
Dedilarki: “Ey shohi gardunasos!

Alar bo‘lmay, emin emas jonimiz
Kim, ul mo‘rlardur nigahbonimiz

Ki, og‘irdurur bizga uyqu base,
Quloq solki, a’jubadur bu base

Ki, o‘n kecha-kunduz tak-u po‘dabiz,
Yana o‘n kecha-kunduz uyqudabiz.

Chu uyqug‘a borduq alardur hisor,
Yovutmaslar elni yamin-u yasor”.

Buni eshitib, haligi vahshiylar guruhi iltimos qilib aytdilarki:
“Ey falakmaqomli shoh! Ular bo‘lmasa, bizning jonimiz xatarda qoladi, chunki chumolilar bizning qo‘riqchimizdir. Axir bizlarning uyqumiz odatdan tashqari og‘ir bo‘ladi, bu juda ham ajoyib, quloq solsangiz, aytib beramiz. Biz o‘n kecha-kunduz yugur-yugur qilamiz-u, o‘n kecha-kunduz uyquda bo‘lamiz. Biz uxlagan paytimizda chumolilar qo‘rg‘on bo‘lib, atrofimizni o‘rab yotadilar; o‘ngdan ham, so‘ldan ham hech kimni yaqin keltirmaydilar”.

? *Devsifatlarning vazifasi va shohga iltimosini qanday baholaysiz?*

Shah ul nuktadin barmog‘in tishladi,
Alar qatlin ul elga bag‘ishladi.

Yana istadi ko‘rmak aylab yurush,
Iki tog‘kim erdi oltun-kumush.

Dedilar hamul qavm aylab duo
Ki: “Bo‘lsa unut yaxshi, bu muddao

Kim, ul tegraga bormoq oson emas,
Ne oson emas, balki imkon emas

Ki, o‘n kunchilik yo‘ldur ul iki tog‘,
Bu yerdinki, holo, qilursen surog‘.

Vujudi aning bizga bordur yaqin,
Vale ko‘rmamishbiz, desak so‘zni chin.

Ne biz ko‘rmagi birla toptuq murod,
Ne bizdin ulug‘lar dog‘i berdi yod.

Nedinkim, yo‘lida xatar ko‘pturur,
Yuz urg‘on kishiga zarar ko‘pturur.

Topilmas yeti kunchilik yo‘lda suv,
Giyohiki butmishdur – erur og‘u.

Shoh bu gapni eshitib, barmog‘ini tishladi, u mana shu el tufayli chumolilarni qatliom qilish niyatidan qaytdi. Yana ikkita oltin-kumush tog‘ni ko‘rish maqsadida yurish qilmoqchi bo‘ldi. Bu gal ham haligi qavmlar duo qilib:
“Bu muddaoning unut bo‘lgani yaxshi! – dedilar, – u atrofga borish oson emas, oson u yoqda tursin, borishning hech imkon ham yo‘q. U ikki tog‘gacha bu yerdan o‘n kunlik yo‘l bo‘lib, u joyni topmoq uchun yana surishtirish kerak bo‘ladi. Uning qandayligi bizga ma’lum, lekin to‘g‘risini aytganda, biz ham uni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rmaganmiz. Na biz ularni ko‘rib maqsadga erishdik va na bizdan avvalgi kattalarimiz bu haqda bizga ma’lumot berdilar. Chunki u yo‘lda juda ham xatar ko‘p bo‘lib, unga kirgan odam ziyon-zahmatsiz chiqmaydi. Yetti kunlik yo‘lgacha suv topilmaydi; vodiyda bitgan o‘simliklar esa butunlay zaharlidir.

Isiq xayli ul nav’ aylar hujum
Ki, esgach nasim anda aylar samum.

Qilur qaysi elkim esar mu’tadil,
Agar bor esa ajdaho muzmahil.

Yana qolg‘on uch kunchilik yo‘lki bor,
Yilondur hamul dasht aro ulki bor.

Erur kafcha-u, af’i-yu ja’fari,
Bo‘lub har bir ul ganjning ajdari.

Alarg‘a tuman mingdin ortuq adad,
Tuman ming demay, balki behadd-u ad.

Agar pashsha bo‘lsa alarg‘a zalil,
Bo‘lub yetsa bir nish, andoqki pil.

Yilon bordur anda – eshitgil bu so‘z
Ki, odam o‘lar, chun anga solsa ko‘z.

Erur bu baliyatdin o‘tmak mahol,
Nekim ayladuk sharh, bu erdi hol”.

Shah ul so‘zni chun istimo‘ ayladi,
Hamul yon borurg‘a vido‘ ayladi.

Dedi: “Ul taraf azm etardin murod,
Tamoshodin etmak edi o‘zni shod.

Emas erdi maqsud oltun-kumush
Ki, bo‘lg‘ay kishi muncha mehnatqa
to‘sh.

Tamoshog‘a yo‘l chunki bog‘liqdurur,
Aning azmi tarki yarog‘liqdurur.

Tamoshodin ar bo‘ldi qat’i nazar,
Ne himmat bo‘lurkum, tilab siym-u zar.

Bu naqd istay o‘lmoq ravon ul taraf,
Vale naqdi jonini qilmoq talaf”.

Chu ul azmdin forig‘ o‘ldi bilkul,
Ul el iltifotig‘a qo‘ydi ko‘ngul.

Bu yerda garmsel shamollar shunday hujum bilan esadiki, bu shamol teggan zahoti kishi halok bo‘ladi. U yerning hatto mo‘tadil hisoblangan shamoli esganda ham, ajdaho bo‘lsa, mahv etadi. U dashtning qolgan uch kunlik yo‘li esa ilonzordan iboratdir. Ular kafcha, af’i, ja’fariy kabi zaharli ilonlar bo‘lib, har biri u yerdagi xazinalarni poylaydigan ajdaholardir. Ularning soni ming, o‘n mingdan oshadi, o‘n ming qayoqda, balki u ilonlarning son-sanog‘i yo‘q. Agar ular pashshaga andak zahar soladigan bo‘lsalar, shishirib fildek qilib yuboradilar. Eshitib qo‘ying, u yerda yana shunday ilonlar ham borki, unga ko‘zi tushsa, odam o‘ladi. Mana shu balolardan omon o‘tib ketmoq ko‘p maholdir. U yerda qanday ahvol bo‘lsa, biz shunigina sharhladik, xolos”.

Shoh bu so‘zlarni eshitarkan, u tarafga borishga xayr-ma’zur qilib aytdi: “U tomonga borishdan maqsadimiz tamosho qilib, o‘zimizni shodlantirish edi. Oltin-kumush uchun bormoqchi emas edikki, tag‘in shunchalik zahmatlarga o‘zimizni duchor qilsak. Modomiki, tamoshoning yo‘li berk ekan, u tarafga borishni tark etmoq ma’qulroqdir. Agar tamoshodan kechiladigan bo‘lsa, oltin-kumush uchun u tomonga borish, mol-dunyo istab har tarafga o‘zni urish jonni halokatga uchratish bo‘ladiki, bu tadbirli odamning ishi emas!”
U tarafga borish xayolidan batamom voz kechgan shoh u elning iltifotiga minnatdorchilik bildirdi. Hammasiga izzat-hurmat ko‘rsatdi va lutf-karamlar qildi:

Karam aylab etti rioyat base,
Bori topti shahdin inoyat base.

Alarni makonig‘a ozim qilib,
Necha kimsa lekin mulozim qilib.

O‘z ollinda asrab g‘arobat uchun,
Eshikda shukuh-u mahobat uchun.

ularning barchasi shohdan ko‘p inoyatlar ko‘rdi. Shoh u qavmni o‘z makonlariga jo‘natdi. Eshikda haybat bilan savlat to‘kib turishi va ularning qo‘rqinchli ko‘rinishidan odamlar ajablanishi uchun vahshiylardan bir qanchasini Iskandar o‘zi bilan birga olib qoldi.

?

Oltin-kumush tog‘ yo‘li tasviriga e’tibor bering. Bu manzildagi qiyinchiliklar orqali Navoiy nimaga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin?

Chu Mag‘ribni osudahol ayladi,
Yana azmi savbi Shimol ayladi.

Tengiz aylabon qat’-u tog‘ artilib,
Yurur erdi yo‘l Rum azmi qilib.

Hamul turki chin, yo‘qki chiniy g‘izol
Ki sherafkan erdi qilurda jidol.

Solib shoh ko‘ngliga o‘z shavqini,
Chekib bo‘ynig‘a zulfining tavqini.

Bo‘lub shoh matlub-u marg‘ubi ham,
Ne matlub-u marg‘ub, mahbubi ham.

Aning birla tun-kun bo‘lub jur’akash,
Borur erdi o‘z mulkiga shod-u xush.

Guzargohi Rus-u diyori Farang,
Qayu yerga yetgach, o‘tub bedarang.

O‘tar chog‘da mobayni g‘arb-u shimol,
Tilab dod jam’e parokandahol.

O‘kush nola aylab tazallum bila,
So‘rub shoh alarni tarahhum bila.

Dedilarki: “Shoho, jahondor bo‘l,
Qadar qudrat-u charxmiqdor bo‘l!

Jahon mulkiga berding obodlig‘,
Jahon ahlig‘a adl ila shodlig‘.

Mag‘rib yerlarini tinchitgach, Iskandar yana shimol tomonga qarab yo‘l oldi. U dengiz kechib, tog‘ oshib, Rumga tomon yo‘l bosar edi. Haligi, jang-jadalda sherlarni zabun qiladigan go‘zal Chin qizi, balki Chin ohusi shohning ko‘ngliga o‘z shavqi-muhabbatini, bo‘yniga esa zulfining zanjirini solib qo‘ygan edi.

Shohning matlub-u marg‘ubi ham, sevgan mahbubi ham shu bo‘lib qolgan edi. O‘sha bilan tun-u kun may ichar, o‘z mamlakatiga tomon shod-u xurramlik bilan borar edi. Rus va Farang yerlarini bosib o‘tarkan, hech qayerda to‘xtamadi. G‘arb bilan Shimol yerlarining oralig‘idan o‘tish chog‘ida u yerning odamlari parishon holda kelib, shoh haqiga duo qilarkan, nola-yu zor bilan shohdan adolat va marhamat so‘radilar. Shoh ularga tarahhum aylab, hol-ahvol so‘radi.

Shunda ular dedilarki:
“Ey shoh! Jahonning hukmroni bo‘l! Qismatdan hukm yurgizib, qudratda falak darajasiga yet! Jahon yerlarini obod qilding, dunyo kishilariga adolat va shodlik bag‘ishlading.

Diyoreki adling anga yetmamish,
Diyor ahlini shodmon etmamish.

Hamonoki bu marz ila bum erur,
Dog‘i bu necha zor-u mazlum erur”.

Dedi shah: “Bu kishvar nedindur xarob,
Eliga nedin tushti bu iztirob?”

Dedilarki: “Bu mulkning bir hadi,
Hamono erur Qirvon sarhadi

Kim, ul mulk g‘arbig‘a moyildurur,
Aro yerda bir tog‘ hoyildurur

Kim, ul tog‘din nari ofot erur,
Ul ofotdin nari zulmot erur.

Bu nav’ etti voqif xabar berguchi
Ki, zulmatning andindurur bir uchi.

Erur tog‘-u zulmat aro vodiye
Ki, yo‘l eltmas ul taraf hodiye.

Ne zulmat – jahannam, ne vodiy – saqar
Ki, ya’juj xaylig‘a bo‘ldi maqar.

Ne ya’jujkim, yuz tuman, ming balo,
Biz ul yuz tuman ming balodin jalo.

Alarni Haq o‘z qahridin xalq etib
Ki, ko‘p elga bedod alardin yetib.

Erur ishlarin vasf qilmoq mahol
Kim, ul vasfdin nutq erur gung-u lol.

Taaddud aro yo‘qturur sonlari,
Yana sonsiz oyini nuqsonlari.

Qad uzra yoyilmish parokanda soch,
Biri bir qarishdur, biri o‘n quloch.

Dema soch, xoshok-u xas ma’dani,
Libos andin aylab borining tani.

Quloq iki yondin bo‘lub birga juft,
Najas tanlarin ko‘zdin aylab nuhuft.

Lekin hali sening adolating yetmagan joylar, adlingdan shodmon bo‘lmagan ellar ham bor. Masalan, mana shu joy va shu joyning bechora – ezilgan xalqlari o‘shalar jumlasidandir”.
“Bu mamlakat nima sababdan xarobalikka uchragan? – dedi shoh. – Xalqi nima uchun buncha-lik iztirobda?”
Ular aytdilarki: “Bu mamlakatning bir cheti o‘zing ko‘rgan Qirvon o‘lkasi chegarasiga tutashadi. O‘sha chegaraning g‘arbrog‘ida ikki o‘rtada bir tog‘ qad ko‘targan. O‘sha tog‘ning orqasi ko‘p ofatli joydir. U ofatlarning nari yog‘i butunlay zulumot – qorong‘ilikdan iboratdir. Bu masaladan xabardor odamlarning aytishicha, dunyodagi qorong‘ilikning boshi o‘sha yerda emish. Bu tog‘ bilan zulumot o‘rtasida bir vodiy bo‘lib, yo‘l boshlovchilar u tarafga bora olmaydilar. U zulumot emas – jahannamdir, vodiy emas – do‘zaxdir. Qisqasi, u yer – ya’juj degan maxluqlarning qarorgohidir. Bu ya’juj deganimiz yuz ming tuman balodan iborat bo‘lib, biz shu behisob balolardan qochganlarmiz. Ular Xudoning g‘azabidan yaratilgan, juda ko‘p xalqlarga ulardan zulm yetgan. Ularning qilmishlarini aytib tugatish qiyin, ularni bayon qilishga til ham gung va loldir. Ularni hisoblamoqchi bo‘lsangiz, sonsanog‘i yo‘q, zarar va shikastlari esa, behisobdir.

Ularning parishon va parokanda sochlari butun badanlariga yoyilgan bo‘lib, biri bir qarich bo‘lsa, ikkinchisi o‘n quloch keladi. U soch emas, xas-xashak uyumi, hammasining tanasidagi liboslar ham shu sochlardangina iboratdir. Bir juft quloqlari ikki yondan jirkanch tanalarini yopib turadi.

Kelib g‘ul barmog‘i barmog‘lari,
Vale dev tirnog‘i tirnog‘lari.

Yomon yuzlari rangi behad sarig‘,
Qizil tuklar anda safodin arig‘.

Biaynih ko‘z andoqki – maymun ko‘zi,
Vale shum har qaysi mal’un ko‘zi.

Burun ichlarin til bila pok etib,
Topib lazzat, o‘zni tarabnok etib,

Aningdekki, mabraz ariturda el,
Solurlar ani xoli aylarga bel.

Og‘izdin to‘ng‘uzdek chiqib iki tish,
Vale yerni qozmoq alar birla ish.

Ne yerniki ul tishlar etti taboh,
Qiyomatqacha butmay andin giyoh.

Takallumda hashv ulcha imkon kelib,
Og‘iz barchasida zanaxdon kelib.

Tushub har birining iki emchagi,
Va gar xud tishisi, va gar erkagi.

Hamul tog‘ undur, aningdekki, vahm
Qila olmoyin ko‘ktin avjini fahm.

Iki yuz anga sof-u yilmon qayo,
Nima butmay andin nechukkim iyo.

Iki yonikim hech topmay gusil,
Bo‘lub Qof atrofig‘a muttasil.

Bu mobayn alarning tarabxonasi,
Bu tog‘ o‘ylakim Qof domonasi.

Vale davrakim bo‘yla ko‘rguzdi Qof,
Topib nasx qofi kibi har shikof.

Bo‘lub fosil ul tog‘ga bir dara,
Ubur etgali ul guruhi shara.

Barmoqlari alvasti barmog‘iga, tirnoqlari esa dev tirnog‘iga o‘xshaydi. Xunuk yuzlari sap-sariq bo‘lib, qizil tuklaridan poklik hazar qiladi. Ko‘zlari baayni maymunning ko‘zini eslatadi, lekin har biri shayton ko‘zidek shumshuk.

Burunlarining ichini tillari bilan yalab “tozalab” lazzatlanganlaridan o‘yin-kulgi qiladilar. Ularning bu harakatlari xalojoyni tozalash vaqtidagi kishilarning kurak solishiga o‘xshaydi. Og‘zidan to‘ng‘iz tishlariga o‘xshagan ikki tish chiqib turadi, ular bu tish bilan yer ham qaziydilar. Ular qayerni tishlari bilan qazisalar, qiyomatgacha u joydan giyoh unmaydi. Gap-so‘zlari boshdan oyoq g‘avg‘o-yu surondan iborat bo‘lib, og‘izlari xuddi o‘raga o‘xshaydi. Erkagining ham, urg‘ochisining ham ikki emchagi osilib yotadi.

Ularning makoni bo‘lmish tog‘ shu qadar vahimaliki, uning balandligini osmondan farq qilib bo‘lmaydi. U tog‘ning ikki yoni taqir, qoyasi qilichdek o‘tkir, qiya toshlardan iborat bo‘lib, u yerlarda hech narsa bitmaydi. Ikki yoni uzluksiz cho‘zilib borib, Qof tog‘iga tutashadi. Shu o‘rtalik bularning makoni, bu tog‘ xuddi “qof” harfining etagiday tutash, lekin “qof” shu xilda aylanma bo‘lsa-da, nasx xatidagi “qof” harfi kabi bir yoriq joyi bor. U tog‘ning orasida bir dara bo‘lib, bu ochko‘zlar guruhi shu yerdan o‘tib yuradi.



Alar yilda solib iki qatla sho‘r,
Chiqib tog‘ shikofidin andoqki mo‘r.

Bizing shahr-u vodiy sori yoyilib,
Ne bedodkim mumkin o‘lg‘ay, qilib.

Kelur chog‘ alar, biz firor aylabon,
Vatandin jalo ixtiyor aylabon.

Borimizg‘a ul nav’ bechoraliq,
Solib tog‘-u vodiyda ovoraliq.

Nekim topib ul qavm talon etib,
Bori shahr-u kishvarni vayron etib.

Kishi topsalar aylab oni halok,
Taloshib yemakka etin zavqnok.

Mavoshini elturga yaksar surub,
Vatangahlarig‘a degin yetkurub.

Zaxira yemakdinki mavjud o‘lub,
Alar zulmidin barcha nobud o‘lub.

Yemak birla xud mutlaqo to‘ymayin
Va gar to‘ysa ham donaye qo‘ymayin

Borin aylabon naql bungohqa,
Budur arzimizkim, deduk shohqa”.

Dedi shahki: “Ul nopisandida xayl,
Qachonkim qilurlar sizing sori mayl,

Nechuk sizg‘a ma’lum o‘lur ul balo
Ki, andin burunroq qilursiz jalo?”

Ular har yili ikki marta shu tog‘ oralig‘idan chiqib, xuddi chumolidek hamma yoqni bosib, g‘alag‘ovur qiladilar. Bizning shahar va dalalarimizga yoyilib, hech kutilmagan jabr-jafolarni qiladilar. Ular keladigan chog‘da biz qochib, vatanni tashlab ketishga majbur bo‘lamiz. Hammamiz qiyinchilikka tushamiz va tog‘, cho‘llarda sarson-sargardon kezamiz. U qavm nima ko‘rsa, shuni talab, butun shahar va mamlakatni vayron qiladi. Odamni qo‘lga tushirsalar, uni o‘ldirib, go‘shtini zavq bilan talashib yeydilar. Qoramollarning hammasini haydab, o‘z yurtlariga olib ketadilar. Yeyishga g‘amlagan hamma zaxiralarimizni ham talon-toroj-u nes-nobud etadilar. Ular yegan bilan mutlaqo to‘ymaydi, agar to‘ysa ham qolgan ozuqalarning hammasini bir dona qo‘ymay, o‘z omborlariga tashib ketadilar. Podshohga arzimiz shuki, bizni ana shu ofatdan qutqarsang”.

Shoh aytdi:
“U yoqimsiz to‘da sizning tarafingizga kelmoqchi bo‘lganda, u baloning kelayotgani sizga qanday ma’lum bo‘ladiki, ular yetib kelmasdanoq siz qochib qolasiz?”

Alisher Navoiy ya’juj-ma’jujlarni, ularning yashash makonini tasvirlash uchun qanday vositalardan foydalanmoqda? Bu vositalar ya’juj-ma’jujlarni qay darajada yaqqol tasavvur qilishga yordam beradi?

Dedilar: “Bu tog‘ekim ul qavmi shum,
Aning ul yuzida qilurlar hujum.

Bu sori bo‘lur chog‘da sahronavard,
Qilur charx oyinasin tiyra gard.

Qachon bo‘lsa ul tiyra gard oshkor,
Bo‘lur tiyra bizlarga ham ro‘zgor”.

Dedi shah: “Qachon bo‘lg‘ay ul ish
chog‘i?”
Dedilar: “O‘tub bir necha kun dog‘i”.

Eshitgach bu so‘z dovari choraras,
Alar chorasin qilmoq etti havas.

Topib berk manzil, tusharga panoh,
Hamul marz aro qildi oromgoh.

Dedilar ul el yuz tazarru’ bila,
Janobida ushbu tavaqqu’ bila

Ki: “Bizga necha baxtdin yo‘q navo.
Nechuk ko‘rgabiz el gazandin ravo?

Shah ar munda maskan qilur, qilmasun,
Alarni jahon ahlidek bilmasun

Ki, nogah biri etsa ul qavmning,
G‘anim o‘trusida ne yuz-u, ne ming,

Bataxsiskim yuz tuman ming balo
Ki, bu kishvar o‘lgay alardin to‘lo.

Etishgay borining boshida g‘azab,
Bori el qonin ichgani tashnalab”.

Dedi shahki: “Siz bizga qayg‘urmangiz
Va lekin bu kishvararo turmangiz.

Toshing har neyingiz bo‘lsa aylab shitob
Ki, bu mulk aro qolmasun rishtatob

Ki, Tengriga ul dam tavakkal qilay,
Alar fikrin aylay, nechukkim bilay”.

Alar chiqtilar mulkdin xonako‘ch,
Vale qilmadi shohi farzona ko‘ch.

Ular dedilar: “U shum maxluqlar mana bu tog‘ning narigi yuzidan bosib kela boshlaganlarida, sahroni kezib o‘tmaslaridanoq osmon oyinasini qop-qora chang-to‘zon bosib ketadi. Qachonki shunday qora to‘zon ko‘rinsa, bizning kunimiz ham shunday qora bo‘ladi”.
Shoh aytdi: “U ish yana qachon bo‘lishi mumkin?”
“Bir necha kun o‘tgandan so‘ng yuz beradi”, – dedilar.
Tadbirli hakam bu so‘zni eshitgach, maxluqlarning chorasini ko‘rishga bel bog‘ladi. Qo‘nish uchun bir yopiq joy topib, o‘sha yerga joylashdi. U xalq yuz iltijo bilan shoh janoblariga dedilarki:
“Bizga baxtdan hech umid yo‘q ekan, boshqa kishilarning zararlanishini qanday ravo ko‘ramiz? Agar shoh bu yerda maskan qilmoqchi bo‘lsa, qilmasin. U maxluqlarni jahon xalqidek, deb bilmasin. Agar banogoh u qavmdan birontasi kelib qolsa, uning qarshisida yuz va ming g‘anim pisand emas. Xususan, bu balo yuz ming bo‘lib, ko‘pligidan bu mamlakatni boshdan oyoq bosib ketadi. Hammasining miyasi g‘azab bilan to‘la, hammasi xalq qonini ichishga tashnadirlar”.
Shoh aytdi: “Siz bizga qayg‘urmang, lekin o‘zingiz ham bu o‘lkada turmang. Nima narsangiz bo‘lsa, hammasini shitob bilan tashib oling, bu mamlakatda bir uzuq ipingiz ham qolmasin. Tavakkalni Xudoga qilib, qo‘limdan kelgancha ularni yo‘q qilish chorasini ko‘raman”.
Odamlar o‘z joylaridan budshudlarini ko‘chirib ketdilar. Lekin qahramon shoh ko‘chmadi.

Iskandar vahshiylar zulmiga qarshi qanday siyosat qo‘llamoqchi deb o‘ylaysiz?

Dedi, davrig‘a qozdilar har fariq,
Ochuq xandaq, ammo bag‘oyat amiq.

Kishilar yibordiki, har marz-u bum,
Farang o‘lsun-u Rus, yo Shom-u Rum.

Nekim bo‘lsa me’mori chobukxayol,
Yana dog‘i ustodi nozukxayol.

Yana korgarlar, bori charbdast,
Balo raxnasin qilg‘udek sangbast.

Uning buyrug‘i bilan u joyning atrofiga bir qator ochiq va g‘oyat chuqur xandaqlar qazildi. Farangdanmi, Rusdanmi, Shomdanmi, Rumdanmi – qaysi o‘lkadan bo‘lmasin, o‘tkir fikrli me’morlarni, nozik tushunchali ustalarni, chapdast va baquvvat ishchilarni, toshdek mustahkam balo raxnasi qura oladigan kishilarni topib kelish uchun vakillar jo‘natdi.

O‘ylab ko‘ring:
Sizningcha, ya’juj-ma’jujlardan himoya taktikasi zamirida qanday g‘oya mujassam?

Mis-u ro‘y-u qal’i, birinj-u temur,
Yana qo‘rg‘oshun birla tolu ko‘mur.

Qilib necha yuz ming teva uzra soz,
Yana necha ustodi ohangudoz.

Muhayyo qilib ehtimom aylabon,
Borin jahd ila tezgom aylabon.

Eturgaylar ul yerga borini bot,
Bori butti shoh aylagach iltifot.

Chu nekim keraklik edi, bo‘ldi rost,
Aningdekki doroyi davrong‘a xost.

Anga tegru har kun o‘zi otlanib,
Hamul tog‘ domonasin aylanib.

Solib iki ming sangburi bedarang,
Kamar uzra kesmak uchun taxta sang.

Bori zo‘rdast ichra po‘loddek,
Qotig‘ xora kesmakda Farhoddek.

Alar xorani bemadoro kesib,
Madorosiz ul tog‘da xoro kesib.

Mis, qalay, birinj (bronza), temir, qo‘rg‘oshin va tol ko‘mirgacha tayyorlab, ularni necha yuz ming tuyalarga ortib va qancha temir erituvchi ustalarni topib – muhayyo qilib, g‘ayrat bilan hammasini tez va jadal bu yerga yetkazishlari kerak edi. Xuddi shunday bo‘ldi: hamma ish davron shohi buyurgandek bajarildi va tayyorlandi. Ungacha har kuni shohning o‘zi otlanib, u tog‘ etaklarini ko‘zdan kechirib kelar edi. Ikki ming toshkesar usta sur’at bilan tog‘ orasidagi yaxlit toshlarni kesishga kirishdi. Ularning har birining qo‘li po‘latdek kuchli, qattiq toshlarni kesishda Farhoddek zabardast edi. Ular bu tog‘dagi toshlarni tinmay-tinchimay kesar edilar.
G‘ov solish – sad bog‘lash uchun shu qadar ko‘p asbob-uskuna yig‘ildiki, ularning qanchaligini bilishga aql ojizlik qilar edi. Nimaiki kerak bo‘lsa, hammasi muhayyo qilingach, xuddi kutib turgandek,

Yig‘ib oncha asbob bog‘larg‘a sad
Ki, taxminidin ajz topib xirad.

Chu har ne keraktur muhayyo bo‘lub,
Hamul tiyra gard oshkoro bo‘lub

Ki, ya’juj azmig‘a erdi nishon,
Bo‘lub mehr nurig‘a zulmatfishon.

Yig‘ishturdilar elni taklif ila,
Kivurmakka xandaqqa taxvif ila.

Suruldi gala dog‘i xandaq sari
Ki, jonliq nima qolmadi tashqari.

Kamingahda besh ming nabardozmoy,
Nihoni qo‘yub shohi farxundaroy

Ki, bir dastburd aylabon oshkor,
Qilurg‘a hamul saydlardin shikor.

Alar ichra o‘n vahshiyi mag‘ribiy,
Qamish xayli ichra teraklar kibi.

Bu savdo alarni chu marbut etib,
Kelib xandaq ahlini mazbut etib.

Bu holatda chiqti guruho guruh
Ki, ya’jujdin to‘ldi sahroy-u ko‘h.

Chiqib bo‘yla holatda ahli kamin,
Aningdekki, titrab zamon-u zamin,

Alar xaylig‘a o‘zlarin urdilar
Ki, tig‘ ostida ko‘pni o‘lturdilar.

Bu yanglig‘ chu ko‘rdi alar dastzo‘r,
Xayol aylakim, tushti daryog‘a sho‘r.

Qo‘yub borcha to‘sh-to‘shdin ul elga yuz
Ki, kasratlaridin to‘lub tog‘-u tuz.

Aningdek nabard oshkor ettilar
Ki, ul xayl ishin iztiror ettilar.

Ne o‘q-u qilichdin birisiga bok,
Ne o‘q-u qilichkim bo‘lurdin halok.

haligi aytilgan qora to‘zon namoyon bo‘ldi. Bu o‘sha ya’jujlarning kelayotganidan nishona bo‘lib, quyosh yuzini ham qorong‘ilik qoplagan edi. Binobarin, xavfdan saqlanish uchun hamma kishilarni yig‘ib, xandaqlarga kirishga taklif qilindi. Barcha podalarni ham haydab kelib, xandaqqa qamaldi, tashqarida hech bir jonivor qolmadi.

Saodatli shoh pistirmaga besh mingta mardi maydon jangchini kiritib qo‘ydi. Ular to‘satdan hujum qilib, haligi keladigan maxluqlarni ovlashi kerak edi. Bu jangchilar orasida yuqoridagi Mag‘rib vahshiyzodlaridan ham o‘ntasi bo‘lib, bularning har biri boshqa askarlarga nisbatan qamishzordagi terakdek gavdali edi. Bo‘lajak mojaro mag‘ribiylarni g‘oyat qiziqtirgan holda, ular xandaqda yashiringan kishilarni muhofaza qilar edilar.

Shu payt birdan guruh-guruh bo‘lib kelayotgan ya’jujlardan tog‘ ham, sahro ham to‘lib ketdi. Ana shu zamonda to‘satdan pistirmadagi polvonlar chiqib, butun yer-u ko‘kni larzaga solib, o‘zlarini u maxluqlarga urdilar; tig‘ bilan chopib, birmunchasini halok qildilar. Ya’jujlar bunday zo‘ravonlikka duch kelgach, hamma yoq xuddi daryodek to‘lqinlanib ketdi, ya’ni ular ham birdan qarshi hujumga o‘tdilar. Lekin ular shunchalik ko‘p ediki, tog‘ ham, cho‘l ham – hamma yoq ular bilan to‘la edi. Bu maxluqlar shunday urush boshladilarki, tezda Iskandar jangchilarini esankiratib tashladilar. Ular o‘q va qilich kabi qurollarga parvo qilmas, o‘q-qilichdangina emas, halok bo‘lishdan ham qo‘rqmas edilar.

Itik tig‘din har nechakim o‘lub,
Hamul tig‘din ham itikrak bo‘lub.

Alar ham ko‘p elni halok aylabon,
Halok aylaganni xo‘rok aylabon.

Otidin muborizni yiqqon zamon,
Yiqilg‘och, taloshib tugatmak hamon.

Demonkim yebon jism-u qolabni ham,
Ne jism-u ne qolabki, markabni ham.

Ajabroqki, ne xasm-u, ne o‘z debon,
Yiqilg‘onni filhol uzushub yebon.

Bu yanglig‘ki aylab nabard ul sipoh,
Ko‘p el bo‘ldi oqshomga tegr-u taboh.

Base ul jamoatdin o‘lturdilar
Ki, to o‘zni xandaqqa yetkurdilar.

Chu parxoshdin qolmayin jonlari,
Kirib jon arosig‘a qo‘rg‘onlari

O‘kush rev ila hisn azmi qilib,
Hamul devvash xalqdin ayrilib.

Bular aylagach rev ila tarki razm,
Alar ham qilib tog‘-u sahrog‘a azm.

Tong otquncha oshub-u g‘avg‘o bila,
Qalin it masallik alolo bila.

Bori og‘zida telba itdek yolin,
Adadda vale it tukidin qolin.

Chu hozir bo‘lub shah qoshig‘a sipoh,
Musibat tutub xayli g‘oyibqa shoh.

Qabul aylagan ish ko‘runub qatig‘,
Pushaymonlig‘i hech qilmay asig‘.

Chu ko‘shish sori topmayin hech yo‘l,
Zarurat urub chora zaylig‘a qo‘l.

Bilibkim, necha kun tahammul kerak,
Qilur ishda ko‘prak taammul kerak.

O‘tkir tig‘lar zarbidan qanchadan qanchasi qirilishiga qaramay, borgan sari dami qaytmas tig‘day hujumga tashlanar edilar. Ular ko‘p kishilarni halok qildilar, halok bo‘lganlarni esa talashib yer edilar. Jangchi – muborizni otidan ag‘dargan zamon, o‘nggaltirmay, talashib-tortishib yeb bitirar edilar. Yiqilganning go‘shti va ichak-chovog‘ini yebgina qanoatlanmay, uning otini ham yeb bitirardilar. Eng qizig‘i shunda ediki, yiqilgan kim bo‘lmasin – dushmanmi yoki o‘zlaridanmi, baribir, darhol tortqilashib yer edilar.

Shoh askarlari shu xilda kurash qilib, kechgacha ko‘plari halok va majruh bo‘ldilar. To xandaqqa kirguncha u jamoatdan ham ko‘pini o‘ldirdilar. Urushaverib jonlari qolmagan edi, nihoyat, jonlariga qo‘rg‘onlari ora kirdi. Turli hiyla va tadbir bilan amallab qo‘rg‘onga kirib olib, bu devvashlar hujumidan o‘zlarini qutqardilar. Bular ustalik bilan urushni tugatgach, ular ham tog‘-u sahroga qarab yo‘l oldilar. Tong otguncha g‘avg‘o-to‘polon bilan xuddi it singari uvlashib chiqdilar. Hammasining og‘zi xuddi quturgan itning og‘zidek ochiq bo‘lib, it tukidan ham ko‘p edilar.

Omon qolgan askarlar shoh qoshiga kelganlarida, shoh o‘lgan va yo‘qolgan kishilarga ta’ziya izhor qildi. Bu boshlangan ish benihoya qimmatga tushgan bo‘lsa-da, ammo pushaymon qilgan bilan befoyda edi. Ular bilan urushib, g‘alaba qozonishning hech qanday oson yo‘li topilmagach, zarur choralardan biri sifatida, bir qancha vaqt sabr qilish, amalga oshiriladigan tadbirlarni ko‘proq o‘ylash kerak, degan qarorga kelindi.

Yemakdin chu xolidur ul marz-u bum,
Magar topmayin tu’ma ul xayli shum,

Yonib o‘z makonig‘a azm etsalar,
Qilib avd, kelgan sari ketsalar.

Etib ishga ul lahza nazzoraye,
Qila olg‘ay ul qissag‘a choraye.

Ham ushbu deyilgan kibi ul guruh
Nima topmog‘ondin bo‘lub chin sutuh.

Bori qildilar avd kelgan sari,
Dara ichra sig‘may kirib ichkari.

Alarg‘a chu yuzlandi ovoraliq,
Zamona unutti sitamkoraliq.

Shah otlandi ul xayli dono bila,
Razin roy-u aqli tovono bila.

Rikobida san’atgar el behisob,
Qilib ul dara sori bori shitob.

Chu yettilar, ermas edi ul dara,
Ochuq julgae erdi xo‘b-u sara.

Va lekin iki jonibi iki tog‘,
Nechukkim berib erdi ul el surog‘.

Iki tog‘ arosida massohi chust,
Yaqinroq yerin ayladi bozjust.

Bu joylarda yeyishga yaraydigan hech narsa bo‘lmasa, u yirtqich to‘dalar ovqat topolmagach, o‘z makonlariga qaytib ketsalar ajab emas.

Ana shu paytda diqqat-e’tibor va tadbir bilan bu ishga qo‘l urilsa va ularga qarshi chora ko‘rilsa bo‘ladi, dedi shoh. Haqiqatan, u maxluqlar xuddi aytilgandek, yeyishga hech narsa topilmagach, ojiz qolib, kelgan tomoniga qarab ketdi. Ular ko‘pligidan dara ichiga sig‘mas edilar. Ular shu tarzda ovora bo‘lib qaytgach, birmuncha vaqt bu taraflarga kelib, talon-toroj qilishni unutdilar.

Bu paytdan foydalanib shoh o‘z bilimdon kishilari, fikri o‘tkir, aqli to‘la olimlari bilan maslahatlashib, ishga kirishdi. Behisob hunarmand – san’atkorlarni atrofiga olib, dara tomonga qarab jadal yo‘l soldi. U yerga yetgach, ko‘rdilarki, juda go‘zal – ko‘rkam va keng vodiy ekan. Lekin ikki tomonida, xuddi u yurtning odamlari aytganidek, ikki tog‘ bor edi.

? *Quyida berilgan Iskandar devorining bunyod etilishi bilan bog‘liq lavhalarda o‘sha davrning qaysi sohalariga oid tajribalar umumlashgan?*

Tanob onchakim chektilar har sari,
Yaqinroq yeri erdi o‘n ming qari.

Nujum ahli soat qilib ixtiyor,
Kezib markab uzra shahi baxtiyor.

Buyurdiki to‘ktilar ul yerga rang,
Tushub qo‘ydi soat bila xora sang.

Gudozandalig‘ ichra ming korgoh,
Qilib, o‘ylakim ko‘ra tayyorgoh.

Tanob bilan yer o‘lchovchilar hamma yog‘ini o‘lchab ko‘rganlarida, eng yaqin yeri o‘n ming qari (o‘n kilometrga yaqin) ekani ma’lum bo‘ldi. Munajjimlar yulduzlarga qarab, xosiyatli soatlarni aniqladilar. Baxtiyor shoh esa ot ustida yelib-yugurib, o‘sha yaxshi soatda u yerlarga rang to‘kib, reja solishga buyurdi va o‘zi poydevorning birinchi xarsangtoshini qo‘ydi.

Muhandislar aylab fusunsozliq,
Masohat bila korpardozliq.

Bo‘lub korgarlar dog‘i ishda chust,
Raja jadvali birla pok-u durust.

Gach o‘rnig‘a mahlul etib haftjo‘sh,
Quyub yerga san’atgari saxtko‘sh.

Solib haftjo‘sh ustiga taxta tosh,
Bori jonibi tez bo‘lg‘on tarosh.

Qo‘pub yona ustodi Boniyhasab,
Qo‘yub toshni toshqa lab-balab.

Chu bir sath ul tosh hamvor o‘lub,
Yana ustida ish namudor o‘lub.

Chu tulig‘a o‘n ming qari erdi arz,
Binosig‘a besh yuz qari bo‘ldi arz.

Necha ming bu ish uzra ustod edi
Ki, san’atda banno-u haddod edi.

Qo‘yub ul sifat darz-bardarz tosh
Ki, bo‘lmay sari mo‘y anga darz fosh.

Yana erdi muzdur sondin fuzun,
Nechakim qiyos etsa ondin fuzun.

Bo‘lub olame bo‘yla san’atnamoy,
Kecha-kunduz ish qildilar olti oy

Ki, necha ming ustod-u san’atgari,
Tamom ettilar Saddi Iskandariy.

Muarrixdin ettim bu nav’ istimo‘
Ki, topti sad uch yuz qari irtifo‘.

Iki zina dog‘i yasab el sori
Ki, chiqqay quyidin ulus yuqori.

Yana kunguru burj etib qal’avor,
Temurlar bila aylabon ustuvor.

Yasab iki manzil nigahbon uchun,
Tashib tosh ko‘p sangboron uchun.

Minglab qadoq ma’dan eritadigan korxonalar tayyorlab qo‘yilgan edi. Muhandislar o‘z bilimlarini ishga solib, ham mayoqni yaxshilab o‘lchab, reja solgan edilar. Ishchilar ham tuzilgan reja va jadval asosida ishga kirishib, chaqqonlik bilan o‘z hunarlarini ko‘rsata boshladilar. Hunarmand ustalar ganch o‘rniga yetti xil ma’dan qotishmasini biriktirib yerga quydilar. Uning ustiga taxlangan toshlarni bosib, har tomonini tekislab, tarashladilar. Boniy shogirdlariga o‘xshagan ustalar ishga kirishib, tosh ustiga toshlarni labba-lab qilib silliqlab terar edilar. Toshlar bir qator tekislab terilgach, yana ustiga tosh bosar edilar. Devorning uzunligi o‘n ming, eni esa besh yuz quloch tengligida qurildi. Bu ishlarni bajarishda necha minglab temirchi va binokor ustalar o‘z hunar-u san’atlarini namoyon etdilar. Shu xilda tosh ustiga tosh qo‘yib, unda bir soch tolasidek yoriq qo‘ymay ishlandi. U yerda mardikor bo‘lib ishlaganlarning son-sanog‘i yo‘q, kishining xayoli qancha taxminlay olsa, shundan ham ko‘p edi. Butun olamning san’atkorlari (hunarmandlari) yig‘ilib, bu yerda olti oygacha kecha-kunduz tinmay ishladilar. Bular orasida bir necha ming ustoz hunarmandlar ham bor edi, shular hammasi bir bo‘lib, Saddi Iskandariyni (Iskandar devorini) tamom bitkazdilar.

Tarixchidan eshitishimcha, sadning balandligi uch yuz qari bo‘lgan. Sadning odamlar yashaydigan tomoniga devor ustiga chiqish uchun ikkita zinapoya ham ishlandi. Sadning tepasiga yana qal’alarniki singari qubba va kunguralar ham yasalib, ular temir bilan mustahkamlandi.

Qilib anda ta’yin necha yuz kishi
Ki, sad hifzi bo‘lg‘ay alarning ishi.

Chu sad bo‘ldi andoqki charxi kabud,
Jahonofaring‘a shah etti sujud.

Bu holatda ul xayli muhliksitez,
Solib dasht-u vodiy aro rustaxez.

Yetishtilar andoqki, ma’hud edi,
Burung‘icha un-shayn mavjud edi.

Balo raxnasin toptilar, o‘yla rust
Ki, tish birla tirnog‘lari bo‘ldi sust.

Dedi shohkim: “Sangboron qiling,
Balo xaylig‘a toshni parron qiling!”

Aningdek alar boshig‘a yog‘di tosh
Kim, ul toshdek tushti tuproqqa bosh.

Chu yo‘q erdi g‘avg‘olaridin asig‘,
Bo‘lub qatl toshidin andeshalig‘.

Yonib bir-birisiga aylondilar,
Chu sud etmadi jahd-u jidd – yondilar.

Yer ahlig‘a har zulmkim surdilar,
Falakdin borig‘a evaz ko‘rdilar.

Bu bedodkim aylab ul qavm fosh,
Ne tong osmondin agar yog‘sa tosh.

Necha qatla mundoq topib go‘shmol,
Yana ul taraf boqmog‘ etmay xayol.

Bu oyin ila chun shahi purxirad
Ki, ya’juj daf’i uchun chekti sad.

Qilib xotirin jam’, qildi xirom,
Sipah birla yod aylab asli maqom.

Necha kun chu qat’ ayladi marz-u bum,
Yana bo‘ldi manzilgahi taxti Rum.

U yerga posbonlar uchun ham ikkita joy qilindi va dushmanni toshbo‘ron qilish uchun yuqoriga ko‘p toshlar yig‘ildi. Sadni muhofaza qilib – qo‘riqlab turish uchun ham bir necha yuz kishi tayinlandi. Sad xuddi osmondek bir inshootga aylangach, shoh buning shukronasi uchun Yaratgan Tangriga sajda qildi. Ish shu yerga yetganda, haligi halokatli maxluqlar yana dasht-u vodiylarga g‘ala-g‘ovur solib kela boshladi. Ular odatdagidek keldilar-u, ammo ovozlarida zaiflik mavjud edi. Ular balo rahnasining sad bilan bekitilganini ko‘rgach, tish bilan tirnoqlari susayib, tinkalari quridi. Shoh shu paytda: “Toshbo‘ron qiling, balo to‘dasiga toshlarni oting!” – deb buyruq berdi. Ularning boshiga shunday tosh yog‘dirdilarki, boshlari xuddi shu toshlar kabi tuproqqa tushaverdi. Ular qiy-chuv va to‘polon bilan ish chiqazolmagach, o‘lim toshlarining zarbidan tashvishlanib, hammalari bir-birovlariga o‘ralashgan-chuvalashgan holda, shoshib-pishib, kelgan taraflariga qarab jo‘nab qoldilar.

Yirtqichlar u yerning odamlariga qancha zulm qilgan bo‘lsalar, shu zulmlarning hammasi o‘zlarining ham boshlariga tushdi. Bu maxluqlar tomonidan qilingan bezoriliklarga qaraganda, ular boshiga osmondan toshlar yog‘ilsa, ajablanarli emas! Necha marta shunday ta’zirlarini yegandan keyin, qaytib bu tomonga qarashni ham xayol qilmaydigan bo‘ldilar. Donishmand shoh ya’jujlarni daf etish uchun tadbirkorlik bilan shunday sad chekdi. Bulardan xotiri jam bo‘lgach, o‘z vatanini eslab askarlari bilan yo‘lga ravona bo‘ldi.Bir necha vaqt yo‘l yurgach, o‘z manziliga yetib, yana Rum taxtida maqom ayladi.

Ketur, soqiy, ul jomi taqvishikan
Ki, ko‘nglumga tushmish havoyi vatan.

Tilarmen kezib rub’i atlolni,
Desam ranji g‘urbatdagi holni.

Mug‘anniy, chu toptim maqomimda kom,
Tuzat kom ila sen dog‘i bir maqom.

Qilib fahm ul ohangning rangini,
Yana tark etay sayr ohangini.

Navoiy, vatan bo‘ldi manzil manga,
Bu manzildin ammo ne hosil manga

Ki, har kimki bor erdi yor-u qarin,
Bo‘lubtur adam sori g‘urbatguzin.

Ey soqiy, parhezdorlikni buzadigan may keltir! Zero, ko‘nglimga vatan ishtiyoqi tushib qoldi. Endi men bu vayrona dunyoni kezib, g‘urbatda chekkan ranj-mashaqqatlarimni bayon qilmoqchiman.
Ey mug‘anniy! Men o‘z maqomimga kelib murodimga yetdim. Sen ham shu orzuga muvofiq bir maqomni kuyla! U kuy shunday ta’sir qilsin-ki, bundan buyon jahongashtalikni mutlaq tark etay.
Ey Navoiy! O‘z vataningda manzil tutding, lekin senga bu manzildan nima hosil? Axir qancha yor-do‘stlaring bo‘lsa, hammasi yo‘qlik, g‘urbat xonasiga ketdi-ku!

Yovuzlikni mahv etishdagi asosiy kuch nimada?

1. Sad (devor) nimaning ramzi deb o‘ylaysiz? Dunyodagi qaysi mashhur inshootlarni Iskandar devoriga tenglashtirish mumkin? O‘zingiz Iskandar devorini qanday tasavvur qildingiz?

2. Yovuzlik qaysi obrazlar mohiyatiga singdirilgan? Asarda yovuzlik va ezgulik kurashi qanday tasvirlangan?

3. Globallashuv davridagi qaysi tahdidlarni ya’juj-ma’jujlar zulmiga tenglashtirish mumkin?



Iskandar (Aleksandr)ning ya’juj va ma’jujlarga (Injilda – gog va magog) qarshi devor qurishi. XV asr miniatyurasi, Belgiya

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, Iskandar qanday obraz? Alisher Navoiy bu obraz orqali nimalarni ifodalamoqchi bo‘lgan? Asardan bosh qahramon xarakterini ochib beradigan o‘rinlarni toping.

2. Alisher Navoiy Iskandar obrazini yaratish orqali bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan qanday global muammolarni qo‘yadi?

3. “Saddi Iskandariy”dan biz o‘qigan boblardagi hikoyatlar o‘rtasidagi g‘oyaviy uyg‘unlik nimalarda aks etadi? Siz qaysi hikoyatlardan ko‘proq ta’sirlandingiz? Nima uchun?

“Saddi Iskandariy” dostoni asosida Abror Hidoyatov nomidagi o‘zbek davlat drama teatrida sahnalashtirilgan “Iskandar” spektaklini tomosha qiling. Spektakldagi Alisher Navoiy va Iskandar obrazlari talqiniga e’tibor bering. Sahnadagi Iskandar dostondagi Iskandardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Asarga Alisher Navoiy obrazi nima uchun olib kirilgan deb o‘ylaysiz?

Alisher Navoiy “Xamsa”sining Anvar Hojiahmedov tomonidan tayyorlangan nasriy bayonini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

ALISHER NAVOIY HAQIDAGI BILIMLARIMIZNI UMUMLASHTIRAMIZ

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Guruhlarga bo‘lining. “Xazoyin ul-maoniy”ning ikkinchi devoni – “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) kitobiga kiritilgan ushbu g‘azalni tahlil qiling va tahlilingizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.



Alisher Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmasi

* * *

To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoramen.

El netib topqay menikim men o‘zumni topmanom,
Bo‘ylakim ishq-u junun sahrosida ovoramen.

Qaysi zaxmimg‘a qilursen chora chun men, ey rafiq,
Tiyr boroni baliyatdin sarosar yoramen.

Oh dudi ichra bir uchqun kibi ko‘rgan meni
Bildikim, hijron tuniga kavkabi sayyoramen.

Kecha o‘rtansam, sahar faryod qilsam, ne ajab,
Ishq aro parvonav-u, bulbulg‘a chun hamkoramen.

Ey xarobot ahli, gar siz mast o‘lub, men bo‘lmasam,
Ayb emas, nevchunki siz – mayxora, men xunxoramen.

Ey Navoiy, bordi deb ahbob, ta’jil etma ko‘p,
It kibi* men erishib ul korvonni boramen.

(“Navodir ush-shabob” devonidan, 496-g‘azal)

baliyat – balo, musibat
oshub – g‘avg‘o, to‘polon
junun – devonalik
zaxm – yara, jarohat
rafiq – do‘st
tiyr – kamon o‘qi
boron – yomg‘ir
dud – tutun
kavkab – yulduz
hamkora – bir xil ish qiluvchi
mayxora – may ichuvchi
xunxora – qon ichuvchi
ahbob – do‘stlar
ta’jil – shoshilish

**** Izoh: aytishlaricha, uch solih yigit zolim hukmdor Daqqiyonus (Daklyonius) zamonida tog‘ sari bosh olib ketadilar. Ularga bir it ham ergashadi va hammalari g‘orga yashirinadilar. Alloh ularni zulmdan asrab, uyquga cho‘mdiradi va Daqqiyonus vafotidan keyin uyg‘otadi.***

LOYIHA

O‘zbek va turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va san’atida Alisher Navoiyning alohida o‘ringa ega ekanini qanday sabablar bilan izohlaysiz? Fikrlaringiz asosida Alisher Navoiy ijodiga xos eng muhim uch xususiyatni misollar yordamida ochib bering.



Ozarbayjon poytaxti Boku shahridagi Alisher Navoiy haykali

O‘RTA ASRLAR VA UYG‘ONISH DAVRI JAHON ADABIYOTI (V–XVI ASRLAR)

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– o‘rta asrlar Yevropa va Sharq adabiyotida yetakchilik qilgan adabiy janrlar haqida bilib olamiz;
– Uyg‘onish davri adabiyotining asosiy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Eslang:
Insoniyat tarixidagi qaysi davr “o‘rta asrlar” deb ataladi? Bu davrning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?

V asrda Rim imperiyasining qulashi bilan qadimgi davr yakun topdi va “o‘rta asrlar” deb nom olgan yana bir yangi davr boshlandi. Jamiyatning zodagonlar, ruhoniylar va dehqonlar qatlamiga bo‘linishiga asoslangan feodalizm tuzumi yuzaga keldi. Xalqlarning buyuk ko‘chishi natijasida yangi millatlar shakllandi va bu millatlar so‘zlashadigan tillarda yangi adabiyot yaratildi. Keyinchalik mayda davlatlar o‘rniga kuchli markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi savdo-sotiq, sanoat, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Xristian dinining Yevropa davlatlari ichki va tashqi siyosatiga, madaniyati va san’atiga ta’siri kuchaydi.

Qadim davrlardan mavjud bo‘lgan qahramonlik eposi o‘rta asrlar adabiyotida yangicha mazmun kasb etdi. Shimoliy Yevropa xalqlari eposlarida (inglizlarning “Beovulf” dostoni, island sagalari – dostonlari) hali mifologik tasavvurlarning kuchli ta’siri sezilsa, fransuz (“Roland haqida qo‘shiq”), nemis (“Nibelunglar haqida qo‘shiq”), ispan (“Sid haqida qo‘shiq”) va sharqiy slavyan (“Igor qo‘shini haqida so‘z”) eposlarida esa real tarixiy voqealarga badiiy bo‘yoq beriladi.

Arvoh kelar asta-sekin qorong‘u tunda
Soqchilar-chi, uxlab yotar qasrda beg‘am.
Uxlamaydi bedor bo‘lib Beovulf bunda,
Uxlamaydi yovni kutib Beovulf o‘ktam.
Botqoq yerdan, tepalikdan tun cho‘kkan mahal
Tushib kelar la’natlangan maxluq Grendal...
Osmon uzra chaqmoq chaqqanday
Paydo bo‘ldi Beovulf o‘ktam.

Temir kabi mustahkam qo‘llar
Grendalni ushladi mahkam ...

“Beovulf” dostonidan
(Rustam Umurzoqov tarjimasi)

Buyuk imperator Karl mamnun:
Qo‘shini egalladi Kordovani.
Manjaniq toshlaridan bo‘ldi vayron minoralar
Va devorlar kuli sovrildi ko‘kka.
Ritsarlari ega bo‘ldi boy o‘ljaga:
Yarog‘-aslaha, asbob-anjom, kumush va oltinga.

“Roland haqida qo‘shiq”dan
(Abdug‘ofir Qosimov tarjimasi)

O‘rta asrlar Yevropa jamiyatining tabaqalarga bo‘linishi adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va natijada har bir tabaqa vakillari tomonidan yaratilgan o‘ziga xos adabiyot yuzaga keldi:

– ulamolar tomonidan lotin tilida yaratilgan adabiyot asosan diniy mazmunga ega bo‘lib, ulardan diniy masalalarga sharhlar, avliyolar hayoti bayoni, madhiyalar va diniy marosimlardagi duolar o‘rin oldi;

– ritsarlik adabiyotining asosini muhabbatni tarannum etuvchi lirika va ritsarlarning g‘ayrioddiy qahramonliklari tasvirlangan turkum asarlar tashkil qildi;

– “shahar adabiyoti” esa hayvonlar haqidagi majoziy mazmunga ega eposlar, she’riy yoki nasriy yo‘l bilan yozilgan satirik asarlar va shahar maydonlarida ijro etishga mo‘ljallangan pyesalardan iborat bo‘lgan. Bu pyesalarda aksar holatda ruhoniylar va zodagonlarni mot qilib, har qanday mushkul vaziyatda ham yo‘l topa oladigan oddiy insonlar tasvirlangan.



Qirol Artur va uning “dumaloq stol ritsarlari” haqidagi turkum asarlar o‘rta asrlar ritsarlik adabiyotining mashhur namunalaridan hisoblanadi.
XV asr miniatyurasi

Tahlil qiling:
O‘rta asrlar Yevropa adabiyotining eng muhim xususiyatlari nimalardan iborat? Bu davr adabiyoti qaysi jihatlari bilan antik adabiyotdan farq qiladi?

VII asrda Arabistonda paydo bo‘lgan Islom dini Arabiston yarimoroli, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Eron, Hindistonning bir qismi va Yevropaning Pireney yarimoroligacha bo‘lgan hududlarga tarqaldi. Arab xalifaligi va keyinchalik uning o‘rnida paydo bo‘lgan davlatlarda ilm-fan va madaniyat rivojlandi, arab va fors-tojik tillarida ulkan adabiy meros yaratildi.

IX asrda Somoniylar davlatida yashab ijod etgan Abu Abdulloh Rudakiy fors-tojik adabiyotining asoschisi hisoblansa, musulmon Sharqi adabiyotida epik dostonlar yaratish an’anasini Eron va Turon xalqlari-



“Shohnoma”ning XV asrda Amir Temur nevarasi Boysung‘ur Mirzo uchun ko‘chirilgan nusxasiga ishlangan miniatyura

ning qariyb to‘rt mingyillik tarixiga bag‘ishlangan “Shohnoma”si bilan Abulqosim Firdavsiy (X–XI asrlar) boshlab berdi. Bu an’anani keyinchalik Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy singari adiblar davom ettirib, besh dostonni birlashtirgan “Xamsa”larini yaratdilar va o‘z navbatida Sharq adabiyotida “Xamsa”chilik an’analariga asos soldilar. Umar Xayyomning falsafiy ruboiylari, Sa’diy va Hofiz Sheroziy lirikasi, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” didaktik asarlari hamda Rumiyning tasavvufiy-falsafiy asarlari fors-tojik adabiyotining eng sara namunalari qatorida nafaqat Sharq, balki G‘arb adabiyoti taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

* * *

Ey sorbon, ohista yur, oromi jonim boradur,
Tandin dil-u jonim olib, ul dilsitonim boradur.

Qolurmumen olis bo‘lib, bechora-yu ma’yus bo‘lib,
Qalbim firoq tig‘i tilib, to ustuxonim boradur.

Sarkash nigorimdan judo, aysh-u qarorim bebaqo,
Manqalda otashdek qaro dud birla qonim boradur.

Cheksam-da zulm bedodini, ham va’dalar barbodini,
Ko‘ksimda tutgum yodini, toki zabonim boradur.

To‘xtat biroz, ey sorbon, karvonni qilma tez chunon,
Sarvi ravon ishqida jon – ruhi ravonim boradur.

Qayt, ko‘zlarimga qo‘y oyoq, ey dilfirib, ketma yiroq,
Ey nozanin, ko‘kka bu chog‘ oh-u fig‘onim boradur!

Sa’diy (Shoislom Shomuhamedov tarjimasi)

Bor erdi kulol do‘koni, kirdim bir gal,
Dastgoh boshida ko‘zagar ishlardi jadal,
Ko‘rdimki, gado ilki-yu shoh kallasidan
Ul ko‘zaga bejirim bo‘yin, dasta yasar…

Umar Xayyom
(Jamol Kamol tarjimasi)

Lutf etsang tosh ham jonona bo‘lg‘ay,
O‘shal dam shevasi mastona bo‘lg‘ay.
Zulfingning zanjiri gar bo‘lsa zohir,
Luqmoni Hakim ham devona bo‘lg‘ay.

Jaloliddin Rumiy
(Xurshid Davron tarjimasi)

Tahlil qiling:
Fors-tojik adabiyotining yuqorida keltirilgan namunalarida qanday o‘ziga xosliklarni kuzatdingiz? Fors-tojik va o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘zaro ta’siri nimalarda kuzatiladi?



Musulmon Sharqi adabiyotida bo‘lgani kabi o‘rta asrlar xitoy va yapon adabiyotida ham she’riy janrlar yetakchilik qildi. VII–X asrlarda Xitoyda Tang sulolasi hukmronligi davri xitoy she’riyatining oltin davri hisoblanadi. Inson va tabiat, sevgi va do‘stlik kabi tuyg‘ular, zamon adolatsizliklariga qarshi isyon bu davr she’riyatining mavzulari ko‘lamini tashkil qildi.

Jimir-jimir oqqan suvda
Kuzgi to‘lin oy.
Janubdagi ko‘lda orom,
Sukut va chiroy.
Nilufar-chi, menga mungli
Bir gap demoqchi.
Balki, mening ko‘nglimga ham
Mung to‘ldirmoqchi.

VIII asr shoiri Li Bo
(Mirtemir tarjimasi)

Yapon adabiyotining dastlabki namunalaridan biri – “Manyosyu” (“Barglar guldastalari to‘plami”, VIII asr) VII–VIII asrlarda yaratilgan she’riy asarlarni o‘z ichiga oladi. Bu to‘plamda yapon she’riyatining o‘ziga xos janri – besh qator, 31 bo‘g‘indan iborat **tanka** namunalarini ham uchratish mumkin. Keyinchalik yapon ijodkorlari uch qatordan iborat yana bir o‘ziga xos she’riy janr – **xokku**-ga asos solishdi. Bunday she’rlarda shoir tabiatning ayni manzaralarini muhrlashga harakat qiladi.

So‘ldi chechaklarning
Alvon ranglari…
Umrim ham shundayin qisqa bo‘lajak!
Ko‘zim yummay boqaman uzoq,
Nigohim ham yomg‘irday uzun.

IX asr shoirasi Ono Komati
(Xurshid Davron tarjimasi)

Shoxdan shoxga uchadi
Ohista marjon tomchi.
Bahoriy yomg‘ir.

XVII asr shoiri Matsuo Basyo
(Xurshid Davron tarjimasi)

O‘ylab ko‘ring:
Sizningcha, xitoy va yapon adabiyotida tabiat lirikasining yetakchi o‘rinlardan birini egallashi qanday omillar bilan bog‘liq?

?

Gumanizm – inson tafakkurining qudratiga ishonch XIV asrda Italiyada boshlangan va keyinchalik butun Yevropani qamrab olgan Renessans (Uyg‘onish) davrining falsafiy asosini tashkil qildi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san’at gullab yashnadi, jahon madaniyatining durdonalari hisoblangan ko‘plab asarlar ham aynan shu davrda yaratildi. Uyg‘onish davri ijodkorlari insonni ojiz mavjudot emas, balki eng buyuk xilqat sifatida tarannum qildilar va uning xarakterini, kuchli va ojiz jihatlarini tahlil qilishga urindilar.



“Afina maktabi”. Uyg‘onish davrining buyuk vakillaridan biri, rassom va haykaltarosh Rafael Santi ishlagan surat (XVI asr)

Antik davr merosiga qiziqishning kuchayishi
Uyg‘onish davrining muhim xususiyatlaridan biri edi.

Buyuk italyan shoiri Dante Aligyeri (XIV asr) Uyg‘onish davrini boshlab bergan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U “Ilohiy komediya” dostonida narigi dunyoga sayohati davomida uchratgan obrazlari tasviri orqali savob va gunoh, yaxshilik va yomonlik, ruhiy poklanish, jannat, do‘zax va arosat yo‘lida qolgan insonlar taqdiri haqidagi qarashlarini aks ettirgan.

Hozir bosh ustingda samo muhtasham,
Narigi osmonning teskarisi bu,
Narigi xilqatda Inson mukarram –
… Mavhum va bilgisiz yo‘ldan shaxt aylab –
Charog‘on dunyoga keldik ikkovlon.

Endi intilardik yuksakka qarab,
Ustozga ergashib borardim hamon.
Ketdik, shu'lalarga tushguncha to ko'z,
Chashmim yoritguncha nurafshon osmon.
Va yana namoyon bo'lgandi yulduz.

"Ilohiy komediya"dan
(Abdulla Oripov tarjimasi)

Italyan shoiri Franchesko Petrarka sonetlari, Renessans novellasi asoschisi Bokkachchoning "Dekameron" asari, fransuz yozuvchisi Rablening "Gargantyua va Pantagryuel" satirik romani, ingliz yozuvchisi Tomas Morning ideal jamiyat tasvirlangan "Utopiya"si, Shekspir "Hamlet", "Makbet", "Qirol Lir" kabi fojialari, Lope de Vega "G'aramdagi it", "Sevilya yulduzi" singari pyesalari, Servantesning "Don Kixot sarguzashtlari" romani Uyg'onish davrining keyingi bosqichlarida yaratilgan muhim asarlar sirasiga kiradi.

O'ylab ko'ring:
"Inson urush uchun emas, tinchlik uchun, xursandchilik uchun, barcha ne'matlardan bahramand bo'lish uchun yaratilgan", – deb yozgan edi Uyg'onish davri vakili Fransua Rable. Gumanizm g'oyalari Uyg'onish davri adabiyoti uchun asos bo'lib xizmat qilganini qanday sabablar bilan izohlash mumkin?

LOYIHA

2002-yilda Norvegiya Kitob klubi Norvegiya Nobel instituti bilan hamkorlikda jahon adabiyotining turli davrlarda yaratilgan eng muhim 100 namunasini o'z ichiga olgan "Jahon adabiyoti" ro'yxatini tuzdi.

Kichik guruhlarda ishlang. "Jahon adabiyoti" ro'yxatini o'rganib chiqing. Ushbu ro'yxatga kiritilgan o'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyoti namunalaridan birini tanlang. Tanlagan asaringizga oid mavjud manbalar asosida taqdimot tayyorlang. Taqdimotingizda siz tanlagan asarning ushbu ro'yxatga kiritilishi sabablarini izohlashga harakat qiling.

Barcha davrlarning eng yaxshi 100 kitobi ro'yxati

Siz mazkur ro'yxatga o'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyotining qaysi namunasini kiritgan bo'lardingiz? Nima uchun?

MIGEL DE SERVANTES SAAVEDRA (1547–1616). “DON KIXOT SARGUZASHTLARI” ROMANI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Don Kixot sarguzashtlari” romanining asosiy g‘oyalari va obrazlarini tahlil qilamiz.



Uyg‘onish davrining eng katta me’moriy obidalaridan biri – ispan qirollarining “El Escorial” saroyidagi kutubxona

Tarixiy davr

XVI–XVII asrlar “Ispaniyaning oltin davri” deb ataladi. Bu davrda yevropaliklar yangi qit’alar va dengiz yo‘llarini ochib, yangi kashfiyotlarni amalga oshirdilar. Ispaniya hududi kengayib, uning boshqa Yevropa davlatlariga ta’siri ham kuchaydi. “Yangi dunyo” – Amerika qit’asidan kumush, oltin, tamaki, ziravor kabi mahsulotlarning olib kelib sotilishi Ispaniya qiroli g‘aznasiga katta daromad keltirardi. Savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi va yengil sanoat rivojlandi. Bu davrda Yevropa tillaridan birinchi bo‘lib ispan tilining grammatikasi chop etildi, ispan me’morchiligi, adabiyoti va san’atining nodir namunalari yaratildi.

Muallif haqida

Migel de Servantes Saavedra 1547-yilda Madrid yaqinida zodagon oilada tug‘ildi. Taxminlarga ko‘ra, u iyezuitlar (katolik ruhoniylari) kollejida tahsil olgan, biroq oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli o‘qishini davom ettira olmagan. 1570-yillarda u Ispaniya armiyasiga qo‘shiladi va usmonli turklarga qarshi olib borilgan urushda qatnashib, yaralanadi. Ispaniyaga qaytayotganida kemaga jazoirlik qaroqchilar hujum qiladi va yozuvchi umrining besh yilini Jazoirda tutqunlikda o‘tkazishga majbur bo‘ladi. Xayriya jamoasi to‘lagan mablag‘lar evaziga ozod qilingan Servantes Ispaniyaga qaytib, turli ishlar bilan shug‘ullanadi, biroq muhtojlikda hayot kechiradi. Ijodkor bir qancha she’rlar, novellalar va pyesalar yozdi, biroq bu asarlar unga shuhrat keltirmadi. Uning nomini jahon adabiyoti tarixiga muhrlagan asar ikki qismdan iborat “Don Kixot sarguzashtlari” romani bo‘ldi.

“Don Kixot sarguzashtlari” romani

O‘rta asrlar Yevropa adabiyotida “ritsarlik romani” janrida yozilgan asarlar mashhur bo‘lgan. Bunday asarlarda jahongashta ritsarlar yolg‘iz yoki sodiq yaroqbardori (yordamchisi) bilan dunyo kezib, turli qahramonliklar ko‘rsatgan va yovuz kuchlarga qarshi kurashgan.



Ritsar va uning mahbubasi tasvirlangan o‘rta asrlar devoriy surati. O‘rta asrlar ritsarlik romanlarida aksar holatlarda ritsar o‘z qahramonliklarini mahbubasiga bag‘ishlagan.

O‘sha davrda lotin tili asosida paydo bo‘lgan roman tillarida (italyan, ispan, portugal, fransuz) yaratilgan asarlar “roman” deb atalgan.

“Don Kixot sarguzashtlari” ritsarlik romanlariga parodiya – taqlid sifatida yaratilgan. Asar muqaddimasida muallif o‘z maqsadi “ko‘pchilik yomon ko‘radigan, lekin undan-da ko‘proq odamlarning e’tirofiga sazovor bo‘lgan ritsarlik romanlarining soxta shavkatini yo‘qqa chiqarish” ekanini bayon qiladi.

G‘arb adabiyotidagi dastlabki zamonaviy roman deya e’tirof etiladigan mazkur asarda o‘zini jahongashta ritsarlar an’analarining davomchisi deb tasavvur qilgan zodagon don Kixot va uning hamrohi – “yaroqbardori”, quv dehqon Sancho Pansa sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

O‘ylab ko‘ring:

Muallif nima uchun aynan ritsarlik romanlariga parodiya yozishni maqsad qilgan bo‘lishi mumkin?

Mazkur asarning hozirgacha jahon adabiyoti durdonalaridan biri sifatida e’tirof etilishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?



DON KIXOT SARGUZASHTLARI
(romandan parchalar)

BIRINCHI BOB: LAMANCHLIK DON KIXOTNING KIMLIGI

Lamanch viloyatiga qarashli oddiygina qishloqchada don Kexana degan idalgo yashardi. Boshqa dvoryanlar singari u ham tag-tugli nasabi bilan faxrlanar, almisoqdan qolgan qalqon bilan ajdodlaridan meros bo‘lib kelayotgan nayzani muqaddas bilib asrardi. Hovlisida qirchang‘i oti va tozi iti bor edi. Topgan daromadining to‘rtdan uch qismi kechki ovqatga – sabzavotdan tayyorlanadigan go‘shtli sho‘rva bilan vinegretga ketardi. Har juma yasmiq yovg‘oniga qanoat qilib kun kechirsa, yakshanba kunlari qovurilgan kabutar go‘shti yeb maza qilardi. Don Kexana bayram kunlari nafis movutdan tikilgan chakmon, duxoba shim, saxtiyon tufli kiysa, boshqa kunlarda xonaki dag‘al suknodan tikilgan kostyumda yurardi. Uning uyida yoshi qirqlardan oshgan ekonomka, hali yigirmaga ham kirmagan qiz jiyani hamda qarib munkillab qolgan bir xizmatkor yashardi. Idalgoning o‘zi ellik yoshlarga borib qolgan, juda ozg‘in, eti suyagiga yopishib ketgan skeletnusxa bir zot edi. Shu qashshoqligiga qaramay, joni qattiq, chidam-bardoshi zo‘r odam edi.

La Manch – Ispaniyadagi viloyat

don – janob (erkaklarga murojaat qilishda ishlatiladigan so‘z)

idalgo – kichik yer egasi, zodagon

sukno – jun mato

ekonomka – uy xo‘jaligiga qaraydigan xizmatkor

Muallif don Kexanani, uning turmush tarzini tasvirlashda qanday so‘zlarni ishlatmoqda? Bu tasvir o‘quvchida don Kexana haqida qanday taassurot qoldiradi?

?

Don Kexana bo‘sh vaqtini, – darvoqe, kecha-kunduz bo‘sh edi, – ritsarlar tavsif qilingan kitoblarni o‘qib o‘tkazardi. Shu mashg‘ulotga tamom berilib ketib, u ovni, xo‘jalik ishlarini yig‘ishtirib qo‘ydi. Uning mutolaaga ishqibozligi shu darajaga borib yetdiki, ritsarlar haqidagi kitoblarni olish uchun yerining kattagina qismini o‘ylamay-netmay sotib yubordi.

“Huquq-nafsoniyatimga nisbatan siz qo‘llagan adolatsizlik mendagi odil haqiqatni shunchalik poymol qiladirkim, binobarin, men sizning nohaqligingizga haqli ravishda e’tiroz bildiraman...” yoki “...porloq yulduzlari bilan zoti ilohiyligingizni kamoli muqarrar etguvchi va sizning munosib ulug‘vorligingizga bori izzat-ikromlarni ravo ko‘rguvchi yetti qavat osmoni gumbaz...” singari romanlarda ko‘p uchraydigan balandparvoz sevgi maktublari va yakkama-yakka olishuvga tantanavor da’vatlar bizning idalgoga juda yoqardi. Bechora kabalyero bunday iboralarning ma’nosini bilib olishga tirishib tunlarni bedor o‘tkazar, paydar-pay fikrlardan boshi gangib, ko‘z o‘ngini tuman bosardi. Ustiga-ustak sevib o‘qiydigan romanlarida uchrayveradigan g‘alati, g‘ayritabiiy holatlar ham bechorani dovdiratib qo‘yardi. Chunonchi, mashhur ritsar Belyanisning o‘zgalarga dahshatli zarbalar berib, o‘zi benihoya qattiq shikastlanganiga idalgoning aqli shoshardi, negaki, bu ritsarni davolagan tabiblarning mahorat va karomatlari bo‘lganda ham, baribir, uning yuzi va tanasi chandiq hamda dahshatli yamoqlar bilan qoplanib ketishi kerak edi. Vaholanki, romanda Belyanis har doim bejirim, navqiron, qilichdek yigit timsolida namoyon bo‘lardi.

kabalyero – janob

Darvoqe, shunday bo‘lsa ham, don Kexana romanlardagi shavkatli qahramonlar kechirgan ajoyib-g‘aroyib sarguzashtlar va ular ko‘rsatgan jasoratlarga mahliyo bo‘lib, o‘zini tamomila unutardi. Roman qahramonlarining taqdiri uni ergashtirib ketardi, bordi-yu, muallif kitobning so‘nggi sahifasida bu tuganmas voqeani kelgusi kitobda davom ettirmoqchi ekanini aytsa, uning sevinchi ichiga sig‘masdi. Ko‘pincha bizning kabalyero botirlikda angliyalik Palmerin yoki galliyalik Amadis zo‘rmi degan masala ustida ruhoniy do‘sti bilan uzoq-uzoq bahslashib qolardi. Don Kexana Amadis zo‘r desa, ruhoniy Palmerin derdi; shu yerlik sartarosh-usta Nikolas esa Amadis bilan Palmerinning ikkovidan birortasi ham ritsar Febaning oldida ip esholmaydi derdi, Nikolasning fikricha, Feba tantiq Amadisdan o‘zining matonati bilan ustun edi.

Muallif don Kexananing sartarosh va ruhoniy bilan bahslari tafsilotini nima maqsadda keltiradi?

?

Oliyjanob idalgo asta-sekin o‘qishga shunday berilib ketdiki, tongdan oqshomgacha, oqshomdan tonggacha kitobdan bosh ko‘tar-

maydigan bo‘lib qoldi. U hamma ishini yig‘ishtirib qo‘ydi, deyarli uxlamasdi, ko‘pincha ovqat yeyishni ham unutib qo‘yardi. Uning boshida ritsar kitoblaridan o‘qigan turli bema’ni qissalar g‘ujg‘on o‘ynardi, hatto o‘ngida ham qonli janglar, ritsarlarning yakkama-yakka olishuvlari, oshiq-ma’shuqlarning uchrashuvlari, o‘g‘irlab ketishlar, yovuz jodugarlar va oliyjanob sehrgarlarni tasavvur qilib, alahlardi. U bora-bora rostni yolg‘ondan mutlaqo farq qilolmay qoldi, uning nazarida dunyoda shu qissalarda tasvirlangan voqealardan o‘zga haqiqat yo‘qday bo‘lib qoldi. U turli romanlarning qahramonlari haqida shunday jo‘shqin gaplar aytardiki, go‘yo bu qahramonlar uning eng yaqin do‘stlari va tanishlari edi.

U Sayd Rui Diasning oliyjanob, shavkatli ritsarligiga tan berardi-yu, lekin uning bir urishda ikki devni nimtalagan Zulfiqor ritsarga yetishiga yo‘l bo‘lsin, deb ilova qilardi. U Ronseval darasida yengilmas Rolanddan g‘olib kelgan Bernard de Karpioni ancha yuksak qo‘yardi. U o‘zining iltifotliligi va xushmuomalaligi bilan boshqa pahlavonlardan mutlaqo ajralib turuvchi Morgante polvon haqida ham juda yaxshi fikrda edi. Lekin... son-sanoqsiz yo‘l sarguzashtlarini boshdan kechirgan qahramon montalbaniyalik Reynaldoni hammadan ko‘p maqtardi.

Bechora idalgo to‘rt devor ichidan chiqmay, tunlari uxlamay, nuqul kitob o‘qiyverib, axiri butunlay aqldan ozdi. Ana shunda jahonda hech qaysi telba-tentakning boshiga kelmagan xayol bizning kabalyero miyasini chulg‘ab oldi – u jahongashta ritsarlar safiga kirishni ham farz, ham qarz deb bildi. U, don Kexana, o‘z shon-u shuhratini orttirish uchun ona yurti manfaatini ko‘zlab qurollanmog‘i, otga minib mojarolar ketidan el-yurt kezmog‘i, alamzada xo‘rlanganlar tarafini olib, yomonlarning ta’zirini bermog‘i, poymol bo‘lgan adolat, haqqoniyatni tiklamog‘i lozim. Qalbida ko‘rsatilajak jasorat va qahramonliklar orzusi jo‘sh urgan idalgo o‘z ahdi ustidan chiqishga shoshildi. U avvalo ota-bobolaridan qolgan chordoqning bir chetida ko‘p yillar zanglab, chang bosib yotgan yarog‘-aslahalarni topdi, tozaladi; ularni ko‘zdan kechirarkan, dubulg‘aning qubbador tepasigina qolganini ko‘rib nihoyatda dili siyoh bo‘ldi. Kam-ko‘stini tuzatish uchun bor kashfiyotchilik iste’dodini ishga soldi. Kartondan sipar bilan quloqchin yasab, dubulg‘asiga yopishtirdi. Oqibatda rostakamiga o‘xshagan dubulg‘a yasashga muvaffaq bo‘ldi. Endi dubulg‘asining jangda bardosh bera olish-olmasligini sinab ko‘rgisi kelib qoldi. Qilichini sug‘urib, havoda o‘ynatdi-da, dubulg‘aga ikki marta tushirdi. Birinchi zarbadayoq dubulg‘a bo‘lak-bo‘lak bo‘lib, qilgan mehnati chippakka chiqdi. Idalgoning fig‘oni oshdi. U yana ishga kirishib ketdi, lekin bu gal, dubulg‘a pishiq bo‘lsin deb, kartonning tagidan tunuka qo‘ydi. Bu ehtiyotkorligidan ko‘ngli taskin topdi, dubulg‘asini ikkinchi marta sinab ko‘rishni ortiqcha deb bildi. Endi sipari ustalik bilan yasalgan haqiqiy dubulg‘asi borligidan ko‘ngli taskin topdi.

Shundan keyin don Kexana otxonaga kirib, otini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Bu ot qarib qovurg‘alari sanalib qolgan kasalmand

bir qirchang‘i bo‘lib, rostini aytganda, suv tashishgagina yarardi, xolos. Biroq kabalyeromiz otining ko‘rinishidan mamnun bo‘lib, mening otimga na hazrati Iskandarning Butsefali, na Saydning uchqur Babyeki tenglasha oladi, degan qarorga keldi. Jangari otiga jarangdor va chiroyli nom topmoqchi bo‘ldi, zeroki, ovloq bir qishloqda yashovchi xo‘jayini o‘zining faqirona turmushini jahongashta ritsarning qaynoq faoliyati bilan almashtirar ekan, unda oti ham o‘zining qishloqcha laqabini yangi, shuhratli va dabdabali nom bilan almashtirishi kerak-da, deb o‘ylardi u. Ana shunday munosib nomni topishiga to‘rt kun ketdi. Turli nomlarni o‘ylab chiqaraverib, ularni taqqoslab, muhokama qilib, chamalab ko‘raverib, rosa boshi qotdi. Nihoyat, Rosinant degan nom ma’qul bo‘ldi. Bu nom unga jarangdor va balandparvoz bo‘lib tuyuldi. Bundan tashqari, ana shu nom otning avval qanday ahvolda ekanini ham anglatardi. Bu nom “rocin” (qirchang‘i) va “antes” (sobiq) degan ikki so‘zdan yasalgan bo‘lib, “sobiq qirchang‘i” ma’nosini anglatardi.

U otimga yaxshi laqab topganimdan keyin, endi o‘zimga ham loyiq nom topishim kerak, degan qarorga keldi. O‘ziga munosib bunday nomni o‘ylayverib bir haftani o‘tkazib yubordi, nihoyat xayoliga ajoyib fikr keldi: u o‘zining oddiygina Kexana nomini xiylagina jarangdorroq ism bilan, ya’ni don Kixot deb o‘zgartib qo‘ya qoldi. Lekin shu paytda uning yodiga bir narsa tushib qoldi: dovyurak Amadis nomim bilan birga vatanimning nomi ham dovruq solsin deb, hamisha o‘zini shunchaki Amadis emas, balki galliyalik Amadis deb atagan. Don Kixot ham ana shu botir ritsardan o‘rnak olib, bundan buyon o‘zini “lamanchlik don Kixot” deb atashga qaror qildi. Endi ishlar joyida: uning kim va qayerlik ekanini hamma darhol payqab ololadi, endi uning ko‘rsatgan jasoratlaridan ona vatanining shuhrati ortadi.

Nihoyat, yarog‘-aslahasi tozalanib, dubulg‘asi bilan sipari tuzatilgach, qirchang‘isiga yangi laqab topib, o‘zi ham nomini o‘zgartirgach, endi o‘ziga ma’shuqa izlab topishdan boshqa ishi qolmadi, zeroki, har qanday jahongashta ritsar ham ko‘nglini band etgan ma’shuqasi bo‘lmasa, bargsiz va mevasiz bir daraxtday gap. Don Kixot o‘ziga o‘zi shunday dedi: “Basharti taqdir taqozosi bilan biror devga ro‘para kelib qolgudek bo‘lsam (jahongashta ritsarlar esa bunday hollarga ko‘p uchraydilar), dastlabki olishuvdayoq uni ko‘tarib yerga urib, shafqat tilashga majbur etsam, unda ritsarlar qonuniga ko‘ra, men uni ma’shuqamning huzuriga yuborishim kerak. Shunda u qalbim xoqoni – nozanin malikaning oldiga kiradi-da, oyog‘iga bosh urib, itoatkorona gap boshlaydi: “Men Malindraniya orolining podshohi, Karakulyambro degan dev bo‘laman. Bahodir ritsar lamanchlik don Kixot meni jangda yengdi. U sizning huzuringizga kelib mehr-shafqat so‘rashimni buyurdi, mening taqdirim siz janobi oliyalarining xohishlariga bog‘liq ekan...” “O! – deb xitob qildi idalgo, – albatta, o‘z ma’shuqamga ega bo‘lishim kerak: yolg‘iz uning o‘zigina ritsarning mardligini munosib qadrlaydi. Shundayku-ya, lekin ma’shuqani qayerdan topsam ekan?” Don Kixot

shunday dedi-yu, xomush xayolga cho‘mdi. Nogahon miyasiga ajoyib bir fikr keldi. Qo‘shni qishloqda yashaydigan Aldonsa Lorenso degan ko‘hlikkina dehqon qizi esiga tushdi. Ritsarimiz ma’shuqalikka shu qizni tanladi. O‘sha qizga uning asl ismidan uncha farq qilmaydigan va ayni vaqtda birorta qirolicha yoki mashhur senyoraning nomini eslatadigan nomni o‘ylarkan, uni Dulsineya Tobosskaya deb atashga ahd qildi, chunki qiz tobosolik edi-da. Don Kixotning nazarida bu nom chiroyli, ohangdor va ayni vaqtda, yo‘lida jasorat ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan zotga mutlaqo munosib nomday tuyuldi.



“Don Kixot o‘z kutubxonasida”.
XIX asr fransuz rassomi Gustav Dore asari

?

Rassom nima maqsadda Don Kixotni ritsarlar, devlar va malikalar qurshovida tasvirlagan?

1. Don Kexananing jahongashta ritsarlikka tadorigi tafsilotlariga e'tibor bering. Bu tadoriklar tasviri muallifning bosh qahramonga munosabatini tushunishga qay darajada yordam beradi?

2. Don Kexana (don Kixot) sizda qanday taassurot qoldirdi? Uni qanday so'zlar bilan ta'riflagan bo'lardingiz? Nima uchun?

UCHINCHI BOB: DON KIXOTNING RITSARLIKKA O'TISHI

Don Kixot yo'lga chiqadi va "to'rt minorali, noyob kumush tomli, ko'tarma ko'prikli va tevaragi chuqur xandaqli qal'a" deb o'ylagani bir mehmonxonadan tunashga joy so'raydi. Uni hali ritsarlik unvonini olmagani tashvishga solardi.

Shu o'y-xayol bilan gangib qolgan don Kixot faqirona ovqatini tezroq yeb bo'lib, o'rnidan turdi, xo'jayinni bir chekkaga chaqirib, uni otxonaga boshlab kirdi-da, tiz cho'kib yolvora boshladi:

– O, shavkatli ritsar, marhamatingiz bilan iltimosim bajo keltirilmaguncha o'rnimdan turmayman. Qiladigan iltimosim sizga shon-u shuhrat, inson zotiga baxt-saodat keltiradi.

Xo'jayin mehmonning tiz cho'kib turganini ko'rib, uning g'alati so'zlarini eshitarkan, avvaliga dovdirab, don Kixotga angrayganicha qarab qoldi, u nima qilarini ham, nima deyarini ham bilmasdi. O'zini tutib olgandan keyin esa don Kixotdan o'rnidan turishni iltimos qilib, yalina boshladi. Lekin xo'jayin iltimosini bajo keltirishga so'z bermagunicha u o'rnidan turmadi.

– Cheksiz oliyjanobligingiz tufayli iltimosimni bajarishdan bosh tortmasligingizga imonim komil edi, senyor, – dedi don Kixot. – Men sizdan ertaga tongotarda menga ritsarlik unvoni berishingizni va marhamatingizdan meni bahramand etishingizni so'rayman. Men bugun qal'angizdagi ibodatxonada qurol tutib, tunbo'yi mijja qoqmay chiqaman. Tongotarda esa menga ritsarlik unvoni berish marosimini o'tkazasiz. Shundan keyin men, nihoyat, jahongashta ritsarlarning barcha haq-huquqlariga ega bo'laman-u, sarguzasht izlab yo'lga tushaman. Qurolim yer yuzida haqiqat va adolatning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi, chunki men mansub bo'lgan, shon-shuhrati olamga yoyilgan o'sha buyuk ritsarlik ordeni shuni taqozo etadi.

Berilgan parchada don Kixotning gapirish uslubi va mehmonxona muhiti o'rtasidagi kontrast nimaga xizmat qilyapti?

Don Kixotni savdoyi deb boya shubhalana boshlagan xo'jayin endi bunga to'la ishondi, uning telbaligidan miriqib ko'ngil ochish ilinjida

qo‘ltig‘iga suv purkashga ahd qildi. Shuning uchun ham u don Kixotga javob berarkan, istak va iltimoslari g‘oyat oqilona, o‘zining mag‘rurona qiyofasi, kelishgan qaddi-qomati va yurish-turishi oliyjanob ritsar bo‘lishidan dalolat berishini hamda uning niyatlari bu unvoniga nihoyatda munosib ekanini aytdi. “Mening o‘zim ham, – deb ilova qildi xo‘jayin, – yoshligimda bu faxrli kasb bilan shug‘ullanganman. Sarguzasht izlab butun Ispaniyani izg‘iganman, Sevilya, Grenada, Qurdoba, Toledo va boshqa ko‘pgina shaharlarda bo‘lganman. Turli-tuman sho‘xlik, to‘polon, mushtlashishlarga aralashganman. Demakki, Ispaniyaning barcha sud va turmalarida otning qashqasiday tanilganman. Biroq mana endi yoshim qaytib, quyilib qoldim, mana shu qal’ada osoyishta umr kechirib, nasl-nasabi-yu unvoni qandayligidan qat’i nazar, jahongashta ritsarlarning hammasini o‘z qal’amda ehtirom bilan kutib olaman, qo‘limdan keladigan xizmatimni ulardan ayamayman. Bu ishlarni faqat ularga bo‘lgan buyuk muhabbatim tufayli hamda ko‘rsatgan yaxshi munosabatim evaziga ularning o‘z mol-mulklarini men bilan bo‘lishishlarini shart qilib bajo keltiraman, albatta”. Shundan keyin xo‘jayin, qurol ko‘tarib tunni bedor o‘tkazish uchun saroyda ibodatxona yo‘q, dedi. Biroq zarur bo‘lib qolgan taqdirda shunday unvonga sazovor bo‘lishdan oldingi tunni xohlagan joyda o‘tkazish ritsarlik qonunlariga xilof emasligi o‘ziga ma’lum ekanini aytdi, shuning uchun ham don Kixotning qal’a hovlisida bemalol qurol-yarog‘ini qo‘riqlab chiqishi mumkin ekanini, ertaga esa, xudo yor bo‘lsa, unga hamma udumlarni, udumlar bo‘lganda ham hali dunyoda hech kim bilmagan va ko‘rmagan udumlarni o‘rniga qo‘yib, ritsarlik unvoni berilajagini aytdi.

Suhbat oxirida qovoqxona xo‘jayini don Kixotning puli bor-yo‘qligini surishtirdi. Don Kixot esa yonida bir miri ham yo‘qligini, chunki o‘qigan romanlarida jahongashta ritsarlarning o‘zlari bilan pul olib yurganlarini uchratmaganini aytdi. Bunga xo‘jayin don Kixotning yanglishayotganini aytib, e’tiroz bildirdi. Jahongashta ritsarlar yonlarida pul olib yurishlari kerakligi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lgani uchungina bu haqda romanlarda hech narsa yozilmagan, dedi. Jahongashta ritsarlar har ehtimolga qarshi yonlarida liq to‘la hamyongina emas, balki toza ko‘ylaklar hamda yaralanganda surish uchun bir banka shifobaxsh malham ham olib yurishlari zarurligi unga aniq manbalardan ma’lum ekan. Yaradorga birorta mitti qizaloqdan shishada mo‘jizador mumiyoyi asl berib yuboradigan rahmdil sehrgarning yordamiga har gal ham umid bog‘lab bo‘lmaydi-ku, axir. Bunday paytlarda faqat o‘zinggagina ishonganing ma’qul, boshqa odam kuningga yarar-midi. Xo‘jayin shunday deb, bundan buyon sira pulsiz va zarur narsalarsiz yo‘lga tushmaslikni don Kixotga maslahat berdi. Bu narsalarning qanchalik asqatishini ritsarning o‘zi sayohatda ko‘rib, bilib oladi.

?

Mehmonxona xo‘jayinining don Kixotga o‘zini ritsar qilib ko‘rsatishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? U don Kixotga o‘zining ritsar emasligini, mehmonxonasi ham qal’a emasligini tushuntirganda nima bo‘lardi?

Don Kixot uning maslahatiga to‘la amal qilishga va’da berdi-da, unvon olishdan oldingi tunni mehmonxona hovlisida o‘tkazishga hozirlik ko‘ra boshladi. U o‘zining yarog‘-aslahalarini yig‘ib, mollar suv ichadigan oxurga olib borib qo‘ydi, keyin nayza bilan qalqonini qo‘liga olib, savlat to‘kib oxur atrofida aylana boshladi. Don Kixot bu ishga kirishganda allaqachon qosh qoraygan edi.

Bu orada xo‘jayin mehmonxonaga kirib, ijaradorlarga ritsarlik unvonini olish niyatida qurol ko‘tarib yarog‘-aslahalarini qo‘riqlayotgan telba idalgo to‘g‘risida gapirib berdi. Bu g‘alati, miyasi aynigan odamning kimligini bilishga qiziqib qolgan ijaradorlar tentakni ko‘rish niyatida hovliga otildilar. Don Kixot mag‘rurona qiyofada bir maromda qadam tashlab, u yoqdan bu yoqqa borib-kelib turardi. Ba’zan u yurishdan to‘xtab, nayzasiga tayanganicha yarog‘-aslahalariga uzoq tikilib qolardi. Sutdek oydinda ritsarlik unvonini olmoqchi bo‘lgan qahramonimizning har bir harakati tomoshabinlarga olisdan yaqqol ko‘rinib turardi.

Mehmonxonada tunab qolgan xachir haydovchilardan biri, baxtga qarshi, xachirlarini sug‘ormoqchi bo‘lmaganida-ku, tun tinch va osoyishta o‘tardi, albatta. U hech narsadan shubhalanmay oxur tomon yo‘l oldi. Uning odim sharpasini eshitgan don Kixot xitob qildi:

– Barcha jahongashta ritsarlar ichida eng shavkatlisi hisoblangan ritsarning yarog‘-aslahalariga qo‘l cho‘zgan ey beadab ritsar, kim bo‘lishingdan qat’i nazar, nima qilayotganingni avval o‘ylab ko‘r! Tega ko‘rma ularga, yo‘qsa, bu beadabliging uchun rosa ta’ziringni yeysan.

Xachir haydovchi bunga parvo ham qilmadi. Oxurning yoniga keldi-da, yarog‘-aslahalarni tasmasidan ushlab nariga uloqtirib yubordi. Buni ko‘rgan don Kixot ko‘zlarini ko‘kka tikib, senyorasi Dulsineyaga fikran murojaat qilib shunday dedi:

– Siz band etgan shavkatli yuragiga sanchilgan birinchi haqorat tig‘i jarohati evaziga qasos olish uchun menga madad bering, senyoram, birinchi sinovda o‘z mehr-shafqatingizdan meni begona qilmang.

U shu so‘zlarni aytarkan, qalqonini bir chekkaga qo‘yib, nayzasini ikki qo‘llab baland ko‘targancha xachir haydovchini jon-jahdi bilan tushirgan edi, u o‘zini bilmay yumalab qoldi. Don Kixot esa yarog‘-aslahasini yig‘ishtirib olib, yana oxurga qo‘ydi-da, hech narsa yuz bermaganday, pinagini buzmay, bamaylixotir oxur atrofida aylana boshladi. Bir necha daqiqadan keyin ikkinchi xachir haydovchi chiqib keldi. Oshnasining boshiga tushgan ayanchli ahvoldan bexabar bu badbaxt ham yarog‘-aslahalarni oxurdan olib tashlamoqchi bo‘ldi. Biroq don Kixot uni ham ogohlantirdi. Keyin shartta nayzasini ko‘tarib xachir haydovchining boshiga tushirdiki, u sho‘ring qurg‘ur ham “gurs” etib yerga yiqildi. Shovqinni eshitgan mehmonxonadagilar xo‘jayin boshchiligida yugurib yetib kelishdi. Ularga ko‘zi tushgan hamonoq don Kixot qalqonini qo‘liga oldi-da, qilichini qinidan sug‘urib, xitob qildi:

– O, qalbimning xoqoni, yuragimning tayanchi, go‘zallarning go‘zali! Ishqingda buyuk jangga kirayotgan ritsaringga kamoli e’tiboring bilan bir nigoh tashlaydigan fursat keldi.

Duoday yangrab ketgan bu so‘zlar idalgomizning qalbida shunday mardlikni qo‘zg‘atib yubordiki, butun dunyodagi xachir haydovchilar birgalashib hujum qilganlarida ham, u chekinmasdi. Yaralanganlarning o‘rtoqlari uzoqdan otayotgan toshbo‘roni ostida u qimir etmay turardi; qo‘lidagi qalqoni bilan o‘zini himoya qilardi-yu, yarog‘-aslaha turgan oxur yonidan bir qadam ham jilmasdi. Hovlida shovqin-suron ko‘tarildi. Xachir haydovchilar baqirib-chaqirishar, so‘kinishardi. Esxonasi chiqib ketgan xo‘jayin ularga janjalni bas qilinglar, deb yalinardi. Don Kixot esa tovushining boricha do‘q urardi:

– Ey razil, pastkash qullar! Men sizlardan jirkanaman! Mayli, tosh-bo‘ron qilaveringlar, bostirib kelaveringlar, hamla qilaveringlar! Bu sur-betlik va ahmoqchiliklaring uchun hozir jazolaringni tortasanlar.

Don Kixotning bu xitobida shu qadar ko‘p jasorat va g‘azab yangrab turardiki, bundan hujum qiluvchilarning o‘takasi yorilayozdi. Ular asta-sekin tinchlanib, tosh otmay qo‘ydilar. Shundan keyin don Kixot yara-dorlarni olib ketishlariga rozilik berdi, yarog‘-aslahalarini yana boyagiday viqor va xotirjamlik bilan muhofaza qila boshladi.

Biroq sodir bo‘lgan mojaro xo‘jayinga yoqmadi va yana yangi falokat yuz bermasdan oldin u tezlikda mehmonni savil qolgur ritsarlik ordeniga o‘tkazib qo‘ya qolishga ahd qildi. U ehtirom bilan don Kixotga yaqin-lashib shunday dedi:

– Bu behayo malaylardan g‘azablanmang, muhtaram janob! Siz-ga va’da berib aytamanki, ular bu beadabgarchiliklariga yarasha ibrat bo‘larli jazolarini oladilar. Xo‘sh, endi muqaddas udumni bajo keltirish vaqti yetmadimikan? Odatda, yarog‘-aslahani qo‘riqlash ikki soatdan oshmasligi kerak, siz esa muhofazani to‘rt soat davom ettirdingiz. Qas-rimda ibodatxona yo‘qligini sizga boya ma’lum qilgan edim. Biroq busiz ham ishni bitkazishga jazm qilsak bo‘laveradi. Unvon berishning asosiy taomili gardanga musht tushirish-u, qilich bilan chap yelkaga urishdan iborat. Buni esa ochiq maydonda o‘rinlatsa ham bo‘ladi. Shunday ekan, g‘animat vaqtni qo‘ldan bermaylik.

Ritsarimiz xo‘jayinning so‘ziga laqmalik bilan ishonib, uning amriga itoat etishga tayyor ekanini aytdi.

– Sizdan faqat bir narsani iltimos qilaman, – deb qo‘shib qo‘ydi u, – bu muqaddas udumni tezroq amalga oshiring. Nega desangiz, unvon olga-nimdan keyin menga biron kimsa hujum qilgudek bo‘lsa, qasrda biror tirik jon zotini qoldirmayman. Muhtaram qal’a sohibi, sizga bo‘lgan hurmatim tufayli, kimni o‘z himoyangizga olsangiz, o‘shanga shafqat qilaman, xolos.

Ritsarning yuqoridagi so‘zlari xo‘jayinning bu beorom mehmondan tezroq qutulish ishtiyoqini yanada kuchaytirdi.

Farosatli, hozirjavob va epchil bu odam o‘sha zahotiyoq xachir hay-dovchilarga berilgan arpa va somonning miqdori yozib boriladigan qa-lin daftarini olib chiqdi-yu, ikki xizmatkor ayol bilan yonib turgan shamni ko‘tarib kelayotgan bola kuzatuvida don Kixotning yoniga bordi, unga tiz cho‘kishni buyurdi, o‘zini qalin daftardan qandaydir duoni o‘qiyotgan kishi qilib ko‘rsatib, qulochkashlab turib ritsarimizning yelkasiga musht tushirdi, so‘ngra allanimalarni pichirlab don Kixotning yelkasiga uning o‘z qilichi

bilan urib qo‘ydi. Shundan keyin xizmatkor ayollardan biriga qilichni don Kixotning beliga bog‘lashni buyurdi. Buni xizmatkor ayol juda chaqqonlik bilan bajardi. To‘g‘ri, ayolning kulgidan ichagi uzilayozdi, lekin ko‘zi oldida boya ritsarimizning ko‘rsatgan jasorati kulgisini tiyishga majbur etdi. Xushaxloq senyora don Kixotning belbog‘iga qilichini bog‘lar ekan:

– Muhtaram janobning ritsarlik ishlari va janglarda muvaffaqiyat qozonishiga xudoning o‘zi yor bo‘lsin, – dedi.

Don Kixot bu lutf-ehson uchun o‘z bilak kuchi-la erishadigan shon-shuhratini vaqti kelib qaysi xonim bilan baham ko‘rishi kerakligini bilish ishtiyoqida bu ayolning ismini so‘radi. U kamoli muloyimlik bilan javob berib, ismi Tolosa, o‘zi toledolik yamoqchining qizi ekanini hamda don Kixotga hamisha sodiq qul bo‘lib qolishga tayyor ekanini aytdi. Don Kixot unga bo‘lgan muhabbati tufayli bundan buyon o‘zini donya Tolosa deb atashini qizdan iltimos qildi. Qiz uning iltimosini bajo keltirishga va’da berdi. Shundan keyin boshqa xonim don Kixotning oyog‘iga shporlarini taqib qo‘ydi. So‘ngra don Kixot boya belbog‘iga qilich taqib qo‘ygan ayol bilan qanday gaplashgan bo‘lsa, bu ayol bilan ham shu xilda gaplashdi. Ayolning ismini so‘radi, ayol ismi Molinera, o‘zi antekeralik halol tegirmonchining qizi ekanini aytdi; don Kixot ismi oldiga donya so‘zini qo‘shishni undan iltimos qilarkan, uni behisob minnatdorchilikka ko‘mib yubordi. Bu tantanali marosim tamom bo‘lganidan keyin don Kixot otga minishga oshiqdi: chunki sarguzasht izlab yo‘lga tushishga sabri chidamasdi. U Rosinantni egarlab, unga bir sakrab minib oldi-da, xo‘jayinga shunday ajoyib va g‘aroyib ifodalar bilan tashakkur izhor qildiki, buni so‘z bilan ta’riflab berishning sira iloji yo‘q. Nihoyat, ritsardan qutulganidan xursand bo‘lgan xo‘jayin don Kixotga qisqa-qisqa, ammo dabdabali so‘zlar bilan javob qaytarib, tunaganiga ham bir tiyin haq olmay, uni iliq-issig‘ida sog‘-salomat kuzatib qo‘ydi.



“Don Kixotning ritsarlikka qabul qilinishi”. Gustav Dore asari

Don Kixotning nazarida oddiy narsalarning ham g‘aroyib tus olishi sabablari nimada?

?

TO‘RTINCHI BOB:
RITSARIMIZNING MEHMONXONADAN JO‘NAB KETGANDAN KEYINGI SARGUZASHTLARI

Don Kixot mehmonxonadan yo‘lga chiqqanida tong ota boshlagan edi. Mehmonxona egasining pul, kiyim-kechak va boshqa narsalar haqidagi gaplarini eslab, u eng avvalo barcha zarur buyumlarni taxt qilib olish va o‘ziga yaroqbardor topish uchun uyiga qaytishga ixtiyor qildi va Rosinantni o‘z qishlog‘i tomon burdi. Rosinant ham go‘yo egasining istagini tushunganday, bajonidil yelib ketdi, go‘yo tuyoqlari yerga tegmay uchdi.

Biroq ritsarimiz bir necha qadam yo‘l yurmasdanoq o‘rmonzordan mungli ingragan tovush eshitilib qoldi. Don Kixot Rosinantning jilovidan tortib, xitob qildi:

– Xudoning marhamatiga shukr! Mana, nihoyat men ritsarlik burchimni ado etish va oliyjanob niyatimning mevasini totish sharafiga muyassar bo‘layotirman. Bu nola chekayotgan mening himoyam va ko‘magimga muhtoj biror baxtiqaro odam bo‘lsa kerak.

Don Kixot Rosinantning jilovini burib, nola eshitilayotgan tomonga shoshildi. U hali o‘rmonzorga kirmasdanoq shunday manzaraga ko‘zi tushdi: davangirday bir dehqon beligacha yalang‘ochlangan o‘n besh yoshlar chamasidagi bolani daraxtga bog‘lab, yo‘g‘on tasma bilan savalayotgan edi. Bola o‘zini qo‘yarga joy topolmay dodlar, dehqon bo‘lsa:

– Qilg‘iliqni qilib qo‘yib, endi nega dodlaysan! – derdi sovuqqonlik bilan.

– Endi sira bunday qilmayman, senyor! – deb javob berdi hiqillab bola. – Rost, endi sira bunday qilmayman! Endi podaga yaxshi qarayman.

Buni ko‘rib don Kixot g‘azab bilan xitob qildi:

– Ey yaramas ritsar, o‘zini himoya qilolmaydigan ojizlarga hujum qilish uyat, bu qilmishingizning naqadar pastkashlik ekanini hozir men sizga amalda isbotlab beraman!

Tish-tirnog‘igacha qurollangan, nayzasini naq burni tagida o‘ynatib turgan otliqni ko‘rgan dehqon, endi kunim bitibdi, deb o‘yladi-da, titrab-qaqshab javob berdi:

– Senyor ritsar, bu bola mening cho‘ponim, u shunday yalqov va anqovki, deyarli har kuni bir qo‘y yo‘qotmasa, iloji yo‘q. Uni shuning uchun jazolayotirman, u bo‘lsa, haqimni berish alam qilayotganidan shunday qilyapti, deydi.

– Boshimizdan nur sochayotgan quyosh haqqi qasamyod etamanki, naq ko‘ksingga nayza sanchaman! Bechorani qo‘yib yubor va hoziroq uning ish haqini bir chaqasini ham qoldirmay ber. Yo‘qsa, bir zarba bilan turgan joyingda masalangni hal qilaman! Hoziroq yechib yubor uni.

Qo‘rqib ketgan dehqon lom-mim demay bolani daraxtdan yechib yubordi. Don Kixot boladan xo‘jayinning qancha qarzdorligini so‘radi. Bola oyiga yetti realdan, to‘qqiz oylik maosh qarzdor ekanini aytdi. Don Kixot hisoblasa, jami oltmish uch real ekan, shundan keyin xo‘jayinga, yo bolaning haqini hoziroq to‘la, yoki u dunyoga jo‘naysan, dedi. Dehqon yuragi chiqib ketganidan g‘o‘ldirab qolib, bu puldan bolaga olib bergan uch juft boshmoq bilan kasal bo‘lganida ikki marta qon oldirish uchun to‘lagan bir realni olib qolishim kerak, deb javob berdi.

– Xo‘sh, mayli, shunday deylik, – dedi don Kixot. – Lekin uni kaltaklab, etikning ham, qon oldirishning ham haqini undirib bo‘ldingiz. Chunki u sotib olib berganingiz charm boshmoqni yirtgan bo‘lsa, siz uning naq terisini shilib oldingiz. U kasal bo‘lganida qon oldirgan bo‘lsa, siz sog‘ paytida uning qonini to‘kyapsiz. Demak, orangiz ochiq.

– So‘zlaringizga tamomila qo‘shilaman, senyor ritsar, biroq hamma balo shundaki, yonimda pul yo‘q. Mayli, Andres men bilan birga qishloqqa borsin, bir realini ham qoldirmay hamma pulini beraman!

– Men u bilan birga borarkanmanmi? – xitob qildi bola. – Sirayam bormayman, senyor! Buni hatto xayolimga ham keltirmayman. Ikkalamiz yolg‘iz qoldik deguncha, u terimni shilib oladi.

– Bunday qilmaydi, – e’tiroz bildirdi don Kixot, – men amr qildimmi, tamom, amrimni bajaradi. U o‘zi mansub bo‘lgan ritsarlik ordeni haqqi qasamyod etsa bas, uni qo‘yib yuboraman va haqingni berishiga ishonaman.

– Gapingizni o‘ylab gapiryapsizmi, muhtaram senyor! – xitob qildi bola. – Xo‘jayinim ritsar ham emas, hech qanday ritsarlik ordeniga yozilgan ham emas, axir, u Kintanar qishlog‘ilik Xuan Aldudo degan boy-ku.

– Buning ahamiyati yo‘q, – deb javob berdi don Kixot, – Aldudo ham ritsar bo‘la olishi mumkin. Har qaysimiz ham xayrli ishlarga qodir o‘g‘lonlarmiz.

– Xo‘jayinim xizmat haqimni to‘lashdan bosh tortib turibdi-yu, xayrli ish qilarkanmi? – dedi bola.

– Bosh tortayotganim yo‘q, o‘g‘lim, Andres, – dedi dehqon. – Men bilan yur. Dunyodagi bor jamiki ritsarlik ordenlari haqqi qasamyod etamanki, bir realini ham qoldirmay, yana yangi pul bilan hamma haqingni to‘layman.

– Eskisi bilan to‘lashingizga ham ruxsat etaman, – dedi don Kixot. – Oddiy reallarning o‘zi ham kifoya. Lekin bilib qo‘ying, so‘zingizning uddasidan chiqsangiz chiqqaningiz, chiqmasangiz, qasamyod etamanki, qattiq jazolanasiz: kaltakesakday kovak-kovakka yashirinib olsangiz ham, baribir topib olaman. Sizga bundoq buyruq berayotgan kishini bilmoqchi bo‘lsangiz, tanib oling: men dilozor va adolatsiz kimsalardan qasos oluvchi shavkatli lamanchlik don Kixot bo‘laman.

U shunday dedi-da, Rosinantga qamchi bosib jo‘nab ketdi. Dehqon ritsarning o‘rmonzor ichkarisiga kirib ketishini kutib turdi-da, keyin Andresga qarab:

– Qani beriroq kel-chi, o‘g‘lim, haligi dilozorlardan qasos oluvchining buyrug‘ini bajo keltirib, senga qarzlarimni to‘lab qo‘yay, – dedi.

– Rostini aytsam, – dedi Andres, – siz, muhtaram janob, o‘sha mehribon ritsarning buyrug‘ini ado etsangiz, juda yaxshi qilgan bo‘lasiz. Jasorati va odilligi uchun unga xudo ming yil umr bersin!

– Men seni g‘oyat yaxshi ko‘rganimdan, – deb javob berdi xo‘jayin, – xizmat haqingni ko‘paytirib berish uchun hozir qarzimni yanada ko‘paytiraman.

Shunday deb bolani qo‘lidan ushlab oldi-da, yana dub daraxtiga bog‘lab, chalajon qilib savaladi.

– Xo‘sh, qalay, senyor Andres, – dedi xo‘jayin, – ana endi bemalol himoyachingizni qidiravering. Ha, aytganday, men sizni aftidan uncha xafa qilmadim, shekilli. Aslida, juda-juda butun teringizni shilib olgim kelib turibdi.

Shundan keyin dehqon bolani yechib yubordi-da, bor, o‘sha vali-ne’matingni izlab top, deb maslahat berdi. Andres yum-yum yig‘lagancha ritsarni topib, hamma gapni aytib beraman, deb surgalib o‘rmon ichkarisiga kirib ketdi, xo‘jayin esa mazax qilib kulgancha uning ortidan qarab qoldi.

Don Kixot bolaning tarafini olgani mana shunday oqibatga olib keldi.

Vaholanki, ritsarimiz nazarida o‘z ritsarlik jasoratiga ajoyib asos solganday bo‘lgan edi. U ana shu sarguzashtdan to‘la qanoatlanib, pichirlagancha yo‘lida osoyishta davom etdi:

– O, go‘zal Dulsineya Tobosskaya, sen o‘zingni hozir yer yuzida yashab turgan barcha ayollar orasida eng baxtiyori hisoblashing mumkin. O, go‘zallar go‘zali! Taqdir senga lamanchlik don Kixotdek jasur va shavkatli ritsarga xuddi itoatkor qulingday amr qilmoqni baxsh etdi. Kechagina ritsarlik unvoniga ega bo‘lganiga qaramay, bugunning o‘zidayoq uning dilozor va adolatsizdan qasos olganidan butun dunyo xabardor. U hali ona suti og‘zidan ketmagan norasida bolani azoblayotgan bir vijdonsiz yovuzning qo‘lidan darrani tortib oldi.

?

1. Mazkur bobda don Kixotga xos yana qanday xususiyatlar namoyon bo‘ldi? Javobingizni matn asosida dalillang.

2. Nega don Kixotning bolaga yordam berishga urinishi bola uchun ayanchli oqibatga olib keldi? Don Kixotning xatosi nimada edi?

YETTINCHI BOB:
SHU MAHALGACHA KO‘Z KO‘RIB, QULOQ ESHITMAGAN SHAMOL TEGIRMONLARIGA QARSHI DAHSHATLI JANGDA SHAVKATLI DON KIXOTNING G‘ALABA QOZONGANI

Yo‘lda savdogarlardan kaltak yegan don Kixot chalajon holda uyiga qaytib keladi. Uydagilari uni davolay boshlashadi. Don Kixotning ahvolidan xavotir olgan ekonomka payt poylab uydagi bor kitoblarni yoqib yuboradi, kutubxona eshigini esa g‘isht bilan urib, ustidan suvab tashlashadi. Don Kixot o‘ziga kelib, kutubxonasini qidirib qolganida jiyani kitoblarni sehrgar o‘g‘irlab ketdi, deb tushuntiradi. Don Kixot keyingi safarga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi – uyidagi narsalarni sotib, mablag‘ to‘playdi, birinchi zabt etgan oroliga gubernator qilib tayinlashni va’da qilib, Sancho Pansa ismli dehqonni o‘ziga yaroqbardorlik qilishga ko‘ndiradi. Bir kuni kechasi don Kixot va Sancho Pansa hech kimga bildirmay qishloqdan chiqib ketishadi.

Shu paytda ular dalaning o‘rtasida qaqqayib turgan o‘ttiz yoki qirqtacha shamol tegirmonini ko‘rib qolishdi. Ularni olisdanoq payqagan don Kixot o‘z yaroqbardoriga shunday dedi:

– Taqdiri azal ishimizning kushoyishini berib, omadimiz o‘ngidan kelyapti. Do‘stim Sancho, hov anavi tomonga qara! Hov anavi tekislikda devlar yig‘ilib turishibdi. Hozir men ularga qarshi jang boshlab, birortasini ham qoldirmay qirib tashlayman. Ularning bitmas-tuganmas xazinalari bor: ularni yengganimizdan keyin boyib ketamiz. Buni adolatli jang deyishadi, bunaqangi yovuzlarning tuxumini yer yuzidan quritish xudoga xush keladi.

– Qani o‘sha aytayotgan devlaringiz? – deb so‘radi Sancho Pansa.

– Huv ana, ro‘parangda turishibdi-ku! – deb javob berdi don Kixot. – Qo‘llarining bahaybatligini ko‘ryapsanmi? Ba’zilarining qo‘li ikki mil keladi.

– So‘zimga ishoning, marhamatli senyorim, bular dev emas, shamol tegirmoni, qo‘l deb aytayotgan narsalaringiz qo‘l emas, shamolda aylanib tegirmon toshini yurgizadigan parraklar.

– Ritsarlik sarguzashtlarida hali tajriba orttirmaganing yaqqol ko‘rinib turibdi, – dedi don Kixot. – Bular devlar! Agar cho‘chiyotgan bo‘lsang, bir chekkaga chiqib duo qilib tur, men bular bilan tengsiz va qaqshatqich jangga kirishaman!

Don Kixot shu so‘zlarni aytarkan, shporlari bilan Rosinantning biqiniga niqtadi-yu, o‘z yaroqbardorining oh-u zoriga quloq solmay, ot yeldirib ketdi.

– Qochmalaring, razil maxluqlar, – deb qichqirdi u. – Sizlar ko‘pchiliksiz! Raqibingiz esa bitta ritsar xolos!

Shu daqiqada yengilgina shamol ko‘tarilib, ulkan parraklar aylana boshladi. Don Kixot buni ko‘rib, yanada qattiqroq qichqirdi:

– Qo‘llaringiz bahaybat Briareyning qo‘llaridan kattaroq bo‘lganida ham, baribir mendan qochib qutulolmaysiz!

Shunday qilib, don Kixot o‘z jonini Dulsineya Tobosskaya xonimga topshirib, eng yaqinida turgan tegirmonga qarab ot soldi-yu, qo‘lidagi nayzasini qulochkashlab uning parragiga qadadi.

Biroq shu paytda ko‘tarilgan kuchli shamol parrakni aylantirib yubordi. Nayza sinib ketib, ritsar ot-poti bilan bir chekkaga borib tushdi.

Buni ko‘rgan Sancho xo‘jayiniga yordam berish uchun eshagini shitob bilan yo‘rg‘alatib ketdi. Tegirmon parragining dahshatli zarbidan gangib qolgan don Kixot yerda xuddi o‘likday cho‘zilib yotardi.

– Mana ko‘rdingizmi, azizim, – deb xitob qildi Sancho, – bular devlar emas, shamol tegirmonlari deb aytmabmidim. Miyasi aynib qolgan telbalargina bularning tegirmonligini bilmaydi.

– Bas qil, do‘stim Sancho, – deb javob berdi don Kixot, – ritsarlik ishlarida hech narsaga aqling yetmaydi. Bu mening kutubxonamni o‘g‘irlab ketgan o‘sha sehrgar Frestonning yangi nayranglari ekaniga ishonchim komil. Meni zafar shon-shuhratlariga burkanmasin deb, devlarni tegirmonga aylantirib qo‘ygan ham o‘sha. Ha, uning menga nisbatan bo‘lgan adovati ana shunday kuchli. Lekin g‘am yema. Bir kunmas-bir kun uning hamma qabih sehrlarini kunpayakun qilib tashlayman.

– Dunyoda bo‘lmaydigan ish yo‘q, – gapga qo‘shildi Sancho Pansa. Keyin don Kixotga o‘rnidan turishga yordamlashib, uni sehrlangan devlar bilan bo‘lgan ana shu baxtsiz olishuvda sal bo‘lmasa naq oldingi oyog‘i chiqib ketayozgan Rosinantga mindirdi.

Ritsarimiz o‘zining sodiq yaroqbardori bilan hozirgina sodir bo‘lgan voqea haqida suhbatlashganicha yo‘lga tushdi.

– Hammasidan ham nayzadan ajralganimizga xafaman, – dedi don Kixot. – Lekin Diego Peres de Vargas ismli bir ispan ritsari boshidan kechirgan sarguzasht yodimda, jang paytida o‘sha ritsarning qilichi sinib ketgan, o‘shanda u darhol bir katta dub shoxini sindirib olganda, ana o‘sha tayoq bilan qanchadan qancha jasorat ko‘rsatgan, qanchadan qancha mavrlarni qirib tashlaganki, buning natijasida uni Vargas-Tayoq deb atay boshlashgan. Men ham xuddi Vargasday qilaman, yo‘lda uchragan birinchi dubning kattakon, zalvarli shoxini sindirib olaman-da, u bilan ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan qahramonliklar ko‘rsataman, bunday jasoratlarning shohidi bo‘lganingdan sen o‘zingni eng baxtiyor kishi deb bilasan!

– Xudovandi karimning erk-irodasi benihoya, – deb javob berdi Sancho, – siz janobi oliylarining hamma gaplariga ishonaman. Lekin, senyorim, aftidan juda qattiq shikastlanganga o‘xshaysiz. Bir yoqqa og‘ib ketyapsiz, egarga mahkamroq joylashib o‘tirib oling.

– Gaping rost, – dedi don Kixot, – og‘riqdan shikoyat qilmayotganimning sababi shundaki, butun ichak-chovoqlari ag‘darib tashlangan taqdirda ham jahongashta ritsarlar voy demasliklari kerak.

– Unday bo‘lsa, men bunga hech e’tiroz bildirolmayman, – deb javob berdi Sancho, – o‘z haqimda shuni aytishim kerakki, bordi-yu, ritsarlik qoidalari jahongashta ritsarlarning yaroqbardorlariga og‘riqdan

baqirishni man etmagan bo‘lsa, unda men et-betim sal tilinsa ham, dodlayveraman.

Don Kixot Sanchoning soddaligidan kulib yubordi, ritsarlar yaroq-bardorlari og‘riqdan ingrashlari kerakmi-yo‘qmi degan narsani ritsarlik romanlarida sira o‘qimaganini, shunday bo‘lgach, Sancho Pansa xohlaganicha ingrab, dod-voy solaverishi mumkinligini aytdi.

Bu orada Sancho quyoshga bir qarab qo‘ydi-da, ozgina tamaddi qilib olsak, yomon bo‘lmasdi, dedi.

Don Kixot bunga javoban hali qorni ochmaganini, Sanchoning ovqat yegisi kelayotgan bo‘lsa, tortinib turmay, ovqatlana berishi mumkinligini aytdi.

Don Kixotning marhamatli ruxsatini olgan Sancho eshagiga qulayroq joylashib o‘tirdi-da, safar to‘rvasidan ovqat olib yeya boshladi. Har yutim ovqatdan keyin u meshdagi vinodan shu qadar ishtaha bilan ichardiki, buni ko‘rgan har qanday karvonsaroy egasining og‘zidan suvi kelishi mumkin edi. Eshagini ohista haydab, qadam-baqadam vinodan ho‘plab borarkan, sarguzasht qidirib har qanday xavfli sayohatlarga ham chiqish mehnat emas, jonning rohati ekan, degan fikr Sanchoning miyasidan joy olgan edi.

Bu orada qorong‘i tushib, yo‘lovchilarimiz yo‘lni burib, tunagani to‘xtashdi. Don Kixot yaqinroqdagi daraxtdan bir shoxini sindirib oldi-da, unga sinib ketgan nayzasining tig‘ini bog‘lab qo‘ydi. U o‘zi sevgan romanlarning shonli qahramonlari singari bir daqiqa ham mijja qoqmay, Dulsineyani o‘ylab tong ottirishga ahd qildi.

Sancho bo‘lsa yaxshilab ovqatlanib oldi-da, ertalabgacha dong qotib uxladi. Don Kixot uyg‘otmaganida to‘g‘ri yuziga tushgan quyosh nuridan ham, yangi kunni quvonch bilan qutlayotgan son-sanoqsiz qushlarning sayrashlaridan ham uyg‘onmasdi. U uyqudan bosh ko‘tarishi bilan eng avval meshni chamalab ko‘rdi, vinosi ozayib qolganidan juda xafa bo‘ldi. U yaqin orada meshni vinoga yana to‘ldirib ololmaslikdan cho‘chirdi. Lekin don Kixot nonushta qilishdan voz kechdi, chunki avval aytganimizdek, u shirin xayollar bilan to‘yib yurardi.

Ular Puerto Lapise darasiga qarab yo‘l olishib, kunduzi soat uchlarda u yerga yetib borishdi.

– Birodarim Sancho, – dedi don Kixot, – bu yerda bizni ajoyib va g‘aroyib sarguzashtlar kutib turibdi. Lekin bir narsani unutmagilki, boshimga har qanday xavf kelgan taqdirda ham, sen meni himoya qilish niyatida qilich ko‘tarmasliging kerak. Qora xalqdan chiqqan ba’zi bir yaramas qalang‘i-qasang‘ilar to‘dasi hujum qilgan taqdirdagina yaroq-bardorning o‘z xo‘jayiniga yordamlashishiga ruxsat etiladi. Bordi-yu, ular ritsar bo‘lsa, unda ritsarlik qonunlariga muvofiq, hali sen ritsarlik unvoniga ega emas ekansan, jangga kirishing qat’iyan man etiladi.

– Xotirjam bo‘lavering, senyor, – deb javob berdi Sancho, – amr-farmoningizni aslo buzmayman: men tabiatan yuvosh odamman va hech mahal oldin musht ko‘tarishga jazm etmayman. Lekin shuni ochiq aytib qo‘yayki, basharti o‘zimni o‘zim muhofaza qilishga majbur bo‘lsam, unda hech qanday ritsarlik qonunlariga qarab o‘tirmay, dilozorlardan qo‘limdan kelgancha o‘zimni asrayman.

– Bu sening ishing, – dedi don Kixot, – men seni ogohlantirib qo‘ymoqchiman, xolos. Ritsarlarga qarshi olishuvlarimga hech qachon aralashma. O‘z g‘ayrating va jo‘sh urgan mardligingni bosib turishga harakat qil.

– Bu masalada xotirjam bo‘lavering, marhamatli janobim. Diniy udumlarga amal qilib, yakshanba kunlarini qanday bayram qilsam, sizning buyruqlaringizni ham shunday bajo etishga va’da beraman!

Sotiboldi Yo‘ldoshev tarjimasi

?

1. Muallif asarga Sancho Pansa obrazini nima maqsadda olib kirgan deb o‘ylaysiz?

2. Mazkur bobda Sanchoning xarakteriga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz?

3. Dunyoning ko‘p tillarida “shamol tegirmonlariga qarshi kurashish” iborasi mavjud. Bu ibora nimani anglatadi? Javobingizni matn asosida izohlang.



Don Kixot va Sancho Pansa haykali. Madrid, Ispaniya

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asar sizda qanday taassurot qoldirdi? Siz uni kulgili parodiya sifatida qabul qildingizmi yoki jiddiy asar sifatidami? Fikringizni asoslang.

2. Sizningcha, don Kixot qanday obraz? U haqdagi dastlabki va keyingi qarashlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?

3. Don Kixot ideal deb bilgan, amal qilmoqchi bo‘lgan ritsarlik qonun-qoidalari va uni o‘rab turgan reallik o‘rtasidagi kontrast nimalarda namoyon bo‘ladi? Don Kixot nima uchun reallikni boricha qabul qilishni istamaydi?

4. Servantesning ushbu asari “donkixotlik” tushunchasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu tushunchaga turlicha ta’rif berish mumkin. Siz “donkixotlik” tushunchasiga qanday ta’rif berasiz? Jadvalni daftaringizda davom ettiring.



“Don Kixotning tasavvurlari”. Meksikalik rassom Oktavio Okampo ishlagan surat (1989-yil)

“Donkixotlik” tushunchasiga ta’rif	Matndan misol
reallik va o‘zlik o‘rtasidagi ichki qarama-qarshilik	
adolat o‘rnatish yo‘lidagi besamar harakat	
o‘z ideallari uchun kurash	

Sizningcha, “donkixotlik” ijobiy hodisami yoki salbiy? Nima uchun?

“Don Kixot sarguzashtlari” romanini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Tasavvur qiling, don Kixot va Sancho Pansa bugungi O‘zbekistonga kelib qolishdi. Ular nimadan hayratlanishgan, nimadan esa g‘azabga tushgan bo‘lardi? O‘zbekistonliklar ularni qanday qabul qilgan bo‘lardi? Don Kixot va Sancho Pansaning O‘zbekistondagi bir kunini tasvirlab hikoya yoki sahna asari yozing.

TAKRORLASH

Quyidagi savollarga daftaringizda yozma javob bering. Fikringizni aniq va lo‘nda ifoda etishga hamda matnlarga tayangan holda misollar keltirishga harakat qiling.

1. O‘rta asrlar adabiyoti namunalarida aks etgan, siz muhim deb hisoblagan bir g‘oyani tanlang va mazkur g‘oyaning konkret bir asarda qanday ochib berilganini tahlil qiling. Yozuvchi bu g‘oyani ochib berishda:

a) qanday usullardan foydalangani;

b) qanday obrazlar va badiiy tasvir vositalariga murojaat qilgani;

d) bu g‘oyaning yozuvchi yashagan davr va bugungi kun uchun ahamiyatiga e’tibor bering.

2. O‘rta asrlar Sharq va G‘arb adabiyotiga xos xususiyatlarni quyidagi jadval asosida umumlashtirishga harakat qiling.

	G‘arb adabiyoti	Sharq adabiyoti
Asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar		
Asarlarning janr xususiyatlari		
Asarlarning badiiy xususiyatlari		

3. Quyidagi parchalarni o‘qing. Ularda qanday g‘oyalar ilgari surilmoqda? Bu g‘oyalarni ochib berish uchun mualliflar qanday vositalardan foydalanishgan? Mazkur parchalar o‘rta asrlar o‘zbek va jahon adabiyoti taraqqiyotidagi qaysi tendensiyalarni aks ettiradi?

A) Tili yalg‘on ertin yiroq tur teza,
Kechur sen-ma umring ko‘nilik tuza.
Og‘iz til bezagi ko‘ni so‘z turur,
Ko‘ni so‘z-la so‘zni, dilingni beza.

Ahmad Yugnakiy,
“Hibat-ul haqoyiq”dan

B) Sochlarimni turmaklab olib,
qaramasdan o‘ng-u so‘limga,
minoraga chiqaman shitob,
ko‘z tashlay deb daryo yo‘liga.
Unda suzar ko‘plab qayiqlar,
bittasidan darak yo‘q faqat…

Quyoshning tik nurlari so‘nar
to‘lqinlarga berolmay toqat,
qumloq sohil cho‘kib boradi
tunning zulmat to‘la qo‘yniga.

Van Tin-Yun (Xitoy, XII asr)
(Gulnoz Mo‘minova tarjimasi)

D) Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg‘a, eshikingdin
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzung‘a ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla,
Yo‘qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

Lutfiy

E) Bilaman, hammaga yot erur qalbim
Va sizga tikarman g‘amgin nigohim.
Ko‘zimdan yosh bo‘lib to‘kilar ohim –
Mahzun shamol xazon uchirgan kabi.

Yuzingizda kulgu barq urar guldek
Unutgum hayotning aysh-u korini,
Unutgum do‘zaxiy dunyo zorini –
Husningizga to‘ymay termilsam quldek.

Ketsangiz yuragim zulumot quchar,
Qotilim – kulgungiz sog‘inar ko‘zim,
Ketsangiz, chorasiz soviydi qonim.

Ishq kaliti ochar sovigan ko‘ksim,
Ruh qushim qafasni tark etib uchar –
Uchar faqat sizni ko‘rmoq-chun, jonim.

Franchesko Petrarka (XIV asr, Italiya)
(Xurshid Davron tarjimasi)



XVII–XIX ASRLAR ADABIYOTI

– Boborahim Mashrab (XVII asr o‘rtalari – XVIII asr boshi). G‘azallar

– Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874). Lirika

– O‘zbek mumtoz adabiyotida ayollar

– Anbar Otin (1870–1906). “Risolayi falsafayi siyohon”

– XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti (1850–1910)

– Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy (1850–1903). Lirika. Hajviyot. “Sayohatnoma”

– XVII–XIX asrlar jahon adabiyoti

– Aleksandr Pushkin (1799–1837). “Yevgeniy Onegin” she’riy romani





XVII asr

Turdi Farog‘iy ijodi



XVII asr

Boborahim Mashrab ijodi



XIX asr

Ogahiy ijodi



XIX asr

O‘zbek shoiralari Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno ijodi



XIX asr birinchi yarmi

Yevropa va Amerika adabiyotida romantizm davri: J. Bayron, V. Gyugo, F. Kuper va boshqalar ijodi



XIX asr 30-yillari

Yevropa va Amerika adabiyotida realizm davri: O. Balzak, Ch. Dikkens, Mark Tven va boshqalar ijodi



XVII–XVIII asrlar

Yevropa adabiyotida ma’rifat-parvarlik davri. D. Defo, J. Svift, Volter va boshqalar ijodi



XVIII asr

Xo‘janazar Huvaydo ijodi. “Rohati dil” dostonining yaratilishi



XIX asr

Gulxaniy ijodi. “Zarbulmasal”ning yaratilishi



XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshi

Gyote ijodi. “Faust”ning yaratilishi



XIX asr

Rus adabiyotining oltin davri: A. Pushkin, N.Gogol, F. Dostoyevskiy va boshqalar ijodi



XIX asr ikinchi yarmi – XX asr boshi

Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O‘tar ijodi. O‘zbek adabiyotiga yangi mavzular va janrlarning kirib kelishi

BOBORAHIM MASHRAB (XVII ASR O‘RTALARI – XVIII ASR BOSHI). G‘AZALLAR

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– Mashrab g‘azallarining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Tarixiy davr

XVI asrda Markaziy Osiyoda hokimiyat Temuriylar qo‘lidan Shayboniylarga o‘tdi. Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil qilgan davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi. XVI asrda Xorazm (Xiva xonligi) o‘z mustaqilligini tikladi, XVIII asrda esa ichki kurashlar natijasida zaiflashgan Buxoro xonligidan Qo‘qon xonligi ajralib chiqdi. Shu tariqa Markaziy Osiyoda yagona markazlashgan davlat o‘rniga uch mustaqil davlat paydo bo‘ldi. Ular o‘rtasida tez-tez nizolar kelib chiqar va bu nizolar xalqning tinkasini quritgan edi. Siyosiy parokandalik va tinimsiz urushlar o‘lkadagi madaniy hayotning zaiflashuviga olib keldi. Shunga qaramay, XVII–XVIII asrlarda Buxoro, Samarqand, Yangi Urganch kabi shaharlarda bunyodkorlik ishlari olib borildi, qator tarixiy va badiiy asarlar yaratildi.



Muallif haqida

Boborahim Mulla Vali o‘g‘li (taxallusi – “Mashrab”, ya’ni “ishq sharobini ichgan”) XVII asr o‘rtalarida Namanganda kambag‘al oilada dunyoga kelgan (manbalarda uning tug‘ilgan yili sifatida 1640-, 1647- yoki 1653-yillar ko‘rsatiladi). Otasidan erta yetim qolgan Boborahim oiladagi moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan avval maktabda o‘qidi, so‘ng din va falsafani chuqurroq o‘rganish maqsadida Namanganda mashhur so‘fiy eshon Mullo Bozor Oxund (Xo‘ja Ubaydullo) va Qashqarda Hidoyatullo Ofoqxo‘ja eshon qo‘lida tahsil oldi. Ofoqxo‘ja eshon dargohidan ketgach, umrini musofirlikda o‘tkazdi, bir qancha shaharlarda bo‘ldi. Ma’lumotlarga qaraganda, 1711-yilda Qunduzda (Balx viloyati, hozirgi Afg‘oniston) hokim buyrug‘i bilan qatl qilingan.

MASHRAB G‘AZALLARI

Mashrabning o‘ziga xos lirikasi mumtoz adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning g‘azallari asosida yaratilgan qo‘shiqlar ham o‘zbek musiqa san’ati xazinasidan munosib o‘rin egallagan.

Eslang:
Mashrab g‘azallari bilan kuylangan qaysi qo‘shiqlarni bilasiz?

O‘ylab ko‘ring:
Mashrab she’rlarining xalq orasida mashhurligi sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

Tasavvuf haqida tushuncha

Mumtoz adabiyot, xususan, Mashrab lirikasini tushunish uchun tasavvuf (so‘fiylik) ilmidan xabardor bo‘lish lozim. Tasavvuf insonni komillikka yetaklovchi ta’limot bo‘lib, unga erishish uchun bir necha bosqichlardan o‘tish talab etiladi:

– shariat – barcha musulmonlar uchun majburiy bo‘lgan islomiy qonun qoidalarga rioya qilish;

– tariqat – tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pir-murshidga topshirib, poklanish yo‘lida uning ko‘rsatmalariga amal qilish (Mashrab ham Ofoqxo‘ja eshonga qo‘l bergan);

– ma’rifat – Allohni tanish;

– haqiqat – Allohga (Haqqa) yetishish.

Tasavvufning asosiy tushunchasi ishq bo‘lib, uning ikki turi bo‘ladi:

– majoziy ishq – Alloh yaratgan narsalar va mavjudotlarga (shu jumladan, boshqa insonga) nisbatan ishq;

– haqiqiy (ilohiy) ishq – Allohga nisbatan ishq.



Ishq ko‘p holatlarda may obrazi orqali ham ifodalanadi: may ichish – oshiq bo‘lish demakdir. Shunday ekan, may quyiladigan idish – ishqqa to‘layotgan ko‘ngil, mayxona – may ichuvchilar (oshiqlar) yig‘iladigan joy, soqiy (may quyuvchi) esa – may ichish (oshiq bo‘lish) sirlarini o‘rgatuvchi pir. Oshiq uchun yor, jonon vasli – Alloh jamolidir. Ishqning yuqori bosqichi majnunlik bo‘lib, bu bosqichda oshiq o‘zini unutish darajasiga yetadi.



* * *

Agar oshiqlig‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o‘rtar.

Kishiga ishq o‘tidin zarraye tushsa bo‘lur giryon,
Bo‘lur besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri hamon o‘rtar.

Nechuk toqat qilay, do‘stlar, bu dard ila bo‘lub hayron,
G‘amim boshqa, alam boshqa, yuragimni nihon o‘rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,
“Nigoro!” deb oting aytsam ki, shavqingdin zabon o‘rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni chunon o‘rtar.

Na qattig‘ kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo‘lmoq,
Mening ohim o‘tig‘a bul zamin-u osmon o‘rtar.

Yurakda dard-u g‘am qat-qat, ki menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishqi bayon o‘rtar.

Bu dard ila xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmaysan,
Unum chiqsa yurakdin bu tan-u jon, ustixon o‘rtar.

Bu Mashrab dardini, jono, ki hech kim boshig‘a solma,
Agar mahsharda oh ursam, behishti jovidon o‘rtar.

taqi – tag‘in, yana
xonumon – bor bisot, boylik
giryon – yig‘loqi
zabon – til
qayu – qaysi
so‘ngak – suyak
ustixon – et va suyak
jovidon – abadiy

1. G‘azaldan Mashrab uslubiga xos badiiy tasvir va lingvistik vositalarni toping. Ularning g‘azal g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyatini izohlang.

2. Shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr nima? Bu fikr baytlarda qay tarzda ochib berilgan?

SHE’RIY SAN’ATLAR: TANOSUB, TAZOD, TALMEH

Ma’no jihatdan bir-biriga bog‘liq, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalarni (*gul – bulbul, bosh – soch* singari) qo‘llash san’ati **tanosub** (“munosib”, “mutanosib”) deyiladi. Masalan, Atoiy g‘azalidan olingan ushbu baytda “cherik” (qo‘shin), “mulk”, “oldi”, “ittifoq” so‘zlari ma’no jihatdan bir mavzuga (harb mavzusiga) oid bo‘lib, tanosub san’atini hosil qilgan:

Zulfing cheriki jamol mulkin
Oldi ko‘zing ittifoqi birla.

Ma’no jihatidan bir-biriga zid tushunchalarni (*hayot – o‘lim* singari) qo‘llash san’ati **tazod** (“zid qo‘yish”, “qarshilantirish”) deyiladi.

Gahe tobtim falakdan notavonlig‘,
Gahe ko‘rdim zamondan komronlig‘.
Alisher Navoiy

Ushbu baytda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan *notavonlig‘ – komronlig‘* (baxtiyorlik) so‘zlari tazod san’atini hosil qilgan.

Mashhur tarixiy yoki afsonaviy voqea yoki qahramonlarga ishora qilish **talmeh** (“nazar solmoq”) deyiladi. Misol uchun:

Judolig‘ aylar ekansan, oyo Laylivashi Shirin,
Ne deb avval o‘zungg‘a man g‘aribni oshno qilding.
Xo‘janazar Huvaydo

Ushbu baytda muallif yorga murojaatida “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlari qahramonlariga ishora qilmoqda.

Quyida keltirilgan “Sig‘mamdur” radifli g‘azalida tanosub, tazod va talmeh san’atlari qo‘llangan o‘rinlarni toping. Mazkur san’atlar qay darajada g‘azalning umumiy g‘oyasini ochib berishga xizmat qilmoqda?

* * *

Ajab majnun erurman, dasht ila sahrog‘a sig‘mamdur,
Dilim daryoyi nurdur, mavj urub dunyog‘a sig‘mamdur.

Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mendadur mavjud,
Chu sultoni azaldurmanki, arshi a’log‘a sig‘mamdur.

Xalil oso bu yo‘lda otashi Namrud – me’rojim,
Hamon durri haqiqatmanki, har daryoga sig‘mamdur.

Rizo mulkidaman, halqumni tuttum tig‘i Akbarga,
Bu yo‘lda siynayi poki Zabehullog‘a sig‘mamdur.

Agarchande ziyorat qilmadim men Ka’bayi zohir,
Tariqat hojisidurmanki, Baytulloga sig‘mamdur.

Gahi bo‘ldum faqir-u, gohi shoh-u, gah gadodurman,
Ajab devonaman, fardoki mahshargohg‘a sig‘mamdur.

majnun – telba

arshi a’lo – osmonning yuqori qavati

oso – kabi, singari

siyna – ko‘krak

Baytullo – Ka’ba

fardo – ertaga





Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,
Junun bozorida mastmanki, istig‘nog‘a sig‘mamdur.

Gah o‘rus, gohi cherkas, gohi mo‘min, gohi tarsoman,
Ne kavnayni miyon-u “lo”i illollog‘a sig‘mamdur.

Mudom miskin erurman chun g‘uloming –
Mashrabingdurman,
Meni bechora bu dunyo bilan uqbog‘a sig‘mamdur.

bexud – o‘zini yo‘qotish
junun – majnunlik
tarso – nasroniy
kavnayn – ikki dunyo
miyon – o‘rta
“lo”i illollo – “illollo” so‘zining “lo”si
g‘ulom – qul
uqbo – oxirat

Izohlar:

Shariat, tariqat, haqiqat – Haqqa erishish bosqichlari.

Xalil – Ibrohim alayhissalom.

Otashi Namrud – shoh Namrud Ibrohim alayhissalomni kuydirish uchun yoqqan olov. Namrud olovi Allohning marhamati bilan Ibrohim alayhissalomga ziyon keltirmagan.

Me’roj – Muhammadning (s.a.v) Quddusdagi Aqso masjididan Alloh huzuriga osmonga ko‘tarilishi.

Rizo – tariqatning so‘nggi maqomi, o‘z qismatida nima bo‘lsa, hammasini Allohdan bilib, e’tiroz bildirmaslik.

Akbar (buyuk) – Allohning sifatlaridan biri.

Zabehullo – Alloh uchun qurbonlikka atalgan (Ismoil alayhissalom nazarda tutilmoqda).

Baytullo – Ka’ba.

Mahshargoh – dunyo tugagach, hamma insonlar tirilib, to‘planadigan va bu dunyoda qilgan ishlari uchun so‘roq qilinadigan joy.

Hayrat – tasavvuf maqomlaridan biri bo‘lib, har bir narsadan, borliqdan hayratga tushish holati.

Istig‘no – tasavvuf ta’limotida Haqqa erishish yo‘lidagi vodiylardan biri.



“Mashrab – so‘fiy shoir”. Shavkat Muzaffar ishlagan surat



* * *

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!
Bo‘lmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?!

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!
Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do‘zaxin,
Bo‘lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!

Arshning kungurasin ustiga qo‘ydum oyog‘im,
Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?!

Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom
Oshkoro bo‘lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Bir Xudodin o‘zgasi barcha g‘alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo‘lsa qo‘lumda, ul tikonni na qilay?!

xok – tuproq
ruhi ravon – inson ruhi
boda – may

behisht – jannat

zarraye – bir zarra
nihon – yashirin

* ***Ibrohimdan qolg‘on ul eski do‘kon –*** *Ka’ba nazarda tutilmoqda. Ibrohim alayhissalom Makkaga o‘z o‘g‘li Ismoilni olib kelganda Alloh unga Ka’ba poydevorini tiklashni buyurgan. Ibrohim alayhissalom bu amrni bajargan va Baytulloh musulmonlar uchun ziyorati ibodat hisoblanadigan muqaddas joyga aylangan.*

* ***Lomakon –*** *makonsizlik. Alloh makondan tashqarida, U yaratgan barcha mavjudotlar esa makonda mavjuddir.*

1. G‘azalning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
2. Har bir misra oxiridagi ritorik savol qanday vazifa bajarmoqda?
3. G‘azalda qaysi she’riy san’atlar qo‘llangan?

Quyidagi g‘azallarni mustaqil tahlil qiling. Tahlil jarayonida lug‘atlar, ensiklopediyalar va boshqa kerakli manbalarga murojaat qiling.

* * *

Namangondin ketar bo‘lsam, meni yo‘qlar kishim bormu?
G‘ariblik shahrida o‘lsam, meni yo‘qlar kishim bormu?

Qani qavm-u qarindoshim, bu yo‘lda bo‘lsa yo‘ldoshim,
Ko‘zumdin oqizib yoshim, meni yo‘qlar kishim bormu?



ramuz – sir-asror

Xo‘tan – Sharqiy Turkiston (Qashqar)dagi shahar

du – ikki

bihisht – jannat

shabiston – kechasi, qorong‘ilik

shakkarfishon – shakar sochuvchi

xoki turob – qabr tuprog‘i

mohi tobon – jilvalanuvchi oy

Muhabbat sharbatin ichtim, qazondek qaynabon toshtim,
Bu foniy dunyodin kechtim, meni yo‘qlar kishim bormu?

Tushubdur boshima savdo, ramuzi ishqdin g‘avg‘o,
O‘ziga ayladi shaydo, meni yo‘qlar kishim bormu?

Turarga toqatim yo‘qtur, yurarga holatim yo‘qtur,
Yurakda ishq o‘ti cho‘qdur, meni yo‘qlar kishim bormu?

Qarorim yo‘q turay desam, Namangonda yuray desam,
Jahonni sayr etib kezsam, meni yo‘qlar kishim bormu?

Bu miskin zor Mashrabni kishi holini bilmaydur,
Bu yerdin bosh olib ketsam, meni yo‘qlar kishim bormu?

* * *

Jamoling ko‘rgali keldim, ayo ey mehribon onam,
Mening uchun ado bo‘lg‘an yurag-u bag‘ri qon onam.

Xo‘tan dashtiga tushtum bul falakning gardishi birlan,
Eshitkil arzi holimni, men aytay senga, jon onam.

Ajoyib mehribonimsan, meni oromi jonimsan,
Murodi du jahonimsan, bihishti jovidon onam.

Meni bir jodu ko‘zluk bul jahon ichra xarob etti,
Qadi sarv-u sanavbar, qoshlari misli kamon, onam.

Boshimga tushti bul savdo, bo‘lubman bulbuli shaydo,
Shabistoni jahonda qumridek shakkarfishon onam.

Bu ishq o‘ti xarob etti, yurak-bag‘rim kabob etti,
Meni xoki turob etti yuzi mohi tobon onam.

Seni ko‘p intizor ettim firoq o‘tig‘a, ey Ka’bam,
Tavofi Ka’bayi maqsuda keldim, dilkashon onam.

Iloho, avf qilg‘aysan bu Mashrabning gunohini,
Tufayli onayi zorim, g‘arib-u notavon onam.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Mashrab g‘azallarida ko‘tarilgan asosiy g‘oyalarni, bu g‘oyalarni ochib berishga xizmat qiladigan kalit so‘zlar, lingvistik va badiiy vositalarni solishtirib, quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring. To‘ldirgan jadvalingiz asosida Mashrab lirikasiga xos umumiy xususiyatlarni aniqlashga harakat qiling.

	Asosiy g‘oyasi	G‘oyani ochib berishga xizmat qiladigan kalit so‘zlar	G‘azalda qo‘llangan til vositalari va she’riy san’atlar
“O‘rtar”			
“Sig‘mamdur”			
“Na qilay?”			
“Bormu?”			
“Onam”			

Mashrab g‘azallari asosida yaratilgan qo‘shiqlar ko‘plab xonandalar tomonidan ijro etilgan. “O‘rtar”, “Men nola qilay...”, “Ko‘rsat jamoling mastonalarga”, “Hech kima ma’lum emas” kabi qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Mashrab g‘azallari asosidagi qo‘shiqlarni topib tinglang. Tinglash asnosida qanday hislarni tuydingiz? Mashrab g‘azallari asosida yaratilgan qo‘shiqlarning o‘ziga xosligi nimada deb o‘ylaysiz?



MUHAMMAD RIZO OGAHIY (1809–1874). LIRIKA

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– Ogahiy lirikasiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

Eslang:
XIX asr O‘rta Osiyo mintaqasidagi xonliklar taqdiri va o‘lkadagi madaniy-ma’rifiy hayot haqida nimalarni bilasiz? Bu davrdagi tarixiy-ijtimoiy vaziyatning keskin o‘zgarishi sabablarini qanday izohlaysiz?



Dishan qal’a (tashqi qal’a) Olloqulixon davrida Xivani tashqi hujumlardan himoya qilish uchun qurilgan.

Tarixiy davr

XIX asr boshlarida Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan Muhammad Rahimxon I davrida bir qancha islohotlar o‘tkazildi, bunyodkorlik ishlari olib borilib, soliqlar tartibga solindi. Xonning ilm-fan va san’at ahlini qo‘llab-quvvatlashi natijasida bu davrda xattotlik san’atining o‘ziga xos maktabi shakllandi, bir qator badiiy va tarixiy asarlar yaratildi, jahon adabiyotining ayrim namunalari tarjima qilindi. Muhammad Rahimxon I ning o‘g‘li Olloqulixon davrida ham bunyodkorlik ishlari davom ettirildi.

Muallif haqida



Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri, shoir, tarjimon va tarixchi olim Muhammad Rizo (taxallusi – Ogahiy) Xiva yaqinida tug‘ilgan. Muhammad Rizo dastlab maktabda, keyinchalik madrasada tahsil olib, arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. 1829-yilda Olloqulixon tomonidan mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlangan Ogahiy davlat ishlari bilan birga ijodiy va ilmiy faoliyatini ham olib bordi. Tarixchi sifatida amakisi, shoir va tarixchi Munis Xorazmiy boshlagan “Firdavs ul-iqbol” (“Iqbol bog‘i”) asarini yozib tugatdi va Xorazmda yashagan xalqlar tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti aks etgan tarixiy asarlar yozdi. Kaykovus, Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va qator Sharq mumtoz adabiyoti vakillari asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Uning lirikasi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

OGAHIY LIRIKASINI TAHLIL QILAMIZ

Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devonidan shoirning o‘zbek va fors tillarida bitilgan ishqiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa ko‘plab mavzulardagi she’rlari o‘rin olgan.

* * *

Manga zulm aylab, ul qotil ayon ohista-ohista,
Chekib tig‘ini aylar qasdi jon ohista-ohista.

Ma’shuqning oshiqqa “ohista” zulm qilishdan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?

Jafosi zo‘ridin ikki ko‘zimdin oqti daryolar
Ki, qolg‘oy ostida oning jahon ohista-ohista.

Oshiq to‘kkan ko‘z yoshlari tufayli jahonni suv bosishi tasvirida qanday badiiy san’at qo‘llanmoqda?

Ulusga aylag‘an zulmin ko‘rib ondin hazar qilmay,
Kelib chekdim jafosin man yomon ohista-ohista.

ulus – xalq

Bo‘lur hajrida zindon gar maning manzilgahim bo‘lsa,
Guliston balki gulzori jinon ohista-ohista.

Yor hajridan zindonband bo‘lgan lirik qahramon manzili guliston bo‘lishiga umid qilishi to‘g‘rimi? Nima uchun?

To‘lo bir jom tut lutf aylab, ey soqiyki, bu g‘amdin
Qutulg‘oyman ichib man notavon ohista-ohista.

Vafo yo‘q dahr bog‘ining gulida, berma ko‘nglungni,
Bugun tongda ketar, ey bog‘bon, ohista-ohista.

dahr – dunyo; zamon

Yorning vafo qilmasligi va tongda oshiqni tark etishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

Emas gardunda ra’d ovozikim hijron tuni ichra,
Erur ul Ogahiy chekkan fig‘on ohista-ohista.

gardun – osmon, falak; dunyo



SHE’RIY SAN’ATLAR: KITOBAT, ISTIHROJ, TASHXIS

Kitobat (arabcha “ko‘chirib yozmoq” so‘zidan) mumtoz adabiyotda keng qo‘llangan badiiy san’atlardan biri bo‘lib, bunda arab alifbosi harflarining yozuvdagi shakli biron narsa-hodisa yoki holatga o‘xshatilgan. Ma’lumki, arab alifbosi harflari to‘g‘ri, egri, yoysimon va doirasimon shakllardan iborat. Shuning uchun ham aksar hollarda shoirlar ularni yorning qomati, oshiqning bukilgan qaddiga o‘xshatishgan. Misol uchun:

Ul alifdek qomatining hasrati
Dol yanglig‘ ayladi qaddim duto.
Furqat

Mazkur baytda shoir ma’shuqasining tik qomatini arab alifbosidagi “alif” harfiga, o‘zining bukilgan qaddini esa “dol” harfiga qiyoslamoqda.

Istihroj (arabchadan, “keltirib chiqarmoq”, “so‘z yasamoq”) kitobat san’ati asosida hosil bo‘ladi: bunda arab yozuvidagi harflarni biron narsaga o‘xshatish bilan birga, bu harflarning yig‘indisidan so‘z hosil qilinadi. Misol uchun:

Za’fdin qaddim “alif” bo‘ldi, ul ikki “lom”i – zulf,
Har yonimdin jilvagar, vah, ne ajab gar lolmen.
Alisher Navoiy

Ushbu baytda shoir qaddi “alif” harfiga, yor zulflari esa “lom” harfiga o‘xshatilishi bilan birga, ikkita “lom” (l) va “alif” (o) harflaridan “lol” so‘zi hosil qilingan.

Tashxis (arabcha “jonlantirish” so‘zidan) – insonlarga xos xususiyatlarni jonsiz narsalar, hayvonlar, tabiat hodisalariga ko‘chirish. Misol uchun:

Kun pardaga kirib yuzung oyi hayosidin,
Yig‘lar o‘zi-yu, orag‘a tortar sahobni.
Lutfiy

Ushbu baytda kun – quyoshga insonlarga xos uyalish, yig‘lash xususiyatlari ko‘chirilgan.

* * *

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur “nun” eltibon “sod” ustina.

Qilg‘il tomosho qomati, zebosi birlan orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvand shamshod ustina.

Noz-u ado-u g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina.

Man xastag‘a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav’i faryod ustina.

Boshimg‘a yoqqon g‘am toshi mingdin biricha bo‘lmog‘oy
Gardun agar ming Besutun yog‘dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Ne jur’at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.

mushkin – mushk hidli; qora
nas – hukm
oraz – yuz
shamshod – xushqomat, qishin-yozin yashil turadigan daraxt
ado – noz-karashma
g‘amza – ko‘z ishorasi
dushvor – qiyin
gardun – falak, osmon
Besutun – Farhod qazigan tog‘ning nomi
bod – shamol
xayl – guruh, to‘da
noshod – shod emas, g‘amgin



ص sod
ن nun

Izoh: arabcha “nun” va “sod” harflari birikishidan “nas” (“hukm”) so‘zi hosil bo‘ladi.

1. G‘azalda ma’shuqning qanday holati ifodalanmoqda? Bu holatni tasvirlash uchun qanday vositalar qo‘llangan?

2. Birinchi baytda qaysi she’riy san’at qo‘llangan? Arabcha “nun” va “sod” harflari qanday maqsadga xizmat qilmoqda?


3. Yor nega oshiqqa “qasd” qilgan? Uning noz-u qarashlarini lirik qahramon nega “ofat” demoqda?

4. Besutun tog‘ini qazigan Farhodni, ixtiyorida shamollar bo‘lgan Sulaymon alayhissalomni eslatish orqali qaysi badiiy san’at hosil qilingan? Shoir bu san’atdan qanday maqsadni ko‘zlagan?

5. G‘azalda yana qanday badiiy san’atlar qo‘llangan?

* * *

Quyidagi g‘azallarni mustaqil tahlil qiling. G‘azallarning g‘oyasiga, bu g‘oyani ochib berish uchun qo‘llangan badiiy vositalarga e’tibor bering.



Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay,
Ohima ham shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Hardam ulusg‘a lutf ila boqg‘usi qahr ila, vale
Man sori bir nazora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Ishq eli ko‘ngli dardig‘a chora qilur, vale mening
Dardi dilimg‘a chora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Hajrida za’fim o‘ylakim, ohi hazinim o‘tig‘a,
Shu’la bila sharora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Jon labidin chu bermadi jismima, vahki qoshidin
Qatlima bir ishora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Ko‘yiga borsam etgusi vaslig‘a va’da, ul dog‘i
Bo‘lg‘usi bora-bora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Tole’i ravshan o‘zganing lutfi quyoshi nuridin,
Men kibi baxti qora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun,netay.

Bo‘ldi sitorasi isig‘ xulqiga mehri yori garm,
Manda isig‘ sitora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.

Dedim: “O‘lubtur Ogahiy ashki kanorasiz”, dedi:
“Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay”.

ashk – ko‘z yoshi
kanora – qirg‘oq, chegara
shumora – son-sanoq
nazora – qarash, nazar tashlash

za’f – xastalik, kasallik
sharora – uchqun, alanga

sitora – yulduz
garm – issiq

* * *

Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun,
Hamisha tole’ing feruz bo‘lsun.

Bo‘lub ayyomi navro‘zing muborak,
Zamiring inbisotanduz bo‘lsun.

Qilib partavfikanlik ayni adling
Quyoshoso jahonafruz bo‘lsun.

Sango doyim bo‘lub davlat qushi rom,
Shikorandoz-u dastomuz bo‘lsun.

Adu-u vahshilarini sayd etarg‘a
O‘q-u tiyg‘ing uqob-u yuz bo‘lsun.

Kishikim, istasa sarkashlik etmak,
Boshi yo‘lingda oning tuz bo‘lsun.

Tarab mehri hamisha pok ko‘nglung
Sipehr avjida markuz o‘lsun.

Tarabgohing aro xayyoti gardun
Kaniz-u zoli xil’atdo‘z o‘lsun.

Ko‘rub lutfingni, har tun Ogahiyning
Nasibi ishrati navro‘z bo‘lsun.

feruz – baxtli

inbisotanduz – shodlik hosil qiluvchi

partavfikan – yorug‘lik, nur
oso – yanglig‘, kabi
jahonafruz – jahonni yorituvchi

shikorandoz – ov qilinuvchi
dastomuz – qo‘lga o‘rgatilgan

adu – dushman
sayd – ov
uqob – burgut

tuz – to‘g‘ri

tarab mehri – xursandlik oftobi
sipehr avji – osmonning cho‘qqisi
markuz – o‘rnatilgan

xayyoti gardun – libos tikuvchi osmon
zol – kampir
xil’atdo‘z – kiyim tikuvchi



* * *

Quyidagi ma’lumotni va g‘azalni o‘qing. Shoir g‘azalda choyga qanday ta’rif beryapti? Mazkur ichimlikning qaysi xususiyatlariga urg‘u berilmoqda?

Choy – choydoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik doimiy yashil butalar yoki daraxtlar turkumi, shuningdek, maxsus ishlov berilgan choy barglaridan tayyorlanadigan ichimlik.

O‘zbekistonda choy ichish qachondan boshlab urf bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ayrim manbalarga ko‘ra, Turkiston shaharlarida hind savdogarlari choy savdosi bilan shug‘ullangan. Shahar va yirik qishloq guzarlarida faqat choy ichimligi va tamaddi (non, qand-qurs) bilan savdo qiladigan choyxonalar bo‘lgan. XX asr boshlarida hind savdogarlari Samarqandda choy qadoqlash korxonasini tashkil etganlar.

Choyning organizmni tetiklashtiruvchi xususiyati uning tarkibidagi kofein miqdoriga bog‘liq. Choy kofeini qahva kofeiniga nisbatan yengil

ta’sir qiladi va organizmda yig‘ilmaydi. O‘zbekistonda asosan ko‘k choy (Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qora choy) ichiladi, organizmni tetiklantiruvchi xususiyati va tarkibida R vitaminining ko‘pligi jihatidan qora choydan ustun turadi. Choyni ovqat oldidan, ovqatdan keyin, hazmni yengillashtiruvchi, chanqoqbosar ichimlik sifatida, asosan issiq yoki yaxna holida ichiladi. O‘zbek xalqi urf-odatlariga ko‘ra, mehmon oldiga non bilan birga, albatta, choy ham keltiriladi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan

Toki bazm ichra harifi la’li jonon o‘ldi choy,
Jonfizolig‘ ichra rashki obi hayvon o‘ldi choy.

Jonfizo ta’m-u tarabangez kayfiyat bila,
Jumlayi olam eliga rohati jon o‘ldi choy.

Go‘yyokim, choy erur mehri giyah, yo‘qsa, nedin
Ham gado matlubi, ham marg‘ubi sulton o‘ldi choy.

Topti izz-u e’tibor ul nav’ ofoq ichrakim,
Sar-basar maqbuli ahli kufr-u imon o‘ldi choy.

Topsa har majlis xazon fasli kibi afsurdalik,
Jilvagar o‘lg‘och, bahoroso guliston o‘ldi, choy.

Yetkusi ko‘zlarga yuz nur-u ko‘ngullarg‘a surur,
Har qachon chiniy qadah ichra namoyon o‘ldi choy.

Yetsa har mushkul kishi oldig‘a ma’ni fikrida,
Ichkach ul mushkil oning olida oson o‘ldi choy.

Xasta jonlarg‘a davo, bemor tanlarg‘a shifo
Bo‘lmasa, muncha nedin mashhuri davron o‘ldi choy,

Ey hakim, emdi davoye aylamakdin forig‘ o‘l
Kim, bori bemorlar dardig‘a darmon o‘ldi choy.

Gar budur xosiyati, oning jahon bozorida
Yuz diram ham bo‘lsa bir misqoli, arzon o‘ldi choy.

Ushbu ta’rif, Ogahiy, bas bo‘lg‘usidur choyg‘a
Kim, tarabafzoyi bazmi hazrati xon o‘ldi choy.

harif – o‘rtoq, ulfat

jonfizolig‘ – jonni quvvatlantirish, jonga orom berish

obi hayvon – tiriklik suvi

tarabangez – xursandchilik bag‘ishlovchi

matlub – talab qilingan

marg‘ub – yoqimli

izz – izzat

ofoq – dunyo

afsurdalik – tushkunlik, horg‘inlik

diram – pul birligi

misqol – taxminan 4-5 gramm

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

O‘zbek milliy oshxonasidan qaysi taom sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun? Mazkur taomni ta’riflab she’r (g‘azal) yozib ko‘ring.

LIRIK JANRLAR: TUYUQ

Tuyuq turkiy xalqlar adabiyotidagi to‘rt misradan iborat kichik lirik janr bo‘lib, shakldosh so‘zlar (omonimlar)ning qofiyalanishiga, so‘z o‘yiniga asoslanadi va **a-a-b-a, a-b-v-b** yoki **a-a-a-a** shaklida qofiyalanadi.

Misol uchun:

Tig‘i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin
Anda gul yoxud giyohe butmagan.

Alisher Navoiy

Ushbu tuyuqda “butmagan” so‘zi birinchi misrada “bitmagan, tuzalmagan” ma’nosida, ikkinchi misrada “tugamagan, ado bo‘lmagan”, to‘rtinchi misrada esa “o‘smagan” ma’nolarida qo‘llanmoqda.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Ogahiy, Lutfiy va Alisher Navoiy qalamiga mansub tuyuqlarni tahlil qiling. Tuyuqlarda qofiya bo‘lib kelgan omonim so‘zlar ma’nosini toping. Har bir ijodkorning tuyuq yaratish mahorati va o‘ziga xosliklarini aniqlab, quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

* * *

Uch baland aylab qanoatni qanot
Kim, yering hirs aylamish qa’ri qanot.
Ilginga olib riyozat toshini,
Kibr-u naxvat boshin ul toshdin qanot. (Ogahiy)

hirs – ochko‘zlik
qa’r – tub, tag
riyozat – qiyinchilik, azob
naxvat – yomonlik

* * *

Qomatimni necha qoshing yo qila?
Necha hajr o‘ti jonimda yoqila?
G‘amza birla to‘kti qonim ul sanam,
To hinotek qon elina yoqila. (Lutfiy)

* * *

Javr o‘qin jonimg‘a soqiy yozmadi,
Vasl jomidin xumorim yozmadi.
Qilki qudrat sabzxatlar ishqidin
O‘zga ish ollimg‘a go‘yo yozmadi. (Alisher Navoiy)

	Omonim so‘zlar ma’nosi	G‘oyasi	Badiiy xususiyatlari
Ogahiy			
Lutfiy			
Alisher Navoiy			

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA AYOLLAR

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida ilgari surilgan mavzularni tahlil qilamiz.

Eslang:
Siz o‘zbek adabiyoti tarixidan joy olgan qaysi ayol ijodkorlarni bilasiz? Ularning qaysi asarlarini mutolaa qilgansiz?

O‘ylab ko‘ring:
Siz bilgan adibalar ijodidagi o‘ziga xoslik nimalarda aks etadi?




Qo‘qon adabiy muhiti

XVIII–XIX asrlar o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Qo‘qon adabiy muhiti alohida ahamiyat kasb etdi va o‘zbek adabiyotining eng muhim qismlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligini boshqargan Umarxon va uning turmush o‘rtog‘i, mashhur shoira Nodirabegim davri Qo‘qon adabiy muhitining “oltin davri” bo‘ldi.

Umarxon islohotlari xonlikning davlat boshqaruvi va iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir qildi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga olib keldi. Xonlik hududi kengaydi, bir qancha katta shaharlarda madrasalar, karvonsaroylar, qog‘oz ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etildi. Bu davrda arab va fors tillaridagi kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilindi, noyob kitoblar iste’dodli xattotlar tomonidan ko‘chirildi. Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan Umarxon eng yaxshi shoirlar, xattotlar, miniatyura san’ati ustalarini saroyga jalb qildi. U va keyinchalik uning o‘g‘li Muhammad Alixon ijod va ma’rifat egalari sifatida xonlikdagi madaniyat va ilm-fan rivojiga munosib hissa qo‘shdilar, ijodkorlarga homiylik va rahnamolik qildilar.

O‘ylab ko‘ring:
Qo‘qon xonligida adabiyot, ilm-fan va san’atning taraqqiy etishini qanday omillar bilan izohlaysiz? Bunday rivojlanish O‘rta Osiyodagi boshqa xonliklarda ham kuzatilganmi?



Nodira portreti. O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov (1976-yil)

O‘zbek shoiralari

Qo‘qon adabiy muhitining ta’sirida Gulxaniy, Maxmur, Fazliy, Amiriy kabi mashhur ijodkorlar qatorida o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin singari iste’dodli ayol shoiralar ham yetishib chiqdi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi bir-biridan farq qilsa-da, ijodida muayyan badiiy-g‘oyaviy mushtaraklikni ham kuzatish mumkin.

Qo‘qonda adabiy muhit taraqqiy etishiga qaramasdan, o‘lkadagi ichki nizolar, taxt uchun kurash, adolatsizliklar kambag‘al xalqning tinkasini quritgan edi. Bunday muhitda yashab, qalam tebratgan ayol shoiralar atrofidagi voqealarga befarq qarab tura olmas, o‘z iztiroblarini, og‘ir ruhiy kechinmalarini she’rlarida aks ettirar edilar. Masalan, hukmdorning ayoli Nodirabegim saroy malikasi bo‘lsa ham, davrning adolatsizliklariga befarq emasdi, turmush o‘rtog‘i Umarxonga yaxshi maslakdosh bo‘lib, hukmdorni adolatli, rahm-shafqatli bo‘lishga, xalq tashvishi bilan yashashga chaqirar edi:

Fuqaro holig‘a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmat-u saltanat-u raf’at-u shon barcha abas.
Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,
Yo‘q esa qoidayi amn-u omon barcha abas.

abas – behuda, bekor

Davr ijtimoiy muhitini tanqid qilish motivi, zamondoshlarining dardchil kechinmalari, qayg‘usi Jahon otin Uvaysiy ijodida ham aks etgan:

Zamona kulfatidin bu ko‘ngil dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngil dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Jarohat bo‘ldi bag‘rim tig‘i bedodi raqiblardin,
Bu ko‘tohfahm mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Dilshodi Barno she’rlarida ham davrdagi og‘ir ijtimoiy turmush, qonli urushlar, afgor xalq hayoti ifodasini kuzatish mumkin:

Vasvos ila shohni ayladi ag‘mo urush,
Shohni shahanshoh qilishg‘a ayladi da’vo urush.
Ko‘nglig‘a g‘ulg‘ula soldi ne o‘yinlar ko‘rguzub,
Qon ichish ishtahasin ayladi a’lo urush.

O‘ylab ko‘ring:

Sizningcha, agar Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno singari shoiralar og‘ir ijtimoiy muhitda yashamaganida mashhur bo‘la olarmidi? “Ijtimoiy muhit – insonning bilim, tajriba, ijodiy ko‘nikma va xususiyatlarini shakllantiradigan moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar majmuidir” degan fikrga qanday qaraysiz?

Ishq, muhabbat, sadoqat, vafo, visol, hijron, e’tiqod, dunyo, ilohiyot, erk, ona va farzand munosabatlari kabi mavzular XIX asrda Qo‘qonda yashab ijod etgan ayol shoiralar ijodining muhim g‘oyaviy yo‘nalishlari hisoblanadi:

Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G‘amim ko‘p, ey ko‘ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.

G‘uborim ishq vodiysida barbod o‘ldi andog‘kim,
Biyobonlarda Majnun to‘tiyo izlar g‘uborimdin.

Nodira

Bu muhabbat jomidur, deb dahrdin chiqdi nido,
“Yor aksin mayda ko‘r”, deb jomdin chiqdi sado.

Xonaqoh ahlig‘a aytdim: “Alvido, ey so‘filar”,
Dayra kirdim, rindliqni emdi qilg‘um ibtido.

Dilshodi Barno

Uvaysiy o‘z farzandiga atab yozgan “Sog‘indim” radifli g‘azalida farzandini sog‘ingan, sog‘inchdan g‘am-g‘ussaga botgan, dard-u alam chekayotgan, diydorlashishga umidvor bo‘lgan onaizor timsolini gavdalantirgan:

Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.

Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni sog‘indim.

Shu bilan birga, umri qayg‘u va hasratdan iborat bo‘lgan, erki, huquqi toptalgan, zulm-u sitamlar girdobida qolgan davr ayollari timsoli ham o‘zbek shoiralari lirikasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Xususan, chiston janrida Alisher Navoiydan keyin eng ko‘p va xo‘b yozgan o‘zbek shoiralaridan biri Uvaysiy “Anor” she’ri (chistoni) orqali hurligidan ayrilgan, bag‘ri qon ayollarning ayanchli qismatini ifodalasa, Dilshodi Barno qizlarni o‘zlari orzu qilgan “osoyish zamon”ni chorlashga chaqiradi:

Ul na gumbazdur, eshig-u tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur, makon?
Sindirib gumbazni qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig‘liq turarlar bag‘ri qon.

Uvaysiy

Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz,
Bir osoyish zamonni chorlaylik boz.
Diyorimizni ta’rif aylamakka
Hamma maqsadni birga aylaylik soz.

Dilshodi Barno

O‘ylab ko‘ring:
Anor tasviriga bag‘ishlangan boshqa she’rlarni eslay olasizmi? Chiston janrida she’rlar bitgan ijodkorlarni-chi? Uvaysiyning yuqoridagi chistoni boshqalarnikidan qay jihatlari bilan farq qiladi?

Tahlil qiling:
Uvaysiy va Dilshodi Barnolar qanday zamonni orzu qilgan edi? Ayol erki bo‘g‘ilgan, huquqlari toptalgan bir davrda bu ijodkorlarning yozganlarini jasorat deyish mumkinmi?

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrda yashab ijod etgan Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi ayol ijodkorlarning o‘zbek va fors tillaridagi adabiy merosi milliy so‘z san’atining go‘zal sahifalarini tashkil etadi. Ular shaxsiyatidagi vafodorlik, odamiylik, poklik, sadoqat tuyg‘ularini ijodida ham aks ettirib, haqiqiy o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini, o‘ziga xos siymosini yaratdilar va xalq hurmatiga sazovor bo‘ldilar.

LOYIHA

Kichik guruhlarda ishlang. Jahon adabiyotida ayol ijodkorlardan kimlarni bilasiz? Sharq va G‘arb ayol so‘z san’atkorlari ijodidagi o‘xshash va farqli jihatlar haqida taqdimot tayyorlang.

ANBAR OTIN (1870–1906). “RISOLAYI FALSAFAYI SIYOHON”

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Risolayi falsafayi siyohon” asarida ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil qilamiz.

Muallif haqida

O‘sha davrda qizlarga ta’lim-tarbiya bergan ziyoli ayollar “otin” maqomiga ega bo‘lganlar.

Anbar Otin Farmonqul qizi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Qo‘qon shahrida yashab ijod etgan o‘zbek shoirasidir. U ota tarafidan mashhur o‘zbek shoirasi Uvaysiyga qarindosh bo‘lgan.

Anbar Otin boshqa bir mashhur o‘zbek shoirasi Dilshodi Barno (Dilshod otin) maktabida tahsil olgan. Sakkiz yoshidan Alisher Navoiy g‘azallarini sevib o‘rgangan va keyinchalik ham ijodda birinchi ustozi deb hisoblagan. Zamondoshlari Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan tanish bo‘lgan.

Anbar Otin o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Ijodda ko‘proq Uvaysiyga ergashgan. Anbar Otinning ilk she’rlarida sof va samimiy tuyg‘ular tarannum etilgan bo‘lsa, keyinchalik uning ijodida zamondan shikoyat qilish yetakchi mavzuga aylandi.

xurufi xijo – arab alifbosidagi har bir harfga bir she’r bag‘ishlash

Anbar Otin umrining so‘nggi yillarida o‘zbekcha she’rlardan iborat devon tuzgan. 1966-yilda Tojikistonda shoiraning yana bir kichik she’riy to‘plami topilgan bo‘lib, undagi she’rlar “xurufi xijo” uslubida yozilgan.

Anbar Otin uzoq yillik xastalikdan so‘ng 1906-yilda vafot etadi.

“Risolayi falsafayi siyohon”

“Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi haqida risola”) – shoiraning mavjud ijtimoiy hayot va kelajak zamonlar haqidagi mulohazalari, orzu-umidlari aks etgan, o‘zbek adabiyotidagi falsafiy-publitsistik yo‘nalishda yozilgan ilk asardir.

?

O‘ylab ko‘ring:
“Qarolar falsafasi haqida risola”da “qarolar” kim bo‘lishi mumkin? Nima uchun asar shunday nomlangan? Asarni o‘qib bo‘lgach, avvalgi va keyingi fikrlaringizni qiyoslang: nimalar o‘zgardi?

Asar kichik kirish qismi va to‘rt fasldan iborat. Asarning birinchi faslida qaro narsalar, qaro baxt, qaro niyat, qaro tusli xalqlar haqida fikr yuritiladi. Ikkinchi fasl esa onalar hayoti va taqdiriga bag‘ishlanadi. Asarning uchinchi va to‘rtinchi fasllarida esa baxti qarolik va qaro zulmat, ya’ni o‘sha zamondagi ijtimoiy hayot haqida fikr yuritiladi.

Siz bilan asarning ikkinchi – onalar, ayollarga bag‘ishlangan faslini tahlil qilamiz. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa va AQSHda “sufrajistlar” (fransuzcha “suffrage” – “saylash huquqi” so‘zidan) harakati avj oladi. Bu harakat vakilalari ayollarga ham erkaklar bilan teng siyosiy huquqlar berish, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda kamsitilishiga chek qo‘yish g‘oyalarini ilgari surdilar. Natijada birin-ketin Yevropa davlatlari va AQSHda ayollarga siyosiy huquqlar berildi.



**Sufrajistlar AQSH prezidenti qarorgohi –
Oq uy oldida namoyish o‘tkazmoqdalar. 1917-yil**

Tahlil qiling:

Boshqa davlatlarda ayollar o‘zlariga siyosiy huquqlar berilishini talab qilib chiqayotgan bir paytda Turkiston ayollari nega aksar hollarda siyosiy va ijtimoiy hayotdan chetda edilar?

RISOLAYI FALSAFAYI SIYOHON
(asardan parchalar)

mazbut – zabt etilgan
huvaydo – belgili, oshkora
zohir – yuzaki, tashqi
botin – ichki
madfun – ko‘milgan
murcha – chumoli

Bul kamina va bechora devor qo‘njida to‘shakka mazbut mixlang‘on ahvolda yotish ilan ma’yus va majruh yotgan yillarim kamina va mahzuna nomimki Anbardur, ani to‘la-to‘kis ta’rif qilmoq bu kaminayi haqir va faqirg‘a ojizlik ta’sirini huvaydo qilib turur. Ammo man kamina andak ishorat qilurmanki, bu kaminani nomi bejiz emaski, bu Anbar zohirda tim qaro eng hidli nimarsa bo‘lib, botini hama qarolarni timsolidurki, ul qarolar niyz zohirida qaro ko‘rinadur, lek ani botinida sonsiz va sanoqsiz orzular mavjud erurki, bu orzularni ham shu zohir ko‘z ilan ko‘rib tasvir qilib bo‘lmas. Ani botindagi o‘tkur diyda ilan tafakkur yurutmak lozim o‘lur.

Chunonchi, barcha baxti qaro, farqi qaro, garchi qarolar ul qaro zulmat ichra zulm qaydida madfundurlarki, alar holi va taqdirini misoli qaro tunda, tuban chohni tubida qaro tosh ostidagi qaro murchani ko‘rguvchi mutafakkir donishmand adib ahli nafis choralar ilan ifoda eturlar, bayon etkum:

Bismillohir rahmonir rahim
Hamdi bori taborak va taolo
Durudi bar Muhammadi mustafo

Ibtido ettim avval ba nomi Ahadi qadim va Somadi vojibut ta’zim va alqobi chahoryori kirom. Bul kitobatni ul zamoni g‘aroyish va pur sho‘ri jahannam osor va pur g‘uborda kamina kamtarina Anbaroy binti Farmonqul erurman. Bul kitob qarolar sharhidur, bu kitobda Anbar arzi vositasi ilan sharh etilur.

Avvalg‘i fasl qarolar orazi bayonida,
Ikkinchi fasl farqi qarolar bayonida,
Uchinchi fasl baxti qarolar bayonida,
To‘rtinchi fasl qaro zulmat tasvirida.

?

1. Shoira asarni yozishdan maqsadini qanday ifodalaydi?

2. “Anbar” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Muallif asarni yozishdan maqsadini o‘z ismiga qanday bog‘laydi?

IKKINCHI FASL

Bu faslda man farqi qarolar taqdirini bayong‘a keltirurman. Avvalo, farq iborasi uldurki, ayollar boshini ikki qismg‘a ajratib, peshonadin, ya’ni burni ustidin ayruliq yo‘l tushar, shu yo‘lni farq deyilur, ma’nisi ulki, o‘ng taraf va chap tarafni farq qilmoq uchun zarurdir. Ma’lum o‘ldiki, farq deb ayol boshidag‘i chiziqni nom olduk. Bas, farq ayol boshida bo‘lsa, ul farq qay xilda bo‘lmog‘ini ham bilmoqni taqozo qilur.

Ayol sochini farqi har ikki tarafg‘a barobar taralg‘on bo‘lub, nihoyat silliq bo‘lg‘onidan yaroqqos jilosi bo‘lur, ul jilog‘a nazar solub, bu ayol taqdirini nelar bilan o‘turini muoyina tafakkur ko‘zi ila ko‘rub bo‘lur. Bu farq egasini man inson onosi har nechuk donishmand enagasi deb bilurman, ul ono shundog‘ onodur va mohir donodurki, Aflotun va Arastuni, Laqumojis va Doniyolni, Xizr ila Ilyosni, Iskandar-u Doroni, Luqmon va Sulaymonni, Abu Sino va Ulug‘bekni, Jomiyni, Sa’diyni, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Xayyomni, Nodira va Uvaysiyni, meni va seni o‘z qornida o‘n oy ko‘tarub, turli ofatlardin saqlab, yegan g‘izosidan rasamat berib, to‘qson to‘qquz to‘lg‘oq dardini tortub tug‘ub, hanuz ko‘z ochishg‘a majolimiz va sut emmoqqa kamolimiz bo‘lmag‘on murg‘ak va g‘ilmak holimizda ko‘zimizni ochib, olamni ko‘rish va sut emish qobiliyatig‘a davvor-u mohir qilubdir, ko‘z mujgonlarini shona qilib, undin barcha xilmlarni bartaraf qilib, nimjon barmoqlarimizni silab, band-bandig‘a yig‘ilg‘on kirlarni artib, qo‘limizg‘a biror narsalarni ushlatub, harakat – ish, o‘yinlarni o‘rgatdi.

g‘izo – ovqat
rasamat – ulush
shona – taroq
xilm – kasallik
davvor – aylanuvchi

Muallif shu o‘rinda mashhur shaxslar nomlarini nima maqsadda keltiradi?

?

O‘shal ono o‘zi o‘rgatgan harakatlar chaqaloqdin voqe’ bo‘lganda, kamoli xushnudlikdan boz bolani qaynoq va yumshoq ko‘ksiga bosub, hidlab, bo‘salar qilur. Go‘yo boladin sodir bo‘lg‘on harakatlar bolani hushyor, botirlig‘idin bo‘lubdur va go‘yo onog‘a bir ulug‘ foydaliq mehnat qilib beribdur.

Hangomiki, yo yig‘lasa, yo emmoq va uxlamoq va harakatda qitmoli sust bo‘lsa, bechora ona borliq majoli va harakati ila bola tilini o‘qub, andog‘i lakotliq vajhini bilish tadorikini izlagay va agar bolasig‘a biror ayb (osib) va yo dard iloshgon bo‘lsa, iloj boricha bolani muolaja qilish chorasini izlar. Agar ilojini topsa, ul og‘ruqni bola badanidin tortub olish, to hatto agar ul og‘riq bolag‘a musallat o‘lg‘on bo‘lsa, ul holda dardni tortub olib, o‘zi tortub, onoliq-dardkashliq vazifasini ado etmoqqa tayyordur.

lakotlik – sustlik
vajh – sabab
tadorik – chora, iloj
musallat – g‘olib bo‘luvchi

Muallif onaning qanday sifatlarini keltirmoqda?

?

Bas, shundog‘ mehribon ono ham mazkur farqi qarolar jumlasidandur. Bul farqi qarolar nafaqat bolani tug‘ub tarbiyat eturlar, balki bolani

egnig‘a iloji qilib yaxshi va toza yarashuqlik libos tikib kiyirmoq va yaxshi laziz ovqot yedurmoq, o‘ynatmoq va kuldurmoq tadoriklarini qilur. Bular ham farqi qarolar jumlasidandurlar.

G‘AZAL

Muhabbat birla sevgil, san, hama farqi qarolarki,
Ayol deb yerga urma, xo‘rlama farqi qarolarni.

Chin idrok o‘lsa sanda, ul ono, singil erur sanga,
Qilib nomusini poymol, urma farqi qarolarni. <...>

Bu farqi qarolarni husn-jamol bobida ta’rif etgonda, fikr qilmoq lozimki, bu sohib jamollar, albatta, har qaysimizg‘a ono va hamshiradurlar va biz shundog‘ kelishgon, pichimlik, xushqomat, xushro‘y insonni farzandidurmiz.

Farqi qarolarni, qaro soch, qaro ko‘z, qaro xol va lola yuz, la’ldek lab, sadafdek tish va hokazolar ila tasvir etgonda, ularda o‘z husni jamollarig‘a yaroshgon aql, farosat, himmat va g‘ayrat, xizmat va mehnatlari ham bordurki, ul fazilatlar ila birga yodlamoq lozimdur.

G‘AZAL

Go‘zallik bobida yetib kamola husning, ey nozir,
Shijoat, aql-u hush birla bo‘lubdursan ajab mohir.

Sening husningni ko‘rgonda bu mehrim ming bo‘lur, ey moh,
Hayotim gulshanida qancha gul, rayhon muhayyodur.

Jamoling partavida shod o‘ldim tarbiyat sandin,
Farosat, g‘ayratim el xizmatig‘a aylading zohir.

Chunon mamnun erurman lafzi shirin yor ila hamdam
Ki, qilg‘onda takallum, har nachuk g‘amdin qilur tohir.

Ne xush baxtki, erurman shu go‘zal inson farzandi,
Bu Anbar husni ham aqli ilan ash’orig‘a qodir.

partav – yog‘du, nur
tohir – pok, pokiza
novak – kiprik
shikof – yoriq, darz; jarohat

Ayollarni va sohibjamollarni aksar shoirlar jon oluvchi, qatl etuvchi, qaro novaklarini tiyri farron tarzida otub, oshiq bag‘rini shikof qilur va lolagun yuzi, (labi) la’l monand, yuzi oshiftalar dilini kabob etar va chiroyini yoshurib, junun yo‘lig‘a solur va yuzini yoshurib va g‘ayrlar ila do‘st bo‘lub, yorig‘a bevafoliq qilur, deyurlar. Bu mulohiza va tafsilot mutlaqo ma’shuqalar sha’nig‘a bo‘htondur. Yaqin bilmoq lozimki, ayollar erlarg‘a ko‘ra sodda, rahmdil va qo‘rqoq – gibrur bo‘lur, vaholonki, go‘zallar borahm, husn latofatlarig‘a mos mehr-u shafqat va g‘ayrat, himmat egasidurlar, hech vaqt shundog‘ jamol va kamol ila bevafo va berahm jafokori

tiyrandoz, o‘t yoquvchi, hatto bir zolimi ajalpesha bo‘lub tasvirlanishi ular sha’nig‘a beasos tuhmat erur.

Oqil va donishmand bilurki, nechand sohibjamol ma’shuqalar o‘z oshiftalarig‘a mehr-shafqat takovarig‘a suvor erdilar va oshiq tarafig‘a borishg‘a va ani ko‘nglini topishg‘a, jafo emas, vafo qilishg‘a tayyor erdilar. Misol, Layli Majnung‘a barobar oshifta erdi, Shirin Farhodg‘a chin muhabbatda bag‘ri kabob erdi va boshqa ko‘p ma’shuqalar ham o‘z oshiqlarig‘a subh-u shom xayrixoh, vafodor, chin do‘st, oshifta erdilar.

Ma’shuqalar vaqt topub, oshiq nazarig‘a namoyon bo‘lish va toza libosda muloqot qilishi, oshiqni o‘z jamolidin andak bahramand etishi va taskini xotir berishi uchundir va biroz ko‘runib, boz g‘oyib bo‘lishi, shu sababdinki, agar ma’shuqa oshiq nazarida uzoq tursa, bu fursatda ag‘yor paydo bo‘lub, arog‘a ig‘vo solub, natijada ma’shuqani vaqti noxush va diydor ko‘rsatish imkoniyatidin mahrum etar va bu aroda uzoq ayriliq paydo bo‘lub, chin oshiq hayotida qasdi vahm va xavf topilg‘oy.

Bu hikmatlardin voqif o‘lmay va yorlar vafodorlig‘idin, sohibjamollar aqli kamolidin va ma’shuqalar shafqatidin ko‘z yumub, alarni rango-rang tuhmat nangiga giriftor qilish, alarni bevafo, beparvo, jafokor, zolim tarzida ko‘rsatmoq alarni orazidagi yaxshi fazilatlarini inkor etmoqdur.

tiyrandoz – o‘q otuvchi
takovar – yo‘rg‘a ot
suvor – minish

nang – or, uyat, nomus

Muallif nega avvalgi adabiyot namunalarida yaratilgan ayollar obrazi tasviriga qarshi chiqmoqda?

?

G‘AZAL

Ko‘zing och, zulmat ichra qolg‘on ul farqi qarolardur,
Firoq-u oh-u dardg‘a bezabon baxti qarolardur.

Tamomi farzand o‘sturdi, boqib voyaga yetkurdi,
Suyub bag‘rig‘a bosqon mehribon, mushfiq onolardur.

Alarni nomig‘a tuhmat qilub, san ko‘b jafo qilma,
Onang singori odam ahlig‘a ahli vafolardur.

Agar san o‘z onangni hurmat etsang, elni hurmat et
Ki, borcha nozaninlar el ichida mohliqolardur.

Onang, singling sanga mushfiq esa, sonsiz ayol ichra,
Yaqin bilki, tomomisi chunin mehri giyolardur.

Daraxti bosamardek, gullagan mevasi pishgondek,
Necha farzand onosi eng ulug‘ koni ziyolardur.

Bu baxtdin mamnun-u shodlik ila husni jilo bergay,
Bu Anbardek g‘azal kuylab o‘tgon sohib navolardur.

Ey birodar, sen bilursanki, barcha farqi qarolar o‘z onang va singling kabi farzand tug‘ub va tarbiyat qilgondurlar, alarni husnini, albatta, ona va singil qatorida mehr-u vafo, nur-u ziyo manbayi va chin muhabbat egasi va hech zamon va hech jong‘a jafo va zulmni ravo ko‘rmagondurlar.

Bu zamoni pur tolonda zaifalar kunji kulbada yoturlar va ichkari hovlida og‘ir xizmatlar ilan giriftor erurlarki, alar ostonadin tashqari qadam qo‘ymoq huquqig‘a ega emasdurlarki, bu insoniyat olamig‘a ma’lumdir.

Hukm shundog‘durki, zaifalar agar ota-ona va qarindoshlarini ko‘rmoq uchun borgon vaqtida eski libos kiyib, qo‘lig‘a aso ushlab, eski paranji yopunub, bukchayib, albatta, qari kampir holida bo‘lub ko‘chag‘a chiqishi mumkindur. Nogahon ko‘ngli buzuq, behayo erkaklar ko‘z olayturub, zaifaga ozor berurlar, shul sababdin qiz-juvonlar ko‘chag‘a yasanib chiqmoqlari man’ etilur. <...>

kunj – chet
pur – to‘la
tolon – o‘lja

G‘AZAL

Ahli din ichra faqir-u benavolar bir taraf,
Mol-dunyo tobgan ul boy, mullolar bir taraf.

Din, shariat hukmini tutgon halol rizqi ilan,
Har adashgonni qilon hushyor asolar bir taraf.

Bebizoatlarg‘a berib taqvo yo‘lini har mudom,
O‘zlariga keng tonib olgon fatvolar bir taraf.

Mehnat ahli ayshdin mahrum, ma’yus kun ko‘rar,
Bir g‘ujum gumrohlar ujb-u riyolar bir taraf.

Har ayol, qiz hurmatini hasb-u hol aylab, hamisha
Aql-u vijdon bobida ham bebaholar bir taraf.

Davlatig‘a ko‘b bino qo‘yg‘on pardoz ahli-yu,
Oq dil, oq yuz, qaro ko‘z mahliqolar bir taraf.

Bu ikki toifadin ham chetda qolg‘on muztarib
Husni gul Anbar kabi farqi qarolar bir taraf.

bebizoat – bisotsiz, mulksiz
ujb – manmanlik, g‘urur
muztarib – iztirobda

<...> Ammo zamonlari kelurki, albatta, bu zamonlar bir ajib afsona bo‘lur va bu zamondagi xusumat yo tuhmat o‘tidin nishon qolmas va har nechuk xusumatchilarg‘a omon qolmas.

Bir zamoni bo‘lurki, kamina mushtipar kabi mazlumalar oliyjanob, orzu qilgondin ziyoda bo‘lur, tamomi mazlumalar yaxshi kun ko‘rub, yaxshi libos kiyib, tinch ro‘zgor o‘tkozgon sabab, alarni avlodi xatarsiz tavallud o‘lub, yaxshi parvarish topub, xushro‘y va xushxo‘y, botamiz va vatando‘st, serg‘ayrat-u mehnatdo‘st bo‘lib kamolga yetar. Ul zamonda borcha xalq sohibjamol bo‘lur.

Shul vajhdinki, el mehnatni qadr-u qimmatig‘a yetub, mehnat ahlini baland rutbada ko‘rar, albatta, mehnat va el hurmati odam husn jilosin chiroyida lojaram jilo bergusi, ul zamonda ayollar har qancha husn va latofat ila ozod yururlar va alarg‘a hech kishi ola ko‘z ila yomon nazar solmas, sababki, har erkak o‘z suyar yori va sohibjamol vafodori ilan mamnun ro‘zg‘or kechirg‘ay.

Ul zamonda odam axloqi ul darajag‘a yeturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va har er bitta xotun ila farog‘atvor kun kechirg‘ay. Va o‘shol zamonda ma’lum o‘lurki, bu farqi qaro qiz va ayollarni kayfiyatida ma’lum bo‘lurlar va qay daraja aql egasi va qay qobiliyat va mehnat qilurlar.

Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig‘a muyassar bo‘lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safig‘a doxil bo‘lurlar, alar g‘ayrat va mehnatda erlarg‘a hamfo va yovar bo‘lub, obro‘ topib, hurmat va ikromg‘a sazovor bo‘lular.

rutba – unvon, martaba

lojaram – shuning uchun; shaksiz

yovar – yordamchi; do‘st

Shoira bugungi hayotimizga daxldor haqiqatlarni bashorat qilishda qanday intuitsiyalarga (sezgilarga) suyangan deb o‘ylaysiz?

?

Layli ishq yo‘lida ovora va Majnun yo‘lida nazzora qilub jon berdi. Kelgusi Laylilar el xizmatida obro‘ topub, suygon yorlarini majnun qilmay, vafodor bo‘lurlar. Shirin mamlakat obshorlig‘i va obodlig‘i borasida ko‘shish etib, ani munodiysig‘a quloq solg‘on va bu xizmatni ijro etib, Shirin visolig‘a yetmoq orzusidag‘i chin muhabbatlik Farhodga ko‘ngul berdi. Lekin ul zamon ishq g‘oratgarlari alarni yo‘lig‘a rahna solub, badxohlik ila Farhodga jabr tiyrini otdilar va Shirinni Farhod oqizg‘on ishq anhorig‘a g‘arq qildilar, meni ham beqarorliq ila istiqbol etkon zamonim yorim yo‘lida halok bo‘lmog‘im yaqin ko‘rinadur.


nazzora – nazar, qarash

obshor – serob

munodiy – nido beruvchi, xabar qiluvchi

g‘oratgar – talonchi

Zamoni kelurki, Shirin fikridin ziyodaroq obshor va obodliq manzaralar paydo bo‘lur va har Farhod suygan yoridin mehnat mukofotini olur va visolig‘a muyassar bo‘lur. Va ul zamonda mani hamvatan va avlodlarim mamnun kun ko‘rub, kaminani yodg‘a olurlar.



Paranji kiygan ayol, Samarqand. Sergey Prokudin-Gorskiy fotografiyasi, XX asr boshi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asarda shoira tilidan aytilgan “qaro baxt”, “qaro niyat”, “qaro fikr” deganda siz nimalarni tushunasiz? Qora rang ijobiy ma’noni ham anglatishi mumkinmi? (Masalan, Qoraxoniylar davlatida qora rang buyuklik ramzi hisoblangan.)

2. Asarda onaning farzand oldidagi burchi haqidagi qarashlarni ham o‘qidingiz. Ayting-chi, Anbar Otinning ona, ayol, opa-singil haqidagi qarashlarida qanday o‘ziga xosliklar mavjud? Bu qarashlar siz avval o‘qigan ona haqidagi ijod namunalaridan qay jihatlari bilan bilan farq qiladi?

3. Ayollar turmagiga nisbatan qo‘llangan “farq” so‘zida matnda qayd etilmagan yana qanday ma’nolarni ko‘rish mumkin? “Farq” va “taraf” so‘zlari orqali Anbar Otin nimalarga ishora qilmoqda? Shoira “farqi qarolar” deganda nimani yoki kimni nazarda tutyapti?

4. Berilgan parchada qaysi satrlar sizni hayajonga soldi? Qaysi satrlarni (jumlalarni) siz shior sifatida qo‘llagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

Anbar Otin kasallik sabab bir joyda yotib qolgan vaqtlarida ham hayotdan umidini uzmagan, tushkunlikka tushmagan va irodasi, matonati sabab hayotidagi ko‘plab “imkonsiz”liklarni yengib o‘tgan. Siz hayotingizda boshqalar nazarida imkonsiz ishlarni qila olishingiz mumkinligini isbotlaganmisiz? Bunday qilishga sizni nima majbur qilgan? Bunga boshqalarning javobi qanday bo‘lgan? Hayotingizda sodir bo‘lgan mana shunday voqea haqida hikoya yozing va sinfdagi eng yaqin do‘stingizga o‘qib bering.

IJODIY ISH

“Hayot falsafasi” ranglar orqali ifodalangan yana qanday asarlarni bilasiz? Asar asosida o‘z hayot falsafangizni yarating. Kelajakda hayotingizda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni ranglar orqali ifodalang.

“Risolayi falsafayi siyohon” asarini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.



“Nodirabegim shoiralar bilan”.
Qutlug‘ Basharov ishlagan surat

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI O‘ZBEK ADABIYOTI (1850–1910)

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– ushbu davr adabiyotidagi janrlar takomilini tadqiq qilamiz.

Eslang:
XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda qanday ijtimoiy-siyosiy muhit hukmron edi?

O‘ylab ko‘ring:
Davrdagi o‘zgarishlar badiiy adabiyotga qanday ta’sir qilgan deb o‘ylaysiz?

XIX asr Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayotida keskin o‘zgarishlarga yuz tutgan, yangicha estetik qarashlar shakllanishiga zamin hozirlagan davr sifatida tarixda qoldi. Bunday o‘zgarishlar Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi va Yevropa madaniyatining mahalliy o‘lkaga ta’siri, milliy ozodlik harakatlari bilan bog‘liq edi. Ayni paytda bu davrdagi yangi tarixiy sharoit mavzu-mundarijasi, shakl va mazmuni, g‘oyaviy-badiiy jihatidan an’anaviy mumtoz so‘z san’atidan farq qiladigan, yangicha yo‘nalishdagi adabiyotning tug‘ilishi va shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qildi.



Kitob do‘koni.
Samarqand,
XIX asr ikkinchi yarmi

O‘ylab ko‘ring:
Rus mustamlakasi qay jihatdan yangi yo‘nalishdagi adabiyotning paydo bo‘lishiga turtki berishi mumkin?

Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar kabi oddiy xalq orasidan chiqqan ziyolilar davr adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Bu davr adabiyotining eng muhim g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri ma’rifatparvarlik edi. Ziyolilar ma’rifatni taraqqiyotning kaliti, ozod turmushning asosi deb bildilar va millatni savodli, ilmli qilish orqali uni jaholat hamda zulmdan qutqarish, taraqqiyotga, ozod kelajakka olib chiqishga harakat qildilar. Jumladan, Furqat “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Toshkent shahrida bo‘lg‘on nag‘ma bazmi xususida”, uch qismdan iborat “Vistavka xususida” kabi asarlarida, Avaz O‘tar “Maktab”, “Til” kabi she’rlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi va millatni ilmli bo‘lishga chaqirdilar.

Jahon bast-u kushodi – ilm birla!
Nadur dilni murodi – ilm birla!

Ko‘ngullarni sururi – ilmdandur!
Ko‘rar ko‘zlarni nuri – ilmdandur!

Kerak har ilmdan bo‘lmak xabardor,
Bo‘lur har qaysi o‘z vaqtida darkor!

Furqat

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz, ko‘ngluni shod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Avaz O‘tar

O‘ylab ko‘ring:
Ma’rifatparvarlik adabiyotini qanday tasavvur qilasiz? Ma’rifat va adabiyot o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?



Chor imperiyasining mustamlaka siyosati va mahalliy boylarning zulmidan ezilgan xalqning og‘ir kechmishi, adolatsizlik, zo‘ravonlik, nochor kambag‘allarning toptalgan huquqidan norozilik kayfiyati davr adabiyotining yana bir yetakchi mavzusiga aylandi. Muqimiyning “Hapalak qishlog‘i to‘g‘risinda”, “Maskovchi boy ta’rifida”, “Tanobchilar”, Avaz O‘tarning “Xalq”, “Amaldorlarga”, “Ulamolarga xitob”, Zavqiyning “Qahatchilar”, “Qarz”, “Farg‘ona”, “Muncha ko‘p”, “Ajab zamonadur” kabi asarlarida chor mustamlakasi va mahalliy zo‘ravonlar hukmronligi ostidagi og‘ir siyosiy-ijtimoiy turmushning real hayotiy lavhalari ifoda etilgan.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog‘men,
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.

Sarig‘ oltun kasrati ko‘ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo‘lsa g‘olib, o‘zga savdo tortadur.

Furqat

Zolim falak bisotida ozor muncha ko‘p!
Inson sharafli nomida xor muncha ko‘p!
Har ko‘chalarda qashshoq ila zor muncha ko‘p!
Tarxi jahon binosida badkor muncha ko‘p!
Ho‘qand aro baloga giriftor muncha ko‘p!

Zavqiy

Ko‘chti xalqi yopinib, ko‘hna, uvoda to‘nini,
Charxdin o‘tkarishib oh-u fig‘on-u unini,
Solmasun dushmana ham boshina kelgan kunini.
Kecha nogah eshitib shuhrati tillo pulini,
Hapalak qo‘rqishidin uchti misoli kapalak.

Muqimiy

Davr ijodkorlari vatanga muhabbat, ozodlik mavzulariga ham murojaat qilib, betakror ijod namunalarini yaratdilar. Jumladan, Furqat lirikasida mustamlaka sabab bo‘g‘ilgan inson erki, ozodligi turli xil obrazlar vositasida badiiy talqin qilingan bo‘lsa, Avaz O‘tar hurriyat, tenglik, taraqqiyot masalalariga murojaat qiladi.

Sayding qo‘ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek,
O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘tidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

Furqat

Siyosat mahv bo‘ldi, yashasun olamda hurriyat,
Bari el ittifoq ila jahonni aylasun jannat.
Taraqqiy aylamak lozim jahon ahli bo‘lib bir tan,
Bilurga barcha ilm ila hunarni yashasun millat.

Avaz O‘tar

Tahlil qiling:
Yuqorida keltirilgan she’rlar qaysi jihatlari bilan oldingi davrlarda yaratilgan mumtoz adabiyot namunalaridan farq qiladi? Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Avaz O‘tar she’rlarida qanday umumiy va farqli jihatlarni ko‘rishimiz mumkin?

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot vakillari asosan lirik turning g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy kabi janrlarida ijod qildilar. Shu bilan birga, hajviyot – satira va yumor davr adabiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Masalan, Zavqiy “Ta’rifi kalish”, “Pashshalar”, “Otim” kabi asarlarida zamonasidagi nodon kishilar va ularning tabiatidagi salbiy odatlarini, kundalik hayotdagi kamchiliklarni, o‘ziga tanish voqea-hodisalarni yengil kulgi ostiga olish orqali kitobxonda quvnoq kayfiyat uyg‘otsa, Muqimiyning “Tanobchilar”, “Voqeayi ko‘r Ashurboy hoji”, “Maskovchi boy ta’rifida” kabi hajviyalarida davrdagi adolatsizliklar, ijtimoiy tengsizlik qattiq tanqid qilindi.



Toshkent, XIX asr ikkinchi yarmi

Bo‘ldi dushman ko‘nglidek, yo‘q zarra odamgarchilik,
Borg‘ali paykar boshig‘a zor qildi pashshalar.
Ayladi Zavqiy raqam zarra magasdin shikvalar,
Garchi mehmon erdi, zulm izhor qildi pashshalar.

Zavqiy

Haqorat qilingan kishilar qolib,
Topib boy so‘zi munda zo‘r e’tibor.
Qachon kambag‘alning so‘zi o‘tar?
Agar bo‘lsa aqchang – so‘zing zulfiqor.

Muqimiy

Davr adabiyotida **sayohatnoma** yangi janr sifatida paydo bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan sayohatnomalarning o‘ziga xos xususiyatlari ularda oddiy xalq hayotining real lavhalari aks etishi, mustamlaka tuzumining eng dolzarb muammolari tanqidiy tahlili aks etganida ko‘rinadi. Muqimiyning murabba shaklida yozilgan “Sayohatnoma”si g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bu janrning original namunasi hisoblanadi.



Samarqand, XIX asr ikkinchi yarmi. Sergey Prokudin-Gorskiy fotografiyasi

“Oq yer”dan o‘tdim, boylari –
Oliy imorat joylari,
Mehmonsiz o‘tkay oylari,
Kelsa birov nochor ekan. ...

Mingboshisi so‘finamo,
Tasbeh-u bo‘ynida rido,
Cho‘qub qochar zog‘i alo,
Bir dog‘uli ayyor ekan.

Tahlil qiling:
Badiiy adabiyotda yangi janrlarning paydo bo‘lishini yana qanday omillar bilan bog‘lash mumkin? Sizningcha, qaysi janrlardagi asarlar xalq ruhiyatiga yaqin bo‘lgan? Nima uchun?

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mumtoz adabiyot an’analari bilan bir qatorda shakl va mazmun, badiiy-g‘oyaviy jihatdan yangi, o‘ziga xos yo‘nalishdagi adabiyotning shakllanganini kuzatish mumkin. Ijodkorlar Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarni, o‘lkaga kirib kelgan Yevropa madaniyatining ijobiy va salbiy jihatlarini, xalqni qiynayotgan muammolarni o‘z asarlarida haqqoniy aks ettirdilar. Bu davr adabiyoti xalq turmush tarzi bilan ham bog‘liq bo‘lgani sababli uning asosini xalqchillik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari tashkil etdi va jadid adabiyoti deb nomlangan badiiy-estetik jihatdan yana bir yangi adabiyotning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.



Buxorodagi madrasa, XIX asr ikkinchi yarmi. Sergey Prokudin-Gorskiy fotografiyasi

MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY (1850–1903). LIRIKA. HAJVIYOT. “SAYOHATNOMA”

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– Muqimiy lirikasi va satirasiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

Muallif haqida



XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida shakllangan yangi o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri Muhammad Aminxo‘ja (taxallusi – Muqimiy, “muqim” – “bir joyda doimiy turuvchi” so‘zidan) 1850-yilda Qo‘qon shahrida novvoy oilasida tug‘ilgan. Muqimiyning onasi davrning o‘qimishli, ziyoli ayollaridan edi va onasi aytib bergan ertaklar, naqllar va qo‘shiqlar bo‘lajak ijodkorda adabiyotga mehr uyg‘otdi. Muhammad Aminxo‘ja 10 yoshda birinchi she’rini yozdi.

Muqimiy dastlab maktabda, keyin Qo‘qon va Buxorodagi madrasalarda tahsil oldi. Buxoro shoirning ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Muqimiy faoliyati davomida mirzalik (yer o‘lchovchi), pattachilik kabi kasblar bilan shug‘ullanib, oddiy xalqning ayanchli turmush tarzi, qishloqlarning abgor ahvoli bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi va ularni o‘z asarlarida aks ettirdi. U Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi ijodkorlar qatorida an’anaviy o‘zbek mumtoz adabiyotini shakl va mazmun jihatdan boyitdi: sayohatnoma janrining shakllanishiga hissa qo‘shdi, satira va yumor yo‘nalishlarida o‘ziga xos asarlar yaratib, o‘zbek adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Umri davomida og‘ir sharoitda, muhtojlikda, sarson-sargardonlikda yashagan shoir og‘ir dardga chalinib, 1903-yilda 53 yoshida vafot etdi.

MUQIMIY LIRIKASI

Muqimiy o‘zbek mumtoz adabiyotining an’anaviy g‘azal, murabba, muxammas singari janrlarida barakali ijod qilish bilan birga, adabiyotga yangi g‘oyaviy yo‘nalishlar olib kirgan ijodkorlardan biri edi.

O‘ylab ko‘ring:
Avvalgi darslarimizda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ijod qilgan adabiyot vakillari bilan qisman tanishgan edik. Sizningcha, Muqimiy ijodi zamondosh shoirlar ijodidan qay jihatlari bilan farq qilgan bo‘lishi mumkin? Davr adabiyoti haqidagi umumiy tasavvurlaringiz asosida uning ijodiga xos qanday xususiyatlarni ko‘rsatgan bo‘lardingiz?

* * *

Ohkim, afsus, emas har ishda rahbar toleim,
Vojgundur, imtihon qildimki, aksar toleim.

vojgun – teskari

Nega lirik qahramon o‘z toleidan nolimoqda?

Yuz tarafdin yetkurub gardi kudurat, zangi g‘am,
Aylagay oinayi tab’im mukaddar toleim.

kudurat – g‘am, alam
mukaddar – kirlangan

Tolening zang bosishini qanday tasavvur qilasiz? Shoir “gardi kudurat”, “zangi g‘am” deganda nima(lar)ni nazarda tutmoqda?

Har necha qilsam tavallo – zori qilmas, iltifot,
Ro‘yigardon teskari, tobora badtar toleim.

ro‘yigardon – yuzi burilgan

Lirik qahramon qancha tavallo qilsa ham toleining battar yomonlashishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

Ro‘zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,
Bo‘lsa ravshan, bormukin tadbiri digar toleim?

digar – boshqa

Shoir baxtining ravshan bo‘lishi uchun qanday tadbir izlamoqda? Bu tadbir unga yordam bera oladi deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?

Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong‘a salom,
Daf’atan ikki qulog‘ini qilur kar, toleim.

Muqimiy uchun “qulog‘ini kar qilgan” kim bo‘lishi mumkin? Nega u shoirni eshitishni istamaydi?

Qaysi so‘zlar va so‘z birikmalari she’r mazmunini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi? Nima uchun?

* * *

Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtog‘lar.

Nega shoir aynan navbahorda – yangi bahorda o‘rtoqlarini suhbatga chorlayapti?

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila,
O‘ynashib, gohe tabiatni qilaylik chog‘lar.

mahfil – majlis, anjuman
ahbob – sevimli, sirdosh do‘st

Inson qanday qilib tabiatni chog‘ qilishi mumkin? Shoir “tiriklik ulfat-u ahbobi” deganda kimlarni nazarda tutmoqda?

Rux ochib ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo‘lmay sog‘lar.

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.

ahli tamiz – aqlli, dono kishilar

“Ahli tamiz”ning xor bo‘lish sabablarini qanday izohlaysiz? Bulbul kim? Zog‘-chi? Dono kishilar xor bo‘lmasligi, zog‘lar “bulbul oshyonini” egallamasligi uchun qanday yo‘l tutilmog‘i lozim?

Malham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,
Choraye qilmoqdin o‘zga, ustig‘a tirnog‘lar.

Tobakay mundog‘ malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko‘z tutgin emdi senga bo‘lsun tog‘lar.

Shoirning tabiat tasviriga ijtimoiy ma’noni singdirishi sabablari nimada? Matnda “tirnoqlar”, “tog‘lar” so‘zlari qanday g‘oyaviy mazmun tashimoqda?

MUQIMIY SATIRASI: “SAYLOV”

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni istilo qilgandan keyin joriy etgan yangiliklaridan biri mingboshi, yuzboshi, qozi singari mansablarga saylov tizimining joriy qilinishi edi. Muqimiy ushbu she’rining oxirida “bu saylov shu sanada 1310-hijriyda edi” ma’lumotining keltirishidan uning 1892-yilgi saylovlarga bag‘ishlanganini anglash mumkin.

* * *

Qachon kim bo‘ldi hakim amri birlan ibtido saylov,
Amaldor ahli boshig‘a bo‘lib keldi balo saylov.

ibtido – boshlanish

Nega bu saylovlar “amaldorlar boshig‘a balo bo‘lib keldi”?

Teraklar bargidek titrab, jamii qozi – mingboshi
Degoylarkim: “Yuzini teskari qil, ey xudo, saylov”.

Sochib qarzi-qavola, pul ko‘tarib, istayub mansab,
Bo‘lolmay ko‘p kishini sindirub, qildi gado saylov.

Qozi-mingboshilarning saylov oldidan terak barglaridek titrashiga sabab nima deb o‘ylaysiz? Nega ular amal kursisiga o‘tirish uchun katta pul sarflashga ham tayyor?

Agar ming xatmi Qur’on etsalar, qo‘ylar so‘yub arzir,
O‘lumdin qoldi qolganlar, bo‘lib erdi vabo saylov.

Nima sababdan Muqimiy saylovni vaboga o‘xshatmoqda?

Olurg‘a pora ellikboshilar mingboshi – qozidin,
Ijobat bo‘ldi – bo‘ldi aylar erdilar duo saylov.

ijobat – qabul

Muqimiy amaldorlar “duolari ijobati”ni pora bilan bog‘laganlarida qanday haqiqatni achchiq kulgi ostiga olmoqda?

Taloshi joh aylab, ot chopib, olmay dame orom,
Musulmonlarning rangin ayladi chun kahrabo saylov.

Muqimiy, og‘ridi boshlar xaloyiq guft-u go‘yidin,
Shahar tinchib qolurdi bo‘lsa-chi emdi ado saylov.

guft-u go‘y – gap-so‘z

Nega saylov oddiy xalq yuzini “chun kahrabo” qilmoqda?


MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Saylov” satirasida Muqimiy achchiq kulgiga olgan eng muhim masala nima? Demokratiyaning muhim elementlaridan biri bo‘lgan saylov jarayoniga shoirning bunday munosabati sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

2. She’rda mansabdor shaxslarning asl qiyofasini ochib berishda qaysi detallar muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nima uchun?

3. Mansab kursisi uchun bor-budidan ajralishga tayyor mahalliy amaldorlarning asl fojiasi nima edi? Bunda mustamlaka siyosatining ham ta’siri bor deb o‘ylaysizmi?

4. Muqimiy davri va bugungi kun saylov tizimi o‘rtasida qanday farqlar bor? Bugungi kunda saylov jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o‘rin tutadi?



Chor Rossiyasi davrida Qo‘qon

“SAYOHATNOMA”DAN: QO‘QONDAN SHOHIMARDONGA

Sayohatnoma adabiy janrlardan biri bo‘lib, unda yozuvchining sayohat taassurotlari aks etadi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari adabiyotida Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy sayohatnoma janrini boshlab berdi. Uning she’riy “Sayohatnoma”sida o‘zi yashab ijod etgan davr ijtimoiy hayotiga oid eng muhim muammolarning tanqidiy tahlili aks etgan.

* * *

Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak bag‘rimni xun,
Ko‘rdiki, bir ahli funun –
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo‘lsun otim,
Goh sayr ham darkor ekan.

“O‘ltarma”ga qildim yurush,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Bir dam qiziq bozor ekan.

Bir ma’raka ko‘rdim butun,
Ja’mi yopingan boshga to‘n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun,
Voiz so‘zin tinglor ekan.

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir “Qo‘shtegirmon”lik kishi,
Xo‘ja Iso badkor ekan.

Mag‘rur, xasis-u besh-u kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdan ham,
Hoji o‘zi murdor ekan.

garduni dun – pastkash dunyo
xun – qon
ahli funun – ilm ahli
kajraftor – teskari yuradigan
O‘ltarma – hozirgi Farg‘ona viloyatidagi qishloq nomi
voiz – va’z aytuvchi, notiq
badkor – yomon qiliqli
besh-u kam – ko‘p-u oz
murdor – harom ishdan qaytmaydigan, nopok

* * *

“Do‘rmancha”ga ketdim o‘tub,
Yoqamni har soat tutub,
Yotdim ul oqshom g‘am yutub,
Dashti qaroqchizor ekan.

Unda bo‘lus G‘ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi, dedi,
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Boz izdihomi voizi,
Badkayf, ochilmas ko‘zi.
Yuqori boshidin tizi,
Ermaklari ko‘knor ekan.

So‘rsam, dedilar: “Bo‘rbaliq”,
Birmuncha echkilar ariq,
Kelsa kishi yeyar tariq,
Shom-u sahar tayyor ekan.

“Oq yer”din o‘tdim, boylari –
Oliy imorat joylari,
Mehmonsiz o‘tkay oylari,
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda “Roshidon”,
Firdavs bog‘idin nishon,
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gul-u gulzor ekan.

Ma’yus bordim “Zohidon”,
Bir ko‘cha ketguncha do‘kon,
Sho‘x odami, ichmay piyon,
Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so‘rilar,
Bo‘rlangan o‘choq-mo‘rilar,
Tab’ing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.

“Oltiariq” qursin o‘shal,
Sellarda qoldim bir mahal,
Bo‘ldim ivib, yomg‘urda shal,
To‘n shilta, ho‘l ezor ekan.

Mingboshisi so‘finamo,
Tasbeh-u bo‘ynida rido,
Cho‘qub qochar zog‘i alo
Bir dog‘uli ayyor ekan.

bo‘lus – volost (tuman) boshlig‘i
boz – yana
izdihom – yig‘in
firdavs – jannat
obi ravon – oqar suv
ezor – ishton
rido – shayxlar yopinchig‘i

dushvor – qiyin
maqomi dilfizo – dilni xush qiluvchi manzil
obi safo – tiniq suv
sebarg – ko‘k maysa
obishor – serob

Xayr-u saxo vajhiga kar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Kelsa gadoy nogah agar,
Bir non chiqish dushvor ekan.

Ko‘rdim chuqur “Chimyon” erur,
Yer ostida zindon erur.
Dushmanlari mehmon erur,
Bog‘i uning tutzor ekan.

“Vodil” maqomi dilfizo
Ko‘chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga obishor ekan.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Muqimiyning sayohat qilish va “Sayohatnoma” yozishdan maqsadi nima edi deb o‘ylaysiz? “Sayohatnoma”dan olingan mazkur parchada muallif qanday g‘oya(lar)ni ilgari surmoqda?

2. Mazkur parchada qanday kayfiyatni (xushchaqchaqlik, mahzunlik) kuzatish mumkin? Nega u “garduni dun”ning “ahli funun”ga teskari yurishi bilan boshlanmoqda? Fikringizni matn asosida dalillang.

3. Amaldorlar qanday qiyofalarda gavdalangan? Ularning ismlarini keltirishdan qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?

4. Ushbu parchada sayohatnoma janriga xos qanday muhim xususiyatlarni kuzatdingiz? Fikringizni matn asosida dalillang.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Uch guruhga bo‘lining.

1-guruh. “Sayohatnoma”da shoir obrazi aks etgan o‘rinlarni toping va ularni muallifning hayot yo‘li bilan bog‘lab tahlil qiling.

2-guruh. Asardan amaldorlarning fosh etilishi bilan bog‘liq o‘rinlarni toping va ularni Muqimiy davridagi ijtimoiy muhit bilan bog‘liqlikda izohlang.

3-guruh. Asarda joy nomlari va tabiat manzaralari tasvirlangan o‘rinlarni toping hamda ularni rasmlarda jonlantiring. Muqimiy tasviri asosida joy nomlariga xos xususiyatlarni tasniflang.

IJODIY ISH

Hozirgi kunda ko‘pchilik o‘z sayohatnomalarini internetda, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy blog (inglizcha “web log” – “internet jurnal” so‘zidan) yoki travelog (inglizcha “travel log” – “sayohat jurnali” so‘zidan) shaklida yuritadi. Internet manbalaridan bunday zamonaviy sayohatnomalar namunalarini toping va Muqimiy “Sayohatnoma”si bilan solishtiring. Shaxsiy tajribangiz asosida sayohatnoma yozing.

SATIRA

Satirik asarlarda hayotdagi qusurlar, jamiyatdagi illatlar, salbiy xususiyatga ega kishilar ochiqdan ochiq ayovsiz, achchiq kulgi orqali tanqid qilinadi. Bunday asarlarda kinoya usuli yetakchilik qiladi. Satirik obrazlar kishida salbiy tuyg‘ularni uyg‘otadi. O‘zbek adabiyotida satiraning ilk namunalari dastlab xalq og‘zaki ijodida (masalan, Nasriddin Afandi haqidagi latifalarda) yaratilgan va keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. Turdi Farog‘iy, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy singari ijodkorlar satira janrida asarlar yaratganlar. Keyinchalik Hamza, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi adiblar o‘zbek satirachiligi rivojiga muhim hissa qo‘shdilar.

Muqimiyning biz mutolaa qilgan asarlaridan satira elementlarini toping. Bu asarlarda muallif qanday illatlarni tanqid qilmoqda? O‘quvchida bu illatlarga nisbatan salbiy munosabat uyg‘otish uchun shoir qanday badiiy vositalardan foydalanmoqda?

LOYIHA

Adabiyotshunos olim G‘ulom Karimov fikricha, Muqimiy ijodi o‘zining butun kuchli va zaif tomonlari bilan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi tarixiy davr yetishtirib bergan katta adabiy va ijtimoiy hodisadir. Ushbu davr haqidagi hamda Muqimiy hayoti va ijodiga oid bilimlaringizga tayanib, adib ijodidagi kuchli va zaif tomonlarni, uning ijodiga davr ta’sirini aniqlang. **“SWOT”** tahlili asosida taqdimot tayyorlang.



Muqimiy “Tanlangan asarlar. Hajviyot” kitobini o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

XVII–XIX ASRLAR JAHON ADABIYOTI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XVII–XIX asrlar jahon adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilamiz;
– romantizm va realizmga xos xususiyatlarni o‘rganamiz.


XVII asrda Yevropa murakkab va ziddiyatli davrga qadam qo‘ydi. Feodalizm inqirozga yuz tutdi va yangicha kapitalistik munosabatlar shakllana boshlandi. Ayrim davlatlarda (xususan, Fransiya va Rossiyada) absolyut monarxiya (qirolning mutlaq hokimiyati) o‘z cho‘qqisiga chiqqan bo‘lsa, Angliyada qirol hokimiyati va eskicha munosabatlarga qarshi g‘alayonlar bo‘lib o‘tdi. Bir tarafdan, Yevropaning ko‘p davlatlarini hududiy va diniy kelishmovchiliklar tufayli urushlar bo‘hroni qamrab oldi, ikkinchi tarafdan esa, ilm-fanning turli sohalaridagi yangiliklar insonning dunyo va jamiyat haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib yubordi. Asosiy shiori “Ozodlik, tenglik, birodarlik” bo‘lgan Buyuk fransuz inqilobi (XVIII asr oxiri) esa nafaqat Fransiya, balki butun Yevropada inson shaxsi va erkiga nisbatan yangicha munosabatlarni shakllantirdi. Bunday sharoitda adabiyot va san’atga munosabat ham o‘zgardi: Uyg‘onish davri madaniyati insonni oliy qadriyat sifatida ko‘rgan bo‘lsa, keyingi davr san’atkorlari inson va tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarga asosiy e’tiborni qaratdilar.

XVII–XVIII asr ijodkorlari inson tafakkuriga ishonch, inson tarbiyasi va kamoloti orqali jamiyatni o‘zgartirish, undagi nuqsonlarni bartaraf qilish g‘oyasini ilgari surdilar. Ingliz adibi Daniyel Defo “Robinzon Kruzo” romanida kimsasiz orolga tushib qilgan inson misolida uning yaratuvchanlik kuchini tarannum etgan bo‘lsa, fransuz faylasufi Jan Jak Russo o‘zining “Emil, ya’ni tarbiya haqida” asarida qanday qilib nosog‘lom jamiyatda inson o‘z tug‘ma fazilatlarini saqlab qolishi mumkinligi masalasini ko‘tardi. Mualliflar tanqid orqali o‘z davrining illatlarini fosh qilib, ularni bartaraf qilishga da’vat etdilar: ingliz adibi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” satirik-fantastik romani va rus dramaturgi Denis Fonvizinning “Dumbul boyvachcha” komediyasi shunday asarlarning yorqin namunalaridir.

XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk nemis adibi, faylasufi va davlat arbobi Iogann Volfgang Gyotening “Faust”i jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Unda yashash mohiyati haqidagi muallif qarashlari umri davomida to‘plagan bilimlaridan hafsalasi pir bo‘lgan professor Faustning Mefistofel (shayton) bilan garovi vositasida aks ettirilgan.

Ilohiyot ila band bo‘ldim,
Faylasufi xiradmand bo‘ldim.
Ilmi huquq, ilmi tabobat –
Barchasini o‘rgandim, faqat,
Faqat menga bir narsa ayon:
Nodon edim, nodonman hamon...
O‘zni olam bog‘iboni deb,
Ahli odam charog‘boni deb.
Topganim yo‘q boylik va shuhrat,
Totganim yo‘q hayotda lazzat...
Sening qutlug‘ og‘ushingdan, voh,
Yana chetda qoldim, tabiat!
Qandoq mumkin senga etishmoq,
Bahra olmoq quchoqlaringdan,
Sening zilol buloqlaringdan
To‘yib-to‘yib shimimoq sharbat.

“Faust”dan
(Erkin Vohidov tarjimasi)



“Faust va Mefistofel”.
Rassom Rey Lago ishlagan surat

O‘ylab ko‘ring:
Uyg‘onish davri va XVII–XVIII asr ijodkorlarining insonga munosabati qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

?

XVIII asr oxirlarida Yevropada Buyuk fransuz inqilobi bilan boshlangan o‘zgarishlar mahsuli o‘laroq **romantizm** ijodiy metodi yuzaga keldi. Buyuk fransuz inqilobi va’da bergan islohotlardan qoniqmaslik, jamiyatdagi axloqiy tartibsizlikka qarshi kurashish kayfiyati, sanoat, siyosat va ilm-fan sohalaridagi taraqqiyotning mudhish oqibatlari romantizm vakillarida mutlaq ideallarga intilish hissini uyg‘otdi. Romantik ijodkorlar barcha muammolar, qarama-qarshiliklardan xoli, go‘zal va mukammal hayotni orzu qildilar hamda o‘z asarlarida “ideal dunyo” yaratishga intildilar.

Romantizm insonning ichki kechinmalarini, ruhiyatidagi isyonkorlik, jo‘shqinlik, ozodlikka intilish, tabiat bilan oshnolik kabi xususiyatlarni, aksar holatlarda qahramonning yolg‘izligini tasvirlashga asoslangan.

Romantizmga xos asosiy jihatlarni yana quyidagilarda ko‘rish mumkin:

– inson shaxsi, uning kechinmalari, go‘zal his-tuyg‘ulariga e’tibor, inson erkini oliy qadriyat sifatida ko‘rish;

– o‘tmishni ulug‘lash – o‘tmish ideal bo‘lmagan real voqelikdan (hozirgi kundan) qochish vositasi bo‘lishi mumkin;

– tabiatni ulug‘lash va insonning tabiatga yaqinligini ko‘rsatish – aksar hollarda romantiklar uchun tabiat erkin, go‘zal, ideal dunyo sifatida namoyon bo‘ladi;

– romantik qahramon murakkab, ziddiyatli, tuyg‘ulari kuchli inson sifatida gavdalanadi.

XIX asrning birinchi yarmida Yevropa mamlakatlari va Amerika qit’asida yashab ijod qilgan adiblar romantik adabiyotning go‘zal namunalarini yaratdilar. Jorj Bayron (Angliya), Jakomo Leopardi (Italiya), Haynrix Hayne (Germaniya), Adam Mitskevich (Polsha, Belarus), Mixail Lermontov (Rossiya) va Xose Esteban Echeverria (Argentina) lirikasi, Viktor Gyugo (Fransiya) romanlari va pyesalari, Vashington Irving (AQSH) novellalari shular jumlasidandir.

Alvido, yor! Agar shu balo
Qismatda bor bo‘lsa – alvido!
Sen berahm bo‘lsang ham, ammo,
Men dushmanlik qilmasman – vido!
Alvido, yor! Sendan uzoqda,
Har bir munis narsadan mahrum,
Qalbim azob degan tuzoqda,
Bundan ortiq bo‘larmi o‘lim?

Jorj Bayron
(Hamid Olimjon tarjimasi)

O, hayot ummoni, dahshatsan, dahshat!
So‘lim siynang uzra chiqqandim yo‘lga,
Hayqira boshlading taratib vahshat!
Yurib bo‘lmas ekan na ort, na oldga,
Qo‘llarga itoat etmagach murvat!
Mehr qadahini ko‘tarsang agar,
Shuhrat cho‘qqisiga yetmog‘ing oson,
Bu boda kayfidan tug‘ilgay zafar;
Malloh-chi, Go‘zallik jilmaygan zamon,
Ezilib ketsa-da, yo‘lini topar.

Adam Mitskevich
(Husniddin Sharipov tarjimasi)

“Tuman dengizi uzra sayyoh”. Nemis rassomi, romantizm yo‘nalishida ijod qilgan Kaspar David Fridrix (1774–1840) chizgan surat



Tahlil qiling:
Yuqoridagi she’riy parchalarda romantizmga xos qanday xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi?

Sizningcha, rassom nimani tasvirlamoqchi? Rasmdagi sayyoh ko‘nglidan qanday kechinmalarni o‘tkazyapti deb o‘ylaysiz?

XIX asrdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, demokratik islohotlar sari qadamlar yangi ijodiy metod – inson hayotini, uning kundalik turmushidagi qiyinchiliklarni haqqoniy tasvirlashga asoslangan **realizm** uchun zamin hozirladi. XIX asr birinchi yarmida Yevropa realistik adabiyotida romantik motivlar tasviri davom etgan bo‘lsa-da, asr o‘rtalariga kelib realizm yetakchi metodga aylandi.

Realizmning o‘ziga xos xususiyatlari:

– yangi mavzular: romantizm vakillari insonni ulug‘lagan, uning qahramonligini kuylagan bo‘lsa, realistlar davrni va undagi inson hayotini tushunishga, tipik (jamiyatning ma’lum bir qatlamiga xos umumlashma) xarakterlarni tipik vaziyatlarda tasvirlash va tahlil qilishga urindilar;

– yangi qarashlar: realistlar hayot har doim ham go‘zal va baxtli kechmaydi, degan qarashdan kelib chiqdilar, shuning uchun realizm oqimidagi asarlar har doim ham baxtli yakun topmaydi;


– yangi tasvirlash usullari: realistik asarlarda detallar muhim rol o‘ynaydi.

Onore de Balzak va Emil Zolya (Fransiya), Charlz Dikkens va Uilyam Tekkerey (Angliya), Henrix Ibsen va Yunas Li (Norvegiya), Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy va Anton Chexov (Rossiya), Mark Tven va Jek London (AQSH), Mersedes Kabelyo de Karbonera va Klorinda Matto de Terner (Lotin Amerikasi) singari ijodkorlar realizm adabiyotining yirik vakillaridir.



“Tosh yo‘nuvchilar”. Fransuz rassomi, tasviriy san’atda realizm yo‘nalishi asoschilaridan biri Gyustav Kurbe (1819–1877) chizgan surat

Surat sizda qanday taassurot qoldirdi? Bo‘yoqlarga e'tibor bering. Nega rassom yorqin ranglardan foydalanmagan deb o‘ylaysiz?



“… Karetaga ot qo‘shilgan; lekin yamshik imirsilab yurardi. U yamshiklar kulbasiga kirdi. Kulba issiq, havosi buzuq, qorong‘i, ter, yopilgan non, karam va cho‘chqa go‘shti hidlari anqib turardi. Xonada bir necha yamshiklar bo‘lib, oshpaz ayol pech oldida g‘imirlab yurar, pech ustidagi po‘stakda esa bir bemor yotardi.

– Xvedor amaki, ho‘ Xvedor amaki! – dedi uyga kirib kelgan po‘stinli, beliga qamchi qistirib olgan yamshik.

– Hey, chuvrindi, Fedkani nima qilasan? – dedi yamshiklardan biri, – axir seni karetadagilar kutib turishibdi-ku!

– Etigini so‘ramoqchi edim; o‘zimniki yirtilib ketdi, – deb javob berdi yigitcha boshini orqaga tashlab sochini to‘g‘rilarkan, belbog‘iga qistirilgan qo‘lqopini tuzatib. – Yo uxlayaptimi? A, Xvedor amaki? – deb takrorladi u pechga yaqinlashib.

– Ne deysan? – degan past ovoz eshitilib, pech ustidan sarg‘ish, ozg‘in yuzli bemor pastga qaradi. U uzun, oriq, tuk bosib qoni qochgan qo‘llari bilan kir ko‘ylagi ustidagi choponini qoqsuyak yelkasiga tortib qo‘ydi. – Ichgani biron narsa ber, ukajon, ne ishing bor edi?

Yigit unga cho‘michda suv uzatdi.

– Haligi, Fedya, – dedi u, goh u, goh bu oyog‘ini bosib, – balki, endi senga yangi etik darkor emasdir; o‘zingga kerak bo‘lmasa, menga bera qol.

Bemor darmonsiz boshini cho‘michga tiqdi-da, siyrak mo‘ylovini loyqa suvga botirib, zo‘rg‘a, ammo ochko‘zlik bilan suv ichdi. Bemorning paxmoq soqoli kirlab ketgandi, u kirtaygan nursiz ko‘zlari bilan zo‘r-bazo‘r yigitga boqdi. Suvni ichib bo‘lgach, qo‘lini ko‘tarib ho‘l labini artmoqchi bo‘ldi-yu, lekin holi kelmay chakmonining yengiga artib qo‘ya qoldi. U indamay burni bilan nafas olar, bor kuchini to‘plab yigitning aftiga tik qarab turardi…”

Lev Tolstoy
(M. Aliyev tarjimasi)

Tahlil qiling:
Yuqoridagi parchada qaysi detallar bo‘layotgan voqeani, joy va qahramonlarni real tasavvur qilish imkonini beradi?

O‘ylab ko‘ring:
O‘zbek adabiyotining siz mutolaa qilgan qaysi namunalarida romantizm va realizmga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin?

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. XVII–XIX asrlar jahon adabiyotiga xos bitta muhim xususiyatni ajratib oling va uni shu davrda yaratilgan asar misolida ochib bering.



ALEKSANDR PUSHKIN (1799–1837). “YEVGENIY ONEGIN” SHE’RIY ROMANI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Yevgeniy Onegin” she’riy romanida aks etgan jamiyat hayotini tadqiq qilamiz;
– Onegin obrazidagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilamiz.

Tarixiy davr

XIX asr boshida hokimiyatga kelgan imperator Aleksandr I siyosiy va ijtimoiy sohalarda islohotlar boshladi: davlat organlari qayta tashkil qilindi, qonunlarning bir-biriga zid kelmasligini ta’minlaydigan Davlat kengashi tuzildi, bepul boshlang‘ich ta’lim joriy qilindi, oliy ta’lim muassasalariga muayyan darajada erkinlik berildi. Biroq islohotlar mantiqiy nihoyasiga yetkazilmadi. Imperatordan davlat boshqaruvi tizimida jiddiy o‘zgarishlar kutgan zodagonlar keyinchalik “dekabristlar harakati” deb atalgan yashirin jamiyatga birlashib, absolyut monarxiya va Rossiya rivojlanishiga to‘g‘onoq bo‘layotgan krepostnoylik huquqini (dehqonlarning muayyan yerlarga biriktirilishi va boshqa yerga o‘tishining taqiqlanishi) yo‘q qilish, konstitutsion monarxiya yoki respublikaga o‘tish rejalarini ishlab chiqdilar. Ular 1825-yilda vafot etgan Aleksandr I ning ukasi Nikolay I ga toj kiydirish marosimi kuni poytaxt Sankt-Peterburgda qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olon bostirildi, qo‘zg‘olon ishtirokchilari esa o‘lim jazosi yoki surgunga hukm qilindi. Nikolay I asosiy e’tiborini shaxsiy hokimiyatini mustahkamlash hamda davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti ustidan qattiq nazorat o‘rnatishga qaratdi. Shu bilan birga, XIX asr rus madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

“Rus adabiyotining oltin asri” deb atalgan bu davrda Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov, Nikolay Gogol, keyinchalik Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy, Anton Chexov singari buyuk so‘z ustalari ijod qildilar.



Muallif haqida

Shoir, yozuvchi, dramaturg, zamonaviy rus adabiy tilining asoschisi Aleksandr Pushkin 1799-yili Moskvada zodagon oilada tug‘ildi. 1811-yilda u o‘sha davrning eng nufuzli ta’lim dargohlaridan biri – Sarskoye Selodagi (Sankt-Peterburg yaqinida) Imperatorlik litseyiga o‘qishga qabul qilindi. Litseydagi muhit

Pushkinning keyingi hayotiga kuchli ta’sir qildi: uning dastlabki she’rlari litseyda tahsil olayotgan davrida e’lon qilindi va o‘sha davrning nomdor shoirlari e’tirofiga sazovor bo‘ldi, bu yerda u bir umrlik chin do‘stlar orttirdi va erkinlik g‘oyalari bilan tanishdi. Pushkinning litseydagi ayrim do‘stlari keyinchalik “dekabristlar” harakatining a’zolari bo‘lishdi.

1817-yilda litseyni tamomlagan Pushkin Tashqi ishlar kollegiyasiga (vazirligiga) ishga qabul qilindi. Bir qancha davlat arboblari va hatto imperator Aleksandr I ni hajv qilgan she’rlari uchun 1820-yili Rossiyaning janubiga surgun qilindi va bir necha yil quvg‘inda yashashga majbur bo‘ldi.

Davlat siyosatiga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlari uchun Pushkin 1824-yilda davlat xizmatidan bo‘shatiladi va onasining mulki bo‘lgan Mixaylovskoye qishlog‘iga surgun qilinadi. 1826-yilda imperator Nikolay I ning ruxsati bilan surgundan qaytgan Pushkin adabiy faoliyatini davom ettiradi, tarixiy monografiya ustida ishlaydi, “Adabiy gazeta”ga muharrirlik qiladi, “Sovremennik” (“Zamondosh”) jurnaliga asos soladi.

Aleksandr Pushkin 1837-yili Sankt-Peterburgda vafot etdi. Uning adabiy merosini she’rlar, she’riy ertaklar, dostonlar hamda nasriy va dramatik asarlar tashkil qiladi.


“Yevgeniy Onegin” she’riy romani

Pushkin “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini 1823-yilda, janubga surgun qilingan paytda yoza boshladi va asar ustida sakkiz yil ishladi. Bu vaqt davomida Pushkin bilgan jamiyat ancha o‘zgardi. 1820-yili, muallif asarni yoza boshlaganida Rossiyaning Napoleon ustidan qozongan g‘alabasi ta’sirida jamiyatda ko‘tarinkilik, vatanparvarlik kayfiyatlari hukmron edi. 1825-yilgi muvaffaqiyatsizlikka uchragan Dekabristlar qo‘zg‘olonidan keyin esa turli taqiqlar va qatag‘onlar avj oldi. Jamiyatdagi bunday o‘zgarishlar, tabiiyki, muallifga va asarga ta’sir qilmay qolmadi.

O‘ylab ko‘ring:
Erkin jamiyatni siz qanday tasavvur qilasiz? Bo‘g‘iq jamiyatni-chi? Jamiyat insonga qanday ta’sir qiladi?

Asar ustida ishlayotgan shoir o‘z xatlaridan birida: “Shunchaki roman emas, she’riy roman yozyapman – farq katta”, – deydi. Roman muqaddimasida esa shoir shunday yozadi:

“Yevgeniy Onegin” she’riy romani qo‘lyozmasidan sahifa. Hoshiyadagi suratlarni Pushkinning o‘zi chizgan



Kiborlarga bitmadim ermak,
Olqab do‘stlik iltifotini.
Istagimdur armug‘on etmak
Senga loyiq dil bayotini. ...
Kel! Orzumand qo‘l bilan yakka
Ayla alvon daftarim qabul,
Kulgu, qayg‘u omixtadir sal,
Xalqona-yu mukammal; dag‘al,
Ermaklarim mevasidir bul.
Sengadir – g‘o‘r, so‘lg‘in yillarim
Selday ilhom, bedor tunlari,
Sovuq shuur tergan gullarim,
Yuragimning faryod, unlari.

O‘ylab ko‘ring:

Sizningcha, she’riy roman nasrdagi romandan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi? Pushkin nima uchun o‘z romanini she’rda yozishga qaror qilgan bo‘lishi mumkin? Nega muallif o‘z asari haqida “alvon daftar”, “kulgu, qayg‘u omixta”, “xalqona-yu mukammal; dag‘al” kabi jumlalarni ishlatmoqda? Asarni o‘qish davomida uning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor bering.

Asar ikki marta – 1936-yilda Oybek tomonidan va 1988-yilda Mirzo Kenjabek tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Siz bilan asarni Mirzo Kenjabek tarjimasida mutolaa qilamiz.





YEVGENIY ONEGIN

(she’riy romandan parchalar)

BIRINCHI FASL

Ham yashashga oshiqar,
ham shoshar his etmakka.

Kn. Vyazemskiy

I

“Tartibparast, pokdil amakim
Chin dardgaki duchor o‘lmishlar,
Avlo tadbir topmay, qarangkim,
Izzattalab bo‘lib qolmishlar!
Yo‘riqlari – o‘zgaga ibrat;
Axir, tangrim, bu nechuk kulfat,
Jilmay bemor yonidan hech ham,
Qarab yotmoq kunduz ham, kech ham!
Nechog‘ tuban nayrang, yoronlar,
Tirikmurda ko‘nglin ko‘tarmoq,
Yostiqlarin tuzatib turmoq,
Ma’yus eltmoq dori-darmonlar;
Xo‘rsinmog‘-u, aytmoq besado:
Qachon seni ko‘targay xudo!”

Kasal amakisi oldiga chaqirilgan Oneginning o‘y-xayollariga e’tibor bering. Onegin sizda qanday taassurot qoldirdi?



II

Quv yigitcha o‘ylardi shunday
“Pochtovoy”da dala-qir osha;
Qodir Zevs xohish-hukmi shay:
Bor xeshlarin vorisi – o‘sha.
Ey Lyudmila bilan Ruslanning
Do‘st-yorlari! Shu zum dostonning
Qahramonin muqaddimasiz
Tanishtiray, ruxsat bering siz:
Onegin bu – qalin bir oshnam,
Unga Neva bo‘ylari – zodgoh,
Balkim, unda tug‘ilgansiz, yo
Nash’-u namo topgansiz siz ham!
Sayr etganman men ham bir zamon,
Ammo shimol – men uchun ziyon.

pochtovoy – pochta tashuvchi ot

Zevs – qadimgi yunon miflarida oliy ma’bud

Bu o‘rinda Pushkin o‘zining bundan oldin yozilgan “Ruslan va Lyudmila” dostonini esga olib, o‘z o‘quvchilariga murojaat qilmoqda.

Neva bo‘ylari – o‘sha paytda Rossiya imperiyasi poytaxti bo‘lgan Sankt-Peterburg shahri Neva daryosi bo‘yida joylashgan.

Bu yerda Pushkin o‘zining Sankt-Peterburgdan surgun qilinganiga ishora qilmoqda.

III

Xizmat etib mardona, tugal,
Qarzlar bilan otasi yashab,
Yilda bazm tuzardi uch gal,
Xonumonsiz qoldi so‘ng, ajab,
Yevgeniyni asradi qismat,
Avval ***Madame*** etdi tarbiyat,
So‘ngra ***Monsieur*** almashdi o‘rin;
Bola sho‘xroq edi-yu, shirin.
Monsieur – asli g‘arib bir farang,
Qiynalmasin deya yosh bola,
Saboq berdi hazillar ila,
Nasihat-la qilmadi garang.
Shumlik qilsa, koyir muloyim,
Yozgi bog‘da o‘ynatar doim.

Madame (fransuzcha) – xonim, Monsieur (fransuzcha) – janob. O‘sha paytda rus zodagonlari orasida fransuz murabbiylarini yollash urf bo‘lgan.

Yozgi bog‘ – Sankt-Peterburgdagi mashhur bog‘

IV

Yoshlik – o‘tli, beorom fasl,
Nozik dard-u umidlar undan:
Yevgeniy ham yetilgach asl,
Murabbiyni haydashdi uydan.
Mana endi Onegin ozod,
So‘nggi urfda soch qo‘ydirib shod,
Kiyinishda – London ***dandysi***,
Ko‘rdi kibor olamin ko‘zi.
Endi farang tilida ravon
Yoza bilar, bemalol so‘ylar,
Mazurkaga charx urib o‘ynar,
Ta’zim bajo keltirar chaqqon.
Boz ne kerak? Kibor doira
Tan berdi: u – aqlli, sara.

V

O‘rganganmiz barchamiz oz-moz
Nimanidir, amallab, bir qur.
Tarbiyada ko‘rinsak mumtoz,
Ajab emas, xudoga shukur.
Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra
(Ulug‘ zotlar hukmiga ko‘ra),
Olimdir-u Onegin, quruq,
Unda ajib iqtidor, yo‘riq:
Suhbatlarda qiynalmay asta
Har sohadan ozgina cho‘qir,
Olimona tus olib, chuqur
Sukut saqlar muhim bahsda.
Tag‘in o‘tli hajv ila dildor –
Xonimlarni kuldirishi bor.

dandy (inglizcha) – olifta, po‘rim

mazurka – polyak raqsi



Muallif Oneginning ta’lim-tarbiyasini qanday tasvirlamoqda? U haqiqatdan ham “ajib iqtidor” egasimi?



VII

Umrin hayot sadolariga
Baxsh etmoqqa yo‘q unda havas.
Yamb va xorey arolarida
Ne farq bordir, urinmang, bilmas.
So‘kar Homer, Feokritni,
Ammo o‘qir Adam Smitni –
Iqtisodchi edi u, demak,
Mushohada qilardi andak:
Qanday qilib boyiydi davlat,
Nima bilan kechirar hayot,
Bo‘lsa unda oddiy mahsulot,
Nechun bo‘lmas oltinga hojat.
Tushunmasdi otasi uni,
Garov qo‘yar edi mulkini.

yamb, xorey – she’riy vaznlar

Homer, Feokrit – qadimgi yunon shoirlari

Adam Smit – ingliz iqtisodchi olimi

Onegin qaysi sohalarga qiziqar edi? Nega “otasi uni tushunmasdi”?

?

X

Riyo kasbin o‘rgandi u tez,
Umid – pinhon, eplaydi rashkni.
Ko‘rinadi munglig‘, g‘amangez,
Boplar ishontirish, avrashni.
Goh mag‘rur-u, goh itoatkor,
Goh parvona, goh bee’tibor!
Sukutlari nechog‘ xumorli,
So‘zlashlari go‘zal, ohorli,
Ishqiy xatda qo‘pol qandayin!
Birin suyib, biriga to‘yib,
Yashar o‘zin unutib qo‘yib!
Qarashlari keskin va mayin,
Uyatchan va beor, ba’zida
Yiltiraydi yoshlar ko‘zida!

“Riyo kasbini o‘rgandi u tez” jumlasini qanday tushundingiz? Ushbu bandda muallif Oneginning qanday qirralarini ochib bermoqda?

?




XV

Turmasdanoq hali o‘rnidan,
Unga necha maktub tutarlar.
Ne bu? Taklifnomami? Birdan
Uch xonadon bazmga chorlar.
Bal, bolalar bazmi unda,
Qayga yelar arzandam shunda?
Kimdan boshlar? Biroq baribir
Hammasiga bosh suqar bir-bir.
Keng bolivar qo‘ndirib boshga
Xiyobonga yo‘l olar asta.
Hozircha u tonggi libosda,
Qo‘ng‘iroqli soat ham tushga
Sado berib chorlaguncha to
Keng maydonda aylanar tanho.

XVI

Qosh qorayar. Chanaga minar.
Uchar “Po‘sht-po‘sht!”
degan hayqiriq.
Qorlar inar – kumushga do‘nar
Kumushmo‘yna yoqasi, aniq.
Yelar Talon mayxona tomon,
Kutar unda Kaverin, ayon.
Kirar, tiqin dumli yulduzday
Shu zum shipga uchar, toshar may.
Seli sizib turgan qovurdoq,
Farang dasturxonining fayzi –
Qo‘ziqorin qaylasi qaysi!
Strasburgning somsasiga boq!
Limburgning chin pishlog‘i-da bor,
Ham oltinrang ananas tayyor!


bolivar – shlyapa turi



“Yevgeniy Onegin” she’riy romaniga rassom Dmitriy Belyukin chizgan surat

Talon – mashhur restoran sohibi

Kaverin – Pushkinning xorijda o‘qigan, hur fikrliligi bilan tanilgan do‘sti





Fedra, Kleopatra, Moina – spektakllardagi obrazlar nazarda tutilmoqda

Didlo – Sankt-Peterburgdagi taniqli baletmeyster

O‘sha paytda Rossiya teatrlarida garderob bo‘lmagani uchun ustki kiyimlarga qarollar qarab turgan.

XVII

Istar yana ko‘ngillar sharob,
Chanqab seryog‘ ul qiyma etdan.
Qo‘ng‘iroqli soat-chi, shu tob
Xabar berar yangi baletdan.
Teatrda qattol hukmdor,
Go‘zal aktyor xonimlarning zor
Va beqaror oshiq-shaydosi,
Sahna ortin faxriy a’zosi –
Oneginim ul tomon yelar.
Bunda barcha erkinlik aro
Raqs olqishlab, izzalab hatto
Fedra, Kleopatradan kular;
Moinani chorlashar butun.
(Faqat o‘zni ko‘rsatmoq uchun!)

XXI

Qarsak, olqish... Kirar Onegin,
Qatorlardan o‘tgani zamon
Qo‘shoynakdan boqadi sekin
Yot xonimlar lojasi tomon.
Qavatlarga tashlabon nigoh,
Ko‘rdi: yuzlar, kiyimlar nogoh,
Etdi yomon ta’bini xira.
Har tarafga bosh egib so‘ngra,
Erkaklarga ayladi ta’zim.
So‘ng sahnaga boqib parishon,
Yuz o‘girib, esnadi shu on,
Dedi: “Barin yangilash lozim;
Baletga ko‘p chidadim, endi
Didlosi ham jonimga tegdi”.

XXII

Ishq tangrisi, ilon va jinlar
G‘avg‘o qilur sahnada hamon.
Qarollar-chi, horib, po‘stinlar
Ichra uxlar yo‘lakda bu on.
Hali tinmas toptash, nuqishlar,
Chapak, yo‘tal, burun qoqishlar.
Hali bino ich-u toshida
Fonuslari nur sochar juda.
Sovuq: otlar depsinar kishnab –
Egar-jabduq aylamish zada.
Izvoshchilar gulxan girdida
Janoblarin so‘kar qo‘l ishqab.
Onegin ham chiqadi, mana,
Uyga borib kiyinar yana.

XXIII

Chizarmenmi aniq lavhasin
Tanho bo‘lma-xonaning zinhor? –
Unda har xil na’ma bandasi
Kiyim tanlar takror-u takror.
Hoy-u havas, zavq uchun chandon
Neki sotsa ul attor London,
Boltiqdengiz to‘lqini bukun
Ne keltirsa yog‘och, moy uchun,
Yo ochko‘z did Parijda bilsa
Nimaiki go‘zal san’at deb,
Neni rohat, zeb-u ziynat deb,
Yo ermak deb ixtiro qilsa, –
Bular bari bezamish, tayin,
O‘n sakkiz yosh faylasuf uyin.

? *Oneginning uyi tasviri orqali u haqida nimalarni bilishimiz mumkin?*

XXVII

Biroq mavzu boshqadir endi,
Hozir balga shoshganimiz soz.
Karetani kiralab yeldi
O‘sha yoqqa Onegin shovvoz.
Tiyra uylar yonidan bot-bot
Qator, mudroq ko‘chalarga shod
Sho‘x nur sochib qo‘sh fonuslari
Aravalar o‘tar, tuslanib,
Qor ustida kamalak chizar.
Tegrasida g‘ujg‘on chiroqlar –
Zo‘r, muhtasham bir uy charaqlar;
Cho‘ng oynada ko‘lkalar kezar:
Ular xonim hamda na’maboz
Tentaklarning shaklidir, xolos.

XXXV

Xo‘sh, Onegin qalay? U tamom
Mudrab, baldan yotoqqa yelgan.
Nog‘oralar bu payt beorom
Peterburgni uyg‘otib bo‘lgan.
Hammol borar, savdogar turar,
Kirakashlar qamchini urar,
Xurma olib kelar sutfurush,
Poyida qor g‘irchillar – kumush.
Tong g‘ovuri uyg‘onar ajib.
Derazalar ochiqdir; tutun
O‘rlar go‘yo moviy bir ustun.
Nemis nonvoy darchasin ochib,
Ko‘pdan, qog‘oz qalpog‘i boshda,
Non sotadi juda sarishta.



Sankt-Peterburg. XIX asr



Child Harold – ingliz shoiri Bayron asari qahramoni

Beef-steaks (ingl.) – bifshteks

XXXVI

Bal shovqini horitib biroq,
Subhidamni aylab yarim kech,
Sho‘xlik, hasham bandasi bu chog‘
Uxlar orom og‘ushida tinch.
Uyg‘onadi choshgohda alhol,
Tongga qadar yana shu ahvol –
Umr kechar rangin, bir izda,
O‘tgan kunga bu kun egizday.
Eng gullagan chog‘lari lekin
Zo‘r zafarlar ziyosi aro,
Kunlarning aysh, safosi aro
Baxtlimidi erkin Onegin?
Bazm-u ziyofatlarda butkul
Sog‘lommidi, beg‘ammidi ul?

? *Oneginning turmush tarzi haqida nimalarni bilib oldingiz? Uning kunlari qanday o‘tardi?*

XXXVII

Yo‘q, hislari sovudi erta;
Ezdi kibor hayot suroni.
Jononalar oz fursat, o‘rtab,
Xayolining bo‘ldi mehmoni.
Xiyonatlar bevaqt toldirdi,
Do‘stlik, do‘stlar ko‘ngliga urdi.
Keyin, har kun osonmas iyib,
“Beef-steaks”-u somsaga to‘yib,
So‘ng shampanga qonmoq
shundaqa,
Bosh beomon og‘rigan kezlar
Socholmaydi u tig‘dor so‘zlar.
Bo‘lsa hamki olov, shumtaka,
Qiziqtirmay qo‘ydi oxir hech
Jang-u jadal, nayza-yu qilich.

XXXVIII

Kelmishdir u mubtalo bo‘lgan
Dard sababin aniqlash oni:
Misli ingliz g‘ashligi olgan,
Alqissaki, rus xafaqoni
Asta-sekin chulg‘amish uni.
Yo‘q, xudoga shukr, o‘zini
Nogoh otib qo‘ygani yo‘q ul,
Lek yashashdan sovidi butkul.
G‘amgin, Child Harolddek, siniq
Dargohlarda ko‘rinar yana.
Na g‘iybat-u, na qarta va na
Xumor ko‘z, na oshkor xo‘rsiniq
Etar edi ko‘ngliga ta’sir;
Hech narsani xushlamas taqir.

LI

Tayyor edi men-la Onegin
O‘zga diyorlarni ko‘rmoqqa.
Tezda taqdir bizni va lekin
Uzoq zamon qo‘ydi firoqqa.
U chog‘ vafot qildi otasi.
Qarzchilarning ochko‘z to‘dasi
Yevgeniyni o‘radi darhol,
Har birida o‘zga arzi hol.
Da’volardan hazar qilgancha
O‘z chekidan bo‘ldi-yu rozi
Qarzlariga ketdi merosi,
U ziyon ham ko‘rmadi uncha.
Amakisi o‘lishin yo u
Bildimikin oldindan, yohu!

LII

Chindan ham ish boshqaruvchidan
Daf’atanda oldi u bir xat:
Chol to‘shakda betobmish juda,
Rizolashuv istarmish behad.
O‘qiboq bu mungli xabarni
Darhol lozim topdi safarni.
“Pochtovoy”da yeldi u birdan,
Uni esnoq tutdi hozirdan.
Meros haqqi, shaylaydi shu chog‘
Oh-u zorni, nayrang, yolg‘onni
(Shundan boshlab edim dostonni);
Ko‘rdi, yetgach qishloqqa biroq –
Amakisi taxta uzra tek
Yotar tuproq kutgan sovg‘adek.

LIII

Qo‘ra gavjum – barcha parvona;
Har tomondan, so‘nib yuzlari,
Kelishardi do‘st-u begona
Hamda dafn ishqibozlari.
Marhumni ham qo‘yishdi yerga.
Pop, mehmonlar yeb-ichdi birga.
So‘ng gerdayib tarqaldi maj’ul,
Go‘yo ishga bo‘ldilar mashg‘ul.
Qishloqidir Onegin endi,
Yer-suvga-yu o‘rmonga xo‘ja.
Aslida-chi, shu fursatgacha
Betartib-u isrofgar edi.
Endi mamnun – u yo‘lni tashlab,
Nelargadir oldi almashlab.

LIV

Ikki kuncha sokin dalalar,
Jilg‘alarning jildirashlari,
Quyuq, salqin emanzor – bular
Yangichadek tuyuldi bari.
Tepa, dasht-u daraxtzor lekin
Uchinchi kun bermadi taskin.
So‘ng uyqusin keltirdi chunon,
Keyin esa ko‘rdi u ayon –
Qishloqda ham o‘sha dilgirlik.
Garchi bunda na bir ko‘cha bor,
Na saroy-u na bal, na ash’or,
Xafaqonlik aylab tixirlik,
Soya va yo vafodor xotin
Kabi unga ergashar betin.



*“Meros haqqi, shaylaydi shu chog‘
Oh-u zorni, nayrang, yolg‘onni”. Oneginni kasal amakisi oldida o‘zini bunday tutishga nima majbur qilmoqda?*

?

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Pushkin o‘z davri Sankt-Peterburg zodagonlari hayotini qanday tasvirlaydi? Bunday turmush tarzining eng asosiy xususiyati nimada deb o‘ylaysiz?

2. Sizningcha, muallif nima maqsadda Oneginning bir kunini bunchalik batafsil tasvirlagan?

3. Birinchi fasl epigrafiga e’tibor bering. Muallif nima uchun aynan shu epigrafni tanlagan deb o‘ylaysiz? Epigraf bosh qahramon xarakterini tushunishga qay darajada yordam beradi?

4. “Baxtlimidi erkin Onegin? Sog‘lommidi, beg‘ammidi ul?” Muallifning bu savolga javobi qanday? Sizning-chi? Nima uchun?

5. Nega qishloq ham ikki kunda Oneginning joniga tegdi, “xafaqonlik” uni bu yerda ham ta’qib qila boshladi?



IKKINCHI FASL

Onegin qishloqda Germaniyada o‘qib kelgan shoir yigit Vladimir Lenskiy bilan do‘stlashadi.

XII

Lenskiy xo‘b xushfe’l, badavlat;
Bir kuyovdek olinar peshvoz;
Qishloq joyda shu asli odat...
Hamma ham o‘z qizini bexos
Mo‘ljallaydi shu chala rusga...

XIII

Nikoh nomli kishanga biroq
Lenskiyda yo‘q edi havas.
U Onegin bilan sobitroq
Do‘st tutinsam derdi beg‘araz.
Topishdilar. To‘lqin bilan tosh,
She’r va nasr, muz bilan otash
Bularchalik bo‘lmas xilma-xil.
Bir-biriga qarshi ikki dil
Aro avval bo‘ldi sovuqlik;
Keyin har kun uchrashdilar, bas,
Do‘st bo‘ldilar sira ajralmas,
Asta paydo bo‘lgach yovuqlik.
O‘zim shohid, odamlar mutlaq
Bekorlikdan do‘stlashur shundoq.



“She’r va nasr, muz bilan otash” singari har xil bo‘lgan Onegin va Lenskiyning do‘stlashishini qanday izohlaysiz?

XXV

Demak, uning ismi Tatyana.
Singlisidek u xushro‘y emas,
Yonoqlari ol emas yana,
Ko‘zlarni ko‘p hayron aylamas.
Bir yovvoyi, indamas, g‘amlig‘,
Hurkak, o‘rmon ohusi yanglig‘.
O‘z uyida go‘yo Tatyana
O‘gay edi, edi begona.
Erkalana bilar qizaloq
Na ota, na onaizorga;
Bola bo‘lib bola qatorga
Kirmas, chopmas, o‘ynamas quvnoq.
Derazaning yonida yolg‘iz
Xomushgina o‘ltirardi qiz.

XXIX

Yoshligidan qizni romanlar
O‘z domiga tortdi-yu rosa,
Maftun etdi uni yolg‘onlar,
Goh Richardson, gohida Russo.
Qiz otasi – sofdil bir inson,
Yashar o‘tgan asrda hamon.
Yo‘q deb o‘ylar kitobdan ziyon,
O‘qimasdan o‘zi hech qachon,
O‘yinchoq deb bilar kitobni.
Qiz yostig‘i ostida kecha
Qaysi asar nihon tonggacha –
O‘ylamasdi sira bu bobni.
So‘ng xotini tag‘in netardi –
Richardson deb esi ketardi.

Bu faslda muallif bizni Lenskiyning qallig‘i Olga Larinaning opasi – Tatyana bilan tanishtiradi.



Samuil Richardson – XVIII asr ingliz adibi

Jan Jak Russo – mashhur fransuz faylasufi va adibi

Muallif Tatyanani qanday tasvirlaydi? U qaysi xususiyatlari bilan boshqalardan farq qilardi?

?



“Yevgeniy Onegin” she’riy romaniga rassom Yelena Samolish-Sudkovskaya chizgan surat



UCHINCHI FASL

Lenskiy Oneginni Larinlarning uyiga taklif qiladi.

VI

Oneginning kelishi esa
Qoldirgandi xush taassurot
Larinlarning ko‘nglida kecha.
Qo‘shnilar ham bo‘lgan edi shod.
Gap ketidan yurar duv-duv gap,
Hamma xufya ta’bir topar zab,
Hazillashar, hukmi beayov –
Tatyanaga ko‘zlashar kuyov;
Ba’zilari esa ro‘yirost
To‘y tayin, deb ta’kidlar uzib...

VII

Bunday mish-mishlarni Tatyana
Alam bilan tinglardi-yu, lol,
Pinhona bir quvonch-la yana
Beixtiyor surardi xayol.
Yuragiga o‘ylar solmish u,
Payti kelmish, suyib qolmish u,
Yerga tushgan bir dona bug‘doy
Bahor bois jonlanur cho‘g‘day.
Tasavvuri qizning qachonlar
Sog‘inch, mehr taftida shundoq
Taqdirini kutardi mushtoq.
Ko‘pdan buyon qiynoq, gumonlar
Yongan dilga ko‘ksi tor edi
Va kimgadir intizor edi.

XXI

Oyga boqib Tatyana xiyol,
Qalbi uchar uzoq-uzoqda...
Tuyqus boshga kelur bir xayol...
“Bibi, meni qoldir yotoqda.
Bergil faqat qalam-u qog‘oz,
Beriroq sur stolni biroz.
Kechir, tezda yotaman”. Mana,
Jimlik ichra yolg‘iz Tatyana.
Oy yoritar. Yozar, tirishar,
Xayolida Onegin tanho,
Soddagina maktubda, evoh,
Bokira qiz sevgisi yashar.
Noma bitdi, buklandi... Faqat,
Tatyanajon, kimgadir bu xat?

O‘sha davr axloqiy qoidalariga ko‘ra, qiz bola notanish kishiga maktub yozishi mumkin emas edi. Sizningcha, Tatyana nima uchun bu qoidani buzib, Oneginga maktub yozishga jur’at qildi?

?



“Yevgeniy Onegin” she’riy romaniga rassom Yelena Samolish-Sudkovskaya chizgan surat



TATYANANING ONEGINGA MAKTUBI

“Xat yozurman sizga, ne chora?
Yana ne ham ayta olurman?
Men bilaman, endi bir bora
Qahringizga balki qolurman.
Lekin qaro baxtimga zora
Ko‘rib zarra shafqatni ravo,
Ketmagaysiz tashlab benavo.

Sukut qilmoq bo‘lgandim avval.
Ishoningiz, uyalganim – siz
Sira bilmas edingiz, esiz.
Gar umidim bo‘lsa edi sal,
Haftada bir bo‘lsa ham yakka,
Bu qishloqda sizni ko‘rmakka.
Eshitolsam guftoringizni,
Bir so‘z desam, keyin betoqat
Kecha-kunduz o‘ylasam faqat,
Faqat yana diydoringizni.
Odamovi emishsiz, ammo
Taskin bermas qishloqjoy sizga,
Bizlar... jozib emasmiz aslo,
Lekin shodmiz tashrifingizga.

Biz yoqlarga keldingiz nechun?
Kimsa bilmas qishloq, ovloqlar,
Bunda sizni bilmasdim butun,
Bilmasdim – ne achchiq qiynoqlar.
Balki, murg‘ak jonda titroqlar
(Qaydam) bir kun bosilib yana
Bir do‘st topib o‘zimga loyiq,
Bo‘larmidim vafodor qayliq
Va mehribon, mushfiq bir ona.

Boshqasi!.. Yo‘q, hech kim dunyoda
Ololmasdi ko‘nglimni mening.
Hukm o‘qilgan arshi a’loda,
Falak amri: men – sening, sening.
Butun umrim sen bilan go‘yo
Uchrashuvning tanho garovi.
Bildim – seni yuborgan xudo,
O‘lgunimcha o‘zing panohim...

Ko‘rinarding goh tushlarimda,
Sen g‘oyibdan bo‘lding qadrdon,
O‘t nigohing o‘rtadi yomon,
Qalbim aro tovushlaringda
Yangrar edi... Yo‘q, tush emas bu!
Ko‘rinding-u tanidim-qoldim,
Behol bo‘ldim, lovullab yondim
Va xayolan dedim: mana shu!
Chin emasmi, men quloq soldim:
Biz gaplashdik sukut damida,
Men gadoga in’om bergan chog‘,
Ibodat-la orom bergan chog‘
Hayajonli dilim g‘amiga!
Xuddi o‘shal lahzada, oyo,
Sen emasmi, ey aziz ro‘yo,
Qorong‘uda chaqnab ko‘ringan,
Bolishimga egilgan asta?
Sen emasmi, mehr-u havasda
Labda umid so‘zi uringan?!

Kimsan axir, panohimmisan
Va yo bir shum berahmmisan?
Yozgil shubha-gumonlarimni.
Yoki bular bari beqaror
Murg‘ak qalbim yolg‘onlarimi
Yo boshqa gap peshonamda bor?..

Bo‘lsa-bo‘lsin! Bugundan boshlab
Taqdirimni senga topshirdim
Va qoshingda ko‘zlarim yoshlab,
Himoyangni so‘rab bosh urdim...
Tasavvur qil: men bunda yakka,
Hech kim meni tushunmay qoldi,
Hatto aql-u hushim ham toldi,
Mahkumdirman jimjit o‘lmakka.
Men kutaman, bir nazar bilan
Umidimni qalbda tirgizgil,
Yoki og‘ir tushimni buzgil,
Evoh, haqli bir g‘azab bilan!

Bitdi! Qayta o‘qiyman – dahshat...
Nomus, qo‘rqinch ichra muzlar dil...
Imoningiz – menga kafolat,
Topshiraman o‘zimni dadil...”



XXXIV

– Oh, bibijon, bir iltifot qil. –
“Izningdaman, buyurgil, jonim”.
– Lekin-chi... bad gumon qilma... Kel,
Yo‘q demagil, oh bibijonim! –
“Xudo kafil, dugonam, lekin”.
– Nabirangdan shu xatni sekin
Berib yubor O... ga, anovga...
Qo‘shnimizga... Lekin birovga
Biron og‘iz gapirmasin, bas,
Aytmasin ham mening otimni... –
“Kimga bersin, jonim, xatingni?
Endi esim joyida emas,
Tevarakda qo‘shni ko‘p, qaydam,
Hammasini eslayin qaydan?”

1. Maktubning boshida Oneginga “siz” deb murojaat qilgan qizning keyinchalik “sen”ga o‘tishi nimadan dalolat beradi?
2. Maktubda Tatyanaga xos qanday xususiyatlarni kuzatish mumkin?
3. Onegin qizning maktubiga qanday munosabat bildiradi deb o‘ylaysiz?

TO‘RTINCHI FASL

IX

... Bo‘lgandi ilk yoshlik zamoni
U shiddatli xato-yu qizg‘in
Va betizgin hislar qurboni.
Hayot tarzi erkalab faqat,
U biriga maftun muvaqqat,
Boshqasidan uzadi ko‘ngul,
Istaklardan bezadi so‘ng ul;
Yengil zafar toldirdi tag‘in,
Tinglab shovqin va jimlik aro
O‘z qalbidan mangu bir nido,
Kulgu bilan bosur esnog‘in:
Umrining gul faslidan fuzun
Sakkiz yili so‘ldi shu yo‘sin.

XI

Biroq olgach Tatyana xatin
Bir o‘t tushdi yigit joniga.
Ma’sum orzularning suhbati
O‘ylar qo‘shdi hayajoniga.
Ma’yusgina, so‘lg‘in, parishon
Tatyanani esladi shu on.
Bir shirin o‘y, pokiza xayol
Yuragini chulg‘adi darhol.
O‘tgan hislar o‘ti – balosi
Balki, bir zum qo‘zg‘oldi shu chog‘;
Istamadi aldashni biroq
Bokira qalb ishonch, ixlosin.
Endi bizlar uchaylik bog‘ga –
Qiz u bilan ko‘rishgan yoqqa.

XII

Avval biroz turdilar kutib,
Yaqin kelib Onegin shunda
Shivirladi: “Yozibsiz maktub,
Tonmangiz, men o‘qidim unda
Soddagina dil izhorini,
Pokiza bir sevgi zorini.
Samimiyat – men uchun aziz,
Bu his qo‘zg‘ab qo‘ydi, shubhasiz,
So‘nib ketgan tuyg‘ularimni.
Ammo sizni maqtamay ortiq,
Sizga shundoq etaman tortiq
Men ham dilda yo‘g‘-u borimni;
Qabul eting iqror so‘zimni:
Hukmingizga berdim o‘zimni.

XIII

Men hayotni faqat dunyoda
Uy ichi deb bilsaydim agar,
Xush qismatim er yoki ota
Baxtin hukm qilsaydi agar,
Oilaviy turmushga o‘zim
Mehr qo‘ysam, hech yo‘qsa, bir zum,
Izlamasdim unda, haqiqat,
Sizdan bo‘lak biron rafiqa.
Aytay madh-u sanolarsiz rost:
Bo‘lsaydi ilk xayol-u havas,
Jami go‘zalliklarga evaz –
Faqat sizni tanlardim, xolos. ...

XIV

Ammo baxtga mening qalbim yot;
Yaralmabman halovat uchun.
Behudadir sizning kamolot –
Arzimayman men unga butun.
Siz ishoning (vijdonim kafil),
Turmush bizga g‘am bo‘lur, axir.
Sizni qancha sevmayin o‘zim,
Ko‘nikdimmi – soviyman shu zum...

XV

Sho‘rlik xotin noloyiq erni
Qarg‘ab mudom oh-u voh ila,
Anduh cheksa... Dunyoda bormi,
Bormi bundan badbaxt oila?!
... Men shundayman. Yozib nomani
Siz pokiza, yoniq dil bilan,
Bu kamolot, bu aql bilan
Istaganmi edingiz mani?
Nahot, taqdir – berahm samo
Sizga shuni ko‘ribdi ravo?

XVI

Qaytmas yillar, orzular hargiz;
Yangilanmas endi yuragim...
Sevgum sizni akadek har kez,
Balki, ko‘proq suyub qaragum...
Demak, shuni buyurmish samo.
Siz-ku, yana sevarsiz, ammo...
Etmoq kerak o‘zni idora;
Sizni har kim tushunmas bizdek;
G‘amga yo‘llar tajribasizlik”.



“Yevgeniy Onegin” she’riy romaniga rassom Lidiya Timoshenko chizgan surat

1. “Istamadi aldashni biroq Bokira qalb ishonch, ixlosin”. Muallif bu satrlar bilan nima demoqchi?

2. Onegin nima uchun “turmush ularga g‘am bo‘lishiga” ishonmoqda?

3. Oneginning “Etmoq kerak o‘zni idora” so‘zlarini qanday tushundingiz? Bu so‘zlarni Tatyanaga nisbatan e’tiroz yoki ayblov sifatida qabul qilish mumkinmi?



SAKKIZINCHI FASL

Onegin Lenskiyning jahlini chiqarish uchun Olgaga xushomadlar qila boshlaydi. Lenskiy Oneginni duelga chaqiradi. Duelda Lenskiy Oneginning qo‘lida halok bo‘ladi. Onegin bu joylardan bosh olib ketadi. Tatyanani badavlat xonadonga turmushga berishadi. Oradan ikki yil o‘tadi. Onegin poytaxtga qaytadi.

duel – ikki kishining or-nomus talashib, qilichbozlik qilishi yoki otishuvi

salon – bazmxona

XIV

Chayqaladi daf’atan salon,
Shivir-shivir ketar bir mahal...
Beka sari kelar bir juvon,
Orqasida mag‘rur general.
Bu xonim jim, andishali zab,
Istarali, kamsuqum, kamgap.
Ko‘zlarida go‘zal bir hayo,
Hech zafarga unda yo‘q da’vo.
Yo‘qdir biron soxta jilvasi,
Yo‘q taqlidiy biron ifoda,
Bonu tamom sokin va sodda...

XVII

“Nahotki, – deb o‘ylar Onegin, –
Nahot o‘sha? Xuddi o‘zi... Yo‘q...
Olis qishloq bag‘ridan, lekin
Qandoq keldi?..” Yigit ko‘zi lo‘q –
Qo‘shoynakdan boqar dam-badam.
Yodga solar orazi shu dam
Unutilgan bir qizni elas.
– Bilurmisan, ayt menga, knyaz,
Movut bo‘rkli anov xonim kim
Turur ispan elchisi birlan?
Oneginga qarar u birdan.
– Ha, sen ko‘pdan yo‘q eding, do‘stim.
To‘xta, hozir aytaman, inim.
– Kim u, axir?
– Mening xotinim.



“Onegin” filmidan lavha (Buyuk Britaniya – AQSH, 1999-yil). Tatyana rolida Liv Tayler

XX

Nahotki, bu o‘sha Tatyana?..
Dostonimiz boshlarida, o,
Olis, jimjit makonda, ya’ni
Xilvatgina o‘sha bog‘ aro
Xush xulqini ko‘rguzib yigit,
Bergan edi unga pand-o‘git.
Hanuz asrar o‘shal maktubin,
Unda ko‘ngul aytur matlubin,
Rozi – ravon, erkin va ravshan.
O, bu o‘sha qizchami, ro‘yo?..
Bu sargardon umrida, oyo,
Qilgaymidi dardini pisand?!
Nahot, unga nisbatan shu dam
Ayol shuncha beparvo, o‘ktam?

XXI

Kechar gavjum majlisdan alhol,
O‘yga botib uyga jo‘nar u.
Goh g‘amgin-u goh go‘zal xayol
Endi sira bermaydi uyqu.
Turgach, bir xat berishar unga:
Qulluq qilib, knyaz N. uyga
Taklif etmish oqshom. – Yo xudo!
Uning uyi... Borgum, borgum, o!
Hurmat-la tez qaytarur javob.
Nima bo‘ldi? Ko‘rar nechuk tush?
Sovuq, tanbal yuragining, xo‘sh,
Tubida ne g‘imirlar shu tob?
O‘kinchmi bu, puch o‘ymi, hasrat,
Yoki yoshlik dardi – muhabbat?

XXII

Soat sanar Onegin, yonar,
Sabri yetmas kechgacha yana.
Oxir o‘nga bong urar, jo‘nar –
Uchib borar. Mana, ostona.
Kirar titroq tushib yurakka,
Tatyanani uchratar yakka;
So‘ng bir necha lahza yonma-yon
O‘ltirishar. Onegin hamon
So‘z topolmas. O‘ng‘aysiz, qo‘pol,
Ma’yus. Ayol so‘ziga shu tob
Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qaytarar javob.
Ezar uni o‘jar bir xayol.
Yigit tajang boqar; begoyim
O‘ltiradi erkin, muloyim.

XXX

Yosh boladek Yevgeniy, beshak,
Tatyanaga qo‘ymish muhabbat.
Kun va tunni o‘tkazur halak,
Ishq dardida o‘rtanib faqat.
Hech sadoni aqli tinglamas...

XXXII

...Tatyana-chi, hamon beparvo
(Ayol zoti shunaqadir, bas).
Yigit – qaysar, qaytmoq istamas.
Umid qilar, urinar, biroq;
O‘zi betob, sog‘dan dadilroq
Begoyimga xat yozur yoniq...
Endi unda qolmadi toqat,
Mana sizga, ayni o‘sha xat.



ONEGINNING TATYANAGA MAKTUBI

“Men bilaman, tahqirlar sizni
Ushbu munglig‘ sirlar bayoni.
Beomon bir g‘azab to‘foni
Chulg‘ar mag‘rur nigohingizni!
Ne istarman? Ne maqsad bilan
Dil ochurman sizga bemalol?
Achchiq, zahar kulguga, bilmam,
Men yo‘l berib qo‘ydim, ehtimol.
Nogoh sizni uchratib bir kez,
Mehr nurin payqadim-u, tez
Ishonmoqqa chog‘lanmadim hech:
Xush odatim yo‘li berkildi;
Men o‘zimning dilgir erkimni
Yo‘qotmoqni xohlamadim hech.
Yana bir hol ayirdi bizni...
Qurbon bo‘ldi Lenskiy, abgor...
Dilga yaqin har nimaki bor,
Shundan keyin ko‘nglimni uzdim.
Men yotsirab yurdim. Azob bu.
O‘yladimki erk, orom – tanho
Baxtga evaz bo‘lur. O, xudo!
Qanday xato, qanday jazo bu!..

Yo‘q, yo‘q, sizni ko‘rmoq safosi,
Izingizdan qolmay quvlamoq,
Lab kulgusin, ko‘zlar imosin
Oshiq ko‘zlar ila ovlamoq,
Xo‘b termulmoq sizning jussaga,
Dildan tuymoq – ne kamolot bu,
Qarshingizda qotmoq g‘ussada,
Bo‘zarmoq va so‘nmoq... rohat bu!

Men shundan ham mahrumman,
faqat
Sudralaman aylab tavakkal;
Kun – g‘animat, soat – g‘animat,
Men-chi, isrof etaman mahtal
Taqdir sanab bergan kunlarni,
Azal zahmi zo‘rdir ularning.
Men bilaman, umrimda bor had;
Lekin uni cho‘zib turmoqqa
Tongda amin bo‘lmoqligim shart
Kunduz kuni sizni ko‘rmoqqa...

Qo‘rqaman, bu mo‘min o‘tinchda
Nigohingiz ko‘rmasin yana
Manfur makr-hiylani hech-da,
Qilmangiz ham g‘azabkor ta’na.
Bilsaydingiz, naqadar dahshat
Muhabbatga zorlik jahonda;
Yonmoq, adl ila har soat
Tug‘yonlarni so‘ndirmoq qonda...

O‘zimga zid bormog‘im og‘ir;
Nochordirman ushbu kezda man;
Qarorim shul, izmingizdaman,
Men tan berdim taqdirga oxir”.

XXXIII

Javob yo‘qdir. Boz maktub yozur,
Ikkinchi xat, uchinchi xati –
Javobsiz. Bir majlisga bazo‘r
Borar edi; kirgan zahoti...
U duch keldi. Qanday beomon!
Buni ko‘rmas, so‘z demas biron;
Yohu, yana oshibdir qahri –
Borlig‘ida – chillaning zahri!
Tag‘in uning o‘jar lablari
Yashirmoqchi bo‘lar jahlini!
Sinchkov boqdi Onegin: qani,
Qani uning tug‘yon, dardlari?!
Qani ko‘zyosh dog‘lari?.. Abas!
Chehrasida g‘azab izi, bas...

XL

Qayon yelar Onegin? Ayon,
Siz topdingiz maqsadin: tag‘in,
Tag‘in borar Tatyana tomon
Son kirmagan mening tentagim.
Kirar xuddi murda misoli.
... Beka... Beka o‘ltirar yolg‘iz,
Besaranjom, chehrasi qonsiz,
Kaftin tirab yuziga, vayron,
Bir maktubni o‘qir besado,
Yoshlar to‘kur panjalar aro.

XLI

Uning unsiz iztirobin, bas,
Kim shu lahza uqolmas, evoh!
Kim begoyim aksida ko‘rmas
Eski munglig‘ Tatyanani, oh!
Yigit – o‘kinch, dard ichra majnun,
Oyog‘iga yiqildi zabun...

XLII

... “Bas, turingiz endi, men sizga
Aytmog‘im shart barini oshkor.
Yodingizda bormi, Onegin,
Taqdir bizni yo‘llagan sokin
O‘sha bog‘-u xiyobon? Nochor
Sizdan saboq tinglagan edim.
Tinglang, endi mening navbatim.

XLIII

Onegin, men u mahal yoshroq,
Ham suluvroq edim, chamamda.
Sizni suydim, suydim-u, biroq
Qalbingizdan ne topdim g‘amda?
Javob topdim beshafqat, xolos.
... Endi esa – yo rab! – o‘sha va’z,
O‘sha sovuq nigohni nuqul
Esladimmi, muzlab ketar qon...
Ayblamayman, ammo u zamon
Tutgandingiz oliyjanob yo‘l.
Haq edingiz, qilsam andisha,
Minnatdorman sizdan hamisha...



XLIV

O‘sha paytlar, shov-shuvdan yiroq
Ovloqlarda yurgan kezimda
Men yoqmagan edim-ku... Biroq
Ne bor endi mening izimda?
Endi sizga nishonman nechun?
... Istagingiz budir, hoynahoy,
Jamiyatda ochilsin sirim,
Men sharmisor bo‘layin, faqat
Bu gap sizga keltirsin shuhrat?!

XLVI

Onegin, bu dabdaba, shukuh,
Manfur hayot ziynati nadir?
Kibor olam domida beruh
Zafarlarim, davlatim nadir?
Hashamdor uy, ziyofat, g‘avg‘o,
Nadir menga bu bo‘g‘iq havo?..
O‘sha javon, huv yovvoyi bog‘,
O‘sha faqir maskanim, qishloq,
O‘sha – sizni, Onegin, ilk bor
Ko‘rganim ul joylarga, zotan,
Bukun sho‘rlik enagam yotgan
Xoch, soyalar ostidagi zor
O‘sha mozor, o‘sha xilqatga
Barchasini qilardim sadqa...

XLVII

Baxt bo‘lsa-chi, naqadar mumkin,
Yaqin edi naqadar!.. Endi –
Taqdirim hal. Ehtimol u kun
Xomlik qildim. Qancha yalindi
Ko‘zyosh bilan avrab onam ham,
Oh, Tatyana sho‘rlikka u dam
Hamma narsa baribir edi...
Turmush qildim oqibat... Endi
Iltimosim, tinch qo‘ying bizni.
Men bilaman, qalbingizda bor
Ham g‘urur, ham sobit, baland or,
(Yolg‘on nechun?) Sevaman sizni,
Nasib etdim boshqaga faqat;
Unga sodiq qolurman abad”.

XLVIII

Beka ketar. Yevgeniy turar
Chaqqan kabi boshida chaqin.
Endi nechuk tuyg‘u gupurar –
Qalbini ne o‘y bosur tag‘in?!
... Qahramonim, nihoyat, shunda
Uning uchun eng mushkul zumda
Tark etamiz, o‘quvchim, bu on,
Uzoq muddat... umrbod... abad...

?

1. Onegin bir paytlar o‘zi rad qilgan Tatyanani sevib qolishini qanday izohlaysiz? Yoki maqsad, Tatyana aytganiday, uni “sharmisor qilib shuhrat orttirish”mi?

2. Onegin “Qanday xato, qanday jazo bu!” deganda nimani nazarda tutmoqda? Bu xatoni qilmaslik imkoni bormidi?

3. Tatyananing Oneginga aytganlari – dil izhorimi yoki ayblov? Nima uchun?

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Pushkin roman muqaddimasida o‘z asariga nisbatan “kulgu, qayg‘u omixtadir sal, xalqona-yu mukammal; dag‘al” ta’riflarini ishlatgan. Asarni o‘qish davomida qaysi o‘rinlarda kulguni va qayg‘uni, mukammallikni va dag‘allikni his qildingiz? Fikrlaringizni matn asosida isbotlang.

2. XIX asr rus adabiy tanqidchisi Vissarion Belinskiy Oneginni “o‘z ixtiyoriga qarshi azob chekuvchi xudbin” deb ataydi. Tanqidchi Dmitriy Pisarev fikriga ko‘ra esa, Onegin – tabiatan xudbin, hech qanday hissiyotlarga qodir bo‘lmagan shaxs. Siz Oneginga qanday ta’rif berasiz?

3. Onegin Tatyananing sevgisini qabul qilib, unga uylanganida ularning turmushi qanday kechardi deb o‘ylaysiz? Tatyananing “Baxt bo‘lsa-chi, naqadar mumkin, Yaqin edi naqadar!” degan so‘zlariga qo‘shilasizmi?

4. Sizningcha, asarda baxtli qahramon bormi? Nima uchun?

5. Nima sababdan muallif asar qahramonini “uning uchun eng mushkul zumda” tark etadi? Asarni boshqacha yakunlash mumkinmidi? Asar qahramonlarining keyingi hayoti qanday kechadi deb o‘ylaysiz?

6. Adabiyotshunos Najmiddin Komilov fikricha, insonning tabiiy intilishlari, his-tuyg‘u erkinligi bilan jamiyat va uning tartiblari orasidagi abadiy ziddiyat asarning bosh g‘oyasini tashkil qiladi. Siz bu fikrga qay darajada qo‘shilasiz? Sizningcha, Pushkin bu asari bilan nima demoqchi?

7. “Yevgeniy Onegin” she’riy romani Pushkin ijodini tadqiq qilgan adabiyotshunoslar tomonidan “rus hayotining qomusi” sifatida e’tirof etilgan. Asarning qaysi jihatlari Pushkin davri ruhiyatini tushunishga yordam beradi?

8. Sizningcha, “Yevgeniy Onegin”da Pushkin ko‘proq romantik ijodkor sifatida gavdalanadimi yoki realist? Fikringizni matn asosida dalillang.

LOYIHA

XIX asr rus adabiyotida “ortiqcha odam” – zodagon oiladan chiqqan, aqlli, lekin jamiyatga foydasi tegmaydigan shaxs yetakchi mavzulardan biriga aylandi. “Ortiqcha odam” tushunchasi adabiyotshunoslikka 1850-yillarda rus adibi Ivan Turgenev tomonidan olib kirilgan bo‘lsada, bu xildagi obrazlarni undan oldin yaratilgan ijod namunalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Oneginni ham “ortiqcha odam”lar qatoriga kiritish mumkinmi? Agar “ha” bo‘lsa, bunga kim aybdor – Oneginning o‘zimi yoki jamiyat? Asar matni asosida “ortiqcha odam” portretini yarating.

Bugungi jamiyat orasida ham “ortiqcha odam”larni ko‘rishimiz mumkinmi? Jamiyatda “ortiqcha odam”lar bo‘lmasligi uchun tavsiyalar bering.

“Yevgeniy Onegin” she’riy romanini to‘liq o‘qib chiqishni tavsiya qilamiz.

TAKRORLASH

Quyidagi savollarga daftaringizda yozma javob bering. Fikringizni aniq va lo‘nda ifoda etishga hamda matnlarga tayangan holda misollar keltirishga harakat qiling.

1. XVII–XIX asrlar adabiyoti vakillaridan sizda chuqur taassurot qoldirganini tanlang va uning ijodini o‘qigan asar(lar)ingiz misolida tahlil qiling. Tahlilingizda quyidagi savollarga e’tibor qarating:

a) taassurotingizni qanday sabablar bilan izohlaysiz?

b) ijodkor asaridagi o‘ziga xoslik nimada?

c) mazkur ijodkor bugungi kunda yashaganida qanday mazmundagi asarlar yaratishi mumkin edi? Nima uchun?

2. Sizningcha, XVII–XIX asrlar adabiyotida inson va jamiyat tasvirida oldin kuzatilmagan qanday o‘ziga xosliklarni ko‘rish mumkin? Bu davr adabiyotini xarakterlaydigan uch muhim xususiyatni quyidagi jadvalda aks ettiring.

Xususiyat	Asarlardan misollar

3. Quyidagi parchalarda qo‘llangan o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid badiiy san’atlarni va ulardan ko‘zlangan maqsadni aniqlang.

A) *Men nola qilay, shom-u sahar dod, eshigingda,*
Jonimni beray, sho‘xi parizod, eshigingda.
Ul lola-vu rayhon-u toza suman, qizil gul,
Ham sarv bukuldi, qadi shamshod, eshigingda.
Mashrab

B) *Jafo tegdi boshimg‘a Layli-yu, Shirin-u Uzrodin,*
Bukun Vomiq ila Majnun-u Farhodimni sog‘indim.
Uvaysiy

D) *Qading hijronida jonim xarob o‘lsa, tong ermaskim,*
Latofatda sanga zebo alifdur “jon” aro qomat.
Ogahiy

E) *Podshoh yo‘qlatsalar nogah, gado deb axtaring,*
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.
Muqimiy

F) *Ko‘rganda qomatingiz bo‘lg‘ay xijil sanovbar,*
Tovus jilvasidin raftoringiz chiroyli.
Furqat

4. Quyida berilgan parchalarda romantizm yoki realizmga xos qanday xususiyatlarni ko‘rish mumkin?

A) Zax va rutubatli tong ota boshladi. O‘rnimdan turayotganimda deraza oynasida sidirilib yumalayotgan tomchilarga ko‘zim tushdi, daydi shaytonvachcha ro‘molchaga emas, oynaga burun tirab tunbo‘yi yig‘lab chiqqandi go‘yo. Butalarning yalang‘och novdalari, quriy boshlagan maysalar, shox-shabbalar, ko‘lmaklar atrofini marjon bo‘lib qirov qoplagani ko‘zga tashlanardi. Eshiklar, devorlar namdan sirg‘anchiq bo‘lib qolgan, botqoqlikdan esa shunchalar quyuq tuman tarqalayotgandiki, yog‘och ustunga qoqib qo‘yilgan, yo‘lovchilarga qishlog‘imiz yo‘nalishishini ko‘rsatib turuvchi yog‘och barmoqni uning tagiga borganimdagina ilg‘adim; sayyohlar unga e’tibor bermasdilar chog‘i, negaki, bizning tomonlarga hech kim kelmasdi. Ko‘rsatkichdan oqib tushayotgan tomchilarni kuzatar ekanman, bezovta vijdonim menga bu kimsa seni bir umrga suzuvchi qamoqxonaga mahkum qiladi, deyayotgandek edi. Botqoqlikda tuman yanada quyuqlashganidan shlyuzlar, to‘g‘on va zovurlar tumanda qarshimdan otilib chiqib, “Ushlanglar uni! Bolakay pashtetni o‘marib qochmoqda!” deb baralla qichqirayotgandek edilar.

Charlz Dikkens, “Katta umidlar”
romanidan (Angliya, XIX asr)
(Shoazim Minovarov tarjimasi)

B)

Ko‘rinadi yolg‘iz oq yelkan
Zangor dengiz tumani aro!..
Nelar izlar u yiroq eldan,
Nelar qoldi yurtida tanho?..
To‘lqin o‘ynar, shamol izillar,
Egik machta g‘ijillar ingroq...
Afsus! U na baxtini izlar,
Na baxtidan qochmoqda yiroq!
Pastda moviy to‘lqin tinmaydi,
Ko‘kda quyosh qilar tilovat.
U – isyonkor, bo‘ron tilaydi,
Bo‘ronlarda bordek halovat.

Mixail Lermontov (Rossiya, XIX asr)
(Sulaymon Rahmon tarjimasi)


Remark

XX ASR ADABIYOTI (1910–1930-yillar)

– XX asr o‘zbek adabiyoti (1910–1930-yillar)

– Abdurauf Fitrat (1886–1938). “Abulfayzxon” dramasi

– XX asrning birinchi yarmi jahon adabiyoti (1900–1950-yillar)

– Erix Mariya Remark (1898–1970). “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani



XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI (1910–1930-YILLAR)

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XX asr boshi (1910–1930-yillar) o‘zbek adabiyotiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

Eslang:
XX asr boshlarida O‘zbekiston tarixida qanday muhim voqealar yuz berdi?

XX asr boshlarida Turkistonda kechgan voqealar sabab mahalliy xalq hayoti uchun xos bo‘lgan ikki muhim jihatni alohida ko‘rsatish lozim:

– birinchisi – Rossiya mustamlaka siyosati asosiga qurilgan bosqinchilik, adolatsizlik, tengsizlik zulmining kuchayishi tufayli paydo bo‘lgan parokandalik;

– ikkinchisi – xalq orasidan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning yetishib chiqishi hamda zulm va g‘aflatdagi xalqning ular yaratgan asarlar ta’sirida uyg‘onishi, millat tafakkurining yangi bosqichda shakllanishi.


آینه
ЗЕРКАЛО
مرآت کوزگو
Цѣна 15 коп.
АДРЕСЪ: САМАРКАНДЪ
МАХМУДЪ ХОДЖИ БЕГБУДИ
№ 1 ЗЕРКАЛО (Окно) № 1
Редакторъ издатель
Махмудъ Ходжи
Бегбуди

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali 1-soni

Turkistondagi **jadidchilik harakati** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida iqtisodiy, siyosiy va ma’rifiy tanazzulga javoban ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida vujudga kelgan edi. 1917-yil fevral inqilobigacha bo‘lgan davrda ma’rifiy maqsadlar bilan boshlangan harakat asta-sekin o‘z rejalarini kengaytirib, mustaqil o‘zbek davlatini barpo etishni maqsad qildi. “Yangi g‘oyalar”, “yangi odam” va “yangi avlod” tushunchalarini o‘z ichiga olgan jadidchilik harakati va jadid adabiyoti namoyandalari Turkiston jamiyati hayotini erkinlik g‘oyalari asosida isloh qilishni eng muhim burchlaridan biri deb hisobladilar.

Jadid adabiyoti nomi bilan tarixda qolgan, mavzu mundarijasi, g‘oyaviy-badiiy mazmuni, badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar XX asr milliy so‘z san’ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr adabiyoti xalqni ma’rifatli qilish, tengsizlik va adolatsizlik hukmron tuzumdan xalos bo‘lib, mustaqillikni qo‘lga kiritish, o‘zligini qadim turkiy xalqlar taqdiridan ajratmagan holda anglash kabi buyuk g‘oyalar asosiga qurilgan edi.

Eslang:
Jadid adabiyoti vakillaridan kimlarni bilasiz? Ularning qaysi asarlarini o‘qigansiz?

O‘ylab ko‘ring:
“Yangi g‘oyalar”, “yangi odam” va “yangi avlod” tushunchalari, sizningcha, nimani anglatadi?

Jadid adabiyoti mavzu-mundarijasida dastlab **ma’rifat** g‘oyalari yetakchilik qilgan bo‘lsa, keyinchalik bu mavzular o‘rnini mustamlakachilikka qarshi kurash, **ozodlik** g‘oyalari egalladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadiyor” kabi qator asarlarda o‘lkadagi savodsizlik, ma’rifatga loqaydlikning mudhish oqibatlari haqida so‘z borsa, “Hind ixtilolchilari”, “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlarida erk va ozodlik g‘oyalari anchayin keskin va oshkora tarzda badiiy talqin etilganini ko‘rish mumkin.

“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmfarmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy,
“Padarkush” dramasidan

O‘ylab ko‘ring:
Nima uchun jadidlar islohotni ma’rifatdan boshlamoqchi bo‘ldilar? Ma’rifat va ozodlik tushunchalari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?

Jadidlar o‘zbek adabiyotiga yangi poetik shakllarni, yangi adabiy janrlarni ham olib kirdilar. O‘zbek adabiyotida o‘sha paytgacha mavjud bo‘lmagan hikoya, drama, roman janrining dastlabki namunalari ham jadidlar tomonidan yaratildi.

Eslang:
Dastlabki o‘zbek dramasi qanday nomlanadi? Uning muallifi kim? Ilk o‘zbek romani-chi?

O‘ylab ko‘ring:
XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida yangi janrlarning paydo bo‘lishini yana qanday omillar bilan bog‘laysiz?



Toshkentda 1913-yili Abdulla Avloniy rahbarligida ochilgan “Turon” teatri a’zolari. Teatr o‘z faoliyatini Mahmudxo‘ja Behbudiy dramasi asosidagi “Padarkush” spektakli bilan boshlagan

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabi jadid adabiyoti namoyandalari zamonasidagi voqealarga munosabatlarini, siyosiy va ijtimoiy mustaqillikni qo‘lga kiritish uchun olib borilayotgan islohotlarni o‘z asarlarida ochiqdan ochiq aks ettira olmas edilar. Chunki ularning asarlari o‘sha davrning hukmron mafkurasiga xizmat qilgan tanqidchilar tomonidan muntazam va jiddiy nazorat qilinar edi. Jadidlar uchun ramziy obrazlar orqali ham ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish oson kechmagan. Shu bois ular istiqlol haqidagi g‘oyalarini imkon qadar asarning mazmuniga, mavzu-mundarijasiga ehtiyotkorlik bilan singdirishga harakat qilganlar. Masalan, Fitratning “Mirrix yulduziga” she’rini ozodlikni ramziy obrazlar vositasida tarannum etuvchi asarlarning go‘zal namunasi sifatida baholash mumkin:

Go‘zal yulduz, Yerimizning eng qadrli tug‘g‘ani,
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg‘a tushibsan?

Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,
So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?

Fitrat, “Mirrix yulduziga” she’ridan

Tahlil qiling:
Ozodlik tarannumida Fitrat nima uchun aynan Mirrix (Mars) yulduziga murojaat qilyapti? Mirrix yulduzi nimaning ramzi? Siz avval o‘qigan jadid adabiyoti namunalarida mualliflar murojaat qilgan yana qanday ramziy-majoziy obrazlarni eslaysiz?

XX asrning 1910–1930-yillarida jadidlar, millat fidoyilari sho‘rolar imperiyasining mutelikni shakllantirish siyosatiga qarshi chiqib, ham badiiy, ham g‘oyaviy jihatdan mukammal asarlar yaratdilar. Mahalliy xalqning asriy orzulari hamda jamiyat mafkuraviy-siyosiy talablari o‘rtasidagi keskin nomutanosiblik xalq ongini uyg‘otibgina qolmay, har xil ko‘lamdagi milliy ozodlik harakatlarini ham keltirib chiqardi. Ushbu milliy harakat xalqimiz o‘z taqdirini belgilashida muhim ahamiyat kasb etdi.

LOYIHA

Kichik guruhlarda ishlang. XX asr boshlari jadid adabiyotining quyida keltirilgan namoyandalaridan birini tanlang. Kutubxona va internet manbalari asosida tanlangan adib haqida taqdimot tayyorlang. Taqdimotda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor bering:

– muallifning hayoti va faoliyati;
– uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi;
– asarlarida ilgari surgan asosiy g‘oyalari va bu g‘oyalarning bugungi kun uchun ahamiyati;
– muallifning qarashlarini aks ettiradigan muhim iqtibos.


Mahmudxo‘ja Behbudiy


Abdulla Avloniy


Is’hoqxon Ibrat

ABDURAUF FITRAT (1886–1938). “ABULFAYZXON” DRAMASI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “Abulfayzxon” dramasidagi asosiy obrazlarni tahlil qilamiz;
– asarda aks ettirilgan milliy inqiroz sabablarini tadqiq qilamiz.



Men sening uchun tirildim,
Sening uchun yasharman,
Sening uchun o‘lurman!

Abdurauf Fitrat

... Har qanday holda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi.

Begali Qosimov

Muallif haqida

Davlat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma’rifatparvar Abdurauf Abdurahim o‘g‘li (adabiy taxallusi – Fitrat) 1886-yili Buxoro shahrida tug‘ildi. Mir Arab madrasasida o‘qib yurgan davrida Qrim, Qozon, Boku, Istanbul shaharlaridan keltirilgan gazeta va jurnallar bilan muntazam tanishib bordi va uning dunyoqarashi mazkur nashrlarda targ‘ib etilgan jadidchilik qarashlari ta’sirida shakllandi.

Adib XX asr boshlarida turli mamlakatlarga sayohat qildi. Manbalarga ko‘ra, u 1909–1913-yillarda Istanbul universitetida tahsil oldi, u yerda yurtdosh va maslakdosh talabalar bilan birgalikda “Buxoro ta’limi” jamiyatini tashkil qildi.

Buxoroga qaytgach, shoir maktabda o‘qituvchilik qildi, “Yosh buxoroliklar” milliy-demokratik harakatida, “Chig‘atoy gurungi” adabiy-ma’rifiy tashkilotida faol ishtirok etdi, “Tong” jurnalini chop qilishni boshladi. Buxoro amirligida siyosiy tuzum, maorif, adliya sohalarini isloh qilish rejalarini tuzishda ishtirok etdi.

Buxoroda amirlik ag‘darilgandan keyin u Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bir qancha vazirliklarida rahbar lavozimlarda xizmat qildi, Buxoro yoshlarini Germaniyaning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborish jarayonlarida faol ishtirok etdi. 1923-yildan keyin Leningrad (hozirgi Sankt-

Peterburg), Moskva, Toshkent va Samarqand oliy ta’lim muassasalarida ishladi, o‘zbek ziyolilaridan birinchi bo‘lib professor unvonini oldi.

1937-yilda Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, 1938-yilda Toshkentda qatl qilindi. 1960-yillarda unga qo‘yilgan ayblar asossiz ekani isbotlanib, o‘limidan so‘ng nomi oqlandi.

Asarlari

– “Sayha” (“Na’ra”) (fors tilida), “Uchqun”, “Mening tunim” she’riy kitoblari;

– “Qiyomat”, “Zahroning imoni”, “Oq mozor”, “Qiyshiq eshon”, “Zayd va Zaynab”, “Me’roj” hikoyalari;

– “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon”, “Shaytonning Tangriga isyoni”, “Arslon”, “Vose qo‘zg‘oloni”, “To‘lqin” singari dramatik asarlar;


– “Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning munozarasi” (“Munozara”), “Hind sayyohi”, kabi publitsistik asarlar va qator maqolalar;

– “Muxtasar islom tarixi” risolasi, “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasi, “O‘zbek adabiyoti namunalari” xrestomatiyasi, “Aruz haqida” risolasi, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va musiqashunoslikka oid asarlar.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

“Abulfayzxon” dramasida XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi tugab, hokimiyat mang‘itlar qo‘liga o‘tishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi.

Eslang:
Buxoro xonligi qachon va qanday paydo bo‘ldi? Bu davlat hozirgi qaysi davlatlarning hududlarini qamrab olgan edi?



Markaziy Osiyo xaritasi. XVII asr

Ensiklopediyadan olingan quyidagi ma’lumot bilan tanishib chiqing.



Buxoro amirligi bayrog‘i

Shayboniylardan keyin Buxoro xonligini boshqargan ashtarxoniylar davrida siyosiy nizo va beboshliklar deyarli to‘xtamaydi. Xonlikda siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuboradi. Fitna natijasida o‘ldirilgan Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzxon taxtga o‘tqazilgach, hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo‘liga o‘tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, bir qancha hududlar xonlikdan ajralib chiqadi. Bundan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh 1740-yili Buxoro xonligini bo‘ysundiradi va mang‘itlardan bo‘lgan Muhammad Hakim otaliqni ishonchli vakili qilib tayinlaydi. Abulfayzxonning nufuzi pasayib ketadi. 1747-yilda otasi o‘rniga otaliq etib tayinlangan Muhammad Rahim boshliq fitnachilar Abulfayzxonni o‘ldiradilar. Bundan norozi bo‘lgan viloyat hokimlari isyon ko‘taradilar. Qo‘zg‘olonlar shafqatsiz bostirilgach, Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1753-yilda Buxoro taxtini egallaydi va o‘zini “amir” deb e’lon qiladi. Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib, mang‘itlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Mang‘itlar davlatni 1920-yilgacha – sovet qo‘mondoni Frunze Buxoroni egallaguncha boshqaradilar. So‘nggi amir Said Olimxon Afg‘onistonga qochadi va Buxoro amirligi o‘rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgani e’lon qilinadi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan

“Abulfayzxon” dramasi 1924-yilda chop etilgan.

Eslang:
1920-yillarda O‘rta Osiyo siyosiy xaritasida qanday muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi? Buxoro davlatining keyingi taqdiri nima bo‘ldi?

O‘ylab ko‘ring:
Fitratning Buxoro tarixi mavzusiga murojaat qilishini qanday sabablar bilan izohlaysiz? Asarni o‘qib bo‘lgach, bu savolga yana qayting va muhokama qiling.

“Abulfayzxon” tarixiy mavzuda yozilgan dramatik asardir.

Eslang:
Qanday dramatik asarlarni o‘qigansiz? Dramatik asarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Dramatik asar:
– sahnada ijro etish uchun yoziladi;
– syujeti dialoglar va harakatlar asosida rivojlanadi;
– obrazlarning ichki kechinmalari ko‘proq solilokviy va monologlar orqali ochib beriladi.

Monolog – dramatik asarda qahramonning boshqa qahramonlarga yoki tomoshabinlarga qaratilgan nutqi.

Solilokviy – dramada qahramonning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi. Solilokviy ko‘pincha qahramon sahnada bir o‘zi bo‘lganda ijro etiladi va boshqa qahramonlar uni eshitmaydi.

Asarni o‘qish davomida asosiy obrazlarning sahnadagi gaplari, xatti-harakatlariga e’tibor bering. Fikringizcha eng muhim bo‘lgan, obraz xarakterini ochib beradigan gaplar, xatti-harakatlarni ajratib oling va quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring. Asarni o‘qib bo‘lgandan keyin to‘ldirgan jadvalingizni partadoshingizniki bilan qiyoslang. Qaysi o‘rinlarda fikringiz uyg‘un keldi va qaysi o‘rinlarda farq qildi?

Obraz	Eng muhim gapi	Eng muhim harakati	Bu gapi, xatti-harakati obrazni qanday xarakterlaydi?
Abulfayzxon			
Ibrohimbiy			
Hakimbiy			
Rahimbiy			
Ulfat			
Qozi Nizom			
Nodirshoh			

Asarni o‘qish davomida o‘zingizni rejissyor sifatida tasavvur qiling va dramani xayolingizda “sahnalashtiring”. Buning uchun quyidagi strategiyalardan foydalaning.

Vizualizatsiya (tasavvur qiling)	Sahnada nimani ko‘ryapman? Qahramonlar qanday kiyingan? Ular sahnada qanday harakat qilishadi, qanday gapirishadi, o‘zlarini qanday tutishadi?
Quloq tuting	Aktyorlar qanday gapirishi kerak? Rolni ijro etayotganida qaysi so‘zlarga urg‘u berishi, obrazning ichki kechinmalarini ovoz orqali qanday yetkazib berishi kerak?

O‘zingizga savol bering	Nima bo‘lyapti o‘zi? Qahramon nega bunday deyapti yoki qilyapti? Uning maqsadi nima?
Hayot bilan bog‘lang	Hayotimda shu obrazga o‘xshagan insonlarga duch kelganmanmi? Shu vaziyatda men nima qilgan bo‘lar edim?
Taxmin qiling	Keyin nima bo‘ladi? Kim nima deydi, nima qiladi, o‘zini qanday tutadi?
Tahlil qiling	Bu obrazni muallif qanday tasvirlayapti? Sahnadagi voqealar bilan muallif tomoshabinlarga nima demoqchi?
Kechinmalaringizga quloq tuting	Bu asar menda qanday taassurot qoldirdi? Bu asarda menga nima yoqdi? Nima yoqmadi?

“Abulfayzxon” dramasini o‘qish jarayonida ushbu strategiyalarni sinab ko‘ring. Mutolaa davomida asarni xayolingizda “sahnalashtirib” ko‘ring. Sahna bezaklari, ularning joylashuvi, aktyorlarning xatti-harakatlari, tovush effektlarini aniq rejalashtirishga urining.



“Abulfayzxon” spektaklidan lavha



ABULFAYZXON

(Yo‘qsul o‘lkasining tarixidan besh pardali fojia)

K I M S A L A R*

Abulfayzxon – Buxorodagi o‘zbek xonlarining so‘nggisi; qirq-ellik yoshlarinda.

Ulfat – xonning xo‘jasaroyi (haram boshlig‘i); qirq-ellik yoshlarinda.

Davlat to‘qsoba – xonning yaqin xizmatchilarindan.

Qozi Nizom – Buxoroning qozikaloni. Ellik-oltmish yoshlarinda.

Hakimbiy – xonning inog‘i, so‘ngra otalig‘i; ellik-oltmish yoshlarinda.

Rahim qo‘rchi – so‘ngra to‘qsoba, so‘ngra otaliq. Hakimbiyning o‘g‘li; o‘ttiz-qirq yoshlarinda.

Mir Vafo – Rahimxonning hukmronlik tarixiga bag‘ishlangan “Tuhfayi xoniy” asarining muallifi. Hakimbiyning odami, ellik-oltmish yoshlarinda.

Donyolbiy – Hakimbiyning ukasi; qirq-ellik yoshlarinda.

to‘qsoba (to‘qsabo) – saroyda taomlarni nazorat qilib turgan amaldor

qozikalon – bosh qozi (sudya)

inoq – saroydagi yuqori mansablardan biri

otaliq – xonning maslahatchisi

qo‘rchi – saroyda qurol-aslahalarga javobgar amaldor

mang‘it – o‘zbek urug‘laridan biri
tilchi – ayg‘oqchi

Ibrohim inoq – so‘ngra otaliq; oltmish-yetmish yoshlarinda.

Tog‘ayqulbek – mang‘it beklarindan.

Xo‘ja Kalon – mashhur xo‘jalardan.

Oxund – Buxoroning katta mullasi.

Nodir shoh – Eron shohi.

Rizoqulixon – Nodir shohning o‘g‘li.

Mirzo Mahdi – shohning bosh kotibi.


Aliqulixon, Husaynxon, Ahmadxon – Eronning qo‘shun boshliqlari.

Abdumo‘minxon – Abulfayzxon o‘g‘li, 15 yashar.

Yo‘ldosh, Ergash – qalandar kiyimlik tilchilar, Hakimbiyning odamlari.

Qorovullar, xizmatchilar, jallodlar, cholg‘uchilar.

** E s k a r m a: Bundagi voqealarda birinchi parda bilan ikkinchi parda orasinda yetti yil, ikkinchi, uchinchi pardalar bilan to‘rtinchi, beshinchi pardalar orasinda bir yil zamon o‘tkandir. Shuning uchun kimsalarning yoshlarini yozg‘anda qirq-ellik, oltmish-yetmish deb o‘n yillik ochiqliq qoldirildi (Fitrat).*



“Ark. Buxoro”.
Ulug‘bek Muhamedov ishlagan surat

BIRINCHI PARDA

Kecha. Buxoro arkinda qabul. Abulfayzxonning uyi shohona to‘shalib, bezangan. O‘rtada osilgan muhtasham “Chil chirog‘”ning butun shamlari yonib turadir. Uyning o‘rtasinda, kichkina kursichaning ustindag‘i shamdonchada yonib turg‘an shamning oydinlig‘i ostinda Ulfat xo‘jasaroy, Mir Vafo ham Qozi Nizom taxta o‘ynab turalar. Tashqarida cholinib turgan cholg‘ular birozdan keyin sekinlashar, so‘ngra bitar.

taxta – shaxmat

Q o z i N i z o m. Kisht! (Bir dona surar.)
M i r V a f o. E... otimiz ketdi-ku!
U l f a t. Podshohi olam eson bo‘lsalar, yana ot topilar.
Q o z i N i z o m. Tangri xoqonimizg‘a esonliq bergay.
U l f a t. Omin (bir dona surar).
M i r V a f o. Shu kecha tushimda xoqonimizni ko‘rdim, bo‘z bir otg‘a mingan, qo‘llarinda qilich, yiroqlarg‘a qarab turg‘anlar edi.
Q o z i N i z o m. Xudo xohlasa, yiroq yerlargacha borib, ko‘b o‘lkalarni olarlar.
U l f a t. Nafas muborak, omin.
M i r V a f o. Kisht! (Bir dona surar.)
Q o z i N i z o m. Mana, emdi ish qiyinlashdi!

Mir Vafo haqiqatdan ham tushida xonni ko‘rgan deb o‘ylaysizmi?

Hammalari taxtag‘a tikilalar. Abulfayzxon ichkari uylaridan juda og‘ir bosib chiqar, o‘tirg‘anlarg‘a qarab yurar, hammalari turub qo‘l qovushturalar.

Xonning ruhiy holatiga e’tibor bering. Sizningcha, bunday holatning sababi nimada?

A b u l f a y z x o n. Qani, kim kuchli?
U l f a t. Xoqonimizning ikkala qullari ham yaxshi o‘ynaylar.
X o n. Sen qaysi tomonda?!
U l f a t. Men xoqonimizni olqab tomosha qilib turaman, hech bir yoqqa qo‘shulg‘anim yo‘q.

Xon qaytib, katga chiqar. Yonboshlab, bir qo‘lini boshig‘a tirkab uzonar. Kuchli bir qayg‘u ostinda ezilib turg‘ani ko‘runadir.

kat – so‘ri, karavot

M i r V a f o. Kisht! (Bir dona surar. O‘yunchilar singirlanib, taxtag‘a qaraylar.)
X o n. Kim o‘tdi?!

U l f a t. Mir Vafo qulingiz o‘tdilar.

Xon boshini qimirlatur. O‘yunchilar taxta boshindan turub, uyning eski yoqasindag‘i ko‘rpalarga o‘turalar. Xizmatchi kirib, taxtani hamda kursicha bilan shamdonni olib chiqar.

X o n (Qozi Nizomga). Farhod otaliqni ko‘rdingizmi?

Q o z i N i z o m. Hazratimning buyruqlari bilan borib ko‘rgan edim.

X o n. Nima qildingiz?

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingiz bilan uzun so‘ylashdim, hazratim buyursalar, hammasini arz qilayin.

X o n. Aytingiz.

Q o z i N i z o m. Bordim, ko‘rushdim, so‘yladim: “Siz xoqonimizning eng ishonchli qullari bo‘lasiz. Xoqonimizning muborak mijozlarig‘a yoqmayturg‘an ishlar qilar ekansiz. Eron qo‘shuni Qarshidan qaytqondan so‘ngra, sizning yurush-turushingiz boshqacha bo‘lg‘an ekan”, dedim.

X o n. “Eron qo‘shunini Qarshidan qaytarg‘an yolg‘uz sen emassan”, demadingizmi?!

Q o z i N i z o m. Uni ham aytdim. “Nodir shoh tomonidan yuborilg‘an qo‘shunning Qarshidan qaytishi uchun sizgina emas, Hakimbiy inoq ham ko‘b tirishdilar”, dedim.

X o n. Nima dedi?!

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingiz bu so‘zimga kulubgina qaradilar. “Eron qo‘shuni ikki-uch bekninggina tirishmagi bilan yurtimizdan chiqmadi”, dedilar.

M i r V a f o. Xoqonimiz juda yaxshi biladilarkim, Nodir shoh qo‘shunining tuprog‘imizdan chekilishiga Hakimbiy inoq qullari ko‘b tirishdilar. Otaliq shuni ko‘rmak istamaylar chog‘i!

Q o z i N i z o m. Otaliq deylarkim, Eron qo‘shunini tuprog‘imizdan biz chiqarmadiq, o‘zi chiqdi.

X o n. Nima... O‘zimi chiqdi?!

Q o z i N i z om. Otaliq qulingiz shunday deylar: “Eronning, – deylar, – yangi to‘p, miltiqlar bilan yaroqlang‘an qo‘shuni bizning qo‘shunimizni buza olg‘an bo‘lsa ham, o‘zbakning boturlig‘ini bilg‘ani uchun, hurkub tura edi. Bizga yordam uchun Xiva qo‘shunining ham Buxorog‘acha kelganini eshitg‘ach, butun qo‘rqdi, ustaliq bilan urushni yotquzdi-da, qaytib ketdi. Bu ishda menim-da, Hakimbiy inoqning-da ayricha xizmatimiz Xiva qo‘shuni Buxorog‘a kelgancha urushni uzatib turmoq bo‘ldi. Men Eron qo‘shunini qaytardim deb, kattalik qilmag‘anim kabi, xonimizdan yoshirung‘ina Nodir shohg‘a elchilar yuborib, xabarlashibda turmadim”.

X o n. Kim Nodirg‘a elchi yuborg‘an ekan?!

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingizning so‘zlariga ko‘ra, Hakimbiy inoq shunday qilg‘an bo‘lsalar kerak.

X o n. Ul menga do‘st bo‘lsa, nega bukungacha qizini yubormaydir?!

Q o z i N i z o m. Uni ham so‘radim.

X o n. Nima dedingiz?!

Q o z i N i z o m. “Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarinda qurbon qilmoq hammamizg‘a lozimdir. Shuni qilmag‘anda, sultonimizning chin qullari bo‘la olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortuq qilmay turasiz”, dedim. Otaliq bu so‘zni eshitg‘ach, yomon qizidilar. “Xong‘a yaxshi ko‘runmak uchun qiz qurbon qilg‘uchilar ko‘b, shunlarning qizlarini oldira beringiz”, dedilar.

X o n. O‘zi yubormaydir. Yuborg‘anlarg‘a so‘z ham otadir.

U l f a t. Yomonning bir qilig‘i ortuq!

Q o z i N i z o m. “Biz xon hazratlarig‘a o‘zimizni qurbon qildik, emdi nomusumizni ham istamasunlar”, dedilar. Men aytdimki...

X o n (so‘zini kesib). Bas!.. Yegan tuzlar ko‘r etsun uni... Kimni tuproqdan ko‘tarib, kursiga chiqarsaq, tezgina boshimizg‘a chiqmoqchi bo‘ladir.

Farhod otaliq: “Nomusimizni ham istamasinlar...” – deganda nimani nazarda tutgan?

U l f a t. Xoqoni olam! Unlarni yana tuproqg‘a qaytarmoq sizning qo‘ling‘izdadir.

X o n. Yaxshikim, bunlarning o‘limi qo‘limizdadir. Yo‘qsa, oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar!!!

U l f a t. Xoqonimizg‘a ma’lumdirkim, podshohliq qon bilan sug‘orilaturg‘an bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘an yerda bu og‘ochning qurub qolishi aniqdir.

og‘och – daraxt

X o n (Ulfatg‘a). Tur joyingdan. Tez ket. Besh daqiqadan keyin Farhod otaliq boshini kelturasan. Qanday istasang, shunday ishla! (Ulfat qulluqlab chiqar.) Men tinchg‘ina turayin deb, akamni o‘ldirdim. Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchlig‘imni buzmoq istaylar! Qo‘yaman sizni!

Q o z i N i z o m. Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg‘ani uchun uni o‘ldirmak nechuk bo‘lar ekan?

X o n (Qozining so‘zini eshitmagandek biroz o‘ylag‘andan so‘ng). Farhod otaliqni eski bir qulimmi, dedingiz?!

Qozi N i z o m. Hazratim karomat qildilar.

X o n. Farhod otaliq xitoy qipchoqning boshlig‘idir, bilmaysizmi?!

xitoy qipchoq – o‘zbek urug‘laridan biri

Q o z i N i z o m. Hazratim yaxshi biladirlar.

X o n. El boshlig‘i bo‘lg‘an beklarim menga qul bo‘lmaylar, unlar o‘z ellarig‘a toyanib, tutash menga yomonliq qilmoqchi bo‘lalar.

Q o z i N i z o m. Tavba qildim!

X o n. Buxoroda el boshliqlari bo‘lmaganda, men tinchg‘ina xonliq sura olar edim. Menim butun qayg‘ularim shunlardandir. Otam sotib olg‘an qullar mana Ulfat bilan Davlat. Ko‘ringiz-chi, men chizg‘an chiziqdan chiqardirlarmi?

Q o z i N i z o m. Albatta, chiqmaylar.

X o n. Emdi kimni otaliq qilishimiz kerak, siz shuni aytingiz, boshqa gaplarni qo‘yabering!

Q o z i N i z o m. Tangri xoqonimizg‘a esonliq bergay. O‘zlari yaxshi biladirlar.

M i r V a f o. Hazratim, albatta, yaxshiroq biladirlar. Mang‘itlardan Hakimbiy inoq, qalmoqlardan Jiyanqulibiy, kenagaslardan Ibroqimbiy qullari bor.

X o n. Jiyanqul bo‘lmaydir. Hakimbiy bilan Ibrohim kenagasdan bittasini qo‘yarmiz. ... To‘xta, domullo! Menim yonimda har kun maxtab turg‘aning Hakimbiy inoq Nodir shoh bilan nechun xabarlashadir?!

M i r V a f o. Bu so‘z to‘g‘ri bo‘lmasa kerak.

X o n. Boya qozining Farhod otaliqdan kelturgan xabarlarini eshitmadingmi?!

M i r V a f o. Farhod boshliq o‘zining o‘lumini bilg‘an bo‘lsa kerak. Qutulmoq uchun shunday so‘ylagandir.

X o n. Men boshqa joylardan ham eshitdim, to‘g‘ri so‘yla!

M i r V a f o. Hazratim eson bo‘lsunlar. Inoq qulingiz bunday ishni o‘ylamag‘an bo‘lsalar kerak. Menim hech xabarim yo‘q. Shuni juda yaxshi bilamankim, inoq qulingiz xoqonimizning muborak xizmatlarini har narsadan ortuq ko‘radirlar.

X o n (tashqariga qarab). To‘qsobani chaqir, kelsun.

Davlat to‘qsoba kelar.

Yotishda kimlar bor?!

D a v l a t. Ibrohimbiy bilan Rahim qo‘rchi bor.

X o n. Ikkovini ham olib kel. So‘ngra bizga bazm qilib ber!

Davlat to‘qsoba chiqar.

Mana shul Davlat bilan Ulfat kabi o‘nta odamim bo‘lsa edi, Buxoroni tinchg‘ina saqlar edim. Ishning yo‘llarini bilalar, teran tushunalar. Yomonliq, yog‘iyliqni esa sira o‘ylamaylar.

Q o z i N i z o m. Hazratim marhamat qilsalar, hamma qullari ham shunday ishlaylar.

Davlat to‘qsoba chag‘ir bilan piyolalarni kirgizadir. Ketindan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naychi, bir dafchi, birda o‘yinchi qiz kirarlar. Hammalari o‘turgach, bazm boshlanadir. Davlat uch piyoladan chag‘ir tarqatadir. Bazm bitkach, o‘yunchi, cholg‘uchilar qulluqlab chiqarlar. Ulfat piyolalarni chiqarar.

X o n (juda teran bir tushunchadan ayrilib). Rahim qo‘rchi, otangiz qalay?

mang‘it, qalmoq, kenagas – o‘zbek urug‘lari

yotish – saroydagi mehmonxona

yog‘iy – dushman

daf – chertib chalinadigan musiqa asbobi

R a h i m q o‘ r ch i. Hazratimni duo qilib turadirlar.
X o n. Yaqinda Erondan sizga qo‘noqlar kelganmi?!
R a h i m q o‘ r ch i. Hazratim karomat qildilar.

qo‘noq – mehmon

Mir Vafo telbalanadir.

Sizningcha, Mir Vafo nega bezovta bo‘lyapti?

X o n. Kim ekan unlar?!
R a h i m q o‘ r ch i. Qarshi urushinda Eron qo‘shunindan bir-ikki kishi bizning tomong‘a tutulg‘an edilar. Inoq otam unlarni ozod qilg‘an edilar. Shunlar savdo uchun Buxorog‘a kelgan ekanlar. Yaxshiliqni unutmag‘anlarini ko‘rsatgali otamni kelib ko‘rdilar.
X o n. Tuzuk... Yaxshiliq, albatta, unutilmaydir. (Biroz to‘xtab.) Biz Farhod otaliqqa shuncha yaxshiliq qildiq, bittasini ham bilmadi. Yana bizg‘a xiyonat qila boshladi. Eng so‘ng o‘z boshini yeydi.

Rahim qo‘rchi bilan Ibrohimbiy shoshqin tinglaydilar.

Farhod otaliqni o‘rundan tushurdik. O‘z jazosini yaqinda ko‘rar. Uning o‘rninda, Ibrohimbiy, seni otaliq qildiq. Rahim qo‘rchi, senga ham to‘qsobaliq berdiq. Inoq, otang ham yaqinda katta mehribonchiliq ko‘rarlar.

Ikkalasi turub, qulluq qilarlar.

I b r o h i m b i y. Hazratimg‘a arzim bor.
X o n. Ayt!
I b r o h i m b i y. Otaliq o‘rni juda katta o‘run, men bajara olmayman.
X o n. Nega bajara olmaysan, uning nimasi bor?!
I b r o h i m b i y. Farhod otaliq kabi o‘tkur bir odamning bajara olmag‘ani bir ishni men qanday bajararman?!

Sizningcha, Ibrohimbiy nega mansabdan voz kechyapti?

X o n. Nimasi bor, nimani bajara olmaysan?!
I b r o h i m b i y. Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin bir ish bo‘lib qolg‘an.
X o n. Nima deganing bu?!
I b r o h i m b i y. Shul Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoq-da mumkin emasdir.
X o n. Devona bo‘ldingmi?!
I b r o h i m b i y. Devona emas, to‘g‘riman, to‘g‘riliqning devonaliqdan yomonroq natijalar berganini bilaman. Yana to‘g‘riliqdan ayrila olmayman, xoqonim! Shul ikki odam bo‘lmag‘anda, siz Farhod otaliqni yo‘q qilmoq fikriga tushmas edingiz.

X o n (qizg‘in). So‘zni uzatma, qabul et!

Qozi Nizom bilan Rahim qo‘rchi ko‘zlari bilan uni qabul etdirarga tirisharlar.

I b r o h i m b i y. Buyrug‘ingizni qaytarmoq qo‘limdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun menim ham o‘limimg‘a hukm chiqararsiz, xoqonim!

X o n. Qabul etdingmi?!

I b r o h i m b i y. Qabul etdim.

X o n. Emdi chiqib, saqlovda yotingiz. Erta bilan yorliqlaring‘iz chiqar.

o‘rtuk – parda

Ikkalasi ham duo qilib, chiqib ketarlar. Bunlar chiqg‘ach, Ulfat xo‘jasaroy qizil o‘rtuk bilan o‘rtulgan bir taboqni ko‘tarib kelar, xonning oldig‘a qo‘yar. O‘zi ikki odim keyinga borib, qo‘l qovushtirub turar.

Och ustini!

?

Taboq(lagan)da nima bor deb o‘ylaysiz?

Ulfat o‘rtukni olar, taboqda Farhod otaliqning qong‘a bo‘yalg‘an oq soqolli boshi ko‘runar.

X o n (yovvoyi kulush bilan). Xo... xo... xo... eng so‘ng o‘lum... o‘lum janjalimizni bitirdi. Butun janjallarni o‘lum bitiradir.

U l f a t. Xoqoni olam eson bo‘lgaylar.

X o n. Buni chiqarib, “Chil duxtaron” qudug‘iga tashlat. (Ulfat taboqni olib chiqar.) Yeganlari tuzni o‘ylamag‘anlarning jazolari shuldir. (Qozi Nizom bilan Mir Vafog‘a.) Sizga javob emdi.

Q o z i N i z o m. Tangri hazratimg‘a esonlik bergay.

Ikkovi ham duo qilib, turub ketalar.

X o n (yolg‘uz). Shul tiriklikdan-da bezdirdilar meni. (Turub yuradir.) Bir dushmanimning qoni qurumayin, yana birtasi chiqib qoladir. Bu Ibrohim ahmoq ham meni tinch qo‘ymay turg‘andek ko‘rinadir. Qachong‘acha o‘ldiraman bunlarni! Ortuq hech kimning menga ishonchi qolmadi... Bunlarning o‘zi yo‘lg‘a kelib menga dushmanliq qilmoqni tashlasa, nima bo‘lur! Yo‘q... yo‘q. Bunlarning o‘zi yo‘lg‘a kelmaydir. O‘lduraman, o‘lduraman. Dunyoda birta dushmanim qolmag‘ancha, qon to‘kaman. Ulfatning so‘zi to‘g‘ri! Podshohliq qon bilan sug‘orilaturg‘an bir og‘ochdir. (Ulfatning kirganini ko‘rib, joyiga o‘turar.) Kel, Ulfat, o‘tur. Qanday qilib o‘ldurding?!

U l f a t (o‘turar). Xoqonimizning ishlari bor, deb kelturdim. Bir uyga kirguzdim. Unda yoshurunib turg‘an ikki kishi birdan chiqib, yopishdilar. Biroz talashg‘andan so‘ng, yiqitib, boshini kesdilar.

X o n. Hech kim onglamadimi?

U l f a t. Kimsa onglag‘an emas.

X o n. Ibrohim kenagasni otaliq qilmoqchi bo‘lub, o‘ziga so‘yladiq. Uning ham tusi boshqacha-ku!

U l f a t. Nima dedi?

X o n. Ko‘b ahmoqliqlar qildi. Sening uchun ham ma’nosiz so‘zlar so‘yladi. Hakim inoqning o‘zini otaliq qilsaq bo‘lmaydirmi?

U l f a t. Xoqoni olam! Hakim inoqning Nodir bilan xabarlashib turg‘ani aniq. Shu tobda uni (ish) boshiga qo‘yib bo‘lmaydir. Shuning o‘zi bo‘la bersun, to‘g‘riliq bilan ishlasa, turadir. Yo‘qsa, Farhod otaliq izindan bora qoladir-da!

X o n. Ulfat, men bu ishlardan bezdim. Bu odamlarning birtasi ham menga to‘g‘ri qaramaydir. Farhod otaliq yomonliq qildi. Hakim inoqning qilg‘an ishlarini ko‘rub turubsan. Ibrohimni odam deb o‘ylasam, bu ham buzuqqa o‘xshaydir. Qon to‘kmakdan-da bezdim. Akamni o‘ldurdim. Ko‘b do‘stlarimni o‘ldurdim. Meni bir ota kabi asrag‘an Farhod otaliq-ni(ng) boshini oyoqlar ostinda ko‘rdim. (Ko‘zlarini tutub.) Uf... ko‘zlarim qong‘a to‘ldi. Kechalar uxlay olmayman. Ko‘zlarimni yumg‘ach, butun o‘lg‘anlar, o‘ldurg‘anlarim meni aylanturub olalar, siralanib, yonimdan o‘talar. Meni qo‘rqutalar, menga kulalar!..

U l f a t. Xoqonim, bunlarni o‘ylamangiz. O‘luklarni esingizdan chiqa-ringiz. Yotoqqa kirgach, Qur’ondan bir oyat o‘qub yotingiz. Bunlar ham-masi o‘tg‘usidir. Yaqinda dushmanlaringizning hammasini bitirarmiz. Hozir emdi boshqa ishlarimizni ko‘raylik.

X o n. Yana nima ish?

U l f a t. Farhod otaliqning qizini kelturaylikmi?

X o n. Erta bilan kishi yuborursan. Men emdi charchadim, biroz uxla-yin. Sen ham ket, ishlaringni ko‘r. Birtasini yubor, choponimni olsun. Tan-burchilarg‘a ayt, ikki tanburni kamoncha qilib bir “Husayniy” cholsunlar.

U l f a t. Xo‘b bo‘lubtur.

Husayniy – o‘zbek mumtoz kuylaridan biri

Ulfat chiqar. Xon salla, choponini chiqara boshlar. Xizmatchi kelib, xonning salla, choponnni olib, bir chetg‘a qo‘yar. Xonning kecha kulohini berib, shamlarni o‘churub chiqar. Xon kulohini kiyib, yotoqda uzanib yo-tar. Tashqarida ikki kamonchining “Husayniy” cholgani eshitilar. Cholg‘i sekinlanib bitganda, xon uxlag‘an bo‘lur. Biroz so‘ngra xonning o‘ldiril-gan akasining xayoli qonli kafan bilan ko‘rinadir.

X o n (tushinda). Akam... Nechun keldi... (Bo‘g‘durulg‘ani, arqon bo‘yninda taqilgani holda chiroyli bir xotunning xayoli kelar.) Yo‘qol... ket... (Xotun xayoli xonni bo‘g‘ardek, unga qarab yurar. Xon talvasa qilar.) Ket... ket!... (Bir yigit xayoli Farhod otaliqning boshini olib kelar. Xong‘a yaqinlashar.) Yo‘qol... kelma... Yo‘qol... kelma... (Xayol cheki-lar. Undan so‘ng uchala xayol birgalashib, xong‘a hujum qilarlar. Xon

kuchli talvasa bilan qichqirar.) Voy... Urma! (O‘z tovushindan uyg‘onib, irg‘ib turar.)

Tovushni eshitgan Davlat to‘qsoba bir shamdonchani ko‘tarib, yugurib kirar.

D a v l a t. Hazratim qo‘rqdilarmi?!

X o n (titrab turgani holda). Biroz qo‘rqdim chog‘i! Shamni qo‘yib ket. Suv tayyorlang, tarat qilaman. (Davlat to‘qsoba shamni qo‘yib ketar. Xon yotoqdan tushub, choponini kiyar ham so‘ylar.) Bunlar u dunyoda ham menga qarshu birlashg‘ang‘a o‘xshaylar. Meni tinch qo‘ymaylar, chog‘i! (Shamni olib, boshqa uylarg‘a boraturg‘an eshikdan chiqib ketar.)

tarat – tahorat

Parda tushar.

1. Ushbu pardada Abulfayzxon sizda qanday taassurot qoldirdi? Uni inson va davlat boshlig‘i sifatida qanday ta’riflaysiz?

2. Saroyda va xonlikda qanday vaziyat hukm surmoqda? Bu vaziyatda xon ishonishi mumkin bo‘lgan kishilar bormi?



“Makbet” spektaklidan lavha

Shekspirning “Makbet” tragediyasida Makbet taxtni egallash uchun qirol Bankoni o‘ldiradi va oqibatda uni Bankoning arvohi ta’qib qila boshlaydi. “Abulfayzxon” tragediyasida ham shunga o‘xshash holatni ko‘rish mumkin.

Dramaturglar tragediyalarda arvoh obraziga ko‘p murojaat qilishi sabablarini qanday izohlaysiz?

IKKINCHI PARDA

Oydinli bir kechada Hakimbiyning hovlisi. Terazisiz eshiklari tashqariga ochilg‘an bir uyning oldinda uzun bir sufa. Sufa bo‘yincha uzun bir qalin yoyilg‘an. Ko‘rkamlik ko‘rpalar to‘shalg‘an. To‘rda pakana qurli bir kat ustinda yotoq tayyorlangan. O‘rtadag‘i buyuk shamdonda sham yonadir. Devorg‘a bir qalqon, bir qilich, bir-da Jazoyir miltig‘i osilg‘an. Hakimbiy yolg‘uz, yurub so‘ylaydir.

qalin – polos

H a k i m b i y (tom ustidan ko‘rulgan minorga qarab). O‘lum minoridir bu! Buning ko‘lkasinda yashaganlar o‘lumdan qo‘rqmaylar. Bu uzun minor oxiratning eng qisqa yo‘li bo‘lub qoldi. Minor, Chil duxtaron, Kallaxona, Obxona, zindon... o‘lim... Bunlarning hech birtasinda meni yo‘limdan qaytararliq kuch yo‘qdir. Yotoq o‘lumi-da o‘lum, zindon o‘lumi-da o‘lumdir. Ikkavindan-da qo‘rqmam. Abulfayzxon xonlig‘i Nodir shohning oyoqlari ostinda jon berayotqanda, o‘z ulushimizni olmoq kerak. Shuni olarmiz. Shu kecha Chorjo‘ydan o‘g‘lum qaytadir, erta Nodir shoh qo‘shuni bosib keladir. Shu kecha bilan erta kurashimizning so‘ng daqiqalaridir. (Mir Vafoning kelganini ko‘rmay.) Bu odamlar qayoqqa ketdilar. Kurashning so‘ng daqiqalarini bila turub, haligacha kelmaylar.

Hakimbiy qanday kurashni nazarda tutyapti?

M i r V a f o. Keldik, bek!

H a k i m b i y. Nima gap?

M i r V a f o. Kurashning so‘ng daqiqasini bilg‘animiz uchun hammamiz yugura, chopa ishlamoqdamiz.

H a k i m b i y. Erta Nodir shoh qo‘shunining kelish xabarini olarsiz.

M i r V a f o. Bilamiz!

H a k i m b i y. Nimalar qildingiz?

M i r V a f o. Odamlarimni har tomong‘a yerlashturdim.

yerlashtirmoq – joylashtirmoq

Hakimbiy devorg‘a osilgan miltiq bilan o‘ynab tinglaydir.

Shu kecha Buxoroda chibin uchsa, menga xabari keladir. Ko‘rulg‘usi kishilarni ham ko‘rdim. Juborg‘a borib Xo‘ja Kalon bilan ko‘rishdim. Butun fikringizga qo‘shuldilar. O‘zlari ham Qozi Nizom bilan sizga keladirlar. Xon tomonida ikki-uch mullalardan boshqa kishi qolmadi. Qozi Nizom bizga qo‘shulg‘ach, unlarning-da bir chaqaliq bahosi qolmas.

Jubor – Buxoroning janubi-g‘arbidagi mavze

H a k i m b i y. Arkda nimalar bor?

M i r V a f o. Ark o‘zining o‘yun-kulgusiga berilg‘an, ichib yotg‘an edi. Biroq Rahim to‘qsobani Chorjo‘yg‘a yuborishingiz xonning mazasini qochirg‘an. Rahim to‘qsobani yo‘lda yo‘q etmak uchun, Forobg‘acha kishilar yubordilar. Bu ishning bitganini xabar olgach, bizga ham hujum qilib, sizni tutub qamag‘andan so‘ng, o‘zlari Nodir shohg‘a qarshu chiqib, urushar ekanlar.

pilon –
reja (plan)

H a k i m b i y. Bu pilonlarning zamoni o‘tkan emdi. Rahim to‘qsoba-da, men-da unlarning tuzoqlarig‘a tushmaymiz.

Tog‘ayqulbek bilan Donyolbiy kelarlar.

Xo‘sh, ikkingiz birda keldingiz? (Salom berisharlar.)
T o g‘ a y q u l b e k. Kelmaylikmi?
H a k i mb i y. Yomon bir tush ko‘rgan bo‘lg‘aysiz.
T o g‘ a y q u l b e k. Ko‘rdik, ko‘rdik.
H a k i m b i y. Qani o‘turingiz. Tushingizni eshitaylik.

Hammalari o‘turarlar.

T o g‘ a y q u l b e k. Men emas, bu kishi ko‘rganlar. (Kular.)
D o n y o l b i y. Kulushni qo‘ying, gapga keling!
H a k i m b i y. Qani gapiringiz-chi!
D o n y o l b i y. Aka, shu Nodir shoh deganingiz odam har kun Buxorog‘a nechun keladir?
H a k i m b i y (jilmayib). Nodir shoh emdi keladir. Bundan burun kelgan uning o‘g‘li edi.
D o n y o l b i y. Nechun keladir?
H a k i m b i y. Buxoroni olmoq istaydir.
D o n y o l b i y. Rahim to‘qsoba qani?
H a k i m b i y. Chorjo‘yg‘a bordi.
D o n y o l b i y. Nechun?
H a k i m b i y. Nodir shohning fikrini onglab kelsun deb, men yubordim.
D o n y o l b i y. Xondan so‘radingizmi?
H a k i m b i y. Xonimiz Nodir shoh bilan urushmoqchi bo‘lub turalar. Men dushmanlarning fikrini ham kuchini onglab kelmak uchun o‘g‘lumni yubordim, buni so‘ramoq kerakmi?
D o n y o l b i y. Shuni xondan so‘rab yuborsa edingiz, yaxshi bo‘lar edi.
H a k i m b i y. Xonning otalig‘i bo‘la turub, shuncha ishni o‘zim qila olmaymanmi?
D o n y o l b i y. Sizning tilingiz ostinda bir narsa bor, aytmay turasiz. Nima qilmoqchisiz, nima istaysiz? To‘ppa-to‘g‘ri ayta beringiz. Butun Buxoro sizning so‘zingizdan to‘lub qoldi!
H a k i m b i y. Uka! Eron qo‘shuni bilan Qarshida urushg‘animizdan keyin, uning kuchli bir qo‘shun ekanini ongladim-da, Nodir shoh bilan do‘stlik yo‘lini ochdim, xabarlashib turdim. Siz shul chog‘larda bu ishni sezgandek bo‘ldingiz, biroq sizga bu ish yoqmag‘an edi, men shu kundan boshlab, Nodir shoh bilan do‘stlikni uzmaganman.
D o n y o l b i y. Nechun shunday qildingiz?

?

Sizningcha, Hakimbiy Nodirshoh bilan nega yaqinlashgan?

H a k i m b i y. Nodir qo‘shunining Qarshidan chekilgani bir o‘yun edi. Men buni sezgan edim. Hindistonni olg‘an bir qo‘shunning Qarshidan chekilishi uchun, bundan boshqa ma’no bermak to‘g‘ri emas edi. Men Eron qo‘shunining ikkinchi yo‘la ustimizg‘a yurg‘usini ko‘rgan kabi bo‘lub edim. Shuning uchun Nodir bilan do‘stlasharg‘a tirishdim, ham do‘stlashdim.

D o n y o l b i y. Buning nima foydasi bor?!

H a k i m b i y. Nima foydasi bo‘lar edi. Mana Nodir shoh yana keldi. Biroq burung‘i kabi emas. Xon kuchsiz, u kuchli. Xong‘a dushman, menga do‘st bo‘lub keldi.

D o n y o l b i y. Bu ishingiz bilan xong‘a xiyonat qilg‘an bo‘lmaysizmi?!

H a k i m b i y. Qaysi xong‘a?

D o n y o l b i y. Abulfayzxong‘a.

Hakimbiyning harakatlarini xiyonat deb hisoblaysizmi? Siz uning ishlariga qanday baho berasiz?

?

H a k i m b i y. Uka, xoningizning qilg‘an ishlarini bir o‘ylab ko‘ringiz: otamiz bilan kelishib, Farhod otaliq kabi beklarning yordami bilan akasini o‘ldurub, xon bo‘ldi. Taxtga ming‘ach, boshlab otamizni Erong‘a qochirdi. O‘ziga yordam etgan beklarni birta-birta o‘ldurub bitirdi. Eng so‘ng Farhod otaliqni ham o‘ldurub, qizini oldi. Meni ranjitmak uchun, buyuk dabdaba bilan Ibrohim kenagasni otaliq qildi. Yana uni o‘ldirmoqchi bo‘lub, qochirdi. Ibrohim kenagas Karmanaga borib, qo‘shun yig‘di. Buxorog‘a yurush qildi. Men xon tomonindan chiqib, Ibrohim inoq bilan olti-yetti yil urushdim. Bu kun esa menim o‘zimg‘a dushman bo‘lib qolibdir. Nodir shoh bilan do‘stlashg‘anda, biz mana shu kishiga xiyonat qilganmi bo‘ldiq emdi?!

D o n y o l b i y. Mana shul fikrlaringizni xonning o‘zi onglag‘an.

H a k i m b i y. Onglay bersunlar. Dunyoda har kim bir kun o‘lg‘usini biladir. Bir chorasi bormi?

D o n y o l b i y. Yo‘q.

H a k i m b i y. Chorasi bo‘lmag‘ach, uni bilmakdan nima foyda? Biz yaxshiliq qilmoq bilan arkning yomonlig‘indan qutular edik, deb o‘ylamangiz. Unlarning ko‘nglida yomonliq yilon og‘zinda og‘u kabi yerlashib qolg‘an, yuvmoq bilan ketmaydir. Parvonachig‘a nima qildilar. Uni shu minordan tashlag‘anlarini hech kim unutmag‘andir.

M i r V a f o. Ko‘zlarimning xuddi ichinda turibdir-a. Oltmish ikki olchin yuqoridan kelib, yerga tushganda, suyaklarining sharqillab singan tovushi quloqlarimdan ketmaydir.

T o g‘ a y q u l b e k. Hay, emdi biz nima qilarmiz?

H a k i m b i y. Mana shuni so‘rangiz mendan.

D o n y o l b i y. Ayting-chi?

H a k i m b i y. Eron qo‘shuni erta Buxorog‘a qarab yursa kerak. Nodir

shohni do‘stlik bilan qarshi olsak, Buxoroni qutqararmiz, bo‘lmasa Eron qo‘shuni kulimizni ko‘kga uchuradir. Men butun borlig‘im bilan tirishurmankim, xonimiz Nodir shoh bilan urushg‘ali chiqa olmasun. Tilagimga erishayozdim. Emdi shu kechada ham ishni shunday saqlay olsak, aytkanimiz bo‘ladir.

D o n y o l b i y (kelganlarni ko‘rub). Mana, eshonlar ham keldilar. Bunlar onglasa, maylimi?

H a k i m b i y. Men o‘zim bunlarni chaqirdim. Shu ishni onglataman.

Xo‘ja Kalon bilan Qozi Nizom kelarlar. Hammalari turub salomlashkandan so‘ng, o‘turarlar.

X o‘ j a K a l o n. Bu kun Mir Vafo bilan ko‘rushkan edim. Bir necha so‘zlar aytdilar, shunlar to‘g‘risinda o‘zingiz bilan so‘ylashmak uchun keldik.

H a k i m b i y. Juda yaxshi qildingiz, taqsir. O‘zim ham sizlarni kutub turg‘an edim.

X o‘ j a K a l o n. Eron qo‘shuni Chorjo‘ydan o‘tdimi?

H a k i m b i y. Shu kun o‘tkan bo‘lsa kerak. Hanuz xabar yo‘q.

Q o z i N i z o m. Bunlarning kelishidan ulamo, mashoyixg‘a ziyon tegmaydirmi?

H a k i m b i y. To‘g‘ri harakat qilsak, hech kimga ziyon tegmaydir. Yanglish bir ish qilinsa, hammamizning kulimizni ko‘kka uchururlar.

X o‘ j a K a l o n (yelkasini tutub). Tangri o‘zi saqlag‘ay, tavba qildim, xudoyo. Nima qilmoq kerak, taqsir?!

H a k i m b i y. Xonimiz Nodir shoh bilan urushmoq istaylar. Butun dunyoni titratgan bir kishiga qarshu urush ochmoq uchun bizda kuch bo‘lmag‘anini onglamaylar. Men urushmoqni qabul qilmay turubman. Biroq meni(ng) so‘zimni tinglamaylar. Menim fikrim shudir: hammamiz birgalashib, Nodir shohni qarshu olamiz. Xon ham biz bilan borsunlar, Nodir shoh bilan ko‘rushganda, Buxoro xonlig‘ini tortuq qilsunlar. Shoh mamnun bo‘ladir. Xonliqni o‘zlarig‘a bag‘ishlab, tutub ketadir. O‘lkamizni shunday qilib buyuk bir balodan qutqarg‘an bo‘larmiz. Bunday qilmasak, “ne bo‘lmasun, urushamiz”, deb chiqsaq, birinchi uchrashinda yengilamiz. Elimizning bor-yo‘qi talanib bitadir.

?

Sizningcha, Abulfayzxonda Hakimbiyning maslahatini olmaslikdan boshqa chora bormi?

Q o z i N i z o m. Bu fikringiz juda yaxshi. Buni xong‘a onglatmoq kerak.

X o‘ j a K a l o n. Istasangiz, biz shu tobda arkka borib, xon bilan ko‘rushamiz.

H a k i m b i y. Albatta, shunday qilingiz.

Bir xizmatchi yugurib kelar.

X i z m a t ch i. Taqsir, to‘qsoba keldilar.
H a k i m b i y. Qani?
X i z m a t ch i. Mana, ko‘chada otdan qo‘nub turalar.
H a k i m b i y. Ko‘raylik-a?

Hammalari turub, Rahim to‘qsobani qarshu olg‘ali chiqarlar. Sahna biroz bo‘sh qolar, so‘ngra tovushlar kelar.

R a h i m t o‘ q s o b a t o v u sh i. Ota, hammalaringiz yaxshimi?
H a k i m b i y t o v u sh i. Shukur, o‘g‘lim. (Sahnada ko‘runur.) Seni kutub turg‘an edik.

Rahim to‘qsoba bilan boyagilar kelib o‘turalar.

Qani, o‘g‘lum, safaring qanday o‘tdi?
R a h i m t o‘ q s o b a. Ko‘b yaxshi o‘tdi. Shohni ko‘rdim. Men bilan ko‘b yaxshi ko‘rushdilar. Buxoroning mullalari, beklarini so‘radilar. “Biz sizga qo‘noq bo‘lib keldik. Qo‘noqg‘a dushmanliq ko‘rsatmasangiz kerak”, dedilar.
H a k i m b i y. Eron qo‘shuni ko‘bmi?
R a h i m t o‘ q s o b a. Uni so‘ramangiz, ota! Bunday kuchli qo‘shunni umrimizda ko‘rmadik. To‘plar, miltiqlar, fillar bilan yerni titratib keladir. Menga qo‘shunlarini ko‘rsatdilar. Kelar chog‘imda yana shohning oldig‘a kirdim. “Biz Buxorog‘a qo‘noq bo‘lib keldik. O‘lkangiz menga kerak emas. Xoningiz, el-ulusingiz meni do‘stlarcha qarshu olsalar, to‘rt-besh kun turub qaytib ketarman. Yomonliq, dushmanliq ko‘rsatsalar, kullarini ko‘kga uchurarman”, dedilar.

Mullalar bir-birlarig‘a qarab, boshlarini qimirlaturlar. Shu tobda qopqu tomondan ikki qalandar tovushi kelar. Hammalari tinglaylar. Qalandar tovushlari:

qopqu – darvoza

Dunyo, dunyo, sen dunyo-ye,
Kimga vafo qilarsan, ey!
Dunyo, dunyo, sen dunyo-ye,
Dunyo, ko‘b tez yurarsan!
Dunyo, dunyo...

Biri oq soqol, biri o‘rta yoshli ikki qalandar sufa ostig‘a kelib turalar.

Elni qayon surarsan!
Dunyo, dunyo...

Ko‘b tez yurma, biroz tur!
Dunyo, dunyo...
Yo‘lingni bir qarab ko‘r!
Dunyo, dunyo...

Qalandarlar, o‘qub bo‘lg‘ach, qo‘llarini keng ochib, “davlat barqaror” deb duo qilarlar.

H a k i m b i y (qo‘lini kissaga uzatib). Kel, bobo! (Buyuk qalandar yugurib, sufaga chiqar. Boshqalar kissalarindan pul chiqararlar.) Bobo, sen qayerdan?

Q a l a n d a r. Biz Balxdan kelamiz. (Pulni olg‘anda, Hakimbiyning qulog‘iga so‘ylar.) Bu kecha arkdan sizni chaqirarlar, ketmang, uyingizni bosarlar, tayyorlik ko‘ring. (Duo qilib, boshqalarning-da pullarini ola berar. Rahim to‘qsobag‘a kelgach, unga biroz es qo‘yub qarag‘andan so‘ng, pulini olib so‘ylar.) Bek yigit, sening boshingg‘a davlat qushi qo‘ng‘an. Manglayingda katta bir yulduz yoshnab turadir. Yaxshiliq qil, tangrimiz yaqinda senga ulug‘ bir o‘run beradir. (Hakimbiydan boshqalari bir-birlarig‘a qaraylar. Qalandar Hakimbiyga so‘ylar.) Bek, biz shahringizg‘a shu kun keldik. Yotog‘imiz, joyimiz yo‘q. Shul davlatxonadan bizga bir joy ko‘rsatilsa, shu kecha uxlab olayliq.

?

Sizningcha, qalandarlar Hakimbiyning Arkka chaqirilishini qayerdan bilishadi?

H a k i m b i y. Xo‘b bobo. (Xizmatchini chaqirar.) O‘, bola! (Xizmatchi kelar.) Bunlarg‘a bu kecha joy bering, yotsunlar. Tomoq ham bering.

Qalandarlar duo qilib, xizmatchi bilan ketarlar.

D o n y o l b i y. Valiyg‘a o‘xshaydir! O...
X o‘ j a K a l o n. Karomat qilib gapuradir, valiy ekan.

Ulfat xo‘jasaroy salom berib keladir.

H a k i m b i y. Vaalaykum assalom. Keling, taqsir! (Ulfat o‘turub duo qilg‘andan so‘ng, sallasindan xonning muborak nomasini olib, Hakimbiyga beradir. Hakimbiy joyidan turub, xatni olib, o‘pub, ko‘zlariga surtub ochib o‘qur.) “Davlatxohimiz otaliqg‘a ma’lum bo‘lg‘aykim, Eron qo‘shunining tuproqimizg‘a kirgani to‘g‘risinda siz bilan kengashmak istaymiz. Rahim to‘qsoba o‘g‘limiz bilan davlatxonamizga kelgaysiz”. (Xatni qatlab, o‘pub, sallasiga qo‘yg‘andan so‘ng, Ulfatga so‘ylar.) Xo‘b bo‘lubdir. Borib xoqonimizg‘a arzimizni yetkuring, o‘g‘lum Rahim to‘qsoba Eron qo‘shunindan xabar olmoq uchun Chorjo‘yg‘a borg‘an edi. Shu tob-

da keldi. Bu kecha buning xabarlarini olay, o‘zim ham tuzukroq o‘ylab ko‘ray. Erta bilan ikkalamiz salomg‘a borarmiz.

U l f a t. Xo‘p bo‘lubdir. (Turib ketar.)

D o n y o l b i y. Aka, borsangiz bo‘lmasmi?!

H a k i m b i y. Erta boramiz.

X o‘ j a K a l o n, Q o z i N i z o m (turmoqchi bo‘lub). Hay, taqsir, biz ketaylik emdi.

H a k i m b i y. Ketasizmi, taqsirlar? (Joylarindan turarlar.) Hay, xonni tezrak ko‘rub, gapursangiz yaxshi bo‘lur edi. Nodir shoh bilan urushmoqchi bo‘lsalar, hammamiz xarob bo‘larmiz.

X o‘ j a K a l o n. Xo‘b, xo‘b.

Q o z i N i z o m. Albatta, aytamiz. Hay, xo‘sh. (Ketarlar.)

Hakimbiy ularni uzatib qaytg‘ach, o‘turmay gapuradir.

uzatmoq – kuzatmoq

tilchi – josus

H a k i m b i y (Donyolbiy bilan Tog‘ayqulg‘a). Xonning bu kecha meni chaqirishi hiyla edi. Men bormag‘ach, shu tobda uyimni bosmoq uchun kelsalar kerak. Biroq men ularning tuzog‘ina tushmayman. Tayyorlig‘im ko‘rulgan. O‘ttuz merganim Mir arab madrasasinda turadirlar, siz ikkingiz ham shung‘a boringiz. Har tomong‘a qorovul qo‘yingiz. Registon tomonidan hech kimni bu tomong‘a o‘tkarmangiz. Birta-ikkita tilchi yuborsalar mayli, bir qorovul bilan menga yuborasiz.

Donyolbiy bilan Tog‘ayqul bek “xo‘b” deb ketarlar.

R a h i m t o‘ q s o b a. Men ham boraymi?

H a k i m b i y. Yo‘q, sen qol. (Mir Vafog‘a.) Qalandarlarni kelturingiz! (Mir Vafo ketar.) Qani, o‘g‘lim, Eron qo‘shuni qachon kelar?!

R a h i m t o‘ q s o b a. Mendan to‘rt-besh soat so‘ngra Amudaryodan o‘tmoqchi edi. Erta Buxorog‘a yaqinlashsa kerak.

H a k i m b i y. Shoh seni ko‘rganda, bizga bergan va’dasindan so‘z ochdimi, yo‘qmi?

R a h i m b i y. Yo‘q, u to‘g‘rinda gapurmadi, sizlarga katta mehribonchiliklar qilarmiz, deb qo‘ydi.

Sizningcha, Hakimbiy Nodirshohning qanday va’dasini olgan?

Mir Vafo qalandarlarni olib kelar.

H a k i m b i y (unlarni ko‘rgach kular). Xo... xo... xo... xuddi qalandarlarg‘a o‘xshaylar-a. Aftingizni tuzatingiz!

Qalandarlar yasama soch-soqollarini olarlar, Hakimbiyning o‘z kishilari Yo‘ldosh bilan Ergash ekanlari bilinadir.

Gapuringiz, qani?

Y o‘ l d o sh. Sizni arkka chaqirib kishi yubordilarmi?

H a k i m b i y. Yubordilar. Men ketmadim.

Y o‘ l d o sh. Bek! Ketmagan bo‘lsangiz, shu tobda uyni bosarlar.

H a k i m b i y. Bosa olmaylar. Chorasi ko‘rulgan. Boshqa nima xabarlaring bor?

Y o‘ l d o sh. Men ikki kundan beri arkda edim. Xon juda umidsizlangan. Hech yoqdan yordam xabari yo‘q. O‘zlarining kuchsizliklarini ochiq onglag‘anlar emdi. Biroq shularning hammasini sizdan bilalar. Shuning uchun Nodir shoh kelmasdan burun, sizni yo‘q qilmoq yo‘llarini axtarib turalar.

H a k i m b i y (Ergashga). Sen nima qilding?!

E r g a sh. Men Karmanagacha bordim. Hammani ko‘rdim, xatlarni berdim, so‘zlaringizni aytdim. El orasig‘a kirdim, kerak bo‘lg‘an so‘zlarni tarqatdim. Elning sizga qarashi yaxshi, Nodir shoh bilan urushmoqni hech kim istamaydir...

Bir miltiq tovushi chiqar. Mir Vafo seskanar.

H a k i m b i y (Rahim to‘qsobag‘a). Sen odamlaring bilan yaroqlanib tomg‘a chiq. (Qalandarlarni ko‘rsatib.) Bunlarga ham yaroq ber, sen bilan yursunlar. Tomda turungiz, kuchlab kela bersalar, otishingiz. (Rahim to‘qsoba qalandarlarni olib ketar.) Mir Vafo, miltiqdan qo‘rqdingizmi?!

?

Hakimbiy kimga yoki nimaga ishonib xonga ochiq qarshi chiqmoqchi?

M i r V a f o. Yo‘q-ey... Bir narsani o‘ylab turg‘an ekanmanmi, birdan seskanib yubordim! (Yana bir miltiq tovushi chiqar, Mir Vafo yana seskanar.)

H a k i m b i y (kulub). Bu kecha qo‘rqmangiz! Qancha kuchlasalar ham, bizni bosa olmaylar. Ertag‘acha otisharmiz. Erta bo‘lg‘ach, otlanib chiqarmiz-da, Eron qo‘shunig‘a borib qo‘shularmiz. (Xizmatchini chaqirar.) O‘ bola! (Xizmatchi kelar.) Otlarni egarlab qo‘ysunlar. (Xizmatchi ketar. Hakimbiy fo‘tasini beliga o‘rab, qilichini devordan olib taqar ekan, so‘ylar.) Xonning aqli yo‘qolg‘an. Mening uyimga hujum qilib kirishga kuchi yo‘q ekan, Nodir shoh bilan urushmoqchi bo‘ladir.

Rahim to‘qsoba yugurib kelar.

R a h im t o‘ q s o b a. Ulfat xo‘jasaroy keldi.

H a k i m b i y. Kelturingiz. (Rahim to‘qsoba yugurib chiqar. Hakimbiy yurub so‘ylar.) Yana shuni yubordi. Oramizni buzg‘an odamning Ulfat bo‘lg‘anini bilaturub, yana shunday qiladir. Shu aql bilan xon bo‘lub turmoq istaydir. (Rahim to‘qsoba Ulfatni keltirar. Ulfat salom berar.) Nechun keldingiz?!

U l f a t. Meni xon yubordilar. Buyurdilarkim: “Borib, otaliqqa aytingiz. Biz muboraknoma yozib, u kishini yonimizg‘a chaqirdiq, kelmadilar. O‘zimiz uylarig‘a borib ko‘rishmak uchun chiqdiq, odamlari bizni miltiq bilan qarshu oldilar. Buning sababi nima? Eron qo‘shuni bosib kela turubdur. Unga qarshu nima qilmoqchi bo‘lsaq, kengashib qilarmiz. Otaliq bizga kengash berarlarmi, yo‘qmi?!”

H a k i m b i y. Biz shu o‘lkaning yaxshilig‘indan boshqa narsa istamaymiz. Nodir shohg‘a qarshu chiqib urushmoq uchun kuchimiz yo‘qdir. Xonning buyruqlari arkdan Mir Arabg‘acha yurmaydir. Eron qo‘shuni bilan qanday urusharlar?!

U l f a t. Bek! So‘zingiz to‘g‘ri. Qo‘yingiz, xon kelsunlar, mana shu so‘zlaringizni o‘zlariga aytingiz!

H a k i m b i y. Xon ham kelmasunlar, biz ham bormaymiz. Borib ayting, men bilan kengashmoqchi bo‘lsalar, to‘ppa-to‘g‘ri Juborg‘a borib, Xo‘ja Kalonning uylarig‘a qo‘nsunlar. Elning kattalarini chaqirsunlar. Men ham borarman, shunda kengasharmiz.

U l f a t. Qachon borarsiz?

H a k i m b i y. Siz shu tobda xonni olib boringiz, men ham borarman. (Ulfat “xo‘b” deb, Rahim to‘qsoba bilan chiqar. Hakimbiy Mir Vafoga so‘ylar.) Siz bunlarning orqasindan kishi yuboring. Xo‘ja Kalonning uylarig‘a kirganlarini ko‘rub kelsun, so‘ngra biz ham borarmiz. O‘zingiz bizning beklarga xabar bering, Juborg‘a bora bersunlar!

M i r V a f o. Xo‘p bo‘lubdir.

Ikkilari ham chiqarlar.

Parda tushar.



Buxoro.
Eski shahar

Hakimbiy: “Xonning buyruqlari arkdan Mir Arabg‘acha yurmaydir”, – deydi. Mir Arab madrasasi Buxoroda arkning orqasida joylashgan, ark va madrasa orasidagi masofa katta emas. Hakimbiyning bu so‘zlari xonlikdagi vaziyatni tushunishga qanday yordam beradi?

?

UCHINCHI PARDA

Buxorog‘a yaqin “G‘ozi obod” qishlog‘iga qo‘ng‘an Eron qo‘shuni orasinda Nodir shohning chodiri dabdabali bezangan. Chodir ichinda Nodir shoh o‘z taxtinda o‘turg‘an. Yoninda kichkina bir taxt bo‘sh turadir. Tubanda Nodir shohning o‘g‘li Rizoqulixon, Eron qo‘shuni boshliqlarindan Aliqulixon o‘turalar. Chodirning ikki yog‘inda yalang qilich qorovullar kezmakda.

N o d i r sh o h (Rizoqulig‘a). Kimdan eshitding?

R i z o q u l i. Yuborganim elchilardan birtasi kelgan, shul so‘yladi. Tuno kun Buxoroda biroz tinchsizliq bo‘layozg‘an ekan. Hakimbiy o‘g‘lini bizg‘a yuborg‘andan so‘ng, Abulfayzxon qo‘rqa boshlag‘an. Kechasi Hakimbiyning uyini bosib, uni tutmoqchi bo‘lg‘an. Hakimbiyning odamlari unga miltiq otqonlar. Xon qo‘rqub, qaytgan. Juborg‘a borg‘an, shunda bir xo‘janing uyinda majlis qilg‘anlar. Hakimbiyning o‘zi ham shunda bo‘lg‘an, hammalari bir og‘izdan xong‘a gapurganlar. Bu kun hammalari xonni olib, bizga kelar ekanlar.

N o d i r sh o h. Ko‘rdingmi, o‘g‘lum! Har o‘lkani urushub olmoq siyosat emas. Urush choralarining eng so‘ngg‘isidir. Bir o‘lkani olmoq uchun eng yaxshi chora shul o‘lkaning o‘zindan do‘stlar topmoq, shularni ishlatmakdir. Sen Qarshidag‘i urushni to‘xtatmasa eding, u vaqt Buxorog‘a ko‘mak uchun Xiva qo‘shuni yetib kelar edi. Ish qiyinlashib qolar edi. Qarshidan qaytg‘aningdan bu kungacha biz tirishdik, Hakimbiyni qo‘lg‘a oldiq. Uning qo‘li bilan Buxoroni Xivadan uzoqlashtirdiq. Buxoro bu kun bizniki. Erta Xivani ham yolg‘uzg‘ina yoqalab, bo‘g‘ushimiz qulay bo‘ldi.

?

Nodirshoh va Rizoqulixon nima haqda gaplashishyapti? Ularning parda ochilishidan oldingi dialogini yozib ko‘ring. Nodirshohning siyosatiga qanday baho berasiz?

Mirzo Mahdi kelar.

M i r z o M a h d i. Shohim! Abulfayzxon yaqinlashadir. Men uni qarshu olmoq uchun bir qo‘l askar chiqardim.

N o d i r sh o h (Rizoquli bilan Aliqulig‘a). Siz ham chiqib, xonni qarshu olingiz. O‘g‘lum, sen xonni ko‘rgach, otdan qo‘nub, yayov bor. Quchoqlab ko‘rush, yo‘ldoshlarig‘a ham hurmat ko‘rsat. (Mirzo Mahdig‘a.) O‘turingiz!

Mirzo Mahdi o‘turar, Rizoquli bilan Aliquli chiqib ketarlar.

N o d i r sh o h (Mirzo Mahdig‘a). Hakimbiy yaxshi, yaxshi ishladi.

M i r z o M a h d i. Ko‘b yaxshi ishladi, shohim!

N o d i r sh o h. Bilasizmi, Hakim bizdan nima istaydir.

M i r z o M a h d i. Bilmayman, shohim. Albatta, shohona ehsoningizdan har nima istasa, umidsiz qolmas.

N o d i r sh o h. Buxoro xonlig‘ini o‘g‘lig‘a berishimiz istaydir.

M i r z o M a h d i. Ulug‘ podsholarg‘a xizmat qilg‘anlar umidsiz qaytmaslar, deb o‘ylayman.

N o d i r sh o h. Biz ham bunga qarshu emasmiz. Biroq shu kun bu ishni qilish to‘g‘ri emas. El aro shovqun soladir. Siz Hakimbiy bilan so‘ylashingiz. Buxoro xonlig‘ini uning o‘g‘lig‘a berarmiz. Biroq so‘ngraroq bo‘lsun. Xiva mas’alasini ham bitirg‘animizdan so‘ng bo‘lsun. Bu kungi eng yararliq siyosat Abulfayzxonni mamnun qilib qaytarmoqdir.

Nodirshoh Buxoro xonini almashtirishni nega keyinga qoldiryapti?

Rizoqulixon kelar.

R i z o q u l i. Abulfayzxon keldilar.

N o d i r sh o h. Kelsunlar.

Rizoqulixon chiqar. Shoh taxtdan enar, eshikgacha yurg‘ach, Abulfayzxon, Hakimbiy, Xo‘ja Kalon, Qozi Nizom, Ulfat Xo‘jasaroy, Rizoqulixon, Aliqulixon kelarlar. Abulfayzxon bilan Nodir shoh quchoqlashib ko‘rishurlar, Nodir shoh Abulfayzxonni qo‘ltug‘indan olib, taxtga chiqarar. O‘zi ham taxtig‘a chiqar, hammalari o‘tirarlar. Shoh bilan xon hol so‘rashub, joylaridan turub, bir-birlariga qulluqlab, o‘turarlar.

N o d i r sh o h (qo‘noqlarg‘a). Buxoroyi sharifning ulug‘lari, xush keldingiz!

Hammalari turub, qulluq qilarlar.

U l f a t. Shahanshoh hazratlarining muborak huzurlarig‘a kelgan xoqonimiz bir zamonlar dunyoni titratgan Chingizxonning avlodindan erurlar. Turkistonning butun xonlari, beklari xoqonimizg‘a bo‘yunsunadirlar. Jonlarini, mollarini ayamaylar. Shunday bo‘lsa ham, xoqonimiz, el-ulusning tinchlig‘ini istag‘anlari uchun, qo‘shni o‘lkalar bilan urushmaylar. Hech kimning yurtini olmoqchi bo‘lmaylar. Yana shul muborak fikrlarini bildirmak uchun, Eron shahanshohining darborlarig‘acha keldilar.

H a k i m b i y (Ulfat xo‘jasaroyning bu so‘zlarini yoqturmay turg‘ani uchun, tez so‘zga kirishar). Xoqonimizning asli ham ulug‘ bir xoqon bo‘lg‘anlari shahanshoh hazratlarig‘a belgulidir. Keng o‘lkalarni olib, boshqarmoq uchun dunyog‘a ora-sira ongli, kuchli qahramonlar keladirlar. Biz unlarg‘a “Sohibqiron” deymiz. Bunday qahramonlarning yo‘llarini

darbor – saroy, dargoh

tutmoq istaganlar ezilib qolurlar. Mana bizning zamonamizda yetishkan sohibqiron, siz shahanshoh hazratlaridirsiz. Siz kabi buyuk sohibqironning oldig‘a do‘st bo‘lib kelmak hamda o‘zini shunday oliyjanob podshohning ixtiyorig‘a topshirmoqdan xonimiz ko‘bdan ko‘b mamnundirlar.

Q o z i N i z o m. Tangri kimga qarashsa, davlat shuningdir. Tangri qo‘llaganlarg‘a qarshu turmoq bo‘lurliq ish emasdir. Eron shohig‘a tangri qarashg‘an ekan, biz ham bo‘yunsunamiz. Buxoro xoni bu kun o‘zlarini siz shahanshohning ixtiyoringizg‘a topshurg‘ani keldilar. Buxoro taxtini sizga tortiq qiladirlar. Buxoroning el-ulusi ham bu ishga rozidurlar. Siz shahanshohni biz bu kun Buxoro taxti bilan qutlaymiz.

N o d i r sh o h. Men Buxorog‘a taxt olg‘ali kelmadim. Sizning elingiz ham turklar bo‘lgani uchun, siz menim qarindoshlarim erursiz. Men bu yerga bir qarindosh o‘lkaga qo‘noq bo‘lib keldim. Bir necha onglashilmasliqqa berilib, menga qarshuliq ko‘rsatmaganingizga quvondim. Hammangizdan rozi bo‘ldim. Menga tortuq qilganingiz Buxoro taxtini o‘zining egasi bo‘lg‘an Abulfayzxong‘a qaytadan bag‘ishladim. (Xon bilan hammalari turub qulluq qilarlar.) O‘lkangizning butun ishlarini boshqarib turmoqni Hakimbiy otaliqqa topshirdim. (Otaliq turub, qulluq qilar.) Barchangiz shuning so‘zindan chiqmangiz. Men sizning o‘lkada to‘rt-besh kun turaman, so‘ngra Xivaga borarman. Bunda turganda, qo‘shunimning ozuqasini tayyorlab bermak hamda Xivaga borishim uchun ko‘mak qilmagingizni so‘rayman.

A b u l f a y z x o n. Ulug‘ podshohning qo‘shunlari o‘lkamizda turg‘ancha, kerak bo‘lgan ozuqasi bizning tomondan tayyorlang‘andir.

Xizmatchilar sadaf(dan) ishlangan kichkina bir moso kelturub, taxt oldiga qo‘yarlar, boshqa qo‘noqlarning oldig‘a sufralar yoyarlar. Turli halvolar, kulchalar, sharbatlar kelturub tizarlar. Nodir shoh Abulfayzxonga muroot qilgandan so‘ng, hammalari yemakga kirisharlar.

muroot – hurmat, lutf

N o d i r sh o h (Hakimbiyga). Otaliq, bu ulug‘larni bizga tanitingiz!

H a k i m b i y. Podshohim! Bu kishi Qozi Nizom, Buxoroning katta qozisi. Bu kishi Juborxo‘ja Kaloni, burung‘i o‘zbek xonlarindan Abdullaxon bu kishining bobolarig‘a ixlos qilg‘an. Buxoroning ko‘b yerlari bunlarga avlodi vaqf bo‘lg‘andir. Bunlar Buxoroning ma’naviy egalaridirlar. Bu kishi xoqonimizning xo‘jasaroylari, ham eng ishonchli kengashchilari.

vaqf – mol-mulk qilib berilgan yer

N o d i r sh o h. Ko‘b yaxshi. (Xo‘ja Kalonga qarab.) Menim eshitganimga ko‘ra, Buxoro tegrasinda ko‘b vaqtlar tinchsizliq bo‘latura ekan. Buning sababi nimadir?!

X o‘ j a K a l o n. Podshohi olam! Biz podshohlarning davlatlari uchun duo qilib yotamiz. Bizning unday ishlardan xabarimiz bo‘lmaydir.

N o d i r sh o h (Qozi Nizomga). Qozi janoblari, siz bu to‘grida bir narsa aytsangiz kerak.

Q o z i N i z o m. Xoqonimizning davlatlari zamoninda Buxoromiz tinchdir. Hech bir yoqda tinchsizliq bo‘lgani yo‘qdir.

N o d i r sh oh. Ibrohim otaliq degan kishi Buxorodan Samarkentga qochib, unda kuch to‘plab, Buxorog‘a necha yurushlar qilg‘an. Buxoroni yomon chopg‘an ekan, bu xabar to‘grimi?!

U l f a t. Shahanshoh hazratlari! Bir podshohning marhamati bilan davlatg‘a erishkandan so‘ngra, o‘z sohib davlatlariga yog‘iqg‘an bunday odamlar har o‘lkada bor. Bunlar tezlik bilan jazolarini ko‘radirlar. Ibrohim otaliq ham shunday odamlardan edi, jazosini ko‘rdi.

N o d i r sh o h. Bir o‘lkada bo‘laturg‘an har voqeani tekshirmak, sabablarini izlab topmoq choralarini ko‘rmak shul o‘lkaning boshliqlariga lozimdir. “Yeganlari tuzni o‘yladilar”, “jazolarini ko‘rdilar”, “o‘lkamiz tinchdir”, deb o‘turmoq bilan hukumat ishi yurmaydir.

H a k i m b i y. Podshohi olamga belgulidirkim, bizni Buxoroda ko‘b el-uymoqlar yashaylar. Bunlar hammalari eskida beklik usuli bilan boshqara edilar. Amir Temur Samarqandda kuchli markaziy bir hukumat qurg‘an bo‘lsa-da, butun umrini urush maydonlarida o‘tkargani uchun, ellarimizni markaziy idoraga esindirmoq yo‘linda tubli bir ish ko‘ra olmagan. Amir Temur o‘lub, hukumati kuchsizlang‘ach, bu el-uymoqlar yana o‘zlari eski beklik usullariga qayta boshlaganlar. Shul vaqtlarda Dashti qipchoqdan biz o‘zbaklar bilan mang‘itlar keldik. Shayboniyxon, Abdullaxon kabi o‘zbek xonlari, markaziylikni kuch bilan saqlab keldilar. Bunlarning umri ham ko‘b vaqtlari beklik usulini istaganlarga qarshu urushmoq bilan o‘tdi. Undan keyin o‘zbak hukumati ham kuchsizlandi. El-uymoqlarning boshliqlari o‘lkani kichkina bekliklarga ajratib, boshqarmoq tilagi bilan yana ko‘tarildilar, o‘lkamizdagi tinchsizliqlarning sababi shu bo‘lsa kerak.

Tarixdan eslang, beklik qanday boshqaruv usuli edi? Markaziy Osiyo xonliklari va o‘sha paytdagi Yevropaning markazlashgan davlatlari boshqaruvidagi asosiy farq nimada edi?

N o d i r sh o h. Menim birinchi tilagim o‘lkangizning tinchlig‘idir. Bunday tartibsizliqlarni bitirmak lozim. El boshliqlaringiz, beklaringiz-orasindan yog‘iylarini, yomonlarini ro‘yxat qilib, menga topshuringiz. Men unlarning hammasini “oq uyli” qo‘shun yasab, olib borarman. Ham sizning o‘lkangiz tinchlanadir hamda unlar, men bilan yurub, dunyo ko‘rarlar, hukumatlar, ellar, uluslar bilan kurashalar. Zamon bilan tonishib qaytarlar.

Sizningcha, Nodirshohning “ro‘yxat” so‘rashdan asl maqsadi nima?

H a k i m b i y. Shahanshoh hazratlarining bu muborak fikrlari chindan foydali bir fikrdir. Albatta shunday qilinadir.

Mirzo Mahdi Nodir shohdan olg‘ani bir ishorat bilan turub tashqarig‘a chiqar.

N o d i r sh o h. Bu fikr xon orqadoshimizg‘a ham qabul bo‘lsa kerak.

X o n. Fikri shohonalari yaxshi bir fikrdir. Shu kundan boshlab, ro‘yxat tayyorlamoqni otaliqqa buyuraman.

N o d i r sh o h. Men Xivaga borarman. Undan qaytganimg‘acha ro‘yxatlarni tayyorlab qo‘ysangiz bo‘lur.

H a k i m b i y. Xo‘b bo‘libdir, shohim!

Mirzo Mahdi bilan xizmatchi bir katta, bir kichkina bo‘g‘chani ko‘tarib kelarlar. Mirzo Mahdi o‘z qo‘lindag‘i katta bo‘g‘chani yerga qo‘yar. Xizmatchini shohning yonig‘a kelturub, uning ko‘tarib turgani bo‘g‘chani ochar, xizmatchi qo‘lindag‘i bo‘g‘chada qiymatli bir chopon bilan qilich bor.

N o d i r sh o h (qiymatli toshlar bilan bezangan choponni olib). Bizning Buxorog‘a armug‘onimiz. O‘zim kiydirayin. (Joyidan turar.)

Hammalari turarlar, shoh choponni Abulfayzxong‘a kiydirar. Oltun qinli, brilantli qilichni berar, xon hurmat bilan olib, beliga taqar. Mirzo Mahdi katta bo‘g‘chadag‘i choponlarni Hakimbiy, Qozi Nizom, Xo‘ja Kalon, Ulfat xo‘jasaroyga kiydira berar. Bo‘lg‘ach “muborak!” der. Hammalari qulluq qilib, o‘turarlar.

maqhur – qahr-u g‘azabga duchor

mehmondor – mezbon

X o‘ j a K a l o n (qo‘llarini ko‘tarib duo qilar). Tangri taolo podshohi olamga umr, davlat berib, dushmanlarini maqhur aylasun.

N o d i r sh o h. Emdi xon orqadoshimiz o‘zlariga belgilangan chodirg‘a borib yozilsunlar. O‘g‘lum Rizoquli bilan Mirzo Mahdi, siz bunlarga mehmondor bo‘lingiz. Hakim otaliq bizning yonimizda qolsun, kengashimiz bor. (Hammalari turarlar. Nodir shoh xonni eshikkacha uzatar. Hakimbiy bilan Nodir shohdan boshqalari chiqarlar. Bunlar o‘z joylariga qaytib o‘turarlar.) Otaliq! Xizmatingizdan mamnun bo‘ldim. Sizga berganim so‘zdan qaytmadim. Buxoro xonlig‘ini sizning o‘g‘lingizga olib berarman. (Hakimbiy qulluq qilar.) Biroq bu ishni tushunub, o‘ylabgina yurutmoq kerak. Xivadan qaytg‘animdan so‘ng, o‘g‘lingiz Rahim to‘qsobani ham o‘zim bilan olib borarman, bir necha vaqt men bilan yursun. So‘ngra biroz Eron qo‘shuni bilan Buxorog‘a qaytarurman. Siz u vaqtgacha tayyorlig‘ingnzni ko‘ra berarsiz. Rahim to‘qsoba menim qo‘shunim bilan Buxorog‘a kirgach, xonni yiqitarsiz. Biroq Abulfayzxonni o‘ldurmaysiz, eson-omon menga yuborarsiz.

?

Sizningcha, Rahimni xon qilib ko‘tarishga yordam berish va Abulfayzxonni Eronga yubortirishdan Nodirshohga nima manfaat bor?

H a k i m b i y. Xo‘b bo‘lubdir, podshohim!

N o d i r sh o h. Abulfayzxonni o‘ldurmaslikka so‘z berasizmi?

H a k i m b i y. Albatta, beraman.

N o d i r sh o h. Uni menga yuborursiz.

H a k i m b i y. Albatta, yuborurman.

N o d i r sh o h (eshikka qarab). Mirzo Mahdi! (Mirzo Mahdi kelar.) Yuz ming rupiya otaliqqa berilsun. (Hakimbiy qulluq qilar.) Emdi borib yozilingiz.

Hakimbiy bilan Mirzo Mahdi chiqarlar. Nodir shoh yotoq uyiga o‘tar.

Parda tushar.



Nodirshoh portereti. Ermitaj muzeyi

Oddiy cho‘pon oilasidan chiqqan Nodirshoh avval sarkarda va bosh vazir, keyinchalik shoh va ulkan imperiya asoschisi darajasiga ko‘tarilgan. Mazkur pardada Nodirshoh va Abulfayzxonning davlat boshqaruvi uslubidagi qanday farqlarni ko‘ryapsiz?

?

TO‘RTINCHI PARDA

Eski bir gilam bilan ikki-uch eski ko‘rpa to‘shalg‘an o‘rtacha bir uy. Chetdagi bir kat uzra Abulfayzxon ko‘ylakchan yotqon, uxlaydir. Kat yoninda bir kursicha uzra qo‘yilg‘an shamdonchaning shami yonib turadir. Birozdan keyin Qurbongul bir oftoba suv olib kelar, oftobani toshnov yoniga qo‘yub, o‘zi sekingina qaytib, xonning yuziga qarar.

toshnov – uy burchidagi suv ketadigan joy

? *Uchinchi va to‘rtinchi parda voqealari orasida bir yil o‘tgan. Sizningcha, bu orada nima o‘zgargan? Abulfayzxon hozir qayerda?*

Q u r b o n g u l (yolg‘uz). Uxlaydir... sho‘rim qursun. Dunyoning qora chiziqlarini o‘qimoq uchunmi keldim men! Xudoning soyasi deb, podshohlarning uyiga sig‘indim. Bunda ko‘rganlarimni hech ko‘z ko‘rmasun. Menim shuncha yig‘lashlarimg‘a qaramayin, shul xon akasini o‘ldurdi, uning taxtig‘a chiqdi. Karmina begini bola-chaqalari bilan tutub, kelturub qamadi. So‘ngra birta-birta hammasini bo‘g‘durub, quduqqa tashlatdi. Bu kun esa, o‘zini Rahimbiy qamab qo‘yubdir. Erta, albatta, o‘ldurar. Buning joyida o‘zi “soyayi xudo” bo‘lur. Bir-ikki yildan keyin yana birtasi chiqar. Uni ham sog‘anag‘a jo‘natib, “soyayi xudo”likni o‘ziga olar. Bizda esa bu qora kunlarning qayg‘usi qoladir. (Biroz o‘ylab.) To‘g‘risini aytganda, yana o‘zimiz tinch. Xudo soyasi-da bo‘lmaymiz, o‘ldurulmaymiz-da. Och qornim, tinch qulog‘im. (O‘ng qo‘lining barmoqlarini uch yo‘la o‘pub, yelkasiga urar.) Ko‘zim ko‘rmasin-ey! Uch-to‘rt yil xudo soyasi bo‘l. So‘ngra qamal, so‘ngra o‘l... Menga nima kerak shunlar? (Uzoqdan kelgan azon tovushin tinglab.) Azonlar o‘quldi. Xonni uyg‘otay, namozin o‘qusun. (Yotoq oldig‘a borib, xonning oyoqlarini uqalar.) Xon bolam, arslonim... turmaysizmi?

? *Sizningcha, Qurbongul kim? Asar boshidagi qatnashuvchilar ro‘yxatida bu obraz yo‘q. Bu rolga qaysi aktrisani tanlagan bo‘lardingiz?*

X o n (seskanib uyg‘onar). Hah... kimdir (Yotoqda o‘turub.) Kimdir? Senmi, Qurbongul?!

Q u r b o n g u l. Men, men. Qo‘rqutdimmi sizni?

X o n (ko‘zlarini uqalab). Yo‘q, yo‘q... Nechun kelding?

Q u r b o n g u l. Azon o‘quldi, suv keltirdim, tarat qilmaysizmi?

X o n. Nima gaplar bor, Qurbongul?

Q u r b o n g u l. Tinchlik, arslonim!

X o n (o‘ylaydir). Bunlar har so‘rag‘animda mana shunday tinchliq, tinchliq deb meni dunyodan xabarsiz qoldirdilar. Men qamoqda, taxtim boshqalar qo‘linda, bola-chaqalarim bilmadim qayerda. Yana tinchliq ekan. Bilmam bunlar tinchsizliq deb, nimani deylar. (So‘ylar.) Qanday tinchliq? Ulfatdan xabaring bormi?

Xon bu yerda o‘zining davlatni boshqarishdagi xatolarini tan olyaptimi yoki birovlarni ayblayaptimi?

?

Q u r b o n g u l. Ulfat qochqon, uni axtarib turarlar. Davlat to‘qsoba bilan Jiyanqulbiy, Xo‘jaqulbiy, Karimbiy, Bahrinbiyni tutub qamadilar, ertagacha o‘ldira ekanlar.

X o n (ko‘z yoshlarin artib). Meni nima qilar ekanlar, ongladingmi?

Q u r b o n g u l. Nega yig‘laysiz, arslonim?! Nima bo‘lsa, xudoning buyrug‘i bilan bo‘lar. Tuna kun podsho bibiyim ulug‘ eshong‘a ko‘p pul yuborib, siz uchun duolar oldilar. Albatta, shunlar bir ish qilar.

podsho bibi – xonning xotini

X o n. O‘g‘ullarim qayda?!

Q u r b o n g u l. Omon-eson, tinch. Podsho bibiyim bilan birga turalar.

X o n. Oh... o‘g‘ullarim, sizni kimga topshurarman emdi?! (Yig‘lar.)

Q u r b o n g u l. Nega yig‘laysiz, arslonim? Xudo ursunkim, bolalaringizg‘a hech bir narsa bo‘lgan yo‘q, unlar tinch o‘turubdurlar.

X o n (nafrat bilan). Qo‘y meni o‘z holimda. Bundan keyin shul “tinch” so‘zini menim yonimda aytma! Dunyoda hech bir ma’nosi bo‘lmagan bu so‘zni sen eng yomon ma’nolarda ishlatib turasan. Men qamaldim – tinch, bolalarim qamoqda – tinch. Ulfatni axtaralar, Davlatni o‘lduralar, yana tinch! Bu qanday “tinch”, bu qanday tinchliq... Oh, bolalarim, siz nega kichiklikda baxtsizliqqa uchradingiz! Bunga menmi sabab bo‘ldim? (Qattiq yig‘lar.) Koshki dunyoga kelmagan bo‘lsa edim.

Rahimbiy kelar. Qurbongul bir chetda qo‘l qovushturub turar.

R a h i m b i y. Xon hazrat, nega yig‘laysiz?!

X o n (seskanib, boshini ko‘tarur. Istamayin o‘rnidan turar). Hech!

R a h i m b i y. O‘turingiz, o‘turingiz. (Xon o‘turar.) Nega yig‘laysiz?

X o n. Hech, bolalarim esimga keldilar.

R a h i m b i y. Boshg‘a ish tushkach, eng ahmoq chora yig‘lamoqdir. Yig‘lamangiz!

X o n. Men sizga nima yomonliq qildim?!

R a h i m b i y. Hech!

X o n. Otangiz menga otaliq edi. Bobongiz meni taxtga o‘tquzub, otaliq bo‘ldi. O‘zingiz Erondan kelgach, bot otaliq qildim. Butun hukumat ishlarini sizga topshurdum, yana Nodir shohning o‘yunlariga berilib, meni qomatdingiz! Nodir shoh oldida men bilan sizning nima oyirmamiz bor?! Bu kun meni tushurgan ekan, erta sizni ham tushurmasmi?!

R a h i m b i y. Xon hazrat! Dunyoda har kim o‘z kuchiga qarabg‘ina o‘run tutadir. Bu tirikchilikning eng o‘tkur buyrug‘idirkim, bunga bo‘ysunmag‘anlarning dunyodan chiqib ketishlari lozim bo‘ladir. Siz Buxoroni idora qilarliq kuch ko‘rsata olmadingiz. Davlatimizning buyuk-buyuk teraklarini o‘z qo‘lingiz bilan yiqita berdingiz, butun ishni menga emas, bir

mug‘ambil – mug‘ambir, ayyor

ahmoq mug‘ambil bo‘lg‘an Ulfatg‘a topshirdingiz. Taxtdan tushkaningizning sababi shuldir. Nodir shohning esa bu ishdan xabari yo‘qdir. Nodir shoh sizni tushurg‘an emas.

X o n. Nodir shohning bu ishlardan xabari yo‘q, deganingiz yolg‘on emasmi?

R a h i m b i y (jilmayib). Yolg‘on emas.

X o n. Nega Erondan qo‘shun olib keldingiz?

R a h i m b i y. Kattaqo‘rg‘ondan chiqqan Ibodullabek fitnasini bosdirmoq uchun.

X o n. Emdi meni nima qilasiz, o‘ldurasizmi?

R a h i m b i y. Yo‘...q, tangri saqlasun bu ishdan.

X o n (yalinib, qo‘llarini uzatar). Otaliq, meni o‘ldurmangiz. Xonliqni sizga bag‘ishladim. Ayting, meni o‘ldurmaysizmi? Ayting!

R a h i m b i y. Sizni o‘ldirmayman, xonliq ham menga kerak emas. O‘g‘lungiz Abdumo‘minxonni sizning o‘rningizda erta xon ko‘taraman.

X o n. Meni nima qilasiz?

R a h i m b i y. Siz shu hafta orasinda Eronga, Nodir shoh oldig‘a borarsiz.

X o n. Uh... Xudoga shukur! Meni o‘ldirmangiz. Men hajga boraman, hajga.

R a h i m b i y (jilmayib). Undan so‘ngra qayoqg‘a borsangiz, bora berarsiz. Hozirda men sizdan bir narsani so‘ramoq uchun keldim.

?

Rahimbiy nega jilmayib qo‘ydi? Sizningcha, uning rejasi nima?

X o n. So‘rangiz.

R a h i m b i y. Pullaringiz qayda?

X o n. Xazina o‘z qo‘lingizda-ku!

R a h i m b i y. Sizning o‘z xazinangiz?

X o n. Menim o‘z pullarimning hisobi Ulfatdadir. Shundan so‘rangiz.

R a h i m b i y. Ulfatning qayda ekanini bilmaysizmi?

X o n. Bilmayman.

R a h i m b i y. Hay, siz o‘turingiz. Yaqinda Erong‘a borarsiz.

X o n. Bolalarimni sog‘indim. Shunlarni menga yuborsangiz, ko‘rub qo‘yay.

R a h i m b i y. Xo‘b, Qurbongul bilan yuborurman. (Qurbongulga.) Kel, sen bilan yuboray. (Qurbongul bilan chiqib ketar.)

X o n (joyindan turub). Tong ota yozdi. Tarat qilay emdi. (Toshnovg‘a kelib, oftobani olib, tarat qila boshlar.) Tangridan boshqa kimsam qolmadi. Ko‘rasizmi, hamma janjallar pul uchun ekan.

Xon taratni bitira yozganda, Abdumo‘min to‘ra bilan ukasi kirib salom berarlar.

X o n (taratni bitirib turar). Ha, o‘g‘ullarim, keldingizmi? (Yuzini artib, unlarni birta-birta quchoqlab o‘par.) Qalaysan, o‘g‘lum?! (Ko‘z yoshlarini artar.)

A b d u m o‘ m i n. Shukur.

X o n. Sen qalay? (Kichkina o‘g‘li bo‘ynini bukmak bilan javob bergan bo‘lar.) Onang qayda?!

A b d u m o‘ m i n. Uyda.

X o n. Hammangiz bir uydami?

A b d u m o‘ m i n. Ha, bir uyda.

Xon kichkina o‘g‘lini quchoqlab, manglayidan o‘par, katta o‘g‘lini quchoqlab, boshini uning umuzig‘a qo‘yub yig‘lar.

B o l a l a r (birdan yig‘lab, xong‘a yopishib). Otajonim, nega yig‘laysiz? Bizni nima qilarlar emdi?

X o n. Hech, o‘g‘lum, hech. Ketingiz emdi, onangizning yoninda turingiz. (Yana quchoqlab o‘par. Ikkalasini eshikkacha kelturub, yana o‘pub, uzatar. Shul chog‘da ikki g‘ijjakning “Bebokcha” kuylagani eshitilar. Xon cholg‘u tovushini qayg‘u ostinda tinglag‘andan so‘ng, so‘ylar.) Insonlar – dunyoning uyalmoq bilmagan hayvonlari! Biringizning ko‘z yoshlari biringizning shodliq bog‘chalarini sug‘oradir. Biringizni(ng) motam ingrashlari yana biringizning to‘y cholg‘ularini kuylatadir! Bir-biringizning borliqlarini yeb, hirslaringizni to‘ydurmoqdan qachong‘acha bezmaysiz! (Kun oqarg‘anin ko‘rub.) Namozimni o‘qub olayin. (Joynamozni yoyar. Namozning birinchi rakatini o‘qug‘ach, uyning bir puchmog‘indan devorning teshilgani seziladir. Kesak, tuproqlar to‘kula berar. Xon namozning ikkinchi rakatini tez bitirar. Telbalanib turar. Buyuk bir qo‘rquv bilan ishning so‘ngini kutub turar. Devor kattaroq ochilg‘ach, uzun soqolli bir qishloqli bir qozma ko‘tarib chiqar.) Bu kim?... Sen kimsen?! (Haligi odam, gapurmayin qozmasini yerga qo‘yub, telpagini olib, yasama soqolini yeshgach, U l f a t ekani onglashilar.) Ulfat!...

U lf a t. Men, Ulfat qulingizman, xoqonim!

X o n. Oh... Ulfat, nega bunday kelding?

U l f a t. Qo‘rqmangiz, sizga xizmat uchun. (Xonni qo‘ltug‘indan olib, katga o‘tqazar. Uyning eshigini sekingina yopar. Qaytib kelib, xon yonida o‘turar.) Bilasizmi, Rahimbiy meni tutub o‘ldurmak uchun tirishadir. Men qochib yurubman.

X o n. Qayda eding?

U l f a t. Men Eron qo‘shuninda edim.

X o n. Ishimiz nima bo‘lar! Meni Eronga yubora ekanlar, to‘g‘rimi?

U l f a t. Nodir shohga Rahimbiy ham, Hakimbiy ham sizni o‘ldirmaslik uchun so‘z bergan ekanlar. Nodir shohni buyrug‘i bilan Rahimbiyga qo‘shulub kelgan Eron qo‘shuni sizni omon-eson olib qaytarg‘a shohdan buyruq olg‘on ekanlar.

Bebokcha – kuy nomi

puchmoq – chet

X o n. Qachon borarmiz emdi!

U l f a t. To‘xtang, hali ish buzulib qolg‘an.

X o n. Nima bo‘lg‘an?

U l f a t. Nodir shohning o‘lum xabari kelgan.

X o n. Nima... Nima... Nodir shoh o‘lganmi?

U l f a t. O‘ldirilgan.

X o n. Kim o‘ldirg‘an uni?! E, voy... Menim baxtim qaro ekan!

U l f a t. Eron eli yog‘iqib, uni o‘ldirganlar. Bu xabar Buxorog‘a kelgandan so‘ng, Rahimbiy sizni yubormoq fikrindan qaytqon.

?

Rahimbiy nega fikridan qaytgan deb o‘ylaysiz?

X o n. Emdi men nima qilaman?

U l f a t. Eron qo‘shuni sizni omon-eson qo‘lig‘a olmasa, Buxorodan ko‘chmaydir. Buni shu kun Rahimbiyga bildirdilar.

X o n. Nima degan u?

U l f a t. Hanuz bir narsa demagan, biroq Eronning qo‘shun boshliqlari Rahimbiy sizni o‘ldurub qo‘ymasun, deb qo‘rqalar. Sizni, ishqilib, qochirmoq uchun meni yubordilar. Shu tobda men bilan qochasiz. (Eshikka borib, tinglag‘andan so‘ng.) Kelingiz, shahardan chiqib, Eron qo‘shunig‘a qo‘shulamiz.

?

Sizningcha, Ulfat rost gapiryaptimi?

X o n. Qanday qilib qochaman?

U l f a t. Qochmoqning qanday-mandayi yo‘q, mana shu yo‘lga kirib olsangiz, qochib qutularmiz. Menga ishoningiz, hech qo‘rqmangiz.

X o n. Bolalarni nima qilayin?

U l f a t. Vaqtimiz oz qolg‘an. Yuringiz, tez qochayliq. Bir balo chiqmasun.

X o n. Bolalarim nima bo‘lalar?

U l f a t (eshikni tinglab qaytg‘andan so‘ng). Buxoro taxtig‘a Chingiz bolalarindan boshqa kishi chiqarilmaydir. Shuning uchun Rahimbiy katta o‘g‘lingizni xon ko‘taradir. Sizning unlarga ishingiz bo‘lmasun. (Qo‘lini tutub.) Turungiz, bot qochayliq emdi.

X o n (o‘rnidan turar). Men qochg‘ach, bolalarimni o‘ldirmaylarmi?

U l f a t. O‘ldira olmaylar. O‘g‘lingizni xon ko‘tarishdan boshqa choralari yo‘qdir. Yuringiz, tez qochayliq. (Xonni eshikka olib borar.) Kiringiz, tez kiringiz!

X o n (birdan keyinga otilib). Yo‘q, qochmayman. Qochsam, bolalarimni o‘ldururlar.

U l f a t. Uf!... (Yugurib eshikka borib tinglag‘andan so‘ng.) Nega bunday qilasiz? Shu tobda birtasi kelib, shu holni ko‘rsa, ikkimizni ham o‘lduralar.

X o n. Men Eronda nima qilarman?

U l f a t. Undan kuch yig‘ib qaytarmiz-da, yana Rahimbiy bilan urusharmiz. Eron sizga yot emas, bobolaringizdan nechalari Buxorodan Eronga ko‘chganlar. Kelingiz, tez qochaylik. Kiringiz tez!

X o n (kirmakchi bo‘lub yana qaytar). Oh... bolalarim! Sizni kimga tashlab ketaman?

U l f a t. Nega bunday qilasiz? Kelib ikkovimizni ham o‘ldururlar!

X o n (juda qisilg‘an). To‘xta biroz, Ulfat! Bolalarimni chaqirib, bir ko‘ray!

U l f a t (o‘z yuzlarig‘a urub). Ey-voy, bitdik, shu tobda kelib, bizni o‘ldurarlar, baribir bolalaringizni ko‘ra olmaysiz!

X o n. Nega ko‘ra olmayman?

U l f a t. Ko‘ra olmaysiz, chunki... (Bir tovush sezgan kabi bo‘lub, yugurub eshikka borib, tinglar, telba bo‘lub qaytar.) Xon! Odamlar kelalar. (Soqolini taqar.) Keling, qochamiz. (Qozmasini olar.) Keling, tez keling. (Oyoq tovushlari kelar.) Men qochdim, keling. (Teshikka kirgandan so‘ng, boshini chiqarib, xonni chaqirar.) Keling, xon.

Xon ham yugurub, teshikka kirmakchi bo‘lg‘ach, uch jallod katta pichoqlar olib kelalar. Ulfat qochar. Jallodlar qotib qolg‘an xonni kelib tutarlar.

J a l l o d b o sh i. Bu nima? Kim keldi bu yo‘ldan? (Xon indamaydir.) Kim keldi bu yo‘ldan? (Pichoqni ko‘tarar.)

X o n. Ulfat kelgan edi. Meni qochirmoqchi bo‘ldi, ketmadim.

Jallodlar shoshib bir-birlarig‘a qaraylar.

J a l l o d b o sh i (bir jallodga). Chop, bekga xabar ber, qorovul bersunlar, shu uyning orqasig‘a borub, axtararsiz. (Jallod yugurub chiqar.) Biz ikkimiz bu kishining ishini ko‘raylik.

Ikkala jallod pichoqlarini ko‘tarib, xong‘a hujum qilarlar.

X o n (jallodlar bilan talashib, qichqiradir.) Nega meni o‘ldurasiz? Voy-dod!

J a l l o d b o sh i. O‘g‘lingiz buyurdilar.

X o n (taloshda). O‘g‘lum... Yo‘q... U buyurmas... (Pichoq ko‘kragiga tegar.) Voh, o‘ldim. (Yana bir pichoq urar. Xon yiqilar.) Oh, nega qochmadim.... Bolalarim... O‘ldim... Ulfat... (deb jon chekishar.)

Jallodlar pichoqlarini qinlarig‘a solib, xonning so‘ng so‘lishini kutub turarlar. Shu tobda Ulfat qishloqli aftinda, katta bir pichoq qo‘linda, teshikdan chiqar, sekingina jallodboshiga yaqinlashib, pichoqni suqub

yuborar. Jallodboshi “vah” deb yiqilg‘ach, Ulfat ikkinchi jallodg‘a hujum qilar. Ul qichqirib qochar. Ulfat xonning o‘lugi ustiga kelar.

U l f a t. Yuraksiz xon, qochmadi, o‘ldi. Muhrini olay. Yo‘lda kerak bo‘lur.

Xonning kissasindan muhrini tez olib, yugurub teshikka borib yo‘qolar. Oyoq tovushlari kelar. Qolg‘an jallod bilan besh kishi qilichlar chekib kirarlar.

J a l l o d. (teshikni ko‘rsatib). Mana shundan keldi.

Uch kishi yugurib kirarlar. Qolg‘anlari “Biz tashqaridan boraylik” deb chopib chiqarlar.

Parda tushar.



Buxoro. Zindon

Yaqinda davlatni boshqarib turgan Abulfayzxonning hozirgi vaziyatiga e’tibor qiling. Sizningcha, vaziyat bunday keskin o‘zgarishining asosiy sababi kim yoki nimada?

BESHINCHI PARDA

Sahnaning to‘rinda qorong‘u bir zindon (Chil duxtaron zindoni). Ulfat xo‘jasaroy, Davlat to‘qsoba bilan yana ikki-uch bekning o‘luklari osilg‘an, o‘tquzub bo‘g‘durilg‘an, qong‘a bo‘yalib yotg‘an bir holda turadir. Chetda qoramoy chirog‘i tutunlar sochib yonmoqda. Birozdan keyin Rahimbiy yolg‘uz kelar. Og‘ir bir yurush bilan yurub, o‘luklarning har birtasiga es qo‘yub qarab zindonni bir aylanib chiqar. Rahimbiy ketgach, manzara o‘zgarib, sahnaning beri yonida Buxoro arkining Salomliq ayvoni ko‘rinadir. Ayvon ostindagi taxtning har tomonida qiymatli qolinlar, ko‘rpalar to‘shalgan, shamlar, chilchirog‘lar yonib turadir. Rahimbiy rasmiy kiyimi bilan kamarlik, qilichliq holda bir tomondan ko‘runub, sekinlab taxtga yaqinlashar. Bir oyog‘ini taxtning bosqichig‘a qo‘yub, tizzasiga tayanib so‘ylar.

Salomliq ayvoni (salomxona) – xon arzchilarni qabul qiladigan joy

Zindon... Salomxona… Sizningcha, sahnadagi bu kontrastdan maqsad nima?

?

R a h i m b i y. Yo‘limizning ozi qoldi. Manzilga erisha yozdiq. Abulfayzxon ketdi. Uni yoqlag‘onlarning-da ruhlariga fotiha o‘qub keldim. Emdi kim qoldi? Chumchuq kabi kichkina bir xon! Shunday (qo‘li bilan ko‘rsatib) olasan, kallasini uzib tashlaysan!... Ruhing shod bo‘lg‘ay, otam. Sen bitirmagan ishni, men bitirdim. Yo‘q, bunlarning hammasi sen ekkan uruqlarning mevasidir. Sen menga yo‘l ko‘rsatmasa eding, sen, Nodir shoh bilan do‘stlashib, meni unga yubormasa eding, bu ishlar bo‘lmas edi. Bo‘lg‘anda ham, juda qiyinliq bilan bo‘lar edi.

Mir Vafo kelar.

M i r V a f o. Yo‘ldosh qalandar kelibdir. So‘zi bor ekan. Boshqa bir yo‘l bilan olib keldim.

R a h i m b i y. Kelturingiz.

Mir Vafo panada turg‘an Yo‘ldoshni chaqirar. Yo‘ldosh shul burung‘i qalandar afti bilan kelib, duo qilar.

Y o‘ l d o sh. Omin, tezroq bu oyog‘ingizni ikkinchi bosqichga qo‘yub, taxtga chiqqaysiz. Ollohu akbar.

R a h i m b i y (kulub). Ha, tentak, nima gap?

Y o‘ l d o sh. Yaxshiliq, bek! Sizning xon bo‘lishingiz to‘grisinda odamlar bir-birlariga so‘ylashib turadirlar.

R a h i m b i y. Nima deylar?

Y o‘ l d o sh. Odamlar rozi, xonliq otaliq bekning haqqi deylar. Biroq beklar, el boshliqlari bu ishga ko‘nmaylar. Chingiz avlodi bo‘lmag‘an

kishi xon bo‘la olmas, deylar. Mana shu so‘zlar boshqa odamlarni biroz tushunduradir. Shunga bir chora qilishingiz kerak.

R a h i m b i y. Qanday chora?!

M i r V a f o. Buning chorasi qulay. Mullolardan bir fatvo olasiz. Shuning bilan bitadir.

R a h i m b i y. Uni qilamiz.

Y o‘ l d o sh. Yana qiziq bir gap bor. Erondan kelturgan qo‘noqlaringiz boshimizg‘a bir balo chiqarmasalar, yaxshi edi.

R a h i m b i y. Nima qildilar? (Yurar.)

Y o‘ l d o sh. Buxoroni mang‘itlardan tozalash kerak, deb so‘z torqatar ekanlar. Bir necha beklarimizga kishilar yuborib, “Siz ishga kirishingiz, biz yordam qilamiz” deganlar. Abdumo‘minxonni arkdan qochirib, so‘ngra siz bilan urushmoqchi ekanlar, degan xabarlar.

R a h i m b i y. Ahmoqlar, Buxoroda nima ishlari bor ekan?! Nodir shoh o‘ldirilgan, yurtlari buzulub turadir. Borib o‘z ishlarini tuzatsunlar.

M i r V a f o. Bek, Abdumo‘minxonning ishini bir yoqliq qilmasangiz, yana bir janjal chiqar.

? *“Abdumo‘minxonning ishini bir yoqlik qilish” deganda nima nazarda tutilyapti?*

R a h i m b i y (Mir Vafog‘a). Siz buni chiqarib yuboring, Oxun bilan Qozi Nizomni menim yonimg‘a chaqiring. O‘zingiz, Eron qo‘shunig‘a borib, sardorlarg‘a ayting, o‘zlarini ko‘rmak istayman, kelsunlar.

Donyolbiy kelar. Mir Vafo bilan qalandar unga salom berib chiqarlar.

D o n y o l b i y (Rahimbiyga). Bu qalandar kim?

R a h i m b i y. Tonimaysizmi?

D o n y o l b i y. Tonishg‘a o‘xshaydir.

R a h i m b i y. Bir kecha otam bilan o‘turg‘animda kelgan edi-ku.

D o n y o l b i y. Ha... Bu bor ekan. O... Shuning so‘zlarini eslaysizmi? Karomati bor ekan. Boya aytsangiz edi, duosini olar edim.

R a h i m b i y. Hay, yana kelar.

D o n yo l b i y. Ibrohim kenagasni kelturdilar.

R a h i m b i y. Qani?

D o n y o l b i y. Saqlovda turubdur.

R a h i m b i y. O‘, bola! (Xizmatchi kelar.) Saqlovga chiqib ayt, Ibrohim otaliqni keltursunlar.

Xizmatchi ketar.

D o n y o l b i y. Qo‘llarini bog‘lab, kelturganlar. Bechora, qarib qolg‘an.

R a h i m b i y. Ko‘zi ko‘rmaydirmi?

D o n y o l b i y. Yo‘q, ko‘rmaydir. Bechoraning duosini olsangiz, yaxshi bo‘lur.

R a h i m b i y. Albatta, unga hurmat qilamiz. (Bir kishi Ibrohimbiyni kelturar. Qo‘llari bog‘lang‘an, ko‘zi ko‘rmaydir.) Otaliqning qo‘llarini och! (Halig‘i kishi Ibrohimbiyning qo‘llarini ochar.) Otaliq amak, o‘turingiz, qalaysiz?

I b r o h i m b i y (o‘turar). Ko‘zim ko‘rmaydir. Siz kim bo‘lasiz?

R a h i m b i y. Tonimadingizmi? Men, Rahimbiy.

I b r o h i mb i y. Ha, tonidim, tonidim. Xudog‘a shukur, yaxshiman.

D o n y o l b i y. Hali meni ham tonimasangiz-chi, otaliq!

I b r o h i mb i y (biroz o‘ylab). Siz Donyolbiy emasmi?

D o n y o l b i y. Topdingiz.

I b r o h i m b i y. Qalaysiz, uka? Ko‘rushaylik-ey... (Qo‘llarini uzatar, ko‘rusharlar.) Eskilardan yolg‘iz siz qolibsiz. Rahmatliq akalaringiz o‘lganlar ekanlar.

D o n y o l b i y. Ha, tangri yorlaqasun, o‘ldilar.

I b r o h i m b i y. Hay, dunyo shunday ekan, birta kelib, birta ketar ekan-da.

R a h i m b i y. Otaliq amak, meni qutlamaysiz?

I b r o h i m b i y. Sizni nega qutlay ekan, jiyanim?

R a h i m b i y. Dushmaningizni o‘ldurdim. (O‘turar.)

I b r o h i m b i y. Siz o‘ldurmaganda, o‘zi o‘lmasmi edi?

R a h i m b i y. Shunday ekan, siz nega unga yog‘iqib shuncha urushdingiz?!

I b r o h i m b i y. U elga yomonliq qildi, yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog‘ir ichib yotdi. Men uning shul ishlarig‘a qarshu bo‘lub urushdim.

R a h i m b i y. Men nima qildim?!

I b r o h i m b i y. Siz bu ishlarni o‘zingiz uchun qilasiz-ku chog‘i!

R a h i m b i y. Qaydan bildingiz?!

I b r o h i m b i y. Rahmatlik otangizning Nodir shoh etagiga yopishqonini bilar edim. Siz ham Nodir shohga bordingiz. Uning qo‘shunini kelturdingiz. Abulfayzxonni o‘ldurg‘andan so‘ngra, butun ishni o‘z qo‘lingizga olib turubsiz.

R a h i m b i y. Abdumo‘min to‘rani xon ko‘targanimizdan xabaringiz yo‘qmi, amak?

I b r o h i m b i y. Abdumo‘min to‘ra o‘n besh yashar bir bola. Uni xon ko‘tardingiz nima, ko‘tarmadingiz nima!

R a h i m b i y. Siz bo‘lg‘anda, nima qilar edingiz?!

I b r o h i m b i y. Men bo‘lg‘anda, Abulfayzxonni tushurg‘ach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig‘ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim.

R a h i m b i y. Mana, el boshliqlaridan birtasi – siz. Elingiz kenagas! Buxoroning tubchak, buyuk bir eli. Kelingiz, bunday ma’nosiz so‘zlarni

qo‘yingiz, birgalashib, kengashib ishlaylik, Abdumo‘minxonning hukumatini biriktiraylik.

I b r o h i m b i y. Men juda yaxshi bilaman: siz shu kun erta Abdumo‘minni ham otasining orqasiga yuborib, taxtini olarsiz. Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki ul haqsizliq qilg‘an edi. Siz bu kun undan ortuq haqsizliq qila turubsiz. Ko‘zim bo‘lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko‘zim yo‘q. Hay, siz-ku Buxoro taxtini olarsiz. Abdumo‘minni o‘ldurarsiz. Balkim, meni ham o‘ldurarsiz. Biroq shuni bilib qo‘yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg‘a yuqmag‘usidir.

? *Rahimbiy va Ibrohimbiyning yurtga munosabati bir-biridan qanday farq qiladi?*

Oxund bilan Qozi Nizom salom berib kelarlar.

R a h i m b i y. Marhamat qilsunlar. (Ibrohimbiyni ko‘rsatib.) Otaliqni tanimadingizmi?

O x u n d (Ibrohimbiyga qarag‘andan so‘ng). Kenagas otaliqmi? Ko‘rushaylik-ey.

Ikkalasi borib ko‘rushg‘ach, o‘turarlar.

ko‘laga – soya, panoh

Q o z i N i z o m (Ibrohimbiyga). Otaliq, xudoga shukur qilingiz. Bekning g‘ayratlari bilan dushmanlaringiz yo‘qoldilar. Emdi qolg‘an umringizni shu kishining ko‘lagasinda tinchg‘ina o‘tkararsiz.

Ibrohimbiy javob bermaydir.

R a h i m b i y. Bir-ikki shar’iy masala bor. Shuni so‘ramoq uchun sizlarni chaqirdim.

O x u n d. Marhamat qiling, taqsir!

R a h i m b i y. Shul to‘rt-besh kunlik janjalimizda Abulfayzxon bilan yana bir necha kishi o‘ldilar.

O x u n d. Ha, taqsir.

R a h i m b i y. Bunlarning o‘lumiga men sabab bo‘ldim. Shuning shariatda hukmi nima bo‘lsa?

bolvoyi om – balo-qazolarning birdan kelishi

O x u n d. Taqsir, ho taqsir, masalan “bolvoyi om”da o‘lganlarning qotili hech kim bo‘lmaydir. Unlar bolvoyi omga sabab bo‘ldilar, shariatning hukmi shudir, taqsir.

Q o z i N i z o m. Abulfayzxon hukumat ishlarini bajara olmadi. Shuning uchun hukumatni boshqa kishig‘a topshurmog‘i kerak bo‘ldi. Buni qilmag‘ach, jazosini ko‘rdi.

R a h i m b i y. Bizning oramizda bir so‘z bor: Chingizxon avlodidan bo‘lmag‘an kishi xon bo‘la olmaydir, deylar. Bu to‘g‘rinda shariatning hukmi nima bo‘lsa?

O x u n d. Shariatda bunday bir narsa yo‘qdir. Kimning qo‘lindan ish kelsa, shul xon bo‘la beradir.

R a h i m b i y. Shul eski masala to‘g‘risinda rivoyat (fatvo) berasizmi, taqsir?

Q o z i N i z o m. Albatta, beramiz.

R a h i m b i y. Erta shuni yozib kelturingiz!

O x u n d. Xo‘b bo‘lubdir.

I b r o h i m b i y. Rahmatliq Rajabxon bilan birlashib, Abulfayzxonga qarshu urushg‘animizda, shunday kengashgan edikkim, Buxorog‘a borib kirsak, butun mullolarni bir madrasag‘a solib, o‘t qo‘yamiz-da, hammasini yondiramiz. Elimizni buzub, rasvo qilg‘an shunlar. Bunlar diningizni tuzatamiz, deb dunyomizni murdor qildilar.

Ibrohimbiy nega bunday fikrni aytmoqda?

?

Q o z i N i z o m. Nima qildiq biz?!

I b r o h i m b i y. Siz Qozi Nizom emasmi?

Q o z i N i z o m. Ha, men Qozi Nizom.

I b r o h i m b i y. Tuno kun Abulfayzxonni “soyayi xudo” deb oyoqlarini o‘pmagan edingizmi? Abulfayzxon xotunlar bilan ichishib yotg‘an bir kechaning ertasinda, uning oldig‘a kelib: “Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar”, – deb, chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tuno kun sizga chopon bergan soyayi xudoning o‘limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyolmaysizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so‘rag‘an payg‘ambar, yana bir yo‘la tushingizga kirib, uni so‘rasalar, nima deysiz? Bunlar oz emish kabi, Chingizxonning yosog‘ini ham yo‘q qilmoqchi bo‘lasizmi?

yosoq – qonun

D o n y o l b i y. Otaliq aka, shariatning hukmi shu ekan-da.

I b r o h i m b i y. Men shariat-mariatni bilmayman. Ishingizni to‘g‘rilamoqchi bo‘lsangiz, qurultoy chaqirasiz. Bunlarning so‘zi yarim chaqag‘a arzimaydir.

Mir Vafo kelar.

M i r V a f o. Eron sardorlari keldilar.

R a h i m b i y (Donyolbiyga). Otaliqni siz qo‘noq qilingiz. Bu kishiga yaxshi qarashib, hurmat ko‘rsatingiz. (Mir Vafoga.) Siz sardorlarni kelturingiz. (Donyolbiy, Ibrohimbiy, Mir Vafo chiqarlar. Rahimbiy mullolarg‘a so‘ylar.) Men Eron sardorlarini chaqirdim. Eron qo‘shuni Buxoroda qola bersa, yaxshi bo‘lmaydir. Buxorodan chiqib ketishlarini taklif qilaman.

O x u n d. Ko‘b yaxshi qilasiz, bek. Kelgan qo‘noqning ketishi yo‘qmi? Buxoroda nima ishlari bor?

R a h i m b i y. Bu kecha menim so‘zimni tinglamay, yana Buxoroda qolmoqchi bo‘lsalar, bu to‘g‘rida erta sizlar bilan boshqacha kengasharmiz. Albatta, erta shul rivoyatlarni olib kelarsiz.

O x u n d, Q o z i N i z o m. Xo‘b bo‘lubdir (Turarlar.)

R a h i m b i y. Ketasizmi emdi?

O x u n d. Ketaylik, bek.

R a h i m b i y. Xo‘b.

Oxund bilan Qozi Nizom chiqadi. Mir Vafo bilan Eron sardorlari Husaynxon, Ahmadxon kelarlar. Salomdan so‘ng, o‘turmasdan so‘ylasharlar.

H u s a y n x o n. Chaqirg‘an ekansiz, keldik, bek!

R a h i m b i y. Xush keldingiz. Sizni chorlatqanimning sababi shul: aziz qo‘noqlarimiz bo‘lg‘an Eron qo‘shuni biz uchun ko‘b musofirchiliq chekdilar. Shukur, mana o‘lkamiz tinchlanib qoldi. Eshitishimizga ko‘ra, podshohimiz Nodir shoh shahid bo‘lg‘anlar. Endi bu aziz qo‘noqlarg‘a xizmatlarig‘a yorasha jaldular berib, yurtlarig‘a qaytarsaq, bizdan rozi bo‘lurlarmi?

jaldu – sovg‘a

H u s a y n x o n. Bek, qarorimiz boshqacha edi. Bizga Abulfayzxonni omon-eson Erong‘a erishdirmak xizmati topshirulg‘an. Siz Abulfayzxonni bizga qachon topshursangiz, biz shul daqiqada chiqib keta berarmiz. Xonni topshurmay ekansiz, Eron qo‘shuni ham yota beradir.

R a h i m b i y. Nodir shoh o‘lmaganda, men Abulfayzxonni, albatta, siz bilan yuborar edim. Bu kun Nodir shoh o‘lgan. Eronda Abulfayzxonning hech kimga kerakligi yo‘q. Shuning uchun xonni sizga topshurmoqning ma’nosi qolmag‘an.

H u s a y n x o n. Nodir shoh o‘lgan bo‘lsa, Eron tirikdir. Eron podshohi “Abulfayzxonning jonini qutqaringiz” deb, o‘z qo‘shunig‘a buyurg‘an. Biz uning shul buyrug‘ini yeriga kelturarmiz.

R a h i m b i y. Mayli. Bizning xon sizga shuncha lozim ekan, chiqarib berar edim, biroq u kishi shu kun ertalab o‘zlarini o‘ldurganlar. O‘luklarini sizga chiqarib bermak unumsizdir.

H u s a y n x o n. Nima, Abulfayzxon o‘ldimi?

R a h i m b i y. Shu kun erta bilan o‘zlarini pichoqlab o‘ldirdilar. (Eron sardorlari hayrat bilan bir-birlariga qaraylar. Rahimbiy so‘zining ta’sirini ko‘rgach, gapura berar.) Aziz qo‘noqlarim! Abulfayzxon o‘ldi. Nodir shoh o‘ldi. Sizning bunday yot o‘lkada boshsiz, tilaksiz turushingiz foydasiz bir ish. Elimiz Nodir shohning o‘lganini eshitsa, sizni tinch qo‘ymasa kerak. Xazinadan sizlarga yigirma ming tangadan pul beraylik, qo‘shuningizg‘a ulashib beringiz-da, yurtingizga qarab keta beringiz.

A h m a d x o n. Bek! Biz bu ishdan bir narsa onglayolmadiq. Xonni kim o‘ldirgan? O‘zimi, dushmanlarimi? Bu ochiq bilinmadi. Biz qo‘shunimizg‘a qaytib, kengasharmiz. Qanday bir qarorga kelsak, sizga bildurarmiz.

R a h i m b i y. Xo‘b, qachon bildurarsiz?

A h m a d x o n. Erta bildursak kerak.

R a h i m b i y. Xo‘b bo‘ladir. Shunday qilingiz.

H u s a y n x o n. Xudo hofiz, bek!

R a h i m b i y. Xudo hofiz.

Eron sardorlari chiqib ketarlar.

(Mir Vafoga) Siz O‘rdag‘a boringiz. Abdumo‘minxonni ko‘ringiz. Eron sardordari sizdan fotiha olib, yurtlarig‘a qaytar ekanlar, deb bu yoqqa yuboringiz. O‘zingiz keta beringiz.

M i r V a f o. Xo‘b. (Ketar.)

R a h i m b i y (yolg‘uz yurub so‘ylar). Emdi ikkinchi bosqichni bosmoq kerak. Bu qo‘g‘irchoqni yo‘q etmasak, boshimizg‘a bir balo chiqg‘usidek ko‘runadir. (Kissasindan bir kichkinagina shishacha chiqarib, shunda turg‘an sharbat shishasiga ag‘darar. Yana yura boshlab, birdan kular.) Eron sardorlari buning ham o‘lganini eshitsalar, o‘zlari qochib ketarlar. Biz tutmoqchi bo‘lsaq ham turmaslar.

Abdumo‘min kiyinib, toj qo‘yg‘ani holda, kulub kelar.

A b d u m o‘ m i n x o n. Bek bobo, meni chaqirdingizmi?

R a h i m b i y. Ha, o‘g‘lum, sizni chaqirdim. Eron sardorlari yurtlarig‘a qaytar ekanlar. Sizni ko‘rub, fotiha olarlar.

A b d u m o‘ m i n x o n. Qani?

R a h i m b i y. Kelarlar. Siz taxtg‘a chiqib o‘turingiz. (Abdumo‘minxon taxtga chiqib o‘turar.) Eron sardorlari kelganda: “Nechun ketasiz, bizning Buxoroda qolsangiz bo‘lmasmi!”, deb qarang. Unlar “yo‘q, ketamiz” deylar. So‘ngra, bunlarga yigirma ming tangadan pul berulsun, deb menga buyuringiz.

A b d u m o‘ m i n x o n. Xo‘b.

R a h i m b i y (sharbat shishasiga yondoshib, shundan bir piyola ichkan bo‘lub). Bay, ba...y, yaxshi sharbat ekan-da. Siz tomoq yedingizmi?

A b d u m o‘ m i n x o n. Ha, yedim.

R a h i m b i y. Bir piyola ichasizmi?

A b d u m o‘ m i n x o n. Hay, ichaman. (Rahimbiy piyolani to‘ldurub berar. Abdumo‘minxon birdan ichar.) Biroz achchig‘mi?

R a h i m b i y. Biroz... (Piyolani olib joyig‘a qo‘yar.) Albatta, foydali dorular soling‘andur. Erta Qozi Nizomga mirasadlik o‘runi bersangiz bo‘lurmi?

A b d u m o‘ m i n x o n. Bo‘lur. (Yuragini tutub.) Yuragimni yondurub yubordi, bu nima edi?

R a h i m b i y. Menga bir narsa bo‘lmadi-ku!

Xudo hofiz – bu yerda “xayr” ma’nosida

mirasad – yuzboshiga yaqin lavozim

A b d u m o‘ m i n x o n (ikki qo‘li bilan ko‘kragini tutub, buruladir). Voy yondim. (Yalinar.) Bek bobojon, bu nima edi? Yondim.

R a h i m b i y. Jim turingiz, hech narsa qilmaydir.

A b d u m o‘ m i n x o n (chiday olmay). Voy yondim... biroz suv beringiz! (Abdumo‘minxonning ko‘zlari olayib, yuzi buzila boshlar.) Yondim. Biroz suv beringiz! (Qusmoq istaganda, taxtdan yumalanib, tubanga tushar. Rahimbiyning singirlari buzular, kuchli bir vijdon azobiga uchragan kabi, devorg‘a tayanib, ko‘zlarini Abdumo‘ming‘a tikib, qotib qolar. Qusib, tolpinib, qiylanib yotg‘on Abdumo‘minxon birdan boshini ko‘tarar.) Jallod! (Rahimbiy seskanar.) Meni ham o‘ldurdingmi?! (Yana yiqilib, tolpina-tolpina jon berar.)

singir – pay, tomir

Ko‘k gumburlar, qattiq bir yel esib, shamlarni o‘churar. Shu tobda taxtning bir chetindan, yigirma yashar eronli aft bir Xayol chiqar. Sochi orqaga qaytarilib, bo‘yni to‘g‘risindan kesilgan, boshi yalang, egnida kafan, og‘ir yurub, Rahimbiyning qarshusig‘a borib turar. Rahimbiy juda qo‘rqub, qattiq titrar.

R a h i m b i y (bo‘g‘uq). Bu kim!... Kim bu!...

Xayol qo‘li bilan imlagach, parda ochilib, o‘luklar turg‘an boyagi zindon ko‘rinur.

Xisravlar (shohlar) adolatining
surati shundaydir,
G‘araz olamida zulm dindir.
Ojizlarni qonga sho‘ng‘itishadi,
Toki havas kiyimi rang-barang
bo‘lsin deb.
Zulm tig‘ ko‘taradigan bo‘lsa,
Adolat shu taxlit yuksaklik urug‘ini
ekardi.

(Forschadan tarjima)

X a y o l (og‘ir tovush bilan shul forscha nazmni o‘qur).
Surati adli Xisravon in ast,
(zindonni ko‘rsatur)
Zulm dar olami g‘araz din ast.
Ojizonro dihan g‘utta ba xun,
(o‘luklarni ko‘rsatur)
To shavad xilvati havas gulgun.
Adl in rang tuxmi ra’fat kosht,
V-ey agar zulm teg‘ mebardosht.

R a h i m b i y. Bu kim?...

X a y o l (taxtga qarab). Ey qora kuch, qurub ketgur taxt! Hech gunohi bo‘lmag‘an bolalardan, tog‘ kabi yigitlardan millionchalari sen uchun qurbon bo‘lub ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilg‘an minglarcha tangrining eng buzuqboshi, eng shumi, eng qop-qora saodat sensan. Ostingda qolg‘anlarni ezguchi bir falokat yuki bo‘lg‘aning kabi, ustingga chiqqanlarning borliqlarini yondirg‘uchi bir olov tepasidirsan!

R a h i m b i y. Kim bu? (Qo‘rqa-qo‘rqa ikki odim ilgari bosib, bir narsa so‘ramoqchi bo‘lur. Xayol so‘ylag‘ach, yana qo‘rqub keyinga qaytar.)

X a y o l. Sen fazilatliq bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzub tashlading. Inju tizg‘uchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgusiga aylanturding. Ota pichog‘i bilan bolalarini bo‘g‘izlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding. Do‘stlarni bo‘g‘ushturding, o‘rtoqlarni urushturding. Dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g‘ayratini, xotunlarning ismatini talatding. Otamdan qochib, o‘ziga sig‘inganim holda uyolmayin, boshimni kesdirgan Afrosiyobingdan mana shu kimsasiz bolani og‘ulab yiqitqon Rahimxoningg‘acha minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding, sen yashatding. Ey, insonning dushman tangrisi, qachongacha bu ongsizlar to‘dasini o‘zingga ham topindirub, ham qurbon qilarsan?! Ey, boyqushlar qafasi, bunday dev ishtiholiq hayvonlarning qo‘li bilan qachongacha dunyolarni bir-biriga urub turasan?! Tinchliq saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko‘masini chuqurdan chuqurg‘a yumalatmog‘ingning zamoni hanuzgacha bitmadimi?!

inju – dur, marvarid
ismat – poklik


R a h i m b i y (o‘ylar). Afrosiyob, deydir. Otamdan qochdim, deydir. (Bir-ikki odim ilgari bosib, qo‘rqa-qo‘rqa.) Sen kimsan?!

X a y o l. Men... Sening kabi bir zolim qo‘linda mana shuning kabi (Abdumo‘minning o‘lugini ko‘rsatur) hech bir narsani bilmayin, onglamayin, bo‘g‘izlangan bir mazlum, – Siyovush!.. Ey, qora yurakli boyqush, bundan senga qolg‘an vayronani qutlamoq uchun keldim. Insonliq dunyosi, esini bir joyga to‘plab, o‘z ishiga o‘zi ega bo‘lg‘ancha, sen ham, sening kabilarning ham ixtiyoringizdadir. Istaganingizcha hukm sura olarsiz. (Sekin-sekin uzoqlanib, yo‘qolar.)

ko‘ma – to‘plam, uyum

R a h i m b i y. Siyovush... Siyovush. (Xayol tomonindan tortilg‘an kabi, uning ketidan yurub, sahnadan chiqar).

Parda tushar.



“Siyovush haqida doston” filmidan lavha (“Tojikfilm”, 1976). Siyovush rolida Farhod Yusufov

“Shohnoma”ga ko‘ra, Eron shohi Kaykovusning o‘g‘li Sivoyush o‘gay onasining nayranglaridan qochib Turonga keladi. Turon shohi Afrosiyob uni yaxshi kutib oladi, o‘ziga kuyov qiladi. Keyinchalik esa fitnalarga uchgan Afrosiyob Siyovushni xiyonatda aylab, o‘ldirishga buyruq beradi. Siyovushning farzandi Kayxusrav otasi uchun bobosi Afrosiyobdan o‘ch olib, uni o‘ldiradi.

Fitrat nega asar so‘ngiga Siyovush ruhi obrazini kiritgan deb o‘ylaysiz?

?

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Abulfayzxon” dramasida qanday ijtimoiy-siyosiy muammolar aks etgan? Mazkur muammolarni Fitrat yashagan davr bilan bog‘lab tahlil qiling. Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

2. “Abulfayzxon” asari kimning yoki nimaning inqirozi bilan tugaydi? Sizningcha, bu inqirozning asosiy sababi nimada?

3. Dramani o‘qish davomida to‘ldirgan jadvalingiz yordamida asardagi asosiy obrazlarga ta’rif bering. Qaysi obrazni ijro etish aktyor uchun qiyinroq va qiziqroq bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

4. “Abulfayzxon” asarida o‘zbek klassik kuylari yangraydigan o‘rinlarga e’tibor bering va bu kuylarni internetdan topib tinglang. Sizningcha, “Abulfayzxon” dramasi va unga tanlangan musiqalardagi uyg‘unlik nimalarda aks etgan? Siz drama uchun yana qanday musiqalarni tavsiya qilgan bo‘lardingiz? Bastakor sifatida takliflar bering.

5. Ilgari o‘qigan yoki tomosha qilgan asarlaringiz asosida tragediya (fojia) janriga xos xususiyatlarni eslang. “Abulfayzxon” asarida bu xususiyatlardan qaysilarini ko‘rdingiz? Fikringizni matn asosida isbotlang.

6. Asarning hozirgi zamon uchun ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?

O‘zbek Milliy akademik drama teatrining “Abulfayzxon” spektaklini tomosha qiling. Spektakl asarni o‘qish jarayonida siz tasavvur qilgan sahna va aktyorlar ijrosiga qay darajada yaqin? Siz rejissyor bo‘lsangiz, spektaklga qanday o‘zgarishlar kiritgan bo‘lardingiz?



GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Akademik Mamajon Rahmonov shunday yozadi: “Asarda tarixiy voqealarning haqqoniy tasvirlanishi, syujet va obrazlarning puxta ishlanishi, ro‘y beradigan hodisalar va qahramonlarni harakatga keltiruvchi vositalardan o‘rinli foydalanish jihatidan Fitratning Shekspir ijodi va uslubiyatiga ergashgani sezilib turadi”.

“Abulfayzxon” dramasini Shekspirning o‘zingiz o‘qigan yoki sahnada (kinoda) ko‘rgan biron dramasi bilan solishtiring. Qanday o‘xshash va farqli jihatlarni sanab bera olasiz?

LOYIHA

Kichik guruhlarda ishlang. Asardan sizga kuchli ta’sir qilgan epizodni tanlang. Tanlangan epizodni nasrda bayon qilib ko‘ring. Bunda qahramonlarning portreti orqali ularning ichki kechinmalarini ochib berishga e’tibor qarating.



“Abulfayzxon” spektaklidan lavha.
Abulfayzxon rolida Erkin Komilov

XX ASRNING BIRINCHI YARMI JAHON ADABIYOTI (1900–1950-YILLAR)

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– XX asr birinchi yarmi jahon adabiyotining eng muhim jihatlarni tahlil qilamiz;
– modernizmga xos xususiyatlarni o‘rganamiz.

XX asr inson tafakkurini tubdan o‘zgartira olgan voqealarga boy bo‘ldi. Bu davrda bir-biriga **qarama-qarshi** ikki xil holatni kuzatish mumkin. Bir tarafdan, millionlab odamlarning yostig‘ini quritgan Birinchi va Ikkinchi jahon urushi, jamiyat hayotini falokatga olib kelgan inqiloblar, inson qadri va huquqlarini poymol qilgan totalitar tuzumning avj olishi, qurollanish poygasi, texnogen falokatlar, ikkinchi tarafdan, ilm-fan va texnikaning tez sur’atlarda rivojlanib borishi, transport va telekommunikatsiyaning taraqqiy etishi natijasida davlatlar va qit’alar orasidagi masofalarning “qisqarishi”, insonning koinotga chiqishi kabi olamshumul o‘zgarishlar oqibatida yuzaga kelgan **ziddiyatlar** XX asr adabiyoti va san’atida ham o‘z aksini topdi.

?

O‘ylab ko‘ring:
XX asrning siz uchun eng muhim uchta hodisasini sanang. Bu hodisalarni qaysi jihatlari bilan muhim deb hisoblaysiz?

Yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega ijod ahli hayotni badiiy idrok qilishning o‘ziga xos yo‘llarini kashf qildilar. Ijodiy izlanishlar natijasida adabiyot va san’atda turli xil oqimlarni birlashtirgan yangi yo‘nalish – **modernizm** paydo bo‘ldi.

Modernizm (fransuzcha “modern” – “yangi, zamonaviy” so‘zidan) yo‘nalishida hayot haqiqatiga rioya qilish muhim hisoblanmaydi. Modern yozuvchilar adabiyotga **yangi shakllar** olib kirishga harakat qildilar. Ularning maqsadi – o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolgan inson ruhiy kechinmalarini ochib berishning yangi yo‘llarini kashf qilish, aksar holatlarda mavhum tushunchalarni muayyan shakllarda kitobxon tasavvurida gavdalantirishdan iborat edi.

Modernizmning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida yana quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– modernizmda so‘z san’atining asrlar davomida shakllangan an’anaviy qonuniyatlari inkor qilindi, ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset ta’biri bilan aytganda, “eskini to‘la-to‘kis rad qilish” asosida yangicha adabiyot yaratishga harakat qilindi:


Oy chiqmoqchi.
Ko‘rindi
cheti.
So‘ng muallaq qoldi havoda oppoq.
Kumush qoshig‘i-la
kovlab ko‘rar edi
seryulduz sho‘rvasin,
chamamda,
xalloq.

Vladimir Mayakovskiy
(Husniddin Sharipov tarjimasi)

– modernizm adabiyoti vakillari uchun romantik yoki realistik metodda ijod qiladigan yozuvchilar kabi yaxlit dunyo, tugal syujet yaratish emas, balki insonning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini, voqealarga munosabatini shartli, sxematik tarzda aks ettirish muhim hisoblanadi:

Nafasni rostlay deb
o‘tirdim vaqt davrasida.
Qanday tinch makon!
Oq doirada
oq orom,
Uchar yulduzlar ham.
Suzar atrofimda
o‘n ikki qora raqam.

Federiko Garsia Lorka
(Shavkat Rahmon tarjimasi)



Niderlandiyalik rassom Edvard Munkning “Qichqiriq” asari (1893) – tasviriy san’atda modernizmning yorqin namunasi

– modernizmda aksar hollarda real voqelik va xayolot olami qorishib ketadi, ongosti olamiga kirishga harakat qilinadi. Bunda hayot, voqea va hodisalarning mohiyati, ichki dunyo murakkab ramz va shakllarda, kutilmagan, ba’zan absurd obrazlarda tasvirlanadi:

Bir kuni ertalab behalovat uyqudan uyg‘ongan Gregor Zamza o‘zining bahaybat hasharotga aylanib qolganini ko‘rdi. U chalqancha yotar, yelkasini sovutday suyak qoplagan edi. Boshini ko‘targan edi, qornida paydo bo‘lgan suyaksimon tangachalarga ko‘zi tushdi. Ko‘rpa do‘ppaygan jigarrang qornidan sirg‘alib yerga tushay-tushay deb turardi. Tanasiga nisbatan ayanchli darajada kichik oyoqlari ko‘z oldida tinmay pitirlardi.

“Menga nima bo‘ldi o‘zi?” – deb o‘yladi u. Axir, bu tush emas-ku. O‘sha qadrdon xona. Tor bo‘lsa ham odam yashaydigan xona, o‘sha to‘rt devor. Stolda har xil gazmollardan qirqib olingan namunalar sochilib yotar edi. (Gregor Zamza kommivoyajer edi). Stolning tepasida tilla suvi yuritilgan romda yaqindagina o‘zi jurnaldan qirqib olgan portret osilib turardi. Unda mo‘yna shlyapa bilan gorjetka kiygan qaddi ravon xonim o‘tirar va qirqma yengga tiqilgan qo‘lini cho‘zib turardi.

Gregor tashqariga qaradi. Tund havo, deraza tokchasidagi tunukaga urilayotgan yomg‘ir tomchilari kayfiyatini battar tushirib yubordi. “Yana jinday uxlasam yaxshi bo‘lardi. Har xil bema’ni narsalarni unutish kerak”, deb o‘yladi u. Ammo endi uxlash oson emas edi. U doim o‘ng yonboshini bosib yotishga ko‘nikkan, ammo hozirgi ahvolda yonboshga o‘girilish amrimahol edi. Gregor qancha urinmasin, yana chalqanchasiga ag‘darilib tushaverdi. Tinimsiz tipirchilayotgan oyoqchalarini ko‘rmaslik uchun ko‘zini yumib, yonboshiga yotmoq uchun yana bir urinib ko‘rdi. Butun kuchini to‘plab, harakat qildi – bo‘lmadi. Nihoyat, o‘ng biqinida o‘ziga notanish bir og‘riqni, so‘niq simillayotgan og‘riqni sezdi-yu, harakatdan to‘xtadi.

Frans Kafka. “Evrilish” hikoyasidan

– modernizm vakillari qahramonning ongida kechayotgan tarqoq fikrlar, xotiralar, kechinmalarning badiiy ifodasiga e’tibor qaratishadi:

U ma’yus tortgancha xatning P.S.siga qarardi-yu, ko‘zi ko‘rmasdi. Aji-buji yozganim uchun uzr. Shoshib turibman. Pastda royal chalishyapti. Pillasidan endi chiqyapti. Bilak taqinchog‘i uchun kafeda urishib bergan edik. Ovqatiga qaramadi, og‘ziga suv solganday o‘tirdi. Hali o‘zini qanday tutishni bilmaydi. U qaylaga yana bir necha bo‘lak nonni botirdi-da, buyrakni maydalab yedi. Haftasiga o‘n ikki shilling-u olti pens. Ko‘p emas. Bundan battarroq bo‘lishi mumkin edi. Myuzik-xollda qo‘shiqchi. Yosh talaba yigit. U soviyotgan choydan ho‘pladi. Keyin xatni yana ikki marta o‘qidi.

Xo‘p mayli. O‘z tashvishini o‘zi qilsin. Agarda-chi? Ammo axir hali hech gap yo‘q. Albatta, nimalar bo‘lmaydi deysiz. Biron narsa ro‘y bersa, keyin ko‘ramiz. Zumrasha. Ko‘z o‘ngiga qizchasining zinadan chopqillab chiqayotgandagi tiqmachoqday oyoqlari keldi. Taqdir-da. Rasta bo‘lyapti. Sho‘x-o‘yinqaroq, o‘ziga yetguncha.

Jeyms Joys. “Uliss sarguzashtlari” romanidan
(Ibrohim G‘afurov tarjimasi)

– modern asarlarda tarbiyaviy xulosalar berilmaydi, har bir o‘quvchi asar mazmunidan idroki va tafakkur darajasiga tayanib mustaqil xulosalar chiqaradi.

Ingliz yozuvchisi Stiven Spender 1930-yilda yozgan edi: “Mening tushunishimcha, modernistlar ongli ravishda butunlay yangi adabiyot yaratishga harakat qilmoqdalar. Bu – ular bizning davrimizni ko‘p jihatdan o‘ziga xos, san’at va adabiyotning o‘tmishdagi har qanday shartliligidan tashqarida turadi, deb hisoblashlari natijasidir”.

O‘ylab ko‘ring:
XX asr boshlaridagi qanday muhim o‘zgarishlar adabiyot va san’atda modernizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi deb o‘ylaysiz?

Modern asarlar bilan bir qatorda, axloqiy muammolar, o‘zgarayotgan davrdagi inson obrazi, uning xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, jamiyat bilan munosabatlarining badiiy talqinlari aks etgan **realizm** adabiyoti namunalari ham yaratildi. Romen Rollan, Jon Golsuorsi, Frensis Skott Fitsjerald, Ernest Heminguey singari adiblar XIX asr realizmi klassiklari yutuqlarini davom ettirish bilan birga o‘ziga xos, yangi yondashuvlarni ham olib kirdilar. Misol uchun, amerikalik yozuvchi Ernest Heminguey asarlarida majozga yo‘g‘rilgan o‘tkir realizm kuzatilsa, rossiyalik ijodkor Mixail Bulgakov ijodida fantastikaga qorishiq satirani, norvegiyalik yozuvchi Knut Hamsun asarlarida esa kuchli psixologizmni kuzatish mumkin.

O‘ylab ko‘ring:
Romantizm, realizm va modernizm vakillarining olamga, tabiatga, insonga munosabatlaridagi asosiy farq nimada?

Birinchi jahon urushi dahshatlariga guvoh bo‘lgan va urushdan keyingi hayotga moslasha olmagan “boy berilgan avlod” mavzusi Erix Mariya Remark, Ernest Heminguey, Anri Barbyus, Frensis Skott Fitsjerald kabi ijodkorlar asarlarida yetakchilik qildi. Ularning asarlarida voqelikning real tasviri va hayotning og‘ir sinovlari bilan yuzlashgan insonlarning ichki dunyosini o‘ziga xos uslubda ochib beriladi.

XX asrning 30-yillaridagi fashizm harakatlari natijasida mustamlaka mamlakatlar hududlarida qarshilik adabiyoti yuzaga keldi. Pol Elyuar, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Ivan Kovachich, Kshishtof Bachinskiy, Yulius Fuchik singari qar-

shilik adabiyoti vakillari fashizm g‘oyalariga qarshi ham qurol, ham qalam bilan kurashdilar.

Mana, yana tong otmoqda.
Parij ufqida
Qutulish va erk quyoshi yuksalmoqdadir.
Quchoq ochib yangi bahor kelmoqdadir,
Itoat va qullik, zulm bo‘lgusi tor-mor!
Qullik – bizning dushmanimiz,
Bilaylik bir bor!
Ammo… qullar qulligini anglagan zamon,
Ko‘tarar isyon.

Pol Elyuar
(Tohir Qahhor tarjimasi)



Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” majoziy ertagi XX asr gumanistik adabiyotining nodir namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Totalitar jamiyatlarning kuchayishi va insoniyat kelajagidan xavotirlar **anti-utopiya** yoki **distopiya** deb atalgan yangi janrning paydo bo‘lishiga olib keldi. Yevgeniy Zamyatin (“Biz”), Oldos Xaksli (“Ajib yangi dunyo), Jorj Oruell (“1984”) singari adiblar o‘z asarlarida farovon tuyuladigan, aslida esa inson o‘zligidan mahrum qilinib, ulkan mashinaning bir murvatiga aylantirilgan qo‘rqinchli jamiyatni tasvirladilar.

Men, D-503, Integralning quruvchisi, – Yagona Davlatning oddiy matematiklaridan biriman, xolos. Mening raqamlarga o‘rgangan qalamim qofiya va ohang-doshlikka to‘la musiqa yozishga ojiz. Men faqatgina ko‘rayotgan, o‘ylayotgan – aniqrog‘i, biz o‘ylayotgan (xuddi shunday: biz, va bu “BIZ” yozayotgan qaydlarimning sarlavhasi bo‘lsin) – narsalarni qalamga tushirishga harakat qilaman. Lekin yozayotganlarim bizning, matematik jihatdan nuqsonsiz bo‘lgan Yagona Davlat hayotidan bir hosila bo‘ladi-ku, shunday ekan, ular avtomatik ravishda, mening ra’yimdan qat’i nazar, doston bo‘lmaydimi? Bo‘ladi – men bunga ishonaman va buni aniq bilaman.

Yevgeniy Zamyatin, “Biz” romanidan
(Mushtariy Mamadaliyeva tarjimasi)

IJODIY ISH

XX asr birinchi yarmida ijod qilgan jahon adabiyoti vakillaridan birini tanlab, unga maktub yozing. Maktubda:

– adib ijodiga xos eng muhim xususiyatlarni o‘zingiz o‘qigan asar misolida izohlang;

– ushbu asar haqidagi tanqidiy qarashlaringiz va takliflaringizni aks ettiring.

Maktubni sinfdoshlaringizga o‘qib bering va muhokama qiling.

ERIX MARIYA REMARK (1898–1970). “G‘ARBIY FRONTDA O‘ZGARISH YO‘Q” ROMANI

Mavzuni o‘rganish jarayonida:
– “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani misolida “boy berilgan avlod” adabiyotiga xos xususiyatlarni tadqiq qilamiz;
– asardagi ramzlarni tahlil qilamiz.

Sodir bo‘lgan har qanday voqeada mening ham shaxsiy mas’uliyatim bordir...

Erix Mariya Remark

... Remark jahon adabiyotining eng yaxshi an’analariga sodiq qolgan holda doim haqiqatni gapirdi, insonning yuragigacha yetib boradigan rostgo‘y, yaxshilikni targ‘ib qiluvchi kitoblar yozdi. Uning totalitar tuzum yolg‘onchiligi va noinsoniyligini fosh qiladigan asarlari har doim o‘qiladi.

Dmitriy Zatonskiy



Muallif haqida




Nemis yozuvchisi, “boy berilgan avlod”ning taniqli vakillaridan biri Erix Mariya Remark (asl ismi – Erix Paul Remark) 1898-yili Germaniyaning Osnabruk shahrida kitob muqovachisi oilasida tug‘ildi. Dastlab maktabda va katolik gimnaziyasida, so‘ngra o‘qituvchilar tayyorlaydigan bilim yurtida tahsil oldi. Maktabdanoq Erix adabiyot va san’atga mehr qo‘ydi, musiqa bilan shug‘ullandi, Iogann Gyote, Herman Hesse, Fyodor Dostoyevskiy singari adiblar ijodini sevib mutolaa qildi.

1916-yilda hali talaba bo‘lgan Remark harbiy xizmatga chaqirildi va g‘arbiy frontga yuborildi. Frontda yaralanib, uzoq vaqt gospitalda davolanishga majbur bo‘ldi. Urushdan keyin maktabda o‘qituvchilik qildi, lekin kasbidan hafsalasi pir bo‘lib, o‘zini turli sohalarda sinab ko‘rdi – kutubxonachilik qildi, tijorat bilan shug‘ullandi, kasalxona qoshidagi cherkovda organ chaldi, avtomobil shinalari ishlab chiqaradigan firmada ishladi.

1930-yillarda Germaniyada Gitler boshchiligidagi natsistlar partiyasi hokimiyatga kelgach, Remarkning asarlari yoqib yuborildi, o‘zi esa Germaniya fuqaroligidan mahrum qilindi. Remark Shveytsariyaga, so‘ngra AQSHga ko‘chib o‘tdi va asosiy e’tiborini ijodga qaratdi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingina Yevropaga qaytishga muvaffaq bo‘ldi.

Erix Mariya Remark 1970-yilda Shveytsariyada vafot etdi.

Asarlari



– “Orzular xonasi” (1920), “Ufqdagi stansiya” (1927), “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (1929), “Qaytish” (1931), “Uch og‘ayni” (1936), “Qo‘shningni yaxshi ko‘r” (1939), “Zafar darvozasi” (1945), “Hayot alangasi” (1952), “Hayot-mamot pallasi” (1954), “Qora haykal” (1956), “Falakning yoqimtoylari bo‘lmaydi” (1961), “Lissabondagi tun” (1962), “Va’da qilingan yer” (“Jannatdagi soyalar”) (1970) romanlari;

– “Dushman” (1931) hikoyalar to‘plami;

– “Inok J. Jonsning qaytishi” (1953), “So‘nggi bekat” (1953) pyesalari;

– “So‘nggi akt” (1955) kinossenariysi.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani 1929-yilda chop etilgan. Asar Birinchi jahon urushi dahshatlari va urushning inson psixologiyasiga ta’siri haqida hikoya qiladi.

Eslang:
Birinchi jahon urushi qachon bo‘lib o‘tgan? Uning asosiy sabablari nimada edi?



Nemis askarlari urushga ketmoqda. 1914-yil

Remark insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg‘inlardan biri bo‘lmish Birinchi jahon urushidan 1918-yilda uyiga qaytdi. Endi u o‘zi orzu qilgandek pianinochi bo‘la olmasdi – urushda olgan jarohatlari bunga imkon bermas edi. Urushda bo‘lgan paytida u onasidan ham ayrilgan edi. Urushda ko‘rgan azoblari, olgan jismoniy va ruhiy jarohatlari adibni bir umrga ta’qib qildi va ko‘plab asarlarida o‘z aksini topdi.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanining yozilishi haqida Remark shunday eslaydi:

“O‘zimni o‘zim tahlil qilish orqali men urush xotiralarimni jonlantirdim... Juda ko‘p do‘stlarim va tanishlarimda o‘zimnikiga o‘xshagan holatni kuzatdim. Urush soyasi bizni doim – hatto unutishga harakat qilganimizda ham – ta’qib qilardi. Bir kuni bu holat meni qo‘limga qalam olib, yozishga majbur qildi”.

O‘ylab ko‘ring:
Remarkni “boy berilgan avlod” vakili deyishadi. “Boy berilgan avlod” deganda nimani tushunasiz? Nima uchun bu avlod “boy berilgan”?

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani voqealari yigirma yashar askar Paul Boymer nomidan bayon qilinadi. Paul va uning sinfdoshlari o‘qituvchisi Kantorekning vatanga xizmat qilish haqidagi balandparvoz gaplariga uchib, askarlikka yozilishadi va qisqa muddatli harbiy tayyorgarlikdan keyin g‘arbiy frontga yuboriladi. Mantiqsiz urushda ko‘rgan-kechirganlari Paulning dunyoqarashini ostin-ustun qilib yuboradi.

Bu kitob aybnoma ham, afvnoma ham emas. Bu shunchaki urush dastidan juvonmarg bo‘lgan avlod haqidagi, garchi zambarak o‘qidan omon qolsa-da, shu urushning qurboniga aylanganlar to‘g‘risidagi ko‘ngil izhoridir.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani muqaddimasidan

Tahlil qiling:
Roman muqaddimasidan olingan bu parchani qanday tushundingiz? Kitob “aybnoma” ham, “afvnoma” ham emas ekan, muallif uni yozishdan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?



“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” filmidan lavha (AQSH, 1930-yil)



G‘ARBIY FRONTDA O‘ZGARISH YO‘Q
(romandan boblar)

II

Eslashning o‘zi g‘alati: uyda, yozuv stolining g‘aladonida qog‘ozga tusha boshlagan “Saul” nomli dramam va bir dasta she’rlarim yotibdi. Men bu asarlar ustida necha-necha tunlarni tongga ulaganman axir, deyarli hammamiz shunga o‘xshash biror ish bilan shug‘ullanardik-da; hozir esa bu mashg‘ulotim o‘zimga shu qadar g‘ayritabiiy tuyuladiki, buni hatto tuzuk-quruq tasavvur ham qilolmayman.

Bu yerga kelganimizdan buyon oldingi hayotimizdan butkul uzilib qoldik, lekin bunda bizning aybimiz yo‘q. Ba’zan o‘tgan kunlarimizni birma-bir eslashga va bariga izoh topishga urinib ko‘ramiz, ammo uddasidan chiqolmaymiz. Aynan bizga, Kantorek metin yoshlar deb atagan yigirma yoshlilar – Kropp, Myuller, Leyer va menga – barchamizga yuz berayotgan voqealar qip-qizil jumboq, boshimiz garang. Yoshi bizdan kattaroqlarning o‘tmishi yodida, oyoqlari zamindan uzilmagan, ularning oilalari, bola-chaqalari, kasb-korlari va orzu-niyatlari bor, bu rishtalar shu qadar mustahkamki, urush bu rishtalarni parchalab tashlayolmaydi. Bizda-chi? Bizda nima bor? Ota-ona, kimlarningdir sevgan qizi bor, xolos. Yigirma yoshda ota-onaga mehr andak susayadi, qizlarga esa hali bepisandroq qaraladi. Nima ko‘ribmiz biz: osmoniy hoy-u havas, ba’zi bir narsa-

larga ishqibozlik va maktab – boshqa nimani bilamiz? Mana endi, shular ham yo‘qqa chiqib turibdi.

Baraka topgur Kantorek sizlar ayni hayot bo‘sag‘asida turibsizlar, desa bo‘lardi-ku. To‘g‘risiyam shu-da. Hali ildiz otmasimizdan urush giribonimizdan oldi. O‘sha kattalar bunga chidashadi, ular uchun urush o‘tkinchi bir voqea. Bizning kelajagimiz nima bo‘ladi? Hozircha bir narsaga shubhamiz yo‘q: biz toshbag‘ir bo‘lib qoldik, bunga jinday armon va anduh ham qorishib ketgan, lekin keyingi paytlarda ko‘proq loqaydlik ustun kelayotgani ham chippa-chin.

* * *

Mabodo, Myuller Kemmerixning botinkasiga ko‘z tikkan bo‘lsa, bu unga ichi achimayapti degani emas. Agar shu matoh Kemmerixga hali asqatishiga ishonganida u tikanli sim ustida yalangoyoq yurishga ham rozi bo‘lardi. Hozir bu poyabzal Kemmerixga mutlaqo daxlsiz buyumga aylanib qolgan, Myullerga esa judayam zarur. Kemmerix baribir o‘ladi, shunday ekan, botinka kimga nasib etadi – farqi nima? Allaqanday sanitar ilib ketganidan ko‘ra Myuller olgani yaxshi-da. Bunga uning ko‘proq haqqi bor. Kemmerix o‘lganidan keyin kech bo‘ladi. Myullerning hadeb botinka ustida qayg‘urishi bejiz emas.

Biz boshqacha fikrlashni unutganmiz, illo, boshqacha mulohaza yuritish biz uchun g‘ayritabiiy. Biz faqat bor narsani tan olamiz, bizga shunisi muhim. Yaxshi botinka topish esa osonmas.

* * *

Yigirmata bola okrug harbiy boshqarmasiga yo‘l olganimizda hali bitta sinfdan iborat o‘quvchilar edik, kazarma ostonasini hatlab o‘tishdan oldin hammamiz sartaroshxonaga bordik, ba’zilar bunaqa joyga ilgari kirmagan ham ekan. Bizda kelajakka mo‘ljallangan aniq bir reja yo‘q edi, ayrim bolalar xayolidagi allaqanday omad va martaba haqidagi orzular ularning hayotiga zig‘irdaygina nafi tegadigan darajada shakllanib ulgurmagandi; lekin mubham hoy-u havaslarimiz bisyor edi, shuning ta’siri bo‘lsa kerak, hayot ham, hatto urush ham bizga qandaydir serjoziba, ajabtovur sarguzashtday tuyulardi.

O‘n hafta harbiy ta’limdan o‘tdik, shu vaqt orasida bizni o‘n yil maktabda o‘qiganimizdan ko‘ra ham oshiribroq tarbiyalab tashlashdi. Yarqirab turgan tugma Shopengauerning to‘rt jildli asarlaridan afzal ekanini miyamizga quyishdi. Bu yerda hamma narsani aql-idrok emas, etik cho‘tka, fikr-mulohaza emas, qachonlardir joriy etilgan tartib-qoida, erkinlik emas, zo‘rma-zo‘raki mashqlar hal qilishini avval taajjublanib, keyin afsuslanib, so‘ng esa loqayd bir kayfiyatda anglab yetdik. Biz o‘z ixtiyorimiz bilan askar bo‘lgan edik; ammo bu tuyg‘uni yuragimizdan siqib chiqarish uchun hamma chorani ko‘rishdi. Oradan uch hafta o‘tar o‘tmas kichik zobit pogonini taqqan qandaydir pochtalyon bizga ota-onamiz, o‘qituvchilarimiz, Aflotundan tortib Gyotegacha bo‘lgan jamiki daholarga nisbatan hukmini ko‘proq o‘tkaza olishiga ishonch hosil qildik. O‘qituvchilarimiz jo‘shib-toshib tasvirlagan vatan obrazi bu yerda o‘zligidan

butkul voz kechgan inson shaxsiyatida mujassamlashganini tiniq, o‘tkir nigohlarimiz bilan tezgina ilg‘ab oldik. Bunaqa narsani hech kim, hech qachon hatto qulvachchadan ham talab qilmasa kerak. Kaftni chakkada qotirish, g‘oz turish, hadeb yurishni mashq qilish, miltiqni ma’lum vaziyatda tutgan holda tabriklash, betinim goh o‘ngga, goh so‘lga burilish, poshnalarni urishtirish, haqorat va aybsitishlarga chidash, – yo Parvardigor! – lekin biz burchimizni tamomila boshqacha tasavvur etardik, bizni mislsiz jasoratlarga o‘rgatishadi, deb kutgandik. Nachora, borib-borib bunga ham ko‘nikdik. Hatto, bu mashg‘ulotlarning ayrimlari foydali ekanini ham tan oldik, lekin qolganlari faqat xalaqit beradigan ortiqcha daxmazalar edi. Askar bunaqa narsalarni tez ilg‘aydi.

* * *

Sinfimizdagi bolalarni to‘rtta-to‘rtta qilib, frisland baliqchilari, ishchilar, dehqonlar va hunarmandlarga qorishtirgan holda bo‘linmalarga taqsimlab yuborishdi. Tezda ular bilan do‘stlashib ketdik. Kropp, Myuller, Kemmerix va men kichik zobit Ximmelshtos komandirlik qiladigan to‘qqizinchi bo‘linmaga tushdik.

Ximmelshtos kazarmalarda eng zolim mustabid sifatida nom qozongan va bundan faxrlanib yurardi. Pakana, chorpahil, sap-sariq mo‘ylovi tepaga buralgan va qismda o‘n ikki yildan buyon xizmat qilayotgan bu odam ilgari pochtalyon bo‘lgan ekan. Kropp, Tyaden, Vestxus va menda uning alohida xusumati bor edi, chunki unga nuqul zimdan qarshilik ko‘rsatishimizni sezardi.

Bir kuni ertalab Ximmelshtosning karavotini o‘n to‘rt marta to‘g‘rilashga majbur bo‘ldim. Bir nimani bahona qilib, ko‘rpani yerga uloqtiradi, qaytadan boshlayman. Bir gal yigirma soat ter to‘kib, – orada nafasni rostlab, albatta – uning tarasha bo‘lib ketgan eski etigini shunaqangi yarqiratib yubordimki, o‘zi ham miq etolmay qoldi. Uning buyrug‘iga binoan tish cho‘tkasi bilan kazarma polini yog‘ tushsa yalaguday qilib qo‘ydim. Pol cho‘tkasi va xokandoz bilan qurollanib, Kropp ikkovimiz Ximmelshtosning topshirig‘ini bajarishga kirishdik – hovlini qordan tozalash kerak edi, sovuqdan shamdek qotayozdik, lekin chekinmadik, shu payt bir leytenant hovliga kirib qolib, bizni kazarmaga jo‘natdi, Ximmelshtosga rosa tanbeh berdi. Evoh, shundan keyin battar sho‘rimizga sho‘rva to‘kildi. To‘rt hafta ketma-ket har yakshanba soqchilikda turdim, bu ham yetmaganday, bir oy davomida rotada navbatchilik qildim. Orqamda safar anjomlari liq to‘la xalta, qo‘limda miltiq – pilchillagan, shilta yalanglikda rosa yugurtirishdi, bir “yot!” deyishadi, bir “chop!” – deyishadi, axiyri holdan toyib, cho‘zilib qoldim. To‘rt soatdan so‘ng Ximmelshtosga yuvib quritilgan, top-toza kiyimlarimni ko‘rsatdim – to‘g‘ri, qo‘llarim qontalash bo‘lib ketganini sezdirmadim, albatta. Kropp, Vestxus, Tyaden va men – to‘rtovlon bemisl izg‘irinda qo‘lqopsiz, miltiqning yaxga aylangan stvolini changallagancha “g‘oz turish” mashqini bajardik, Ximmelshtos esa, bizni buyruqni bajarmaganlikda ayblash maqsadida, salgina tebranib ketishimizni kutib, atrofimizda beto‘xtov aylanib turdi. Kechasi yotishdan oldin kiyimlarimiz taxlab qo‘yiladigan uzun kursidan ichki ishtonim to‘rt

enlik osilib qolgani uchun tunda, soat ikkida, kazarmaning eng yuqori qavatidan sakkiz marta hovliga chopib tushib-chopib chiqishimga to‘g‘ri keldi. Men bilan yonma-yon tilini osiltirgancha navbatchi kichik zobit Ximmelshtos ham yugurardi. Nayza sanchish mashqlarida nuqul Ximmelshtosga ro‘para bo‘lardim, menda zil-zambil temir tayoq, unda esa yengilgina yog‘och miltiq, har gal qo‘llarimni momataloq qilib yuborardi. To‘g‘ri, bir safar jon achchig‘ida temir tayoqni qorniga shunaqa suqdimki, voy-voylagancha dumalab qoldi. Rota komandiriga shikoyat qilgan ekan, o‘zing g‘aflatda qolgansan-da, deb ustidan rosa kulibdi. Komandir Ximmelshtosning fe’lini bilardi, shuning uchun uni kalaka qilgan-da. Men javon ustiga tirmashib chiqish san’atini mukammal egalladim; oradan ko‘p o‘tmay, tiz bukib ta’zim qilishda ham hech kim menga teng kelolmay qoldi. Ximmelshtosning ovozini eshitganda, bizni qaltiroq bosardi, ammo quturgan bu pochta qirchang‘isiga baribir bo‘yin egmadik.

Yakshanba kunlarining birida Kropp ikkalamiz o‘zimiz tozalagan hojatxona axlati solingan chelakni langarcho‘pda ko‘tarib, barak yonidan o‘tayotgan edik, ro‘paramizdan Ximmelshtos chiqib qoldi (yasanvolib, shaharga ketayotgan ekan), oldimizda to‘xtab: “Qalay, yaxshi ish ekanmi?” – deb so‘radi. Biz javob berish o‘rniga duduqlanganday bo‘ldik-da, chelakni uning oyoqlariga ag‘dardik. Ximmelshtos alamidan chinqirab yubordi, nima qilaylik, bizning ham sabr kosamiz to‘lgan edi-da.

– Sizlarni yerto‘laga tiqaman! – baqirdi u.

Kropp ham bo‘sh kelmadi:

– Oldin tekshiruv bo‘ladi, bor gapni aytamiz, – dedi u.

– Kichik zobit bilan shunaqa gaplashadimi, askar? – yana qichqirdi Ximmelshtos tutaqib. – Esingiz joyidami? So‘ragandan keyin javob qaytaring! Xo‘sh, nima qilmoqchisiz?

– Janob kichik zobitning qilmishlarini gapirib beramiz! – dedi Kropp barmoqlarini chakkasida juftlab.

Shunda birdan Ximmelshtosning popugi pasayib qoldi, indamay jo‘navordi. To‘g‘ri, keta turib: “Shu gap yodingizda tursin!” – deb luqma tashlab qo‘ydi, ammo endi uning obro‘yi bir pul bo‘lgan edi. Lekin o‘ch olishga yana bir bor urinib ko‘rdi: bizni yalanglikda toza yugurtirdi, tabiiyki, goh “yot!”, goh “chop!” degan buyrug‘ini ham kanda qilmadi. Biz itoat etdik, buyruq buyruq-da, uni bajarish kerak. Lekin buyruqni shunaqa sekin, behafsala bajardikki, Ximmelshtosning joni halqumiga keldi. Imillab yotamiz, imillab turamiz. Alamidan boshqa buyruqlar beradi. Xullas, baqiraverib, tomog‘i bo‘g‘ilib qoldi.

Shundan keyin bizni tinch qo‘ydi. To‘g‘ri, “itvachchalar” degan so‘z hamon og‘zidan tushmasdi. Lekin bu haqoratda hurmat ohangi ham sezilardi.

Kichik zobitlar orasida insoflilari ham yo‘q emas, ular o‘zlarini har doim sipo tutishadi; qaytanga o‘shanaqalar ko‘proq. Lekin hammalari front orqasidagi bexavotir, iliq-issiq kursilariga yopishib olishgan, ketgilari kelmaydi, buning uchun esa harbiyga yangi chaqirilganlarga qattiqqo‘l bo‘lish lozim.

Mana shuning oqibatida kazarma hayotining azoblarini xo‘b tortdik, alam qilganidan ba’zan dodlavoray derdik. Birov sog‘lig‘ini

yo‘qotdi, Volf esa zotiljamga chalinib, hayotdan ko‘z yumdi. Tahqirlandig-u, lekin taslim bo‘lmadik. Biz toshbag‘ir, hech narsaga ishonmaydigan, qahri qattiq, qasoskor, qo‘rs odamlarga aylandik, bir hisobda yaxshi bo‘lgan ekan: bizda xuddi mana shu xislatlar yetishmas edi. Mabodo, obdan chiniqtirmasdan to‘ppa-to‘g‘ri okoplarga jo‘natishganda ko‘plarimiz aqldan ozib qolardik. Hozir esa har qanday ko‘rgilikka tayyormiz.

Biz bukilmadik, biz moslashdik; bunga yigirma yoshimiz yordam berdi, aks holda holimizga maymunlar yig‘lardi. Eng muhimi, qalbimizda o‘zaro hamjihatlik tuyg‘usi kurtak yozdi, borib-borib, okoplarga tushib qolganimizdan so‘ng, bu tuyg‘u urush hadya etgan birdan bir fazilat – birodarlik rishtalarini mustahkamladi.

* * *

Kemmerixning karavoti yonida o‘tiribman. U tobora holdan ketyapti. Shifoxonada yugur-yugur. Sanitar poyezdi kelgan, evakuatsiyaga yaroqli yaradorlarni saralashyapti. Do‘xtir Kemmerixning karavoti oldida to‘xtamaydi, hatto unga qaramaydi ham.

– Kelasi safar, Frans, – deyman men.

U tirsagiga suyanib, yostiqdan boshini xiyol ko‘taradi.

– Oyog‘imni kesib tashlashdi.

Demak, bilibdi. Indamay bosh irg‘ayman.

– Shunga ham shukr qil.

U churq etmaydi.

Men yana gap boshlayman:

– Ikkala oyog‘ingni kesishlari ham mumkin edi, Frans. Ana Vegeler o‘ng qo‘lini yo‘qotdi. Bundan yomoni yo‘q. Keyin, sen uyingga ketasan-ku, axir.

U menga tikilib qaraydi:

– Nahotki?

– Albatta.

U qaytadan so‘raydi:

– Rostdanmi?

– Rost, Frans. Faqat operatsiyadan keyin sal o‘zingga kelvolishing kerak.

U yaqinroq surilishimga ishora qiladi, ustiga engashaman.

– Ishonmayman, – deydi u.

– Bema’ni gap, Frans. Uch-to‘rt kundan keyin o‘zing ko‘rasan. Dadil bo‘l, kessa kesibdi-da. Bu yerda sendan battarlari ham bor.

U qo‘lini ko‘taradi:

– Qaragin, qo‘limga qaragin.

– Operatsiyaning ta’siri. Ovqatni uraver, tez tuzalasan. Ovqatlari tuzukmi?

U idishini ko‘rsatadi: to‘la turibdi. Battar tashvishga tushaman:

– Frans, bunaqada bo‘lmaydi. Dardning yarmini ovqat aritadi. Har holda bu yerda yomon boqishmasa kerak.

U eshitishni ham xohlamaydi. Picha sukutdan so‘ng:

– Bolaligimda o‘rmonchi bo‘lishni orzu qilardim, – deydi shiftga tikilgancha.

– Ulgurasan hali, – tasalli beraman men. – Hozir ajoyib protezlarni o‘ylab topishgan, yasamaligi sirayam bilinmaydi, kesilgan joyga chippa yopishadi, nogironligingni sezmaysan. Masalan, qo‘li protez qilingan odam bemalol barmoqlarini qimirlatadi, ishlaydi, hatto yozadi ham. Hozir har kuni yangi bir narsani ixtiro qilishyapti.

U biroz muddat jim yotadi, so‘ng yana tilga kiradi:

– Botinkamni ola ket. Myullerga berarsan.

Men bosh irg‘ayman, unga dalda bo‘ladigan so‘z qidiraman. Lablari piyoz pardasiday, og‘zi kattalashib, tishlari ochilib qolgan, xuddi bo‘rdan yasalganga o‘xshaydi. Vujudi shamday erib, peshonasi, yonoqlari turtib chiqqan. Tanasi tobora skelet shaklini olyapti. Ko‘zlarida-ku nurdan asar yo‘q. Nafas to‘xtashiga sanoqli daqiqalar qolgan.

Men o‘limining guvohi bo‘layotgan odam yolg‘iz Kemmerix emas, gap boshqa yoqda: biz birga o‘sganmiz. Inshoni undan ko‘chirardim. Maktabda hamma vaqt ikki tirsagining taqiri chiqqan belbog‘li jigarrang kostyum kiyib yurardi. Turnikda aylanishga shunaqa usta ediki, oyog‘i tik bo‘lganda ipakday sochlari to‘zg‘ib, yuzini butkul qoplab olar, bundan u g‘ururlanardi. Ammo-lekin tamaki tutuniga toqat qilolmasdi. Terisi shu qadar oppoq ediki, nimasidir qiz bolaga ham o‘xshab ketardi.

Etigimga qarayman. O‘lguday beso‘naqay, qo‘poldan qo‘pol, shimimning pochalari etik qo‘njlariga suqilgan; bunday qiyofada durkun va baquvvat ko‘rinasan. Ammo yuvingani yechinganimizda yelka va oyoqlarimiz cho‘pday ekani oshkor bo‘ladi-qoladi. Biz endi askar emas, ona suti og‘zidan ketmagan norasidalarga o‘xshaymiz, zil-zambil safar xaltalarini ko‘tarib yurishimizga birov ishonmaydi. Yalang‘och paytimizda xizmatdaligimizni unutib, o‘zimizni ojiz va odmi kishilarday his etamiz.

Frans Kemmerix yechinganda murg‘ak bolani eslatadi. Mana u ro‘paramda cho‘zilib yotibdi – bu qanaqasi? Yer yuzidagi barcha insonlarni mana shu karavot yoniga chorlab: “Bu yigit Frans Kemmerix, endigina o‘n to‘qqizdan oshdi, sirayam o‘lgisi yo‘q. Uni asrab qolinglar!” – deb hayqirging keladi.

Har turli o‘y-xayollardan boshim g‘uvullaydi. Buning ustiga, xonadagi spirt va yiring hidi ko‘ngilni bexud qiladi.

Qorong‘i tusha boshlaydi. Kemmerixning yuzi shu darajada oqarib ketganki, dokaning o‘zi. U asta lablarini qimirlatadi. Tepasiga engashaman, u shivirlaydi:

– Soatim topilsa, uyga jo‘natinglar.

E’tiroz bildirmayman. Foydasi yo‘q. Unga gap tushuntirib bo‘lmaydi. Yordam berishga ojizligimdan xunobim oshadi. Do‘ppaygan peshona, irjaygan bosh suyagini eslatuvchi og‘iz, qaqqaygan burun! Eng yomoni, men yozib yuborgan xatni olganidan so‘ng u yerda, shahrimizda, sochlarini yulib dod solayotgan ayol. Evoh, bu maktub oldinroq jo‘natilgan bo‘lganida qaniydi!

Chelak va dori shishalarini ko‘targan sanitarlar xonama-xona yurishibdi. Bittasi yonimizga kelib, Kemmerixga sinovchan tikiladi-da, yana nari ketadi. Aftidan, kutyapti – unga bo‘sh karavot kerak-da.

Fransga yaqinroq surilib, xuddi uni qutqarib qoladiganday gap boshlayman:

– Quloq sol, Frans, balki, Klosterbergdagi chor atrofi hashamatli uylar bilan qurshalgan sanatoriyga tushib qolarsan. Derazadan hamma yoqni tomosha qilasan, shunda olisdagi, ufq tomondagi ho‘ o‘sha bir juft daraxtga ko‘zing tushadi. Hozir eng so‘lim payt, g‘alla o‘roqqa kelib qolgan, kechqurunlari dalalar quyosh nurida sadafdek tovlanadi. Biz baliq ovlaydigan ariq bo‘yidagi tolzor-chi! Yana akvarium olib, baliq ko‘paytirasan, hech kimdan ruxsat so‘ramay shaharga borasan, hatto royal chalishing ham mumkin, agar xohlasang.

Ko‘lanka quyuqlashayotgan yostig‘i uzra engashaman. Sekin-sekin bo‘lsa ham, hali nafas olyapti. Yuzi ho‘l, u yig‘layapti. Qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarib qo‘ydim shekilli!

– Qo‘y endi, Frans, – yelkasidan quchib, yuzimni chakkasiga bosaman, – balki, picha uxlavolarsan?

Javob bermaydi. Yuzidan yoshi oqib tushyapti. Artib qo‘yay desam, ro‘molcham kir.

Yana bir soatlar o‘tadi. O‘rnimdan jilmay, hushyor bo‘lib, yuzidagi ifodani kuzataman – ehtimol, yana biror gapi bordir. Hozir og‘zini ochib, baqirib yuborsa ham mayli edi! Ammo u yig‘layapti, yuzini devorga burgancha unsiz yig‘layapti. Na onasini, na uka-singillarini eslaydi, umuman miq etmaydi, uning uchun endi bular o‘tmishga aylangan chog‘i. Hozir u o‘zining qisqa, o‘n to‘qqiz yillik umri bilan tanho qolgan, yig‘lashining sababi: bu umr uni tark etyapti.

Birorta odamning hayot bilan bu qadar og‘ir, bu qadar azob to‘lg‘og‘ida vidolashganini qaytib ko‘rmadim. To‘g‘ri, Tyadenning o‘limi ham yengil bo‘lmagan: ho‘kizday baquvvat bu yigit ovozining boricha onasini chorlagan, vasvasadan ko‘zlari ola-kula bo‘lib, do‘xtirga nayza o‘qtalgan, uni karavotiga yaqin yo‘latmagan, so‘ng... guppa ag‘darilgan.



Birinchi jahon urushi paytidagi harbiy gospital (kasalxona)

Qo‘qqisdan Kemmerix bir ingrab, xirillay boshlaydi.

Sapchib turib, yo‘lakka chopib chiqaman:

– Do‘xtir qani? Qani do‘xtir?

Oq xalatli bir kishining bilagiga mahkam yopishaman:

– Yuring tezroq, bo‘lmasa Frans Kemmerix o‘lib qoladi!

U qo‘lini tortib, yonida turgan sanitardan so‘raydi:

– Nima gap o‘zi?

Sanitar javob beradi:

– Yigirma oltinchi karavot, oyog‘i sonidan kesilgan.

Do‘xtir jerkib tashlaydi:

– Men qayoqdan bilaman, bugun beshtasining oyog‘ini kesdim! – meni nari turtib, sanitarga buyuradi: – Boring, qarang! – keyin o‘zi operatsiya xonasiga yuguradi.

Sanitarga ergashib ketyapman-u, g‘azabdan o‘zimni bosolmayman. U menga o‘girilib, shunday deydi:

– Ertalab soat beshdan buyon operatsiya ketidan operatsiya. Jinni bo‘pqolish hech gapmas. Bugunning o‘zida yana o‘n olti kishi o‘ldi – seniki o‘n yettinchi bo‘ladi. Hali yigirmataga ham chiqsa kerag-ov.

Nafasim ichimga tushib ketadi, ortiq chiday olmayman. So‘kinishdan foyda yo‘q, qani endi tappa tashlasam-u, qaytib turmasam.

Kemmerixning karavoti oldidamiz. U o‘lgan. Yuzi hali jiqqa ho‘l. Ko‘zlari yarim ochiq, xuddi eski dandon tugmalarday, sap-sariq. Sanitar biqinimga turtadi:

– Narsalarini olib ketasanmi?

Men bosh silkiyman.

U davom etadi:

– Jasadni tez olib chiqib ketmasa bo‘lmaydi, bizga joy kerak. Yaradorlar yo‘lakda yotibdi.

Kemmerixning farqlash belgisini yechib, lash-lushlarini yig‘ishtiraman. Sanitar uning askarlik guvohnomasini so‘raydi. Guvohnoma yo‘q. Mahkamada bo‘lsa kerak, deb javob beraman-u, tashqariga qarab yuraman. Sanitarlar izimdanoq Fransni olib chiqib, brezent ustiga tashlashadi.

Shifoxona darvozasi ortidagi qorong‘ilik va shabadadan yengil tortaman. To‘yib-to‘yib nafas olaman, yuzimga mayin va iliq epkin uriladi. Birdan xayolim qizlarga ketadi, yam-yashil o‘tloqlar, oppoq bulutlar haqida o‘ylayman. Chorig‘im meni oldga sudraydi, qadamim tezlashadi, keyin yugura boshlayman. Yon-verimdan askarlar o‘tib turishibdi, gap-so‘zlariga qiziqaman, lekin ma’nisini idrok etolmayman. Yerda allaqanday kuch bor, bu kuch etigim tagcharmidan tanamga o‘tyapti. Tun bezovta, olisdan front gumbur-gumburi quloqqa chalinadi, nuqul barabanlardan tashkil topgan butun boshli orkestr kuy chalayotganga o‘xshaydi. Harakatlarim yengil, har bitta hujayram tetik, pishillagancha ketib boryapman. Tun mavjud ekan – men ham tirikman. Ochlikni sezaman, lekin bu ochlik qorin ochligidan boshqacharoq, kuchliroq...

Myuller barak oldida meni kutayotgan ekan. Unga botinkani beraman. Ichkariga kiramiz, u botinkani kiyib ko‘radi. Loppa-loyiq...

Keyin lash-lushlarini titkilab, menga bir bo‘lak kolbasa uzatadi. Issiq choy bilan uni baham ko‘ramiz.

1. Urushdan oldingi adabiy mashqlari nima sababdan Paulga endi g‘ayritabiiy tuyulmoqda? “Bu yerga kelganimizdan buyon oldingi hayotimizdan butkul uzilib qoldik” jumlasini qanday tushundingiz?

2. Paulning botinka haqidagi mulohazalariga e’tibor bering. Siz bu mulohazalarni qanday izohlaysiz: bag‘ritoshlikmi, loqaydlikmi, “ishning ko‘zini bilish”mi yoki boshqa?

3. Frontdan oldingi harbiy tayyorgarlik Paulga qanday ta’sir qildi? Qanday qilib harbiy ta’limdagi o‘n hafta uni maktabdagi o‘n yildan ko‘ra “oshiribroq tarbiyaladi”?

4. Ximmelshtos sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning Paul va o‘rtoqlariga munosabatini qanday baholaysiz?

5. Kasalxonadagi doktorni Kemmerixga nisbatan loqaydligi uchun ayblay olamizmi?

6. Nima sababdan Paul kasalxonadan chiqa solib “yengil tortdi”, maktabdosh o‘rtog‘ining o‘limini unutdi?

VII

Bizni front ortiga, taqsimlash punktlaridan biriga odatdagidan ko‘proq muddatga olib kelishadi. Bu yerda rota qayta tuziladi. Safimizga yana yuzdan ortiq odam qo‘shilishi kerak.

Hozircha qiladigan ishimizning tayini yo‘q, vaqtimiz bemalol. Ikki kundan so‘ng Ximmelshtos qorasini ko‘rsatadi. Okop azoblarini tortganidan beri popugi ancha pasayib qolgan. U yarashishni taklif etadi. Men e’tiroz bildirmayman – Xaye Vestxus yaralanganda uni jang maydonidan olib chiqishda yordamlashganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Qolaversa, u to‘g‘ri ish qilyapti, shuning uchun birga oshxonaga borish haqidagi taklifini qabul qilamiz. Faqat Tyadengina hamon tutun qaytaradi.

Axiyri, u ham insofga keladi – Ximmelshtos ta’tilga ketayotgan oshpazning o‘rnida ishlashini aytganidan so‘ng yon beradi. Buning dalili sifatida u shu zahotiyoq stolga biz uchun ikki qadoq shakar bilan shaxsan Tyadenga atalgan yarim qadoq sariyog‘ni qo‘yadi. Keyin shundoq qiladiki, uch kun davomida biz oshxonaga kartoshka va oshqovoq archgani boramiz. U yerda Ximmelshtos bizni zobitlarga atalgan tansiq taomlar bilan siylaydi.

Okoplardagi askarlar



Xullas, hozir biz uchun askarga baxt bo‘lib tuyuladigan hamma narsa muhayyo: shirin taom va hordiq. Bunday olib qaralsa, arzimagan gap. Ikki yoki uch yil oldin buni baxt deb atashni o‘zimizga or deb bilardik. Hozir esa xursandmiz. Inson hamma narsaga ko‘nikarkan, hatto okopga ham.

Faromushxotir bo‘lib qolganimiz ham shu ko‘nikish oqibati. Kecha-

gina ajal og‘zida edik, bugun tarallabedod qilib yuribmiz, ertaga yana okoplarga jo‘naymiz. Yo‘q, aslida biz hech narsani unutmaganmiz. Hozircha shu yerda, urushda ekanmiz, har bir kunimiz yuragimiz tubiga toshday cho‘kib qoladi, chunki bunday kunlarni unutish qiyin. Agar o‘ylayversak, xotiralar bizni ezib tashlaydi; har holda men bir narsani payqadim: taqdirga tan berib qo‘yganingda barcha azoblarga chidash mumkin, lekin ular haqida hadeb o‘y sursang, bu o‘ylar seni adoyi tamom qiladi.

Modomiki, oldingi marraga borganda yirtqichga aylanib ketarkanmiz – shunday qilmasak, jon saqlashning iloji yo‘qligini bilamiz – dam olish paytida bir pulga qimmat masxarabozlarga aylanamiz. Bu ixtiyorimizdan tashqari yuz beradi. Biz yashashni, qanday qilib bo‘lmasin, omon qolishni xohlaymiz; tinchlik chog‘ida kishiga zeb bo‘ladigan fazilatlarni bu yerda ortmoqlab yurolmaymiz, chunki ular frontda o‘rinsiz va kulgili ko‘rinadi. Kemmerix o‘ldi, Xaye Vestxus jon beryapti, snaryad to‘g‘ri kelib teggan Gans Kramerning tanasi... Martnesning endi oyog‘i yo‘q, Mayer o‘ldi, Marks o‘ldi, Bayer o‘ldi, Xemmerling o‘ldi, yuz yigirma kishi yaralanib, dala shifoxonalarida yotishibdi... Bunga chidash oson emas, lekin nachora, osmon uzoq, yer qattiq. Biz tirikmiz-ku! Ularni saqlab qolish qo‘limizdan kelganda edi. O, unda yerning kindigigacha ham borgan bo‘lardik, boshimizdan ayrilishdan ham hayiqmasdik, biz bir ishga kirishsak, sher bo‘lib ketamiz, qo‘rquv nimaligini bilmaymiz, o‘lim dahshati nima bo‘pti – bu tana sezgisi, xolos.

Ammo... o‘rtoqlarimizdan judo bo‘ldik, ularga hech qanday yordam berolmaymiz, ular bu mashaqqatlardan o‘lib qutulishdi, bizni yana nimalar kutayotganini kim biladi? Shuning uchun hozirgi g‘animat kunlarimizning betashvishligidan sevinamiz, uxlaymiz, qornimiz yorilib ketay deguncha ovqat yeymiz, ichamiz, chekamiz, ishqilib, vaqtimiz xushnud o‘tsa bas. Umr qisqa.

* * *

Oldingi marradan uzoqlashishimiz bilan urush dahshatlari ongimiz tubiga cho‘kadi; ulardan qutulish uchun maynabozchilik qilamiz... Shunda sal yengil tortamiz. Hamma narsani hazilga yo‘yish orqali mudhish o‘ylardan xalos bo‘lamiz.

Lekin biz hech narsani unutmaymiz! Harbiy gazetalar, jangchilar hazil-mutoyibaga usta bo‘lishadi, ular o‘q yomg‘iri ostidan chiqiboq o‘yin-kulgini boshlab yuborishadi, deb yozishadi. Bu gaplar g‘irt uydirma. Biz qiziqchi bo‘lganimiz uchun qiziqchilik qilmaymiz, faqat ana shu tuyg‘uni yo‘qotmaslikka tirishamiz, aks holda xarob bo‘lamiz. Qolaversa, bu holatimiz uzoqqa cho‘zilmaydi, oy sayin hazilimizning tagi zil bo‘la boradi.

Shunga ishonchim komilki, hozir ongimiz tubida cho‘kib yotgan xotiralar keyin, urushdan so‘ng tepaga qalqib chiqadi, ana o‘shanda bular to‘g‘risida yengil-yelpi gapirib bo‘lmaydi, bundan keyin yashay olamizmi-yo‘qmi, masala shunga borib taqaladi.

Oldingi marrada o‘tgan kunlar, haftalar, yillar yana qaytadi, halok bo‘lgan o‘rtoqlarimiz ham yer ostidan chiqib, safimizga qo‘shilishadi, miyamiz yana tiniqlashadi, aniq-ravshan maqsadimiz bo‘ladi va biz qayta tirilgan do‘stlarimiz bilan yelkama-yelka, front xotiralarini yurakka jo qilib, olg‘a bosamiz. Lekin qayoqqa? Qaysi dushman ustiga?

* * *

Meni idoraga chaqirtirishadi. Rota komandiri qo‘limga ta’til guvohnomasi bilan yo‘l hujjatlarini tutqazib, oq yo‘l tilaydi. Ta’til necha kunligiga qarayman. O‘n yetti kun – ikki hafta, uch kuni yo‘lga. Judayam oz, yo‘lga besh kun berishlarini so‘rayman. Berting guvohnomaga ishora qiladi. Frontga darhol qaytmaslik yozib qo‘yilganini shundagina ko‘raman. Ta’til tugaganidan so‘ng front ortidagi lagerlardan biriga o‘qishga borishim kerak.

O‘rtoqlarimning havasi keladi. Qanday qilib, “osoyishta hayot”ga erishishim mumkinligi to‘g‘risida maslahatlar berishadi.

– Bo‘shanglik qilmasang, o‘sha yoqda qolib ketasan.

Menga qolsa, hozir emas, bir haftadan keyin ketganim ma’qul, nimagaki, bu yerda yana bir hafta turamiz, sharoit yaxshi. Oshxonada, odatdagiday, “yuvasan” deb tiqilinch qilishadi. Ozginadan ichamiz. Ko‘nglim baribir xijil; olti haftaga ketyapman, albatta, shukur qilishim kerak, lekin qaytganimdan so‘ng nima bo‘ladi? Bu yerdagi do‘stlarim safiga tag‘in qo‘shila olmanmi-yo‘qmi? Xaye bilan Kemmerix o‘ldi: endi kimning navbati?

Hammaga birma-bir razm solaman. Yonimda Albert chekib o‘tiribdi, kayfiyati tetik; u bilan doim birgamiz. Ro‘paramda Kat, yelkalari salqi, barmoqlari yirik, ovozi bosiq. Anovi tishlari oldinga turtib chiqqan, kulgisi kuchukning vangillashiga o‘xshagan yigit Myuller. Anovi sichqonko‘z Tyaden. Anovi Leyer, soqol qo‘yvorgan, ko‘rgan odam qirqqa kirgan deydi.

... Mana hozir ham oyoqlarimizni uzatib, yalpayib o‘tiribmiz. Ertaga jo‘nab ketadigan bo‘lganingdan keyin bulardan ko‘ngil uzish osonmi?!

... Ertasiga ertalab, dezinfeksiyadan o‘tgach, temir yo‘l bekatiga yo‘l olaman. Albert bilan Kat meni kuzatib qo‘ymoqchi. Bekatda poyezdni ancha, ehtimol, bir necha soat kutishga to‘g‘ri kelishini aytishadi. Kat bilan Albert qismga qaytishi kerak. Xayrlashamiz.

– Oq yo‘l!

– Yaxshi qolinglar!

Ular ketishadi, nariroq borib, yana qo‘l silkishadi. Sharpalari kichraya boradi. Qadam tashlashlari, gavdalarining har bir harakati menga yod bo‘lib ketgan. Ularni uzoqdanoq taniyman. Mana, ikkovlari ham ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Xaltamga o‘tirib, kuta boshlayman.

Birdan vujudimni betoqatlik hissi chulg‘ab oladi – yuragimning tub-tubida bu yerdan tezroq ketish istagi gupuradi.

* * *

Qancha bekatdan o‘tdim, qancha qozon yonida ovqatga navbatda turdim, qancha vagonning qattiq o‘rindiqlarida tong ottirdim – bularning hisobiga yetish qiyin; mana, nihoyat, tanish manzaralar ko‘zga tashlana boshlaydi, yuragim hapriqib ketadi. Devorlari oqqa bo‘yalgan uylar ustiga telpakday qo‘ndirilgan poxol tomlar, botayotgan quyoshning qiya nurlarida sadafday tovlanayotgan javdar paykallari, mevazor bog‘lar, omborlar, qari arg‘uvonlar vagon derazalari oldidan lip-lip suzib o‘tyapti.

Har bir bekatning nomi – o‘zi bir timsol, g‘ildiraklar uzluksiz taraqlaydi, men deraza oldida turibman. Bu nomlar – bolaligimning chegara ustunlari. Suv bosgan o‘tloqlar, dalalar, dehqon hovlilari; ufq bo‘ylab cho‘zilgan yo‘lda yolg‘iz bir arava xuddi osmonda suzib ketayotganga o‘xshaydi. Shlagbaum oldida turgan dehqonlar, poyezd ortidan ro‘molchasini silkitib qolgan qizcha, temir yo‘l chetida o‘ynayotgan bolakaylar, olislarga cho‘zilib ketgan tep-tekis yo‘llar, bu yo‘llarda to‘plardan nom-nishon yo‘q.

Oqshom. Agar g‘ildiraklarning taraqa-turuqi bo‘lmaganda qichqirib yuborishdan o‘zimni tiyolmasdim. Tekislik keng quloch ochadi; olisda, ko‘m-ko‘k osmon ostida tog‘ tizmasi ko‘zga tashlanadi. Men Dolbenbergning o‘rmon etagida bo‘y cho‘zgan o‘rkachlarini darrov taniyman. Uning orqasida shahar bor.

Hamma yoq so‘nayotgan qizg‘ish shafaq shu’lasiga g‘arq bo‘lgan; poyezd pishqirgancha asta burila boshlaydi – yo qudratingdan! – ana, qator saf tortgan tollar ko‘rindi, ular tuman pardasiga burkangan, bu parda nur, soya va sog‘inchdan to‘qilgan.

Yer tollar bilan birga sekin-sekin surila boradi; poyezd tolzorni aylanib o‘tadi, daraxtlar oralig‘i qisqaradi, shox-shabbalar yaxlit bir devorga aylanadi, birdan yakka-yolg‘iz qad kerib turgan tolga ko‘zim tushadi; keyin orqadagi daraxtlar yana oldingilarining ketidan saf tortadi, bu manzara daraxtlar to dastlabki uylarning panasida qolgunga qadar ko‘rinib turadi.

Temir yo‘l ko‘tarmasi. Deraza oldida turib, tashqaridan ko‘z uzolmayman. Hamrohlarim narsalarini yig‘ishtirishyapti. Men hozir kesib o‘tiladigan ko‘cha nomini qayta-qayta ko‘nglimdan o‘tkazaman: Bremershtrasse ... Bremershtrasse...

Pastda – velosipedchilar, mashinalar, odamlar; kulrang viaduk, kulrang ko‘cha, ammo shular ham meni hayajonga soladi, xuddi onamni ko‘rayotganday bo‘laman.

Poyezd to‘xtaydi, vokzal g‘ala-g‘ovur. Xaltamni yelkamga osib, miltig‘imni qo‘lga olaman, keyin vagon zinasidan asta pastga tushaman.

Atrofga alanglayman. Perronda chopib yurgan odamlar orasida birorta tanish yo‘q. Qandaydir shafqat hamshirasi bir stakan qahva uzatadi. Yuzimni chetga buraman: tirjayishga balo bormi? O‘zini ulug‘ bir ishni ado etayotgan kishiday tutgani-chi. Ko‘rib qo‘yinglar, askarni qahva bilan siylayapman, demoqchi-da. Tag‘in: “Aka...” – deydi. Aka emishman-a!

Vokzalga tutash ko‘chadan daryo ko‘rinib turibdi; oppoq ko‘pikka qorishgan suv Tegirmon ko‘prigi yonidagi shlyuzdan otilib chiqadi. Ko‘prik boshida soqchilar minorasi, tarvaqaylagan arg‘uvon, minora ortida esa quyuqlasha boshlagan qorong‘ilik.

Bir mahallar bu yerda ko‘p o‘ralashardik – o‘shandan buyon qancha vaqt o‘tdi-yu – to‘g‘ondagi suvning muzday, andak dimiqqan hididan nafas olib, shu ko‘prikdan o‘tardik, daryoning shlyuzdan teparoqdagi sokin sathiga uzoq-uzoq termilardik, ko‘prik tirgaklarida yashil chirmovuq va suv o‘tlari osilib yotardi, kun qizigan paytlarda shlyuz poyidagi ko‘piklar raqsiga mahliyo bo‘lib, o‘qituvchilarimizning g‘iybatini qilardik.

Ko‘prikdan o‘tarkanman, o‘ng-u so‘limga qarayman; to‘g‘onda haliyam baqato‘nlar mo‘l, shlyuzdan hamon guvullab suv otilib turibdi; minora binosi ichida, bir uyum choyshablar yonida, xuddi ilgarigiday, yenglari shimarig‘lik dazmolchi xotinlar kuymalanishyapti, ochiq derazalardan tashqariga dazmollarning issig‘i ufuryapti. Tor ko‘chada kuchuklar ivirsib yuribdi, darvoza oldida turgan odamlar menga – sassiq va irkit askarga zimdan nazar tashlashadi.

Mana bu qandolatxonada muzqaymoqni ko‘p yeganmiz... Men bu ko‘chadagi har bir uy, har bir baqqollik do‘koni, har bir dorixona, har bir novvoyxonani besh qo‘limday bilaman. Mana, nihoyat, tutqichi eskirgan jigarrang eshik oldida turibman, qani qo‘limni ko‘tarishga chog‘im kelsa!

Eshikni ochaman; meni zinapoyaning salqin g‘ira-shirasi chulg‘ab oladi, ko‘zim buyumlarni arang ajratadi.

Oyoqlarim ostida zinalar g‘ichirlaydi. Tepada eshik qulfi shirq etadi, kimdir panjaradan egilib qaraydi. Bu oshxonaning eshigi, ichkarida kartoshkali kotlet qovurishyapti, hidi butun uyni tutib ketgan. Bugun shanba, demak, panjaradan opam engashib qaragan bo‘lsa kerak. Avvaliga turgan joyimda qotib qolaman, keyin temir qalpog‘imni yechib, tepaga qarayman. Ha, opam.

– Paul, – qichqiradi u. – Paul!

Men bosh silkiyman, xaltam zinapoya panjarasiga ilinib qoladi, miltig‘im og‘ir.

Opam mehmonxona eshigini ochadi:

– Oyi, oyi, Paul keldi!

Oyoqlarim qo‘zg‘almaydi – “Oyi, oyi, Paul keldi!”

Devorga suyanib, qo‘limdagi qalpoq bilan miltiqni qattiq qisaman.

Ularni qisib turibman-u, qani biror qadam bosolsam! Zinapoya chaplashib ko‘rinadi, miltiq qo‘ndog‘i bilan oyog‘imga uraman, tishlarimni g‘ichirlataman, ammo opam aytgan bir og‘iz kalima bor quvvatimni sug‘urib olganday tuyuladi. Jilmayishga, biror narsa deyishga urinaman, qayoqda! Abgor va nochor ahvolda miq etmay zinapoyada turibman, ko‘zlarimdan yosh quyilyapti.

– Chiqmaysanmi, nima bo‘ldi senga? – deydi opam tepadan turib.

Arang o‘zimni qo‘lga olib, bir amallab dahlizga ko‘tarilaman. Miltiqni burchakka, xaltamni devor yoniga, qalpoqni xalta ustiga qo‘yaman. Endi kamarni yechish qoldi.

– Ro‘molcha bersang-chi! – deyman opamga zarda bilan.

Opam javondan ro‘molcha olib uzatadi, yuz-ko‘zlarimni artaman. Devorda bir mahallar o‘zim yig‘gan turli-tuman kapalaklar solingan oynavand quti osilib turibdi.

Oyimning ovozi yotoqxonadan eshitiladi.

– Nega yotibdilar? – so‘rayman men.

– Toblari yo‘q, – javob beradi opam.

Yotoqxonaga kiraman, oyimga qo‘limni uzatib, iloji boricha xotirjam gapirishga tirishaman:

– Mana, keldim, oyi.

Oyim indamaydi. Xona nim qorong‘i. Keyin ko‘zlarimga sinovchan tikilib, so‘raydi:

– Yaralandingmi?

– Yo‘q, ta’tilga chiqdim.

Oyimning rang-ro‘yi bir ahvolda. Chiroqni yoqmay qo‘ya qolaman.

– Esim qursin, suyunishning o‘rniga yig‘lab yotibman-a, – deydi oyim.

– Nima bo‘ldi, oyi?

– Hechqisi yo‘q, bugun oyoqqa turib ketaman, – shunday deb, oshxonaga kirib-chiqib turgan opamga murojaat qiladi: – Brusnika murabbosini och... Sen yaxshi ko‘rarding, to‘g‘rimi? – so‘raydi oyim mendan.

– Ha, oyi, yemaganimga ancha bo‘ldi.

– Kelishingni ko‘nglimiz sezuvdi, – deydi opam kulib. – Xuddi bilganday, sen yoqtiradigan kartoshkali kotlet pishirayotgandim... bunga brusnika murabbosi ham qo‘shildi.

– Bugun shanba-ku, – javob beraman unga.

– Yaqinroq o‘tir, – deydi oyim.

Keyin menga tikilib qaraydi. Qo‘llari shalviragan, menikidan ham ingichka. Uch-to‘rt og‘iz gaplashamiz, oyim hech narsani so‘ramayotganidan xursandman. Hozir har qanday gap ortiqcha. Umid qilish mumkin bo‘lgan eng ezgu tilak ushaldi-ku – men tirikman, oyimning yonida o‘tiribman, opam oshxonada bir qo‘shiqni xirgoyi qilgancha ovqat pishiryapti.

– Bolaginam... – deydi oyim shivirlab.

Oilada bir-birimizga hech qachon sertakalluf bo‘lmaganmiz, umri mehnat-u mashaqqatda o‘tadigan kambag‘al xonadonlarda bunaqa muomala urf emas. Shundoq ham ravshan haqiqatni hadeb ta’kidlayverishni yoqtirishmaydi. Oyim “bolaginam”, dedimi, shu bir og‘iz so‘zda hamma narsa mujassam. Bilamanki, uyda bir banka murabbodan boshqa shirinlik yo‘q, uni ham menga asrab qo‘yishgan. Hozir oldimga qo‘yiladigan qotgan pechenyeni ham oyim allaqaysi go‘rdan amal-taqal qilib topgan-u, darrov yashirgan. Menga ilingan.

Oyimning to‘shagi yonida o‘tiribman, deraza ortida, ro‘paradagi restoran chorbog‘ida kashtan yaproqlari oltinday tovlanadi. Entikib ketaman, miyamda faqat bir so‘z aylanadi: “Uydaman, uydaman”.

Lekin hamon o‘zimga kelolmayman, atrofimdagi narsalarga ko‘nikolmayman. Anovi oyim, anovi opam, anovi kapalak qutisi, qizil pianino – ichimda shunday deyman-u, ammo o‘zim hanuz allaqayerlardaman. Oramizda qandaydir to‘siq bor, uni hatlab o‘tish kerak.

Shu maqsadda yotoqxonadan chiqib, dahlizda qolgan xaltamni oyimning yoniga olib kelaman. Ichidagi narsalarni bitta-bittalab karavot boshidagi pastak stolga qo‘yaman: Kat topib kelgan bir dumaloq pishloq, ikki buxanka non, bir qadoqqa yaqin sariyog‘, ikki banka o‘pka-jigar kolbasasi, bir qadoq moy, ozgina guruch.

– Mana, sizlarga opkeldim, asqatib qolar.

Oyim bosh silkiydi.

– Bu yerda oziq-ovqat taqchil bo‘lsa kerak? – so‘rayman men.

– Ha, taqchilroq, u yoqda-chi?

Jilmayib, olib kelgan sovg‘alarimga ishora qilaman:

– Albatta, har kuni bunchalikmas, lekin yashasa bo‘ladi.

Erna haligi narsalarni opchiqib ketadi. Oyim birdan bilagimga yopishib so‘rab qoladi:

– Frontda judayam qiynaldingmi, Paul?

Nima deb javob qaytaray, oyi? Siz hech qachon tushunmaysiz, tasavvur etolmaysiz buni. Shunday bo‘lgani yaxshi. Qiynaldingmi, deb so‘rayapsiz. Eh, oyi, oyi!

Keyin bosh chayqab, javob beraman:

– Yo‘q, nega qiynalaman? U yoqda ko‘pchilikmiz.

– Yaqinda Genrix Bredmayer keluvdi, shunaqa vahima qildiki... snaryad deydimi-yey, gaz deydimi-yey...

Ha, onaginam-ey. Gaz haqida gapiryapti, lekin gazning nimaligini bilmaydi, faqat mendan xavotirda. Bir gal dushmanning uchta okopida gazdan tarrakday qotib qolgan askarlarni ko‘rganimiz haqida og‘iz ocholmayman-ku. Okop tepasidagi do‘ngliklar atrofi, o‘ralar ichi yuzi ko‘karib ketgan murdalarga to‘la edi.

– Voy, oyijon-ey, odamlar og‘ziga kelganini gapiraveradi-da, – javob beraman men. – O‘sha Genrixingiz nima deyayotganini o‘zi bilmaydi. Ko‘rib turibsiz-ku, soppa-sog‘man, hatto semirib ketganman.

Oyimdagi bezovtalik qaytanga meni sergaklantiradi. O‘rnimdan turib, xonalarni aylanaman, gaplashaman, savollarga bemalol javob qaytaraman. Bilamanki, hozir devorga qapishish xavfi yo‘q, meni osuda muhit qurshab turibdi.

Oyim to‘shakdan turmoqchi bo‘ladi, oshxonaga, opamning oldiga chiqaman.

– Kasallari nima? – so‘rayman undan.

Opam yelkasini qisadi.

– Yotib qolganlariga ikki-uch oy bo‘ldi, senga bildirmaslikni tayinlagan edilar. Ko‘p do‘xtirlar ko‘rdi. Bittasi rakka o‘xshaydi, dedi.

* * *

Ta’tilni boshqacha o‘tkazaman deb o‘ylagandim. O‘tgan yilgisi bunaqa bo‘lmagandi. Balki o‘zim o‘zgarib qolgandirman. Har ikkala ko‘z oralig‘ida go‘yo jarlik paydo bo‘lganday. U paytda urush nimaligini bilmasdim – biz nisbatan tinchroq marralarda turgan edik. Endi o‘ylasam, o‘zim sezmagan holda, anchagina tob tashlabman. Nuqul betoqat bo‘laman – meni begona olam qurshab turganga o‘xshaydi. Birovlar

so‘rab-surishtiraveradi, boshqalar ma’noli sukut saqlaydi, shu bilan faxrlanayotganlari chehralaridan sezilib turadi, buni ba’zan ochiq aytishadi ham: bilamiz, bu mavzuda gapirish mumkin emas, deyishadi. O‘zlarini sermulozamat qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lishadi-da.

Shuning uchun yolg‘iz qolishga intilaman, hech kim boshimni qotirmasa, deyman. Chunki har qanday suhbat bir nuqtaga borib taqaladi: frontda ishlar yaxshi, frontda ishlar yomon – birovga undoq, birovga bundoq, keyin bahslashayotganlar tezgina boshqa mavzuga o‘tib ketishadi. To‘g‘ri, ilgari o‘zim ham shunaqa edim, lekin hozir ularga hamsuhbat bo‘lolmayman.

Nazarimda, ular judayam ko‘p gapirishadi. Har kimning o‘z tashvishi, maqsad va orzusi bor, lekin men bu narsalar to‘g‘risida ularga o‘xshab fikr yuritolmayman. Restoran bog‘ida ba’zan birortasi bilan gaplashib qolsam, mana shunday tinch va xotirjam o‘tirish katta baxt ekanini, insonga boshqa hech narsa kerakmasligini tushuntirishga harakat qilaman. Ular jim quloq solishadi, fikrimga qo‘shilib, to‘g‘ri-to‘g‘ri, deyishadi – ammo faqat og‘izda, hamma balo shundaki, faqat og‘izda; to‘g‘ri, tushunishadi, ammo qismangina tushunishadi, ularning miyasi boshqa tashvish bilan band, go‘yo ikki o‘t orasida qolgan odamga o‘xshashadi, lekin buni yaxshi idrok etisholmaydi. Darvoqe, o‘zim ham nimani xohlayotganimni aniq aytolmayman.

Ularni xonadonlarida yoki ishxonalarida ko‘rsam, havasim keladi, o‘shalarga qo‘shilib yashasam, urushni butkul unutsam, deyman; ayni paytda bu olam meni o‘zidan nari itaradi, ko‘zimga judayam torday ko‘rinadi. Nima qilish kerak? Bunday olamni parchalab tashlash kerak. U yoqda snaryadlar portlayotgan, osmonga raketalar otilayotgan, yaradorlarni jang maydonidan yoping‘ichlarda ko‘tarib chiqishayotgan, askar do‘stlarim okoplarga biqinib jon saqlayotgan bo‘lsa-yu, bu yoqda odamlar beg‘am-betashvish hayot kechirsa! Bu yerdagilar boshqacha odamlar, men ularni tushunmayman, ularga hasad va nafrat bilan qarayman. Beixtiyor Kat va Albert, Myuller va Tyaden yodimga tushadi. Hozir nima qilishayotganikin ular? Balki, oshxonada o‘tirishgandir, balki, cho‘milishayotgandir. Tez kunda ularni oldingi marraga jo‘natishadi.

* * *

Xonamda, stol ortida, mo‘jazgina jigarrang charm divan bor. O‘shanga o‘tiraman.

Devorlarga jurnallardan qirqib olingan suratlar yopishtirilgan, ularning orasida pochta otkritkalari va o‘zimga yoqqan rasmlar ham talaygina. Burchakda temir pechka. Ro‘parada kitoblarim terilgan taxta tokcha.

Askar bo‘lgunimga qadar shu xonada yashaganman. Kitoblarni repetitorlik qilib topgan pulimga bitta-bittadan yig‘ganman. Ko‘plari kitobfurushlardan xarid qilingan, masalan, mumtoz adiblarning barcha asarlari – jildi bir marka-yu yigirma pfeningdan, ko‘k rangli qalin muqovada. Hamma jildlarni olganman – kitobga o‘ch edim-da, lekin tanlangan asarlarga ko‘pam ishonmasdim, balki noshirlar eng yaxshilarini tanlashmagandir? Shuning uchun faqat to‘la asarlar to‘plamini xarid qilardim.

Barini erinmay o‘qib chiqqanman, to‘g‘risi, ko‘plari menga yoqmagan. E’tiborimni aksariyat zamonaviy asarlar jalb etardi; albatta, ularning narxi ham qimmatroq. Kitoblarning ayrimlari nopok yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan: o‘qishga olib, qaytarib bermaganman, ko‘zim qiymagan-da.

Tokchalarning bir qismi maktab darsliklari bilan to‘la. Ularni avaylab o‘tirmasdim. Shuning uchun barining uvadasi chiqib ketgan, ayrim sahifalari yirtib olingan... Tokchaning eng pastki ko‘zida daftarlar, qog‘ozlar, xatlar, rasmlar va mening adabiy mashqlarim taxlog‘liq.

Xayolan o‘sha olis damlarga qaytishga urinaman. Axir, mazkur damlar shu yerda, xonamda – uni devorlar saqlab qolgan. Qo‘llarimni divan suyanchig‘iga tashlab, oyoqlarimni tagimga buklab, o‘rnashib o‘tirib olaman. Deraza ochiq, ko‘chaning tanish manzarasi, olisroqda cherkov gumbazi ko‘rinib turibdi. Stolda bir dasta gul, qalamlar, ruchkalar, siyohdon – hech narsa o‘zgarmagan.

Agar omadim kelib, urushdan eson-omon qaytsam, hammasi shundayligicha qoladi. Xuddi hozirgiday o‘tiraman, xonamga nazar tashlayman va kutaman.

Yuragim hapriqib ketyapti, lekin hayajonimni bosishga tirishaman. Shu tobda qachonlardir kitoblarim yoniga borganda vujudimni chulg‘aydigan sirli talpinish, so‘z bilan ifoda qilib bo‘lmaydigan jo‘shqin ehtirosni yana bir tuygim kelyapti. Mayli, mana shu rang-barang muqovalarni ko‘rganda ichimda qo‘zg‘aladigan to‘fon meni yana o‘z domiga tortsin, mayli, yuragimga cho‘kib qolgan qo‘rg‘oshinday og‘ir toshni eritib, menda yana kelajakka umid uyg‘otsin, tafakkur olamiga kirganda tug‘iladigan quvonchni yana armug‘on etsin, mayli, hayotga tashna, toptalgan bolaligimni bir lahzaga bo‘lsa ham qaytarsin.

Men shuni kutib o‘tiribman.

Birdan miyamga, Kemmerixning oyisidan xabar olish kerak, degan fikr keladi; Mittelshtedtni ko‘rib qo‘yish ham savob, hozir u kazarmada. Derazadan qarayman: oftob nuriga g‘arq bo‘lgan ko‘cha manzarasi ortidan qator tizilgan tepaliklarning sharpasi g‘ira-shira ko‘zga tashlanadi, keyin uning ustini asta-sekin boshqa manzara to‘sa boshlaydi: charog‘on kuz kuni, biz – Kat, Albert va men – gulxan yonida qovurilgan kartoshka yeb o‘tiribmiz.

Lekin hozir buni eslashni istamayman, xayolda ko‘ringan sharpani ko‘z oldimdan nari quvaman. O‘tirgan xonam tilga kirishi va meni o‘z bag‘riga singdirib, yuksaklarga olib chiqishi kerak; men shu xona bilan yagona, yaxlit bir vujud ekanimni his etishim zarur, toki frontdan qaytganimdan so‘ng shunga amin bo‘layki, uyga qaytish quvonchi urush dog‘larini yuvib yuboradi, jang vasvasasi temir zangiday tanamizni kemirmaydi, u endi bizning ustimizdan hech qachon hukmronlik qilolmaydi!

Kitob muqovalari bir-biriga yopishib ketgan. Lekin qaysi kitob qayerda turganini yoddan bilaman. O, qadrdonlarim, meni safingizga qo‘shing, men bilan so‘zlashing. O, avvalgi farahbaxsh, osuda hayot, meni bag‘ringga qaytarib olgin...

Kutaman, kutaman.

Ko‘z o‘ngimda manzaralar birin-ketin o‘taveradi, lekin tutqich bermaydi, chunki ular ro‘yo, bor-yo‘g‘i xayolot.

Hech narsa yo‘q, hech narsa yo‘q.

Bezovtalana boshlayman.

Birdan meni begonalik hissi chulg‘ab oladi. O‘tmishga yo‘lni yo‘qotdim, quvg‘indiga aylanib qoldim; qancha urinmay, qancha yolvormay, hamma narsa sukutda; xonamda ma’yus o‘tiribman, o‘tmish xuddi mahbusdan yuz o‘girganday, mendan o‘zini olib qochadi. Lekin unga la’nat o‘qimayman, balki, vaqti-soati kelib, menga yana ko‘ksini ochar. Men askarman, askar hamma narsaga tayyor turishi kerak.

Kechinmalarimdan majruh bo‘lib, tokcha yoniga boraman. Bir kitobni qo‘limga olib, o‘qishga tutinaman. Keyin uni joyiga qo‘yaman-da, boshqasini olaman. Varaqlayman, varaqlayman, birini tashlab, biriga yopishaman. Oldimda kitob uyilib ketgan. Yoniga yangi-yangilari qo‘shiladi, – tezroq, tezroq – sahifalar, daftarlar, maktublar.

Ularning qarshisida, xuddi sud ro‘parasida turganday, miq etmay turibman.

Ishlar pachava.

So‘zlar, so‘zlar, so‘zlar, lekin ular miyamga kirmaydi.

Kitoblarni asta joy-joyiga teraman.

Bari tugadi.

Ana shunday kayfiyatda xonadan chiqaman.

* * *

Buni tasvirlab bo‘lmaydi. Titrab-qaqshab, o‘kirib yig‘layotgan ayolning holatini ifodalashga so‘z ojizlik qiladi. Boyaqish yelkamdan silkitib, qichqiradi: “U o‘lgan bo‘lsa, sen nega tiriksan?” Keyin yig‘i aralash javrab ketadi: “Nega sizlarni u yoqqa jo‘natishadi, axir, hali go‘daksizlar-ku!” Axiyri, stulga o‘tirib qoladi: “Uni ko‘rdingmi? Ko‘rishga ulgurdingmi? Qanday jon berdi?”

Yuragidan o‘q yeb, bir zumda o‘ldi, deyman. Ishonmaydi.

– Yolg‘on gapiryapsan. Hammasini bilaman. Qiynalib jon bergan. Ovozini eshitdim. Rostini ayt, men bilishim kerak.

– Unaqamas, – deyman men, – yonida edim. Joni darrov uzildi.

Endi avrashga tushadi:

– Ayt. To‘g‘risini gapir. Bilib turibman, meni ayayapsan, lekin battar qiynayotganingni sezmayapsanmi? Undan ko‘ra, aldama. Bexabarlikdan yomon narsa yo‘q, haqiqatni oshkor qil, har qancha og‘ir bo‘lsa ham, ayt. Bu men tasavvur qilayotganimdan ko‘ra afzalroq-ku.

Men hech qachon haqiqatni aytmayman. Aytolmayman. Ayolga rahmim keladi, g‘alatiroq ekan o‘zi: haqiqatni bildi nima-yu, bilmadi nima, Kemmerix qayta tirilmaydi-ku. O‘limni ko‘raverib, diydam qotib ketgan. Bitta o‘limga ham shunchalikmi? Sal dag‘alroq javob qaytaraman:

– Til tortmay o‘ldi. Og‘riqni sezganiyam yo‘q. Uyquga ketgan kishiday ko‘zlarini yumdi-qo‘ydi.

Ayol biroz sukut saqlab, yana so‘roqqa tutadi:

– Qasam ichasanmi?

– Albatta.

– Aziz avliyolarni o‘rtaga qo‘yib, a?..

– Ha, tezgina jon berdi.

– Orqamdan takrorla: “Agar gapim yolg‘on bo‘lsa, uyimga tirik qaytmay”.

Takrorlayman. Bundan battar qasamlarni ham ichishim mumkin. Endi ishondi shekilli. O‘tirib, uzoq yig‘laydi. Keyin qanday bo‘lganini gapirib berishimni iltimos qiladi; men bir balolarni to‘qiyman, cho‘pchagimga o‘zim ham ishonib ketishimga bir baxya qoladi.

Ketayotganimda peshonamdan o‘pib, Kemmerixning suratini sovg‘a qiladi. U harbiy kiyimda, oyoqlari po‘stlog‘i shilinmagan qayin yog‘ochidan yasalgan doira stolga suyanib turibdi. Orqa tomonda – o‘rmon manzarasi...

* * *

Jo‘nash arafasidagi so‘nggi oqshom. Deyarli gaplashmaymiz. Men barvaqt yotaman; yostiqlarni ustma-ust qo‘yib, yuzimni bosaman. Yana qachonlardir par yostiqqa bosh qo‘yish nasib etarmikin menga?

Allamahalda xonamga oyim kirib keladi. Meni uyquga ketgan deb o‘ylaydi, men ham o‘zimni uxlayotganga solaman. Hozir suhbat qurishning mavridi emas.

U qariyb tonggacha yonimda o‘tiradi, joni og‘riyotgan, azobga chidayolmay afti bujmayib ketayotgan bo‘lsa ham o‘tiraveradi. Axiyri, sabr-bardoshim tugab, uyg‘ongan kishi bo‘laman.

– Kirib uxlang, oyi, bu yerda shamollab qolasiz.

– Uxlashga ulguraman, – javob beradi oyim pinagini buzmay.

Yostiqqa yonboshlayman.

– Hali frontga ketayotganim yo‘q, oyi. To‘rt hafta lagerda bo‘laman. Ehtimol, biror yakshanba kelib ketarman.

Indamaydi. Keyin shivirlab so‘raydi:

– Qo‘rqyapsanmi?

– Nega qo‘rqaman, oyi?

Birinchi jahon urushi paytida Germaniya. Oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mollari uchun navbatlar odatiy hol bo‘lgan.



– Shu gap qulog‘ingda tursin: Fransiyada ayollardan ehtiyot bo‘l. U yerning juvonlari sal yengilroq.

Eh, oyi, oyi! Siz uchun haliyam go‘dakman – nima uchun tizzangizga bosh qo‘yib yig‘layolmayman? Nima uchun har doim sipo va jiddiy bo‘lishim kerak? Axir, mening ham yig‘lagim, yupatuvchi so‘zlarni eshitgim keladi-ku. Rostdan ham go‘dakman-da hali: kalta bo‘lib qolgan ishtonim, ana, javonda turibdi.

Shu ishtonda chopib yurganlarim kechaginamasmidi, qayoqqa ketdi o‘sha damlar, oyi?

Iloji boricha xotirjam javob qaytarishga urinaman:

– Qismimiz turgan joyda ayollar yo‘q.

– Frontda ham o‘zingni ehtiyot qil, u yoq-bu yog‘ingga qarab yur, Paul.

Eh, oyi, oyi! Nima uchun bag‘ringizga qaytadan singib, siz bilan birga jon berolmayman, oyijon? Qanday baxtiqaro odamlarmiz!

– Ehtiyot bo‘laman, xavotirlanmang.

Eh, oyi, oyi! Keling, o‘rnimizdan turaylik-da, o‘tmishimizga qaytaylik, to boshimizdan kulfat arimaguncha ketaveraylik, ketaveraylik...

– Balki, xavfsizroq joyga o‘tkazishlarini so‘rab ko‘rarsan?

– Meni oshxonada qoldirishlari mumkin.

– Yo‘q dema. Odamlar gapirsa gapirar.

– Gapiravermaydimi, menga nima, oyi.

Oyim xo‘rsinadi. Qorong‘ilikda yuzi oppoq dog‘ga o‘xshab ko‘rinadi.

– Endi kirib uxlang, oyi.

Javob bermaydi. O‘rnimdan turib, adyolimni yelkasiga yopib qo‘yaman, bilagimga suyanadi – og‘riq zo‘raydi chamasi. Yotoqxonaga olib kirib, anchagacha yonida o‘tiraman.

– Qaytgunimcha tuzalib keting, oyi.

– Xudo shifo bersa.

– Menga hech narsa jo‘natmanglar. Ovqatimiz yetarli. O‘zinglar qiynalmasanglar bas.

Ana, oyim to‘shakda yotibdi, meni yer-u ko‘kka ishonmaydi. Chiqib ketayotganimda yana luqma tashlaydi:

– Senga bir juft ishton olib qo‘yganman. Toza yungdan. Issiqqina yurasan. Xaltaga solish esingdan chiqmasin.

Eh, oyi, uni osonlikcha topmaganingizni men bilaman-ku. Nechta joyda sarg‘aygansiz, navbatda turgansiz! Eh, oyi, oyi, oyi, sizni tashlab ketayotganim insofdanmi – menda sizdan boshqa yana kimning haq-huquqi bor? Men hali shu yerdaman, siz to‘shakda yotibsiz, bir-birimizga aytadigan gaplarimiz ko‘p, lekin ularni hech qachon oxirigacha izhor etolmaymiz.

– Yaxshi yotib turing, oyi.

– Yaxshi tushlar ko‘rgin, bolaginam.

Xona qorong‘i. Oyimning bir tekis nafas olishi va soatning chiqillashi eshitilib turibdi. Ko‘cha shamol. Kashtanlar chayqaladi.

Dahlizda xaltamga qoqilib ketaman – u taxt qilib qo‘yilgan, ertaga barvaqt jo‘nab ketishim kerak.

Yostiqni tishlab, barmoqlarim bilan karavot panjarasini qisaman. Bu yoqqa kelmasligim kerak edi. Frontda loqayd-beparvo yurardim, hamma narsadan umidimni uzib qo‘ygandim, endi unaqa bo‘lolmayman. Men askar edim, endi esa vujudim butkul og‘riqdan iborat, bu og‘riq – o‘zimga va oyimga achinishdan, ertangi kunimizning zimziyo va tamomila mavhumligini anglashdan tug‘ilgan og‘riq.

Ta’tilga kelmasligim kerak edi.

1. “Biz qiziqchi bo‘lganimiz uchun qiziqchilik qilmaymiz”. Paul frontdagi askarlar ruhiyatiga xos qarama-qarshiliklarni qanday tasvirlaydi?

2. Frontdan uyiga qaytayotgan Paul tanish joylarni ko‘rganda ko‘nglidan qanday hislar o‘tadi? Bu kechinmalarning sababi nima?

3. “Oramizda qandaydir to‘siq bor, uni hatlab o‘tish kerak”. Paul va onasi, opasi o‘rtasida qanday to‘siq bor? Uni hatlab o‘tish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz? Umuman, bu to‘siqni hatlab o‘tib bo‘ladimi?

4. Paulning urushdan oldingi hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz? Nega endi u o‘z uyida, o‘z xonasida begonaligini sezdi? Kitoblari oldida “sud ro‘parasida turganday” turishini qanday izohlaysiz?

5. Paul Kemmerixning onasini nima uchun aldadi? O‘g‘lining qiynalmay jon berganini bilish ayolga nima uchun muhim edi?

6. Paulning onasi bilan munosabatlarini tasvirlang. U nega onasining tizzasiga bosh qo‘yib yig‘lay olmaydi? U nega ta’tilda uyiga kelganidan pushaymon bo‘ldi?

XII

Kuz. Bizga o‘xshagan “qariya”lar frontda oz qolgan. Sinfdoshlardan – biz yetti kishi edik, oxirgisiman.

Askarlarning og‘zidan sulh va tinchlik degan so‘zlar tushmaydi. Hamma kutyapti. Agar bu gaplar yana yolg‘on chiqsa – chatoq bo‘ladi, chunki odamlar faqat shu umid bilan yashashyapti, endi bu umidni mahv etish qiyin. Mabodo, tinchlik bo‘lmasa, inqilob bo‘lishi muqarrar.

Ikki hafta dam olaman – ozgina gaz yutib qo‘yibman. Kunbo‘yi bog‘da oftobda toblanib o‘tiraman. Hademay sulh tuziladi, endi men ham bunga ishonaman. Keyin uy-uyga, tepa to‘yga!

Shu o‘rinda xayolim parvozi taqqa to‘xtaydi, sira o‘rnimdan qo‘zg‘alolmayman. Qiziq, nima meni u yoqqa sudrayapti, u yerda nimalar kutyapti meni? Hayotga tashnalik, sog‘inch, erkinlik va osoyishtalik. Lekin bular hissiyotlar, xolos. Maqsad emas.

Agar biz 1916-yilda uyga qaytganimizda, kechmishning bosilmagan og‘riqlari va hali so‘nmagan taassurotlarimiz alangasi dunyoni ostin-ustun qilib yuborardi. Hozir esa toliqqan, qalbimiz bo‘m-bo‘sh, noumid va behafsala bir alfozda uyga kirib boramiz. Bu hayotga endi moslasholmaymiz.

Qolaversa, bizni tushunishmaydi ham – axir, oldinda keksa avlod bor, garchi bu avlod urushning achchiq-chuchugini biz bilan baham ko‘rgan bo‘lsa-da, urushga qadar ularning oilasi va kasbi-kori bor edi, hozir yana jamiyatdan o‘z o‘rinlarini topib, qora kunlarni butkul unutvorishadi. Innaykeyin, ortimizdan yangi avlod o‘sib kelyapti, xuddi o‘zimizning bolaligimizga o‘xshashadi, lekin ular uchun ham begonamiz, bizni yo‘llaridan supurib tashlashadi. Biz o‘zimizga ham kerak emasmiz, amal-taqal qilib yashaymiz, vaqti-soati kelib, qariymiz – birov moslashadi, birov taqdirga

tan beradi, ko‘pchilik o‘z o‘rnini topolmaydi. Yillar o‘tadi, biz ham hayot sahnasidan tushib ketamiz.

Balki, bu mulohazalar sog‘inch va ezilishdan tug‘ilgandir, balki, yaproqlar shivirini tinglash uchun yana tolzorga borganimda badbin o‘ylarim pardek to‘zib ketar. Bir mahallar qonimizni gupurtirgan hayot jozibasi, kelajakda ro‘parangdan chiqadigan minglab yangi-yangi chehralar, tush va kitoblardan taraladigan sehrli ohanglar... – bularning bari benom-u nishon yo‘q bo‘lib ketishi mumkin emas. Dunyoning bu mo‘jizalari o‘qlar ostida tilka-pora bo‘lishiga... aql bovar qilmaydi.

Bu yerda daraxtlar oltinday tovlanadi, yaproqlar orasida osilib turgan ryabinalar shokilasi ko‘zni o‘ynatadi, dala yo‘llari ufqqa talpinadi, askarlar oshxonasi g‘ala-g‘ovur, hamma tinchlik haqida gapiradi.

O‘rnimdan turaman. Xotirjamman. Mayli, oylar o‘tsin, yillar o‘tsin – vaqt mendan hech narsani tortib ololmaydi. Shu qadar tanhomanki, dunyodan umidimni uzib qo‘yganman. Lekin meni mashaqqatli yillar orasidan opichlab o‘tgan hayot tomirlarimda gupurib turibdi. Boshimga tushgan savdolarni yengib o‘toldimmi-yo‘qmi, bilmayman. Hozircha tirikman, o‘lmagan qul bir kunini ko‘radi.

* * *

1918-yilning oktyabrida, butun front bo‘ylab sokinlik hukm surayotgan paytda u halok bo‘ldi, harbiy axborotlar bittagina jumladan iborat edi: “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”.

U yuztuban yiqildi, ag‘darib ko‘rishganda qiynalmay jon berganday tuyuldi, yuzi uxlab yotgan kishinikidan farq qilmasdi, go‘yo umri mana shunday xotima topganidan mamnunga o‘xshardi.

Nizom Komil tarjimasi



MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, muallif nega urush haqidagi quruq rasmiy xabarlarda ishlatiladigan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” jumlasini romanga sarlavha qilib olgan? Romanning o‘zbek tilidagi ilk nashri uchun tanlangan “Esizgina yoshligim” sarlavhasi asar mohiyatini qay darajada aks ettiradi?

2. O‘qigan boblaringiz asosida urushdan oldingi va urush ko‘rgan Paulni solishtiring. U halok bo‘lmaganida urushdan keyingi hayoti qanday kechishi mumkin edi?

3. Roman muqaddimasidagi “Bu ... garchi zambarak o‘qidan omon qolsa-da, shu urushning qurboniga aylanganlar to‘g‘risidagi ko‘ngil izhoridir” jumlasini izohlang. Asar matniga tayangan holda “boy berilgan avlod”ga xos xususiyatlarni aniqlang. Sizningcha, “boy berilgan avlod” tushunchasi faqat Birinchi jahon urushiga xosmi?

4. Adabiyotshunoslar asarda ikki muhim ramzni ajratib ko‘rsatadilar:
– askar vafotidan keyin boshqasiga qoldiradigan oyoq kiyimi;
– Paul urushdan oldin yig‘gan kapalaklar.
Sizningcha, bu ramzlar nimani anglatadi? Ularning asar g‘oyasini tushunishdagi ahamiyati nimada?

5. Germaniyada Gitler boshchiligidagi natsistlar partiyasi hokimiyat tepasiga kelgach, roman va u asosida ishlangan film taqiqlangan. Buning sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

6. Remarkning urushga munosabati qadimgi dunyo va o‘rta asrlar adabiyoti, xususan, eposlardagi urushga munosabatdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Sizningcha, bu o‘zgarishlarning sabablari nimada?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Urushning ayanchli oqibatlari tasvirlangan qanday o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘qigansiz? Shunday asarlardan birini tanlab, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani bilan solishtiring. Mualliflarning mavzuga yondashuvida qanday farqlarni kuzatdingiz? Bu farqlarning sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

LOYIHA

Kichik guruhlarda ishlang. Paul yoki uning onasi nomidan siyosatchilarga maktub yozing. Maktubingiz orqali ularni har qanday kelishmovchiliklarni urushsiz, diplomatiya va muzokaralar yordamida hal qilish lozimligiga ishontiring.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanini to‘liq o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

MUNDARIJA

Kirish. Badiiy tahlil metodlari 3

XALQ OG‘ZAKI IJODI VA QADIMGI DUNYO ADABIYOTI

Xalq og‘zaki ijodi: “Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumi 12
“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidan 14
“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Xorazm variantidan 23
Qadimgi dunyo adabiyoti (eng qadimgi
davrlardan milodning V asrigacha) 26
Homer (mil. avv. VIII asr). “Iliada” dostoni 32
Iliada (dostondan parchalar) 34
Antik adabiyot va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi:
“Odisseya” va “Alpomish” dostonlari qiyosiy tahlili 56
“Odisseya”dan 58
“Alpomish” dostonidan 62
Takrorlash 66

O‘RTA ASRLAR ADABIYOTI: V–XVI ASRLAR

O‘zbek adabiyoti tarixi: VII asrdan
XIV asrning birinchi yarmigacha 72
Yusuf Xos Hojib (XI asr). “Qutadg‘u bilig” 78
Qutadg‘u bilig (asardan parchalar) 80
O‘zbek mumtoz adabiyoti: XIV asrdan
XIX asrning birinchi yarmigacha 86
Alisher Navoiy. “Xamsa”: “Saddi Iskandariy” dostoni 90
Saddi Iskandariy (dostondan parchalar) 96
O‘rta asrlar va Uyg‘onish davri jahon adabiyoti (V–XVI asrlar) 116
Migel de Servantes Saavedra. “Don Kixot sarguzashtlari” romani 122
Don Kixot sarguzashtlari (romandan parchalar) 124
Takrorlash 142

XVII–XIX ASRLAR ADABIYOTI

Boborahim Mashrab. G‘azallar 148
Muhammad Rizo Ogahiy. Lirika 156
O‘zbek mumtoz adabiyotida ayollar 164

Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” 168
Risolayi falsafayi siyohon 170
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr
boshlari o‘zbek adabiyoti (1850–1910)..... 178
Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy.
Lirika. Hajviyot. “Sayohatnoma”..... 184
XVII–XIX asrlar jahon adabiyoti..... 192
Aleksandr Pushkin. “Yevgeniy Onegin” she’riy romani 198
Yevgeniy Onegin (she’riy romandan parchalar) 201
Takrorlash 222

XX ASR ADABIYOTI (1910–1930-YILLAR)

XX asr o‘zbek adabiyoti (1910–1930-yillar) 226
Abdurauf Fitrat.“Abulfayzxon” dramasi..... 230
Abulfayzxon (besh pardali fojia)..... 235
XX asrning birinchi yarmi
jahon adabiyoti (1900–1950-yillar)..... 278
Erix Mariya Remark.
“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani..... 282
G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q (romandan boblar)..... 286



O‘quv nashri

ADABIYOT

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
10-sinfi uchun darslik

Muharrir Xurshidbek Ibrohimov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Rassom Ilhom Xolxo‘jayev
Dizayner Kamola Ahmedova
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Musahhih Orifjon Madvaliyev
Sahifalovchi Xurshidbek Abdulboqiy o‘g‘li

Bosishga __.__.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
“Helvetica” garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i ____. Nashriyot-hisob tabog‘i ____.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma ___.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslik-ning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mir-langan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.